

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**MATLAB TILAVOVA**

**TEXNOLOGIYA VA UNI O`QITISH  
METODIKASI**

**Oliy o`quv yurtlarining 5111700-boshlang`ich ta`lim va sport,  
tarbiyaviy ish yo`nalishi talabalari uchun o`quv qo`llanma**

**“Durdona” nashriyoti  
Buxoro – 2021**

**UDC 37.016:331(075.3)**

**74.263**

**T 49**

Tilavova M.

Texnologiya va uni o`qitish metodikasi [Matn] : o`quv qo`llanma / M.

Tilavova.- Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durдона, 2021. - 312 b.

**КБК 74.263**

Mazkur qo`llanma oliy ta`limning boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish yo`nalishida belgilangan DTS talablari hamda «Texnologiya va uni o`qitish metodikasi» o`quv fani dasturi asosida tuzilgan. Texnologiya darslarini tashkil etish jarayonida zamonaviy usul va vositalardan foydalanishning o`ziga xos xususiyatlari o`z ifodasini topgan. Qo`llanma oliy o`quv yurtlarining 5111700– boshlang`ich ta`lim va sport, tarbiyaviy ish yo`nalishi talabalari uchun mo`ljallangan.

**Mas`ul muharrir**

**B. B. Ma`murov - pedagogika fanlari doktori, professor**

**Taqrizchilar**

**M. M. Axmedjanov - pedagogika fanlari doktori, professor**

**A.R.Hamroev - pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent**

**O`quv qo`llanma O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 2021-yil 1-martdagi 110-sonli buyrug`iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.**

**Ro`yxatga olish raqami 110-60.**

**ISBN 978-9943-7229-7-2**

*Сайёрамизнинг эртанги куни, фаровонлиги фарзандларимиз қандай инсон бўлиб камолга етиши билан боғлиқ. Бизнинг асосий вазифамиз – ёшларнинг ўз салоҳиятини намойён қилиши учун зарур шароитлар яратишдан иборат.*

**Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқидан**

## **KIRISH**

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan yangilanish, modernizatsiya jarayoni uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari jumladan, oliy ta'limda ham zamon talablariga javob bera oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ularda yangi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishni, o'z ustida ishlash, zamonaviy texnologiya yutuqlaridan maqsadli foydalana olish mahoratini oshirishni taqozo etmoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini hozirgi kun talablari asosida tayyorlashda “ Texnologiya va uni o'qitish metodikasi “ fani ham ustuvor vazifalarni bajarishda salmoqli o'rinni egallaydi. Mazkur fan orqali bo'lajak mutaxassis o'qituvchilar fanining asosiy ilmiy – nazariy va amaliy natijalariga asoslangan holda o'quvchilarga mehnatsevarlik, intizom, masuliyat, burch hissi, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish malakasiga ega bo'ladilar.

Darslikda texnologiya va uni uqtirish metodikasining umumiy asoslari, darslarda integratsion yondashuv, mashg'ulotlar jarayonida xorijiy ta'lim tizimida foydalanish, shuningdek qo'l mehnati, qog'oz va karton bilan ishlash, applikasiya, tabiiy materiallar plastilin, gazlama bilan ishlash texnologiyalari tog'risida amaliy- metodik bilimlar o'z ifodasini topgan. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida axbarot texnologiyalari hamda ta'lim jarayonida innovatsiyalar va interfaol usullardan foydalanishning yo'l va usullari ko'rsatib berilgan. Texnologiya darslarini tashkil etishda o'qituvchining eng muhim vazifalarida biri o'qituvchilarni mustaqil bilim olishga tizimli o'rgatib borishdan iborat bo'lib, ularni ongli, maqsadli natijaga erishishga yo'naltirishdan iborat. Darslikda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarga mehnat qurollari to'g'risida bilim

berish texnologik jarayon, texnika xavfsizligi, sanitariya va gigiena to'g'risidagi ma'lumotlar hamda mehnatni tizimli tashkil etish va o'quvchilarning mehnat madaniyati to'g'risida bilimlarga ega bo'lish metodikasi bugungi kun talablari asosida yoritib beriladi.

# **1-MODUL. TEXNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASINING UMUMIY MASALALARI**

## **1-MAVZU. TEXNOLOGIYA TA'LIMI VA TARBIYASINING MAQSAD VA VAZIFALARI.**

1. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanining vazifalari.
2. Texnologiya fanini o‘qitishda metodik yondashuv.
3. O‘quvchilarni mehnatga axloqiy, ruhiy va amaliy tayyorlash.
4. Texnologiya darslarini tashkil qilish shakllari.
5. O‘quvchilarda mehnatga munosabatni shakllantirish.
6. Boshlang‘ich texnologiya fani elementlari bilan tanishtirish.

*Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Ta'lim, ta'lim-tarbiya, mehnat tarbiyasi, texnologiya ta'limi maqsad va vazifalari, texnologiya ta'limi va jamiyat, o'qitishning metodik tizimi, o'qitishning shakl va turlari, boshlang'ich texnologiya elementlari.*

Barkamol shaxs tarbiyasida, albatta, mehnat ta'limining alohida o'rnini bor. Ushbu o'quv fani o'quvchilarda aqliy va jismoniy mehnat turlari, mehnat jarayonlari haqida keng tushuncha hosil qilish, mehnatga oid ko'nikma va malakalarini rivojlantirish kabi ta'limiy maqsadlarga xizmat qiladi. Maktabdagi texnologiya ta'limi va tarbiyasining maqsadi: o'quvchilarga mehnatga muhabbat va mehnat ahliga hurmat tuyg'usini singdirishdan; o'quvchilarni hozirgi zamon sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, qurilish, transport, xizmat ko'rsatish sohalari asoslari va texnologik jarayonlar bilan tanishtirishdan; o'qish va ijtimoiy foydali ish jarayonida ularda mehnat ko'nikmalari va mahoratini hosil qilishdan; ongli ravishda kasb tanlashga va boshlang'ich hunar ta'limini olishga undashdan iborat. I.A.Mannopova, R.A.Mavlonova, N.R.Ibragimovalarning umumiy o'rta ta'lim maktablari 4-sinf Texnologiya darsligida texnologiya so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: "Texnologiya" (yunoncha, teche – mahorat, san'at, logos –ta'limot) xom-ashyo va materiallarga tegishli ishlab chiqarish qurollari yordamida ishlov berish yo'llari haqidagi fan .

Texnologiya fani va kasbga tayyorlash vazifalari boshlang'ich maktabda butun ta'lim-tarbiya tizimi hamda barcha o'quv predmetlari

yordamida hal etiladi. Bu o'z navbatida, oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan texnologiya va uni o'qitish metodikasi fani oldida muhim maqsad va vazifalarni qo'yadi.

Jumladan, mazkur fanni o'qitishdan asosiy maqsad: talabalarni boshlang'ich sinflarda texnologiya fanining mazmuni va vazifalari, o'qitish usullari, ta'limiy vositalar bilan tanishtirish va ularni darslarda, shuningdek, sinfdan tashqari texnologiya fanini o'qitish jarayonida nazariy hamda amaliy tatbiq etish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.

Shuningdek, yoshlarni mehnat va kasblarni qadrlashga o'rgatish, ijtimoiy hayotda ularning ahamiyatini tushuntirish, kasb asoslari (texnologiyasi) haqida bilim hosil qilish hamda maktab davridan bolada kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish mehnat ta'limi o'qituvchilarning asosiy vazifasiga kiradi. Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda texnologiya fanining asosiy maqsad va vazifalari: mehnatga axloqiy va psixologik tayyorlash, o'quvchilarni boshlang'ich politexnik bilim bilan qurollantirish, texnologiya faniga amaliy tayyorlash, texnologik operatsiyalarining malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirish, o'quvchilarni texnologiya fani jarayonida har tomonlama o'stirishni tarkib toptirishdan iborat.

Shu boisdan texnologiya va uni o'qitish metodikasi fani tarkibiga: bo'lajak o'qituvchilarga har tomonlama nazariy va amaliy bilim berish, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida kasblar haqida ma'lumot berish izchilligini takomillashtirish, Davlat ta'lim standartlari talabi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berish vazifalari kiradi.

Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fani ta'lim metodikalari kursi fani hisoblanib, fanning asosiy ilmiy izlanishlari natijalariga tayangan holda, ilg'or pedagogik tajribalar bilan boyitilgan va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan materiallar asosida yoritib boriladi. O'quvchilarni amaliy texnologik jarayonlarga tayyorlash va ularni boshlang'ich texnologik operatsiyalari malaka va ko'nikmalarini egallashlarini ta'minlaydi.

Texnologiya fanining tarbiyaviy ahamiyati ham muhim hisoblanadi. U o'quvchilarda mehnat turlari haqidagi tushunchalarni shakllantiradi, mehnatga bo'lgan qiziqishni hosil qilib, mehnatsevarlik, mas'uliyat, intizomlilik, burch hissi hamda

jamoatchilik hissini tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, o'quvchilarning aqliy jihatdan kamol topib borishlarida zamin yaratadi. Iroda va axloqiy sifatlarni rivojlantirishda ko'maklashadi. O'quvchilarda mehnatga bo'lgan his-tuyg'uning hosil bo'lishi ularda do'stlik, birodarlik, bir-biriga ko'maklashish, jamoatchilik, hurmat-izzatda bo'lish kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fani zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanib, ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Maktabda o'quvchilar texnologiya fanini qunt bilan o'zlashtirib borishlari uchun darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalardan foydalanish kerak. Zamonaviy axborot texnologiyalarida foydalanish, interfaol usullarni qo'llash, ta'limiy vositalarni va ta'limiy o'yinlarni ta'lim jarayonida tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bular haqida keyingi mavzularda to'liqroq to'xtalamiz .

Har bir dars jarayonida o'quvchilarda bilim va malaka doiralarini kengaytirish hamda mustahkamlash, ularda barqaror ijobiy ko'nikma va odatlar hosil qilishni nazarda tutish bilan bir qatorda, ularni mehnatga axloqiy jihatdan to'g'ri tarbiyalab borish o'ta muhim hisoblanadi. Ya'ni, dars vazifasini faqat bilim berish va ko'nikma hosil qilishdan iborat qilib qo'ymaslik, balki aqliy tarbiya berish va kamol toptirish vazifalari bilan hamjihatlikda bog'lab borish ham zarur. Shuning uchun ham o'qituvchi biror mavzuga tayyorlana turib, mazkur dars materialini asosida o'quvchilarni axloqiylikning qanday g'oyalarni anglashga olib kelishini, diqqat, fikrlash, xotira, tasavvur, irodasini rivojlantirish va boshqa shular qatorida shaxs sifatini qanday kamol toptirishga erishishni aniq tasavvur qilmog'i lozim.

**O'quvchilarni texnologiya fanini o'zlashtirishga psixologik tayyorlash.** Ushbu jarayon murakkab, uzoq davom etuvchi va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u butun texnologiya fani va tarbiyaga singib ketgandir. U garchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, mehnatga axloqiy tayyorlashga juda yaqindir. Bolani mehnatga psixologik tayyorlash — bu unda mehnatga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarni egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir.

Texnologiya fanini o'zlashtirishga psixologik tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular: *sezib anglash, psixomotor, emostional-idrok, diqqat, xotira, tafakkur* va shu kabi proseslardir. Boshqacha qilib aytganda, ular *mehnatning psixologik komponentlari* deyiladi.

Mehnat ta'limi fanining o'qitilish samaradorligini oshirishda amaliy mashg'ulotlar asosiy o'rinni egallaydi. Amaliy mashg'ulotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) Ekskursiyalar uyushtirish;

2) Ustaxonada yog'och va metallardan, tikuv materiallaridan uy jihozlari tayyorlash.

Texnologik operatsiyalarni o'rgatishda bolaning imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur. Ma'lumki, mehnat faoliyati, texnologiya fani uchun ham turli sezgilar yig'indisining (ko'rish, eshitish, his etish, ta'm bilish, teri, muskul harakati) namoyon bo'lishi xarakterlidir. Shuning uchun o'qituvchilar quyi sinflar o'quvchilariga yangi materialni yoki asbobni tanishtirayotganlarida bolalardagi sezgining barcha turlarini faollashtiradilar: bolalar qog'ozni ushlaydilar, silaydilar, aylantirib ko'rib chiqadilar, uning qanday shitirlashiga quloq soladilar. Sezgilarning bunday faollashuvi material haqida to'liqroq tasavvurga ega bo'lishiga yordam beribgina qolmay, balki bu psixologik jarayonni rivojlantiradi, takomillashtiradi.

Texnologik operatsiyalarni bajarishda shaxsning qiziqish, qobiliyat, temperament kabi individual psixologik xususiyatlari shakllanadi. Texnologik operatsiyalarni bajarishga psixologik va axloqiy tayyorlash jarayoni murakkab va uzoq davom etuvchi jarayondir.

Agarda bola mehnat qilishga o'rgatilmagan bo'lsa, uning uchun mehnat faoliyati maqbul mashg'ulotga aylanmaydi, unda kerakli ijobiy emotsiyalarni va boshqa psixologik ko'rinishlarni keltirib chiqara olmaydi.

Texnologik operatsiya malakalari ko'p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida hosil bo'lishi sababli har bir mashq jarayoniga o'quvchini aqliy yondashtirish, buning uchun esa ish-harakati izchilligini tizimlilik sur'atida tushuntirib berish talab etiladi.



**O'quvchilarni texnologiya faniga amaliy tayyorlash.** Amaliy tayyorlash texnologiya fanining muhim qismlaridan biri hisoblanadi. U o'zaro bog'langan bir necha elementlardan: oddiy asbob va moslamalardan foydalana bilish, kerakli operatsiyalarni to'g'ri va ratsional amalga oshira bilish, ya'ni u yoki bu materialga ma'lum izchillikda ishlov bera borish, yo'l qo'yilgan xatoni o'z vaqtida aniqlash va to'g'rilay olish kabilardan tarkib topadi.

Jarayonga amaliy tayyorlash faqat kerakli bilimlar bazasidagina amalga oshishi mumkin. U boshlang'ich maktabda boshlang'ich politexnik bilimlarga asoslanadi. Texnologiya fanining mazmuniga muvofiq o'quvchilar mazkur yosh uchun qulay bo'lgan materiallarga ishlov berishda qo'llaniladigan oddiy asbob va moslamalarni ishlatishning amaliy malaka va ko'nikmalarini egallaydilar. Oddiy asbob moslamalar maxsus asbob va mashinalarning bosh asosi hisoblanadi.

Amaliy malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish asosiy ishlab chiqarish operatsiyalarini o'rgatish ham demakdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari duch keladigan buyumlar texnologiyasi xilma-xildir, biroq bu masalani batafsil o'rganmasdanoq ish operatsiyalarining tipikligini sezib olish qiyin emas, ular: materialni o'lchash va belgilash; ularga egib, qirqib ishlov berish; qismlarini yelimplash, tikish, o'rish va bog'lash kabi yo'llar bilan birlashtirish va mustahkamlash; detallarni yig'ish va buyumni montaj qilishdir. Yakunlovchi operatsiya buyumni bezashdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatga amaliy tayyorlashga grafik malakalarni shakllantirish ham taalluqlidir.

O'quvchilardagi texnologiya fanining ma'lum turiga bo'lgan mayl va qiziqishni o'z vaqtida aniqlash va ularga mehnat malakalarini sevgan mashg'ulotlarida takomillashtirishlariga yordam berish juda muhimdir.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalar butun buyumning tuzilishini yaxshi tasavvur etsalargina, ish turi, shakli, hajmi va boshqa xususiyatlar, shuningdek, mehnat qurollari bilan ishlash usullarini tezroq va puxtaroq o'qib oladilar. Ayniqsa 1-sinf o'quvchilari o'qituvchiga taqlid qilishga intiladilar. Shu sababli o'qituvchi o'quvchilarni har bir mehnat turiga aqlan to'g'ri yondashtira olishi va berilgan topshiriqni bajarishda ruhan tayyorlab borishi kerak.

O`quvchilarga texnologiya fanini o`qitish va tarbiyalash ularni bo`ljak amaliy faoliyatga tayyorlashda mehnat malakalari va ko`nikmalari katta rol o`ynaydi. Quyi sinf o`quvchilariga texnologiya fanini o`qitish vazifalaridan biri ularda bir qator mehnat malakalari va ko`nikmalarini shakllantirishdir. Mehnat malakalari va ko`nikmalari natijasi bo`lib qolmay, balki o`quvchilarni mehnat faoliyatiga, ijtimoiy foydali ishlab chiqarish mehnatini bajarishga jalb qilish sharti hamdir.

Kichik maktab o`quvchilarining texnologiya faniga amaliy tayyorlashda kuzatish qobiliyatini mashq qildirishning imkoniyatlari juda katta. Bular materialga ishlov berish jarayonida uning o`zgarishini kuzatish, turli asboblarning turli ishlab chiqarish hamda mehnat vaziyatlarida ish xususiyatini kuzatish, mehnat operatsiyalarining maqsadga muvofiqligini amaliy aniqlashdir. O`zining hamda o`rtoqlarining ishini kuzatish orqali o`quvchilar konstruktorlik yechimlarini, tayyor buyum va ularning detallari pardozi bajarilish usullari va sifatini taqqoslaydi, solishtiradi, baholaydi. yordamchi va ishlov berish operatsiyalari, mehnat usullarining sodda, qulay va osonligi, ishga sarflanuvchi vaqt miqdori kabi ko`rsatkichlar o`quvchilar nazaridan chetda qolmaydi. Bularning barchasi birgalikda faol fikrlash faoliyatini talab etadi va o`quvchilarning aqliy rivojlanishiga ko`maklashadi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari tomonidan texnologiya darslarida bajariluvchi kuzatishlar va eng oddiy tajribalar barcha analizatorlarning, xususan, har bir o`quvchi harakat apparatining bir vaqtda birgalikda qo`llanishiga asoslangan. Bu kichik maktab o`quvchilariga amaliy masalalarni hal etish uchun muhim bo`lgan turli materiallarning xususiyati va sifati (yumshoq-qattiq; yengil-og`ir; zich-g`ovak; mustahkam-nozik; tiniq, oq, rangli va hokazo), shuningdek, har bir materialning ishlov berishdagi qarshilik xususiyatlari to`g`risidagi savollarga yanada aniqroq va to`g`riroq javob berishga imkon beradi.

Texnologiya darslarida turli mehnat faoliyati turlaridan foydalanish o`quvchilar tomonidan to`planuvchi tajribalarning texnologik operatsiyalarni bajarish sohasidagi bilim va malakalarining muhim asosini tashkil etadi.

Texnologiya darslarida o`quvchilar faoliyatining muhim natijasi- bu ularning o`rganilayotgan obyekt va hodisalarning yangi belgi va

xususiyatlarini yanada mustaqil aniqlash, darsdan darsga yanada aniqroq va tizimlashtirilib boruvchi xulosalarning chiqarilishidir. Masalan, darslarning birida o`qituvchi o`quvchilar oldiga qog`oz turlarini aniqlash, qog`ozning ko`pgina vazifaga ega material sifatida umumiy xususiyatlari, qo`llanish va foydalanilishining cheksiz imkoniyatlarini ta`riflash vazifasini qo`yadi.

O`quvchilar bu xususiyatlarni farqlash, boshqa materiallarga o`xshash xususiyatlarni izlash va topish, ularning aniq amaliy maqsadlar uchun tanlanishini asoslab berishni asta-sekin o`rganib boradilar. Bularning barchasi bolalarda buyumni konstruksiyalashtirish va uni to`g`ri bajara olish ko`nikmalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Texnologiya darslari bir necha shakllarda tashkil etiladi. Jumladan, grafik ishlar texnik mehnatni o`rgatishda muhim o`rinni egallaydi. Biror narsaning chizmasini chizishga butun bir dars, ba`zan ikki dars bag`ishlanadi. Shuning uchun texnik texnologiya darslarida chizmani chizishga kirishishdan oldin, chizmachilikda o`quvchilarni programma asosida chizmalarni bajarish uchun zarur bo`lgan elementlari bilan tanishtirish lozim. Amaliy ishlar o`quvchilarga egallagan bilimlarini amalda qo`llashni o`rgatishda yordam beradi. Amaliy ishlarni bajarish planini o`quvchilarning o`zlari mustaqil tuzishlari katta ta`lim-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ko`rgazmali qurollarning o`quvchilar tomonidan bajarilishini ham amaliy ishlarga kiritish mumkin, bu egallangan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Laboratoriya ishlari ta`limning turli bosqichlarida bo`lishi mumkin. Laboratoriya ishlarining o`tkazilishi egallangan bilimlarning ishonarlilik kuchini oshiradi, bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi, ularni amalda qo`llashga o`rgatish uchun xizmat qiladi. Laboratoriya ishlari yangi bilimlarni berish maqsadlarida ham o`tkazilishi mumkin. Ushbu jarayonda o`quvchilarda mas`uliyatni his etish, kuzatuvchanlik, diqqatlilik rivojlanadi. Mustaqil ishlar – bu o`qituvchining bevosita ishtirokisiz, biroq uning topshirig`i bilan maxsus ajratilgan vaqtda bajariladigan ishlardir. Bu o`rinda o`quvchilar o`zlarining intilishlarini qo`llash hamda aqliy va jismoniy harakatlarining natijalarini u yoki bu formada ifodalab, topshiriqda qo`yilgan maqsadga ongli ravishda erishishga harakat qiladilar.

Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida malakalar shakllanishi bilan birga o'quvchilar o'z kuchlari, bilim va qobiliyatlarini sinovdan o'tkazadilar.

Ekskursiyalar bilishga qiziqishni avj oldirishda, o'quvchilarga mustaqillik malakalarini singdirish va hayotni bilishda muhim o'rin egallaydi. Agarda ekskursiyalarni o'tkazishda ishlab chiqarish vakillari ham qatnashsa, u yanada samaraliroq bo'ladi. Ekskursiya jarayonida o'quvchilar ishlab chiqarish texnologiyasi bilan yaqindan tanishadilar. Ekskursiyani o'tkazishdan oldin o'quvchilar oldiga aniq maqsadlar qo'yiladi va ekskursiyadan so'ng savol – javoblar o'tkaziladi.

**Mehnatga munosabatni shakllantirish.** Bu jarayon texnologiya fanining muhim qirralaridan biri hisoblanadi. Mehnatga munosabatni shakllantirish va tayyorlashning muvaffaqiyatliroq bo'lishi uchun bolalarning xotiralarini o'stirish vazifasi muhim rol o'ynaydi. Chunki texnologiya darslarida o'quv materiallarini eslab qolish boshqa predmetlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilari barcha yangi asboblari, materiallar, operatsiyalarning nomini, predmetni ko'rib idrok etish bilan birga ularni fikran biriktirib, tinglab fahmlashlari kerak. Buning uchun o'qituvchi mehnat darsida faqat tushuntiribgina qolmay, balki, asosan, material va buyumlar namunasini, asboblarni, materialga ishlov berish usullarini, operatsiyalarning izchilligini ko'rsatishi lozim. O'quvchida mehnatga munosabatni turg'un shakllanishi uchun berilayotgan ta'lim mazmunini bilishi, ma'lumotlarni qunt bilan eshitishi, ko'rishi kerak. Mehnat darsidan keyingi mehnat darsigacha yangidan yangi bilim va ko'nikmalarning o'quvchilar ongida mujassamlashib borishi, ularning xotirlash doirasini kengayib borishiga da'vat etadi va mehnat turlariga bo'lgan munosabatlarni yanada oshiradi.

Mehnatga munosabatni shakllantirishda emostional jarayonlar ham xarakterlidir. Bolalarni qiyinchiliklarni yengishga, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida matonat va qat'iyat bilan kirishishga, boshlagan ishni chala tashlab ketmay, balki oxiriga yetkazishga o'rgatish lozim. Bu o'rinda ijobiy emotsiyalar: mehnatdan quvonish, lazzatlanish va qoniqish hissiyotlarining namoyon bo'lishi juda muhimdir. Mehnatda turli psixologik holatlar: faollik, diqqatning

jamlanishi, qiziqish, mustaqil fikr yuritish, qoniqmaslik kabi tuyg`ular namoyon bo`ladi.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Texnologiya va uni o`qitish metodikasi fanining asosiy maqsadini izohlab bering.
2. Boshlang`ich sinfda texnologiya fanining fan sifatida o`z oldiga qo`ygan vazifalari qaysilar? Misollar asosida tushuntiring.
3. Texnologiya fanini o`qitishda qanday metodik yondashuv mavjud?.
4. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida mehnatga munosabatni shakllantirishning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
5. Boshlang`ich sinf texnologiya fani elementlarini izohlab bering.

## **2-MAVZU.TEXNOLOGIYA VA UNI O`QITISH METODIKASI FANINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI**

1. Texnologiya va uni o`qitish metodikasi fanining o`qitish metodologiyasi.
2. Texnologiya fanini o`qitish tamoyillari
3. Texnologiya fani nazariyasining asosiy negizlari.
4. Texnologiya fani ta`limi va mehnat tarbiyasining uzviyligi.

***Mavzuga oid tayanch tushunchalar:*** *Texnologiya haqida tushuncha, metodologiya, o`qitish tamoyillari, mehnat tarbiyasi.*

Pedagogikaning fan sifatida shakllanib borishi ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyat bo`lib, u turli fanlar bilan, shu jumladan, mehnat bilan ham qadim-qadim zamonlardan boshlab bog`liqlikda rivojlanib kelgan.

Ta`lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, moziyda ham eng muhim, bosh masala inson, uni mehnat orqali barkamol etib tarbiyalash bo`lganligining guvohi bo`lamiz. Eng qadimgi manbalardan boshlab, keyinchalik paydo bo`lgan ta`limiy-axloqiy asarlarda ham mehnatga oid nazariy, ham amaliy masalalar tahlil etilganki, uning asosida inson shaxsini ma`naviy-axloqiy shakllantirish muammosi markaziy muammo bo`lgan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg`u bilig" asaridan boshlab Kaykovusning

"Qobusnoma", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Sa'diyning "Guliston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" va boshqa juda ko'p didaktik asarlarning har birini ta'lim-tarbiyaga oid darslik desak yangilishmagan bo'lamiz. Mazkur ta'limiy-axloqiy asoslarni insonning ma'naviy kamolga yetishida yuksak axloqqa ega bo'lishini ilm-fanni egallashi asosidagina amalga oshishi mumkin, degan g'oya ilgari suradi.

Xususan A.Avloniy o'z asarlarda shunday fikrlarni bildirgan edi: "Bolaning salomatligi va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmoq, yaxshi xulqni o'rgatmoq, yomon xulqdan saqlab o'stirmoq va mehnat qilishga undamoq yaxshidir.

Tarbiya qiluvchi inson – tabibdir. Tabib xastaning kasaligiga da'vo qilsa, tarbiyachi – boladagi yaxshi xulqni, poklikni, mehnatga layoqatni davolaydi."

Xalq og'zaki va yozma ijodiyoti, xalq yodgorlik obidalari taraqqiyot jarayonida paydo bo'lgan, rivojlangan qadriyat darajasiga ko'tarilgan an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, amaliy mehnat faoliyatida o'z ifodasini topgan va ularni har tomonlama rivovlantirilishida katta ahamiyat kasb etgan. Xalq og'zaki ijodiyotida mehnatga oid shakllantirilgan juda ko'p maqollar va iboralar namunalariga guvoh bo'lamiz: "Mehnat - mehnatning tagi rohat", "Mehnat qilgan xor bo'lmas", "Yozgi mehnat – qishki rohat", "Bir yigitga yetmish hunar oz", "Hunarli kishi xor bo'lmas", "Ustozidan o'tmagan shogird – shogird emas".

Texnologiya fani pedagogika fanining metodologiyasiga tayanib faoliyat yuritadi. Pedagogika fani metodologiyasining yaratilishida qomusiy mutafakkirlar va mashhur pedagoglarning o'rni diqqatga sazovordir. Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Rudakiy, Firdavsiy, Alisher Navoiy, Voiz Koshifiy, chex olimi Yan Amos Komenskiy, shvetsariyalik pedagog Iogann Genrix Pestaloststi, nemis pedagogi Adolf Disterverg, rus pedagogi K.D.Ushinskiy kabilar o'z ijodiyotlarida pedagogikaning metodologik asosini yaratdilar. Shularga ko'ra texnologiya fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari, tamoyil, uslub va vositalari, har bir inson uchun zarur bo'lgan tarbiyaviy ta'sirlar yangicha asosga ega bo'lishi kerak.

Texnologiya fanining metodologik asosi, maqsad va vazifalari, yangi yo'nalishlari, texnologiya fani va tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari hamda boshqa qator muammolari va ularga yangicha yondashuv milliy istiqlol g'oyalari va milliy mafkura asosida yaratilishi muhim. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" texnologiya fanining metodologik asosi sanaladi. Dastlab "texnologiya" tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu tushuncha texnika taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan – "texnos" – san'at, mahorat, hunar va "logos" – fan so'zlaridan tashkil topib "hunar fani" degani.

Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanining o'qitish metodologiyasi: sharq mutafakkirlarining ta'limotlari, O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining mazmunini belgilab beruvchi direktiv-me'yoriy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda ilgari surilgan g'oyalardan iborat.

O'zbekistonda mustaqillikni saqlab qolish va uni mustahkamlashda texnologiya fani va uning metodologik asoslariga bevosita bog'langan holda har bir pedagog masalaga ijodiy, rivojlanuvchi nuqtayi nazaridan yondashishi zarurdir. Ana shunda mazmunan yangilanayotgan zamon talablari asosida shakllanayotgan mehnatning yangicha ko'rinishlari-inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi zamonaviy metodlar asos bo'lgandagina haqiqiy, milliy va zamonaviy tarbiyashunoslik faniga aylanishi muqarrar.

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardayoq Respublikada texnologiya fanini tashkil etish sohasida tub islohotlarni amalga oshirish, uni yuksak darajada takomillashtirish va jahon texnologiya fani darajasiga ko'tarish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Ana shu e'tiborning yorqin isboti ta'lim sohasidagi, jumladan, texnologiya fani sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari hamda texnologiya fanining O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasidagi ustuvor yo'nalish deb e'lon qilinganligi bilan belgilanadi.

Texnologiya fani sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

1. Texnologiya ta'limi va tarbiyasining insonparvar, demokratik tavsifda ekanligi. Davlatimizda tashkil etilayotgan texnologiya fani va tarbiya jarayonida shaxs, uning qadr-qimmatini, ma'naviy hamda ma'rifiy huquqlarini hurmat qilish, uning iqtidori va qobiliyatini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish, shuningdek, mehnat turlariga bo'lgan xohish-istagi va ehtiyojlarini inobatga olish masalalari nazarda tutiladi.

2. Texnologiya fanining uzluksizligi va izchilligi. Ta'lim jarayonida didaktik xarakter kasb etib, o'quvchilarga texnologiya fani orqali berilayotgan bilim va shakllantirilayotgan ko'nikma hamda malakalarning uzluksiz, doimiy ravishda shakllanishini ta'minlaydi. Uzluksiz va izchillik mehnatga oid ma'lumotlar, ushbu fan asoslarini o'rganishning tartibga solinishini, avvalgi va keyingi materiallar o'rtasida ketma-ketlikni ta'minlashni anglatadi. Har bir o'quv fani singari texnologiya fani ham muayyan mantiqiy izchillikda o'qitilishi lozim. Mazkur prinsip shu holatni ifoda etishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, ta'limning quyidagi qonuniyatlari mavjud:

- tarbiyalovchi tarbiya qonuni;
- har qanday ta'lim faqat o'qitayotgan, o'qiyotgan va o'rganayotgan obyektning ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan o'zaro ta'siri yordamida amalga oshiriladi;
- ta'lim faqatgina o'qituvchining faoliyatiga va o'y-fikrlariga muvofiq ravishda o'quvchilarning faol faoliyatlari davomida yuz beradi;
- o'quv jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchining maqsadlari muvofiq kelgan holda yuz beradi;
- alohida bir shaxsni u yoki bu faoliyatni o'rganishga yo'llash uni ushbu faoliyatga jalb etish orqali erishiladi;
- ta'limning maqsadi, bilim olishning mazmuni va ta'lim metodlari orasida doimiy bog'liqlik mavjud bo'ladi;
- ta'limning maqsadi ta'lim mazmunini va metodini belgilab beradi.

Shunga ko'ra texnologiya fanining qonuniyatlari tarkibiy qism sifatida ta'lim jarayoniga kiradigan, uning qonuniyatlaridan kelib



chiqadigan yaxlit pedagogik jarayon bilan keng ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning o'zaro aloqalarini tahlil etishdan kelib chiqadi.

Texnologiya fani tamoyillari - o'qituvchining faoliyatini va o'quvchining bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosiy boshlanmalardir. Texnologiya fani tamoyillari o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining muhim ichki tomonlarini aks ettiradi hamda turli shaklda, turli mazmunda va har xil yo'sinda tashkil etiladigan texnologiya fanining samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun texnologiya fani tamoyillari mehnatdan ta'lim berishning ma'lum obyektiv qonuniyatlarini o'zida aks ettiradi.

Texnologiya fani tamoyillari tizimiga: texnologiya fanining milliy yo'nalganligi, texnologiya fani va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, mehnat bo'yicha iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish kabilar. Jamiyat talab qilayotgan uzluksiz ta'limga tegishli bu qonun-qoidalar, texnologiya fanini o'qitish, bilim berish, ya'ni texnologiya fani jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat ta'lim tamoyillari maktab, o'quv yurtlari oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ular o'zaro bir-biri bilan mustahkam bog'liq holda bir tizimni tashkil etadi, har bir darsda didaktik tamoyillarning bir nechtasi ishtirok etishi mumkin. Ular texnologiya fani oldida turgan asosiy maqsadlarni hal etishga o'z hissasini qo'shadi. Ta'lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda o'quvchilarga mehnat texnologiya fanidan mustahkam bilim berish, ularni erkin, mustaqil fikrlay oladigan insonlar qilib tarbiyalashda, ta'lim tamoyillarining mohiyatini chuqur anglash va hayotga tatbiq etish muhim muammolardan biridir.

Mehnat sohasida nazariy bilimlarni amaliyot bilan, turmush tajribalari bilan bog'lab olib borish mehnat ta'limining yetakchi qoidalaridan hisoblanadi. Texnologiya fani va tarbiya sohasidagi yutuqlar, eng avvalo, nazariya bilan amaliy ishlarning o'zaro bog'liqligiga asoslanadi. Shundagina o'quvchi o'rganayotgan o'quv materiallarning tub mohiyatini tushunib yetadi va mustaqil faoliyatda, amaliy ishlarda ulardan foydalana oladi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishlariga erishmoq lozim. Faol ishtirok esa bilimlarni ongli, tushunib o'zlashtirishga olib keladi. Texnologiya fanidagi onglilik va faollik o'quvchilardagi

ko'tarinki kayfiyat, ko'proq bilishga intilish, mustaqil fikrlash va xulosalar chiqarishga undaydi. Mehnatga doir bilimlarni ongli va faol o'zlashtirish o'qitish jarayonining psixologik tomonlarida o'z ifodasini topadi. Texnologiya fanining ilmiyligi tamoyili o'quvchining o'quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri sharoit yaratish maqsadida zarurdir.

O'quvchi texnologiya fanida bilimlarni o'zlashtirar ekan, uning dunyoqarashi ham, irodasi va axloqiy sifatlari, iymon-e'tiqodi va qobiliyati ham o'sib rivojlanib boradi.

Texnologiya fanining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishda o'qituvchi avvalo, texnologiya darslarini uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etishga, o'quv materiallarining mazmuni bilan bog'liq tarbiyaviy maqsadlarni aniq belgilashga va bilim olishga qiziqтира olishga bog'liqdir. Shu bilan birga, o'qituvchining o'quvchilar oldidagi obro'-e'tibori ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Texnologiya fani jarayonini ko'rgazmali tashkil qilish zarur. Ham eshitish, ham ko'rsatish orqali o'quv materiallarini idrok qilish, ularni ongli va puxta o'zlashtirish, bilimlarni turmushdagi zaruriyatini anglab yetishlariga asos soladi, diqqatni barqarorlashtiradi. Shuning uchun ko'rgazmali materiallar o'rganilayotgan mavzuning mazmuniga mos kelishi, o'quvchining yoshi va bilim darajasiga muvofiqlashgan bo'lishi hamda ulardan foydalanishning samarali yo'l va vositalar ishlab chiqilgan bo'lishi lozim.

Texnologiya fanida bilimlar turli yo'l vositalari orqali puxta o'zlashtirgandagina, u mustahkam esda qoladi, bu esa o'quv materiallarini ongli o'zlashtirishga, nazariya bilan amaliyotni bog'lashga, ko'rsatmalikka amal qilishga va bilimlarni takrorlash orqali mustahkamlashga bog'liqdir. Texnologiya fanining bosh maqsadi esa bilimlarni tizimli va puxta o'zlashtirishdir.

Texnologiya fani va tarbiyasining maqsadi o'quv ishlarida mehnatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Mazkur maqsadni amalga oshirishda bir qator vazifalarni hal etish talab qilinadi. Texnologiya fani va tarbiyasini tashkil etishda hal etiluvchi vazifalar ko'p qirrali bo'lib, u o'quvchilarning mehnat faoliyatiga amaliy va axloqiy tayyorgarlikning barcha tomonlarini qamrab oladi.

Texnologiya fani va tarbiyasini tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- mehnatning mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarga mehnatning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi rolini yoritib berish;

- inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni qadrlash, asrab-avaylashga o'rgatish;

- mehnat qilishga nisbatan rag'batni, shuningdek, muhabbatni uyg'otish;

- o'quvchilarning mehnatga ijtimoiy burch sifatida yondashuvlarini yuzaga keltirish;

- mehnat faoliyatini tashkil etishga ongli ravishda, vijdonan yondashishni odatlantirish;

- mehnat faoliyatini jamoa asosida tashkil etish;

- mehnatga hayotiy zurrat, inson faoliyatining asosi sifatida munosabatda bo'lish;

- mehnatni ilmiy asosda tashkil etish borasida mehnat ko'nikmasi va malakalarini shakllantirishni yuzaga keltirish;

- o'quvchilarda mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash; o'z mehnati samarasidan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish;

- muayyan kasb-hunar sirlarini o'zlashtirishga erishish va hokazolar.

Yosh avlodning mehnat faoliyati quyidagi yo'nalishlarida rivojlantiriladi va tarkib toptiriladi: mehnat o'yindan ajralgan holda mustaqil faoliyat sifatida shakllantiriladi; mehnat faoliyati jarayonining mohiyatini o'zlashtirilishiga erishiladi; mehnat faoliyatining turli shakllari vujudga keltiriladi.

O'quvchilar ta'lim jarayonida va darsdan tashqari sharoitlarda mehnatning ijtimoiy jamiyatda tutgan o'rni va rolini, inson kamolotini ta'minlash omili ekanligini, shaxsni qobiliyati va iqtidorini mehnat jarayonida takomillashib borishini hayotiy misollar yordamida bilib olishlari lozim. Texnologiya fani va tarbiyasini tashkil etishda bugungi kunda an'anaviy va noan'anaviy shakllardan foydalanilmoqda, xususan, mehnat bayramlari, ishlab chiqarish ko'rgazmalari, hashar, "mohir qo'llar" tanlovi, "Quvnoq shahar ustaxonasi", o'quv ishlab chiqarish kombinatlari brigadalari, yordamchi xo'jalik, "Yosh radio-texniklar stansiyasi" va ijodiy

markazlar faoliyati, shuningdek, ustoz-shogird an'analari asosida faoliyat olib boruvchi yakka tartibdagi kasb-hunar ta'limi va boshqalar.

Mehnat tarbiyasi to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilar maktabga kelgan dastlabki kunlardan o'zlarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos mehnat faoliyatiga jalb qilinadilar. Bunda ular o'z-o'ziga xizmat qilish borasidagi eng oddiy yumushlarni bajaradilar (chunonchi, sinf xonasi ozodaligini saqlash, o'quv qurollarini ta'mirlash, kitoblarni yelimlash, o'quv anjomlarini darsga tayyorlash va hokazolar).

Mehnatga ruhiy, axloqiy va amaliy tayyorlash jarayonida o'quvchilarda mehnatsevarlik, mehnatni tashkil etish jarayonida intizomga bo'ysunish, maqsadni amalga oshirish yo'lida shijoat, qat'iyat ko'rsatish, axloqiy-irodaviy xususiyatlar tarbiyalanib boradi.

Texnologiya fani va tarbiyasini tashkil etishda jamoa asosidagi mehnatni uyushtirish muhim masalalardan biridir. Zero, jamoa ishtirokida o'tkazilayotgan mehnat jarayonida o'quvchilarda do'stlik, o'rtoqlik, o'zaro yordam va hamkorlik, jamoa mehnat samaralaridan quvonish kabi xislatlar tarbiyalanib boradi. Shuningdek, ularda tashabbuskorlik, tashkilotchilik, mehnatga ijodiy yondashish, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish singari axloqiy sifatlarning shakllanishiga poydevor qo'yiladi.

Mehnat jarayonida o'quvchilarda mehnat madaniyatining unsurlarini hosil qilib borish muhim talablardan biri sanaladi. Mehnat madaniyati - bajarilayotgan ishga ongli munosabatda bo'lish, uni ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi (puxta rejalashtirish, vaqtdan unumli foydalanish), ish o'rnini ozoda tutish, mehnat (ish) qurollariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, boshlangan ishni natijalash, uning samarali bo'lishiga erishishga yo'naltirilgan faoliyat ko'rsatkichidir. Mehnat madaniyati tushunchasi o'zida yana o'quvchining mustaqil harakat olib borishini, mehnat qilishi va dam olishini to'g'ri tashkil eta olishni ham aks ettiradi.

Sharq mutafakkirlari ta'limni hech qachon tarbiyadan ajratib ko'rishmagan. Albatta, o'quv-tarbiya jarayonini, uni rivojlanishini ayri-ayri ko'rib bo'lmaydi. Zeroki, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov so'zlari bilan aytganda:

"Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi."

Hozirgi zamonda yetakchi olimlar, ilg'or pedagoglar tarbiya nazariyasidagi asosiy muammolarni aniqlash uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozimligini aytadilar:

- tarbiyaviy ish ma'nosini aniqlash;
- tarbiya istaklarini tasniflash;
- o'quvchilarning ma'naviy ehtiyoji, talabi;
- o'quvchilarning yoshi, sinfning umumiy saviyasiga mosligini inobatga olish;
- o'quvchi bilim saviyasi, mantiqiy fikr doirasining o'sishi, tarbiyasiga ta'sirini aniqlash;
- o'qituvchining shaxsiy xislatlarini shakllantirish, olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni tadqiq etish.

Shunga ko'ra, texnologiya fani va tarbiya jarayonlarining ajralmas qismlaridan biri mehnat darsida o'rganiladigan ta'lim mazmuni shaxsiy xislatlarini tarbiyalashning katta imkoniyatlariga egaligidadir.

Ayniqsa, bu mazmun shaxs tafakkurini yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarida uyg'unlashtirish va yanada yangi yuqori bosqichlarda rivojlantirish, axloqiy xislatlarni shakllantirish imkonini beradi. Bulardan tashqari, o'quv-tarbiya tizimidagi o'quv, ijtimoiy foydali va unumli mehnat, estetika, ta'lim vositalari mehnat, estetik va jismoniy tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlarini berishini ham qayd etish joizdir.

O'qituvchilarning o'quvchi bilan mehnat turlariga oid muloqoti, o'quvchilarning dars jarayonida sub'yektiv sifatidagi aktiv faoliyati, o'qituvchining o'quvchilar shaxsini shakllanishiga ijobiy ta'sir eta olishi bunday imkoniyatlarning yana bir qirrasidir. Shakl va mazmun jihatlardan ta'lim va tarbiya metodlari chambarchas bog'lanib ketgan.

Yuqorida keltirilgan dalillar yana bir marotaba ta'lim bilan tarbiyaning ajralmas jarayon ekanligini, o'quvchilarning atrof-muhitga, fan qonuniyatlariga, axloq, odob qoidalariga munosabati bevosita o'quv jarayonida boshlanib, darsdan va maktabdan tashqari faoliyatlarda davom etishini ko'rsatadi. Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning eng muhim xususiyati - aniq maqsadga yo'naltirilganligi.

Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi. Yagona maqsad unga erishish yo'li zamonaviy tarbiya jarayoni maqsadini tavsiflaydi.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanining o'qitish metodologiyasi nimalarga asoslanadi? nimalarga asoslanadi?
2. Texnologiya fanini o'qitishning qanday tamoyillarini bilasiz?
3. Texnologiya fani nazariyasining asosiy negizlarini izohlab bering.
4. Texnologiya fani va tarbiyasining uzviyligini misollarda yoritib bering.
5. Texnologiya fani ning tarbiyaviy imkoniyatlarini izohlab bering.

### **3-MAVZU: BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA TA'LIMINING MAZMUNI**

1. Boshlang'ich sinf texnologiya fani DTS tahlili.
2. O'quv fan dasturlarining mazmuni va ularning tahlili (1-4 sinflar kesimida).
3. O'quv dasturining mazmuni va unga qo'yilgan talablar.
4. Texnologiya darslaridagi amaliy ish turlari va mazmuni.

***Mavzuga oid tayanch tushunchalar:** Boshlang'ich texnologiya fani DTS, o'quv fani dasturlari, amaliy ish turlari: qo'l mehnati, maishiy mehnat, o'z-o'ziga xizmat, boshlang'ich sinflarda mehnat turlari.*

DTS da bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining tayyorgarligiga qo'yilgan talablar sifatida quyidagilar qayd etilgan :

Texnologiya fani o'qituvchisi :

-Dunyoqarash tavsifidagi tizimi bilimlarga ega bo'lishi, gumanitar va ijtimoiy –iqtisodiy fanlar asoslari, joriy davlat siyosatining dolzarb

masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi ;

- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslab bilishi, milliy g'oyaga asoslangan faol hayotiy nuqtayi nazarga ega bo'lishi ;

- Tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi ;

- Insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof –muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga olib bilishi ;

- Axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlarni qabul qila olishi ;

- Yangi bilimlarni mustaqil egallay olishi, o'z ustida ishlashi, o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila olishi lozim.

Demak, texnologiya fani o'qituvchisi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga yangi texnika va texnologiyalar bo'yicha axborot beruvchi shaxs hisoblanadi. U har tomonlama bilimdon, o'z kasbiga nisbatan iqtidorli inson bo'lishi kerak. Buning uchun esa, u oliy pedagogik ta'lim muassasalarida umumkasbiy fanlardan chuqur bilimlarni egallashi, ularni o'z faoliyatida qo'llay olishi kerak.

Ma'lumki, mehnat inson hayoti va farovon turmush madaniyatini yaratish uchun hamisha asosiy omillardan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Zero, mehnat kishilar uchun farovonlik va baxtli hayot kechirishning eng asosiy shartidir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da mehnat fanini o'qitishning sifatini oshirish bilan birga o'quvchilarda mehnat malakalarini shakllantirish masalalari belgilab berilgan. Mehnat fanidan tuzilgan o'quv dasturi umumta'lim maktablari 1-4-sinf texnologiya fanini o'qitishning mazmuni, maqsadi, vazifalari, tamoyillari va boshqa mezonlarini belgilaydi.

Dasturda jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlarga mehnat ta'limi bormi, ularni tarbiyalash sohasida qo'yilgan maqsad va vazifalar o'z ifodasini topadi. Texnologiya fani dasturi o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. Texnologiya fani o'qituvchisi o'zining kundalik faoliyatida bu dasturga amal qiladi va uning bajarilishi majburiy hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda o'qituvchi

o`quv dasturiga mahalliy sharoitni hisobga olib ma`lum o`zgarishlar kiritish mumkin. Bu borada bir qancha talablar hisobga olinishi lozim. Dasturning mazmuni didaktik prinsiplarga to`la – to`kis javob berishi, ilmiy va mafkuraviy jihatdan puxta bo`lishi, murakkabligi ortib borishini hisobga olgan holda va mehnat ta`limining tanlangan didaktik tizimiga muvofiq ravishda muayyan izchilikda bayon qilinishi turmush tajribasi bilan bog`langan bo`lishi kerak. Unda mehnat o`rinlari politexnik xususiyatlariga ega bo`lishi, ularning tavsiya qilinadigan ro`yxati esa ijtimoiy ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo`lishi lozim.

O`quvchilarni tarbiyalash ularni bo`lajak amaliy faoliyatga tayyorlashda mehnat malakalari va ko`nikmalari katta rol o`ynaydi. Quyi sinf o`quvchilariga mehnat ta`limini berish vazifalaridan biri ularda bir qator mehnat malakalari va ko`nikmalarini shakllantirishdir. Mehnat malakalari va ko`nikmalari natijasi bo`lib qolmay, balki o`quvchilarni mehnat faoliyatiga, ijtimoiy foydali ishlab chiqarish mehnatini bajarishga jalb qilish sharti hamdir.

1-4 sinflarda mehnat ta`limi fani mazmuni shartli ravishda umumiy mehnat ta`limi tayyorgarligi, uning mazmunida mavjud bo`lgan kasblar atroflicha ma`lumotlari bilan tanishish hamda shu yoshga xos maxsus tayyorgarlik qismlaridan iborat.

Texnologiya fanidan tuzilgan dastur o`quvchilar umumta`lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo`yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi. Dastur o`z mohiyatiga ko`ra o`quv dasturlari, darsliklar, qo`llanmalar, hamda me`yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo`lib xizmat qiladi va o`zining tuzilishi hamda mazmuniga ko`ra maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi. Eng asosiysi o`quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustivorligidan kelib chiqadi.

O`quv dasturi asosida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijalaridan foydalangan holda aniqlash va nazorat qilish uchun o`quvchilarning o`zlashtirilgan bilim, ko`nikma va malakalari quyidagi mezon bo`yicha baholanadi.

1. Shakllangan nazariy bilimlar.
2. Shakllangan ko`nikma va malakalar.
3. Milliy hunarmandchilik sohalari bo'yicha shakllangan umumta`lim bilimlari.



4. Milliy hunarmandchilik kasblari bo'yicha shakllangan mahorat.

5. Milliy hunarmandchilik sohasida shakllangan ijodkorlik.

Ushbu mezonning har biri quyidagi to'rttadan yo'nalish bo'yicha baholanadi:

- asboblardan foydalanishni egallash;

- moslamalar ijod qilish;

- tayyorlangan buyumlar yoki mahsulotlar sifatini aniqlash;

- erishilgan natijalarning iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash asosida baholanadi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya faniga tayyorlash dasturi bolalarni har tomonlama kamol toptirishga aqliy va jismoniy, axloqiy va estetik kamol toptirishga va tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

a) bolalarni mehnat tajribasini, ularni kishilar ishlab chiqarish faoliyati to'g'risidagi bilimlarni kengaytirish, mehnatsevarlikka, mehnat va mehnat kishilariga munosib munosabat ruhida tarbiyalash;

b) mehnat malakasi, mehnat madaniyatini, o'z ishi va o'rtoqlarning ishini rivojlantirish va tashkil qilish malakalarni rivoltantirish;

Dasturda 3 ta asosiy bo'lim bor:

“O'z –o'ziga xizmat ko'rsatish”

“Texnikaga oid mehnat”

“Qishloq xo'jalik mehnati”.

Har bir sinfda mehnatning maxsus turi – “texnikaviy modellar yasash” – uchuvchi, suzuvchi, harakatlanuvchi, eng oddiy texnikaviy o'yinchoqlar tayyorlashga vaqt ajratilgan.

Bizga ma'lumki, mehnat ta'limi darslari maktabda eng uzoq vaqt o'tiladigan o'quv fanlardan biri bo'lib, mehnat ta'limi fani o'qituvchisi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar-mehnat faoliyati jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqida bilimlarni hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko'nikma va malakalarini egallashlariga ongli ravishda kasb tanlashga, hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivijlantirishga qaratilgan o'quv fanidir.

Maktabda mehnat ta'limi III bosqichda tashkil etilib, ulardan ko'zlangan maqsad o'quvchilarni jismoniy tomondan to'g'ri rivojlantirish, mehnat olami va kishilari, qurollari va amallari, asosiy ishlab chiqarish sohalari va kasblari bilan tanishtirish, ish qurollaridan to'g'ri foydalanish, oddiy buyumlarni yasashga oid mehnat malakalarini hosil qilish, ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirishdan iborat.

I bosqich: 1-4 sinflardagi mehnat darslarida o'qituvchi o'quvchilarga kishilarning hayotida mehnatning tutgan o'rni, eng sodda mehnat amallari va ish qurollari ulardan foydalanishga oid dastlabki ma'lumotlarni o'quvchilarda qog'oz, yelim, gazlama, ip, plastilin kabi materiallardangina, qaychi, pichoq kabi mehnat qurollari yordamida buyumlar, o'yinchoqlar yasash, tayyorlash orqali dastlabki mehnat ko'nikmalari shakllantiriladi. Odatda, bu darslarni qo'l mehnati yoki to'g'ridan to'g'ri mehnat darslari deb yuritiladi.

II-III bosqich yuqori sifatlardagi mehnat ta'limi darslari kiradi, ya'ni II bosqich 5-7 sinflar turkumida, III bosqich 8-9 sinflar kesimida amalga oshiriladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi darslarini o'qitishda o'qituvchi tomonidan o'z oldiga qo'yilgan asosiy vazifa o'quvchilarning jismoniy tomondan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, ijodiy qobiliyatlarini tarkib toptiradi. Bundan esa quyidagi maqsad va vazifalar kelib chiqadi:

- O'quvchilarda umummehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- Ularning qiziqishlari;
- Qobiliyatlari;
- Kasbiy moyillikka ko'ra, kasb-hunar turlarini tanlashga asos bo'ladigan hislatlari;
- Umummehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish;
- O'quvchilar tomonidan bajariladigan ishlar moddiy ne'matlar yaratishga qaratilgan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat.

Bolalarda buyumlarni yasash tartibi haqida, ya'ni belgi qo'yib chiqish(razmetka), tayyorlash(zagatovka), yig'ish, ishlov berish to'g'risida, ishlatib ko'rish, xato va kamchiliklarni yo'qotib ish o'rnini to'g'ri tashkil qilish va boshqalar to'g'risida tasavvur hosil bo'ladi. Bu elementlarning barchasi keyinchalik andoza(model)lar va

texnikaviy o`yinchoqlar tayyorlashda qo`llaniladi, umumlashtiriladi, bolalarning ijodiy fikrini o`stiradi, to`plagan mehnat tajribasini tevarak atrofdagi texnika bilan bog`lashlariga yordam beradi. Texnologiya fani dasturi talablari quyidagilarni o`z ichiga oladi;

1. Buyumlarning kundalik ehtiyoj uchun zarurligi;

2. Narsa-buyum yoki ishni bajarish jarayonida bolalarga berish mumkin bo`lgan programmada ko`rsatilgan bilim va malakalarning mazmundorligi.

3. Barcha o`quvchilarni darsda band qilish imkoniyati.

Texnologiya fani dasturi talablariga muvofiq o`quv dasturi mazmuni belgilanadi. Boshlang`ich sinf o`qituvchisi 1-sinf o`quv dastur mazmunini shakllantirishi uchun o`quvchilarning mehnat ta`limi bo`yicha qanday ishlarni amalga oshirib borishi, u yoki bu ishni bajarish natijasida qanday ko`nikma, bilim va malakalarni egallashlarini aniq bilishlari kerak. Ana shunday holda o`qituvchi sinf uchun shu vaqtda zarur bo`lgan materiallarni tanlash imkoniyatiga ega bo`ladi. Bu o`rinda muhimi, o`quvchilar mazkur materiallarni tayyorlash jarayonida dastur nazarda tutgan bilim va malakalarni egallab olishlarini nazarda tutishi kerak. Bilim va malakalar mehnatning quyidagi turlaridan:

1. Qog`oz va karton bilan ishlash.

2. Gazlama bilan ishlash.

3. Turli materiallar bilan ishlash.

4. Texnik modellashtirish.

5. Qishloq xo`jaligi mehnati turlarini egallab olishlaridan iboratdir.

2-sinf dasturining mazmuni – boshlang`ich sinflarda texnologiya fani darslaridagi ta`lim-tabiiyaviy vazifalar umumta`lim maktablaridagi texnologiya fanining umumiy vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi mashg`ulot turlari jarayonida amalga oshiriladi.

1. Qog`oz va karton bilan ishlash.

2. Gazlama bilan ishlash.

3. Turli materiallar bilan ishlash.

4. Texnik modellashtirish.

5. Qishloq xo`jaligi mehnati.

Har bir o`quv yilida barcha sinflarda ish turlari shu tartibda olib boriladi.

Birinchiidan, o`quvchilar ma`lum nazariy bilimlarga ega bo`ladilar, ularning fanlararo texnologik xususiyatlarini, ularning hayotda qo`llanishi bilan tanishadilar.

Ikkinchiidan, materiallarga ishlov berishda eng oddiy usullardan boshlab murakkab usullargacha amaliy o`rganadilar.

O`zbekiston tabiiy resurslar, foydali qazilmalar, o`simliklar, qushlarga boy o`lkadir. Bu o`z navbatida, boshlang`ich sinflardagi mahalliy tabiiy material bilan ishlashni tashkil etish ishlari yanada yaxshilash imkonini hosil qiladi. Aynan atrofdagi sharoit bizga shunday imkoniyatlar yaratadi.

Bunday imkoniyatlar ilk yoshdan boshlab bolalarda ona tabiatga qiziqish va muhabbatni tarbiyalashga juda qo`l keladi. Tabiiy materiallar bilan ishlash ularni tabiatni kuzatishga majbur qiladi. Tabiiy materiallarni o`quvchilar dastlab o`qituvchi rahbarligida sayr vaqtda to`playdilar. Tabiiy materiallarni to`plash jarayonida o`quvchilar atrofdan o`simlik dunyosi, hasharotlar bilan tanishadilar.

Turli materiallar bilan ishlash darslarining texnologik xususiyatlarini qog`oz va karton bilan ishlash, hamda gazlama va tolali materiallar bilan ishlash darslaridan farq qiladi. Chunki, qog`oz, karton va gazlama tayyor mahsulot bo`lib, ulardan turli o`yinchoqlar, ularning chiqindilaridan yana kichikroq narsalar yasaladi. Turli materiallar bilan ishlashda eng avval qaysi narsadan nimalar yasash mumkinligini, avvaldan izlanib, rejalab, tabiat qo`ynidan yig`ib olingan, so`ng reja asosida turli o`yinchoqlar, ertaklar asosida ko`rsatmali ko`rinishlarga boy personajlar, qofiyalari, turli rangli manzaralar yasaladi.

Texnologiya darsida turli tabiiy materiallar – daraxt, novdalar, qamish, poxol, g`o`za chanoqlari, yong`oq, qum, loyning ishlatilishi hamda plastik massalar: plastilin lentalar, plyonkalar, gugurt qutilari, g`altak iplari, turli chiqitlar: tuxum po`stloqlar, xandon pista va danak po`choqlari, bo`shagan plastmassa idishlar, ishlatiladimi, tashlab yuborish mumkin bo`lgan bu narsalar bolalarni tejamkorlikka o`rgatadi. Tashlandiq narsalardan ham kerakli buyumlar, estetik zavq ola biladigan, ayniqsa o`z ko`rinishi, mazmuni bilan bolalarni tarbiyalash mumkin bo`lgan narsalar yasalishi ular tarbiyasiga ijobiy ta`sir qiladi.

Turli tabiiy materiallarni to`plash, saqlash yo`llarini, ularga ishlov berishni bolalarga tabiashunoslik darsida olgan bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi.

Turli materiallar bilan ishlash mashg`ulotlarini rejalashtirish va materiallarni tanlashda mahalliy sharoitlardan kelib chiqish, o`lka iqlimi, tabiati, ishlab chiqish korxonalari va shu kabilarni e`tiborga olish kerakligini unutmaslik lozim. Bunday mashg`ulotlar bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o`stiribgina qolmay ularning ijodkorligini o`stiradi, estetik hissiyotlarini shakllantiradi.

Barcha materiallarni o`rgatishdagi uzviylik bu yuqorida aytganimizdek ular xoh tabiiy, xoh sun`iy bo`lsin ularning barchasida ham bolani e`tiborini jalb qila oladigan predmetlar bilan ishlash zarur. Chunki, bolani qiziqтира olmagan buyum uni mehnat aniqrog`i ijodiga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Sababi, o`zi qiziqmagan buyumdan o`quvchi faqatgina o`qituvchi talabi uchun shunchaki, yuzaki yondashib buyum yasaydi. Bu esa o`quvchini o`z mehnatidan zavq olishiga xalaqit beradi. Natijada jo`shqin, ijodkor o`quvchi mana shunday mashg`ulotlarga qiziqmay qo`yishi mumkin. Shu sababli nafaqat materiallar bilan ishlashda, balki har bir mavzu jarayonida ham o`z kasbining mohir ustasi bo`lgan o`qituvchigina dars bersa, kelajakda bolalarning ijobiy natijalariga erishishi yuqori darajada bo`ladi.

Turli materiallarning o`ziga xos texnologik xususiyatlari xilma-xilki, ulardan narsalar yasashda material sifatida ham, yasalgan narsaga bezak berish material sifatida ham foydalanish mumkin.

Turli material bilan ishlash jarayonida bolalar quyidagi malaka va ko`nikmalarni egallaydilar.

1. Turli materiallarni to`plash va saqlash qoidalari bilan tanishish. Tevarak atrofni muhofaza qilish.

2. Turli tabiiy materiallarga ishlov berish va rivojlatirish.

3. Turli materiallarni to`plash uchun atrof muhitdan, obyekt tanlash.

4. Turli tabiiy materiallardan nimani yasay olishni tahlil qilish hamda ularga ishlov berish asboblarni tanlash.

5. Mustaqil fikrlab, ijodkorligini namoyon qilish, ijodkorlik qobiliyatlarini o`stirish.

6. Materiallarning qolgan barcha turlari bilan tanishtirish (yog`och, yumshoq sim, tunuka, turli chiqindilar to`plashlari kerak).

7. Obrazlar, personajlar, o`yinchoqlarni yaratishda konstruktorlik va ijodiy o`stirish.

8. Yog`och va materiallarga ishlov berish asboblari bilan tanishtirish, ya`ni pichoq, bolg`a, arra, bigiz, qaychi kabilardir.

Bolalarga turli materiallar bilan ishlash alohida qiziqish uyg`otadi. Ayniqsa, o`quvchilar loy, plastilin va tabiiy materiallar daraxtlarning shoxlari, chinor urug`lari, turli qurigan barglar, daraxt po`paklari, yelimlardan foydalanib qushlar, jonivorlar shakllarini qiziqib yasaydilar.

Barcha sinflarda oquv dasturi asosini, (ayniqsa, 1-sinflarda) bolaning ish xususiyatlarini hisobga olib, sanchmaydigan, qirqmaydigan, kesmaydigan asboblardan foydalangan holda po`pak, turli bo`sh qutilar, qutichalar, daraxtlarning urug`lari, qurigan barglardan, yelimlab, yopishtirib, plastilin yordamida yopishtirish yo`li bilan turli shakldagi o`yinchoqlar yasashni o`rgatish ishlari tashkil etishi kerak. Bu ishlarni o`rgatish jarayonida bolalarda yig`ilgan tabiiy materiallarni ip bilan ishlatishga, turar joyni asrab-avaylashga, tabiatni muhofaza qilishga o`rgatish bilan bir qatorda tejamkorlik hissini rivojlantirib borish ham shakllanadi.

Xullas, texnologiya fani dasturida o`quvchilar texnologiya darslarida egallashi lozim bo`lgan ilmiy texnik bilimlarning, mehnat ko`nikmalarini va malakalarni hajmi hamda mazmuni belgilab boriladi.

Texnologiya darslarida ta`limning amaliy turlari - dars jarayonining asosiy qismlaridan biri bo`lib hisoblanadi. U o`zaro bog`langan bir necha elementlardan oddiy asbob va moslamalardan foydalana bilish, kerakli operatsiyalarni to`g`ri va ratsional amalga oshira bilish, ya`ni u yoki bu materialga ma`lum izchillikda ishlov bera borish, yo`l qo`yilgan xatoni o`z vaqtida aniqlash va to`g`rilay olish kabilardan tarkib topadi. Texnologiya fanining mazmuniga muvofiq o`quvchilar mazkur yosh uchun qulay bo`lgan materiallarga ishlov berishda qo`llaniladigan oddiy asbob va moslamalarni ishlatishning amaliy malaka va ko`nikmalarini egallaydilar.

Amaliy malaka va ko`nikmalar bilan qurollantirish asosiy ishlab chiqarish operatsiyalarini o`rgatish ham demakdir. Boshlang`ich sinf o`quvchilari duch keladigan buyumlar texnologiyasi xilma-xildir, biroq bu masalani batafsil o`rganmasdanoq ish operatsiyalarining

tipikligini sezib olish qiyin emas, ular: materialni o'lchash va belgilash, ularga qirqib ishlov berish, qismlarni yelimlash; tikish, o'rish va bog'lash kabi yo'llar bilan birlashtirish va mustahkamlash, detallarni yig'ish va buyumni montaj qilishdir. Yakunlovchi operatsiya buyumni bezashdir. Boshlang'ich sinfda ta'limning amaliy turlari quyidagilardan iborat:

1. Mehnatning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish turi
2. Maishiy-xo'jalik mehnati
3. Tabiat quchog'idagi mehnat
4. Qo'l mehnati.

Xilma-xil mehnat turlari o'zining pedagogik imkoniyatlariga ko'ra bir xil emas: ularning ahamiyati u yoki bu yosh bosqichida o'zgaradi.

**Mehnatning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish turi** o'ziga xos xususiyati bilan ahamiyatli. Masalan, agar o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish birinchi sinflarda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etsa (u bolalarni mustaqillikka, qiyinchidliklarni yengishga o'rgatadi, malakalar bilan qurollantiradi). 2-3-sinflarda esa mehnat endi hech qanday zo'r berishni talab qilmaydi va u bolalar uchun odatdagi bir hol bo'lib qoladi.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish mehnati bolaning ichki dunyosini ma'lum darajada to'ldirib boradi: bola foydali ish qilishiga, tevarak atrofdagilarga qo'lidan kelgunicha yordam berishga intiladi.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish-bu tanasining tozaligiga, kostyumining batartib bo'lishiga muntazam sur'atda harakat qilish, buning uchun nimayiki zarur bo'lsa, barchasini ta'kidlashsiz o'z ichki talabidan kelib chiqib bajarishga tayyor turish, gigiyena qoidalariga rioya qilishdir.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish bola uchun mehnatning asosiy turi bo'lib hisoblanadi. Bolalarni kiyinishga, yuvinishga, ovqatlanishga, kitoblarni o'z joyiga yig'ishtirib qo'yishga o'rgatish ularda mustaqillikni kattalarga kamroq qaram bo'lish va o'z kuchiga ishonish hissini, to'siqlarni yengib o'tish istagi va ko'nikmasini shakllantiradi. Bolalar mehnat tarbiyasining asosiy mazmunini hisoblangan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish o'z o'rnini mehnatning boshqa turlariga asta-sekin bo'shatib beradi.

Maktabda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishni tashkil etish va uning tarbiyaviy natijasi pedagogik jihatdan to'g'ri rahbarlik qilishda bog'liqdir. Chunki aynan ana shu katta yoshdagi kishilar o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishni hamma bolalar ishtirok etadigan, mehnat vazifalari va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish metodining mazmunini asta-sekin murakablashib boradigan xaqiqatdan ham mehnatning bu turini bolalarni tarbiyalash vositasidan biriga aylanadigan qilib tashkil etish metodi bo'yicha ijobiy fazilatlar hamda odatlarni ehtiyotkorlik, batartiblik, mustaqillik, mehnatsevarlik va shu kabilarni tarbiyalash bo'yicha jiddiy, qat'iy ish olib borish kerak.

Maishiy-xo'jalik mehnatini bajarish bolalarda alohida emotsional kayfiyat, mehnatsevarlik, tirishqoqlik atrofdagilarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, mehnat faoliyatining ijtimoiy ahamiyatli sabablari va shu bilan birga bolaning jamoatchilik asoslari kabi axloqiy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi.

Maktabda maishiy-xo'jalik mehnati o'z mazmuniga ko'ra xilma-xildir.

Bolalarni maishiy xo'jalik mehnatiga muntazam jalb etish tirishqoqlik ko'rsatib ishlash odatini hamda shaxsning mustaqillik, bir-biriga g'amxo'rlik qilish, kattalarga iltifot ko'rsatish ular uchun biror bir yoqimli ish qilish istagi kabi sifatlarni tarbiyalash imkonini beradi.

Maishiy-xo'jalik mehnati jarayonida bolalarga narsalarga tejamkorlik bilan munosabada bo'lish ko'zga ko'rinmas tartibsizlikni seza bilish va o'z tashabbusi bilan uni bartaraf etishini tarkib toptirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

7 yoshli bolalar uchun bunday mehnatni tashkil etishning eng maqbul shakli navbatchilikdir. O'quvchilar navbatchilik vaqtida binoni(xona poli, eshik va oynani tozalab yuvish), maydonchalarni tartibga keltirish va shu kabilar bilan aloqador mehnat topshiriqlarini bajarish imkoniga ega bo'ladilar.

Maishiy-xo'jalik mehnatining ijtimoiy ahamiyatini bolalarning anglab olishlari uchun ular bilan bo'ladigan tarbiyaviy ishda mazmunan muvofiq keluvchi badiiy adabiyot kitoblar ilyustratsiyali rasmlar (masalan, «navbatchilik», «oilada bayramga tayyorgarlik») mazkur manbalar haqidagi suhbatlardan foydalaniladi.

Maishiy-xo'jalik mehnat mazmuniga kattalarning jamoa mehnatlarini kuzatish ishlari ham kiradi.



Bu kattalar mehnati haqidagi bilimning o'sishiga yordam beradi. Ayniqsa, kattalarning turmushdagi mehnatiga qiziqish va qo'llab-quvvatlashni, ularning har biri boshqalar uchun mehnat qilishi kerakligi haqidagi umumlashtirilgan tasavvurlarni shakllantirish masalasini ham hal qiladi.

Mehnat jarayonida bolalar katta odamning mehnatiga taqlid qiladi. Bu o'z navbatida, faqat ish usullarinigina ko'rsatib qolmay, u kundalik odatiy mehnatga qanday munosabatda bo'lish namunasi ham bo'ladi.

II sinf o'quvchilarini maishiy-xo'jalik mehnatga jalb etishda bir necha bolalarga biror bir ishni bajarish bo'yicha o'qituvchi topshiradigan umumiy topshiriqlar muhim o'rinni egallaydi. Bunday topshiriqlarning tarkibi xilma-xil va ular butun sinf uchun biror narsa qilish zarurligiga asoslanadi.

O'qituvchi bolalarni maqsadni mustaqil qo'yishga, ishni rejalashtirishga, uni oxirigacha yetkazishga asta-sekin odatlantiradi. Garchi sinfni tartibga keltirish zarurati har doim mavjud ekan, demak bu narsa juda muhimdir.

III sinf bolalarning maishiy-xo'jalik mehnatini tashkil etishning asosiy formasi-ularni ijtimoiy ahamiyatli mazmunga ega bo'lgan jamoa mehnat faoliyatiga jalb etishdir.

Xulosa qilib aytganda, 7 yoshli bolalarning maishiy-xo'jalik mehnatida aktiv ishtirok etishlari bir vaqt 2 yo'nalishda: ijtimoiy ahamiyatli mazmunga ega bo'lgan jamoa mehnat faoliyati va topshiriqlarni, navbatchilik majburiyatlarini, atrofdagilarga foydali bo'lgan faoliyat maqsadini realizatsiya qilish bilan aloqador ishlarni bajarish orqali amalga oshiriladi. O'quvchilarga sinf xonasida tartib o'rnatishni, shkaflarning changini artishda va shu kabi ishlarda kattalarga maqsadlarini qo'yishda ularning o'zlari qilmoqchi bo'lgan ishlarining foydasini tushunishlariga, ularning mehnat faoliyatlari atrofdagilar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini anglay olishga erishish eng muhimdir.

O'quvchilarning atrofdagilarga yordam berishga yo'llangan qandaydir maishiy-xo'jalik mehnati ishlarini bajarishlarini tashkil etarkan, o'qituvchi har qanday vaziyatdan, har qanday tavsilotdan foydalanishga, o'quvchilarning birorta ham harakatlarini e'tiborsiz qoldirmaslikka intiladi.

Tabiat quchog'ida mehnat 2 xil yo'l bilan amalga oshiriladi.

1. Sinfda bajariladigan ishlar.

2. Sinfdan tashqari, ya'ni sinf uchun ajratilgan yer uchastkasida ishlash.

Muntazam jamoada ishlash bolalarni birlashtiradi, ularda mehnatsevarlik va topshirilgan ishga mas'uliyatni tarbiyalaydi, ularga qoniqish va shodlik baxsh etadi. Bolalarning sinfdan tashqari ish turlariga yer uchastkasida, jumladan, ekinzorda, gulxonada, mevazorda ishlash, shuningdek, tabiat burchagida o'simliklarni parvarish qilishlar kiradi. Bolalar shularga tegishli ish usullarini o'rganadilar, o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi haqida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Tabiatdagi mehnat bolalarda kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, tabiatni sevish, Vatanimiz boyligini yaratish va uni ko'paytirish, jonli narsalarga, mehnat natijalariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni o'rgatish maqsadida amalga oshiriladi.

O'simliklarni o'stirish va jonivorlarni parvarish qilish bo'yicha mehnat ularni tabiat burchagida parvarish qilishni, ekinzor tashkil etish va sabzavotlarni o'stirishni, gulxona tashkil etish va gullarni o'stirish, o'simlik va mevali daraxtlarni parvarish qilishni o'z ichiga oladi.

Tabiat burchaklaridagi qushlar, akvariumdagi baliqlarni parvarish qiladilar va jonivorlar haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Tabiat burchagidagi va uchastkadagi jonivorlar va o'simliklarni parvarish qilish bo'yicha eng muhimlari sifatida quyidagi mehnat jarayonlarini ajratib ko'rsatish kerak.

- qush va boshqa jonivorlar qafasini tozalash. (Tagliklarni, kalta tayoqchalarni, qum va suv qo'yiladigan idishlarni yuvish;

- ularni oziqlantirish;

- akvariumdagi suvlarni almashtirish, mayda toshlarni yuvish, baliqlarni parvarish qilish;

- xona o'simliklarini sug'orish, parvarishlash;

- ekinzordagi ekinlarni, gulzordagi gullarni tagini yumshatish, suv qo'yib turish;

- ekin va mevalarni terib olish.

Qo'l mehnati ham boshqa mehnat turlari kabi bolalarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish va ularni axloqiy jihatdan o'stirish va

ularni axloqiy jihatdan tarbiyalashning muhim vositasi hisoblanadi. Qo'l mehnati turlariga o'quvchilarning qog'oz, karton, gazlama va boshqa materiallardan o'z qo'llari bilan turli buyumlar yasash ishlari kiradi.

Bu mehnat jarayonida o'quvchilar turli buyumlar yasash uchun ishlatiladigan materiallarning o'ziga xos xususiyatlari bilan qo'l mehnati uchun kerakli asboblarning tuzilishi va bu asboblarning ishlatilishi yo'llari bilan tanishadilar, matematika, tabiat, rasm va shu kabi boshqa fanlardan olgan bilimlarini amalda qo'llanilishini o'rganadilar.

Boshlang'ich sinflarda qo'l mehnati politexnika ta'limi yo'lidagi birinchi qadam bo'lib bolalarni yuqori sinflarda maktab o'quv ustaxonasi hamda o'quv-tajriba uchastkalarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarga tayyorlaydi. Qo'l mehnati mashg'ulotlarida bolalarga eng oddiy buyumlar – o'yinchoqlar, o'yin uchun kerakli buyumlar, ko'rgazmali qurollar, o'qish asboblari va shu singari narsalar yasash o'rgatiladi. Qo'l mehnati dasrlarida bolalarga asboblarning tuzilishi va ishlashini, buyum yasashga ishlatiladigan materiallarning eng muhim xususiyatlarini ko'rsatib tanishtirish, suhbat chog'ida bu xususiyatlarni yaqqol ko'rsatish uchun eng oddiy tajribalar qilib ko'rish zarur. O'quvchilarda konstruktorlik sohasidan dastlabki ko'nikmalar, fazoviy tasavvur, ko'z bilan chamalash malakasini o'stirib borish nihoyatda katta ahamiyatga ega. Qo'l mehnati darslarida bolalarni buyum yasash uchun qancha material kerakligini eng oddiy ravishda hisoblash va o'lchashga, o'lchab-qirqishga, buyumning katta kichikligini ko'rishga muttasil o'rganib borish kerak.

Bolalarda mehnat madaniyati, botartiblik va shaxsiy gigiyena malakalari hosil qilib borishda ish joyining hamma vaqt tartibli bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Qog'oz va karton bilan ishlashda avvalambor ularning turlari o'rganiladi. Qog'oz va kartonning sanoat va turmushda qo'llanilishi haqida suhbat uyushtiriladi.

Qog'ozga kitoblar, gazetalar bosilishini, unga ruchka qalam bilan yozilishini barcha o'quvchilar yaxshi biladilar. Shuning uchun mehnat ta'limi o'qituvchisi bolalarning ko'proq e'tiborini turmushda tez-tez uchraydigan yoki qo'l mehnati darslarida foydalaniladigan turlariga jalb qilishi kerak. Qog'oz masalan buklanadi, yelimlanadi, unga tasvir

tushirsa bo'ladi va hokazo. Uning xususiyati haqida bolada tasavvur hosil bo'lishi darkor.

Qog'ozdan buklash ishi:

1-sinf o'quvchilari qog'ozdan xatcho'p, bosh kiyimi, bayroqcha, archa bezaklari va turli o'yinchoqlar yasashni o'rganadi.

2-sinfda turli hajmdagi buyumlar, qutichalar, ona tili va matematika fanlari uchun ulashib beradigan kartochkalar, qalamdon va hokazo.

3-sinf daftar, kitob soladigan xaltachalar, andaza asosida geometrik figuralar applekatsiya ishlari, uy shakli.

4-sinfda harakatli o'yinchoqlar, turli hayvonlarning shakllari, ertak illyustratsiyalar ishlanadi.

qog'ozni tejash.

1. Gazlama bilan ishlash.

Boshlang'ich sinflarning texnologiya bo'limida dastur, qog'oz va karton bilan ishlash bo'limiga va gazlama bilan ishlash bo'limiga teng soat ajratilgan.

1-sinfda gazlama va tolali materiallar bilan ishlash 6 soat bo'lsa, qog'oz va karton bilan ishlashga 8 soat ajratilgan.

2-sinfda gazlamaga 8 soat bo'lsa qog'oz va kartonga 7 soat ajratilgan.

3-sinfda gazlamaga 11 soat qog'oz va kartonga 1 soat ajratilgan.

4-sinfda gazlama 10 soat bo'lsa, qog'oz va karton 12 soat.

1-sinfda gazlama va tolali materiallar bilan ishlash bo'limi asosan suhbatlar va chok tikish ilk mashqlari o'tkaziladi. Gazlama va tolali materiallarning tayyorlanishi paxta, kanop tolalari, junning qayerda yetishtirilishi, dehqonlar va chorvadorlar mehnati haqida tushuncha beriladi. Gazlamalar turlari haqida gapirilib ularning turlari ko'rsatiladi.

Asosan, gazlamalar va tolali materiallarni ishlatishda tejamkorlik xususiyatini shakllantirish, 1-2 sinflarda keng miqyosda tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ko'p soat berilganligi uchun ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. 1-sinfda kashta tikish turlari bilan tanishtirishdan boshlab, kiyim-kechaklarni tartibga solish mavzularida ish olib boradilar. Biz 1-sinfda gazlamalarning turlari, xossasi, ishlatish o'rnini suhbat asosida o'quvchiga tushuntirar ekanmiz, xomashyo gazlama bo'lib kelgunga qadar

mehnatkashlarning qo'lidan o'tishi ularning ko'p mehnati singanligi, shuning uchun gazlamalardan bo'lgan kiyimlarimizni asrab-avaylashimiz ham tejamkorlikning 1 turi ekanligini uqtirishimiz lozim.

2-sinfda 1-sinfda mehnat malakalari davom ettiriladi. Gazlama bilan ishlatiladigan asboblarning to'liq nomini bilishi kerak, ular bilan ishlash ko'nikmasini hosil qilish kerak.

Choklar nomlari va turlarini o'rganish. Kiyimlarga matodan aplikatsiya ishlari bajariladi.

3-sinfda asosan to'r to'qish, fartuk tikish, ularni naqshli kashtalar bilan bezash mavzulari o'tiladi.

3-sinfda tikish malakalari yanada rivojlangan, bimalol igna bilan ishlay oladilar.

Eng muhimi ularni tejab, joy-joyiga ishlata bilish kerak.

Rang tanlash.

3-sinfning 1-choragida ish fartugi, salftkalar, sanitar sumkalari tikiladi. Unda o'qituvchi o'quvchilardan bu ishlarni mustaqil talab qilishi kerak.

#### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Boshlang'ich texnologiya fani DTS mazmunini yoritib bering.
2. O'quv fani dasturi qanday hujjat va u qanday mazmunga ega?
3. O'quv dasturi mazmunini yoritishda qanday talablar qo'yilgan?
4. Mehnatning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish turi qanday tashkil qilinadi?
5. Tabiat quchog'idagi mehnat turlari va ularni qanday tashkil qilish mumkin?
6. Qo'l mehnatining turlarini aytib bering.

#### **4-MAVZU. BOSHLANG'ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIGA KOMPETENSION YONDASHUV**

##### **Reja:**

1. Boshlang'ich sinflarda texnologiya darsi mavzulariga qo'yilgan talablar.

2. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi tuzilishi o'ziga xos xususiyatlari va mazmuni.

3. Barcha materiallarni o'rganishdagi uzviylik va uzluksizlik.

***Mavzuga oid tayanch tushunchalar:***

*Boshlang'ich sinfda texnologiya darsi, texnologiya kursining tuzilishi, o'ziga xos*

*xususiyatlari, mazmuni, mavzulararo uzviylik va uzluksizlik, ko'rgazmalilik, nazariy bilim, texnologiya darsida kompetensiyon yondashuv*

Boshlang'ich sinfda o'tiladigan har bir texnologiya darsi ta'limiy va tarbiyaviy xarakterga egadir. Ta'lim jarayoni o'z navbatida o'quvchilarga axloqiy, ma'naviy, g'oyaviy-siyosiy, texnologiya, estetik, iqtisodiy, ekologik va jismoniy tarbiyani ham berib boradi. Tajribalardan ma'lumki, pedagogik talablar asosida tashkil topgan har qanday yaxshi dars o'quvchilarni mazmunli va samarali bilimga ega bo'lishlarini, e'tiqod va amaliy harakatlar birikmasi sifatida esa vatanparvarlik g'oyalarini, ularning hayotiy nuqtayi nazarini, ishiga cheksiz sadoqatini shakllantiradi. Pedagogik talablar asosida o'qitiladigan texnologiya darslarining ahamiyati yana shundaki, dars davomida o'quvchilarda puxta bilim hosil bo'ladi, texnologiyaga ijobiy munosabat tarbiyalanadi va ularga texnologiya ko'nikmalari hamda malakalari singdiriladi. O'quvchilar tomonidan egallangan bilimlar, shakllangan malakalar va hosil bo'lgan ko'nikmalar ularni moddiy ishlab chiqarish sohasidagi amaliy faoliyatga va kasbni ongli tanlashga tayyorlaydi.

Texnologiya darsining xususiyatli tomonlaridan biri shundaki, o'qitish vazifasi faqat uyg'un birlikdan tashkil topgan ta'limni emas, balki mazkur sinfni, umuman har bir o'quvchining alohida xususiyatlarini nazarda tutuvchi eng yuqori aniqlilik ham bo'lishi kerak. Ma'lumki, boshlang'ich sinfda ta'lim oluvchi o'quvchilar yosh xususiyati, idrok etish qobiliyati, xotiralashi, texnologiya sohasida tayyorgarliklari, tengdoshlari bilan munosabati, qiziqishlarining har xilligi, xatti-harakatidagi madaniyat shakllari, tartib-intizomiga ko'ra bir-birlaridan farqlanadilar. Shu bois, har bir dars tuzilishi o'quv materialining maqsadi va mazmuni, o'quv faoliyatining tashkil etilishiga qarab aniqlanadi. Zamonaviy texnologiya darslari mazmuni, o'quv faoliyatini tashkil etish usul va shakllari qanday talablarga javob berishi kerak?

Bu borada ta'kidlash joiz, texnologiya darslari mazmuniga qo'yiladigan eng muhim talab - o'quvchilar faolligini oshirish maqsadiga qaratilgan bo'lishi kerak. Talabning bunday qo'yilishi o'quv jarayoni davomida o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarda kundalik xatti-harakatning asosi sifatida keng dunyoqarash va axloq asoslarini shakllantirish uchun eng qulay sharoitlarni ta'minlash zarurligidan dalolat beradi.

Texnologiya dars mazmunining ilmiy asosda bo'lishi eng muhim talablardan hisoblanadi.

Zamonaviy boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi boshqa predmetlar ta'limi singari o'quvchilarni nafaqat nazariy ma'lumotlar bilan qurollantirish va bunday bilimlardan faqat hodisalar o'rtasidagi mavjud aloqalarni tushuntirishda doimo foydalanib qolishgina emas, balki texnologiya turlari bo'yicha puxta bilim berib o'quvchilarda texnologiya qilish malakalarini shakllantirib borish xarakterli bo'lib borishi kerak.

Texnologiya darsi mazmuniga qo'yiladigan muhim talablardan biri - darsning hayot, o'quvchilarning shaxsiy tajribasi, texnologiya bilan chambarchas aloqador bo'lmog'idir. Ilg'or o'qituvchilar o'quvchilarga nazariy materialni o'rgatishda ularning shaxsiy tajribasi va kuzatishlari bilan uzviy bog'lab dars o'tadilar. Berilyotgan yangi ma'lumot va shu ma'lumot bilan bog'liq boshqa materiallar aloqalari o'quvchilarning boshlang'ich tasavvurlar tizinigamantiqan qo'shiladi. Bu usul pedagogika va psixologiya ta'limi talabiga ko'ra, predmet nazariyasini ongli o'zlashtirish shart ekanligini bildiradi.

Mehat darslarida o'rgatiladigan o'quv materialining o'quvchilarga tushunarligi va ularga nisbatan ko'nikma va malaka hosil qilinishi dars mazmunining asosiy yutug'idir. Amaliyotlarda buning aksi ham tez-tez ko'zga tashlanib qoladi. O'qituvchining o'quv materialini tushunarsiz tarzda bayon etishi, aniq misollarda tushuntira olmasligi natijasida o'quvchilarni mexanik xotirlab qolishga, qiziqishining pasayishiga, ularning umumiy rivojlanishining sustlashuviga olib keladi.

Ma'lunki, o'quvchining o'quv faoliyati undan faol fikr yuritib ishlashni talab qiladigan etib tashkil etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Texnologiya ta'limida ham shunday yo'l tutulishi zarur.

Zero, bunday ta'lim o'quvchining texnologiya haqida, texnologiyaga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga oid aqliy qobiliyatlarini har kuni mashq qildiradigan, texnologiya bilan muntazam shug'ullanib turish jarayoniga aylanadi. Texnologiya bolalarni mantiqiy fikrlarning xilma-xil shakllari, xulosalar va isbotlar bilan ta'minlab turadi. Texnologiyani to'g'ri anglatish aqlan faol faoliyatga asoslangan har ishdan bolalar katta qoniqish hissiyotga ega bo'lishlariga olib keladi, albatta. Ular texnologiyalari evaziga o'zlari yaratgan «kashfiyot»lardan quvonadilar va faxrlanadilar, o'zlarining ijodiy tashabbus va fantaziyasini namoyon qilishga harakat qiladilar. Bundan zamonaviy darsga qo'yiladigan muhim talab o'quvchilarning bilish va ijodiy faoliyatlarini faollashtirishdir degan xulosa kelib chiqadi.

Pedagogika o'quvchilarning bilish va ijodiy faoliyatlarini quyidagi usullar vositasida faollashtirishni nazarda tutadi:

1. Butun sinfga taklif etilgan muayyan ijodiy ishda har bir o'quvchining iloji boricha mustaqil ishlash hissasini maksimal ta'minlash;

2. Bu maqsadda o'qitishning alohida va umumiy shakllarini birlashtirish usullari bilan birga maxsus didaktik tarqatma materiallardan foydalanish;

3. Faoliyat turlarining o'rganilayotgan material bilan to'g'ri munosabatini ta'minlash;

4. Dastur materiallari asosida darsda zehnlilik, diqqat, tasavvur va shu kabilarni tekshirish hamda shakllantirish maqsadida o'ziga xos konkurslar o'tkazish.

Bu usullarni texnologiya darslari jarayonida ham tatbiq qilish maqsadga muvofiq. Bolalar darslar davomida texnologiya va politexnik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lsin. Xilma-xil amaliy ishlarni bajarish, o'zlariga kerak bo'lgan va odatda ijtimoiy foydali ahamiyatga ega bo'lgan predmetlar yasashni o'rganib borsinlar.

O'qituvchining asosiy vazifasi o'quv yili davomida darslar mazmuni, o'quvchilarga tushuntirish shakl va usullari, amaliy ishlarni bajarish yo'llarini aniq reja asosida ishlab chiqishidir.

O'qituvchi ish rejasida bo'lishi kerak:



- bolalarning predmetlarni yasash va bolalar kundalik hayoti uchun zarur bo'lgan ishlarni bajarish;

- jamoa birligini, sinfdagi tartib va tozalikni yo'lga qo'yish;

- tabiatdagi mashg'ulotlar, matematika, ona tili darslaridagi o'quv ishlari;

- bayramlar o'tkazish, bolalarning texnik ijodiy konstruksiyalash, qo'l texnologiyasining har xil turlariga bo'lgan qiziqishlarini qondirish va rivojlantirishda egallagan bilim, ko'nikma, malakalarini kengaytirish va takomillashtirishni izchil biriktirishni ta'minlasin.

O'qituvchi har qanday, hatto eng oddiy predmetni yasash jarayonida ham o'quvchilarga qiyin va politexnik bilim hamda ko'nikmalarning butun bir majmuasini berishni nazarda tutishi lozim.

I. Detallarni belgilab olish va tayyor qilishga kirishishdan oldin bolalarga narsalarni yasash yoki biror ishni bajarish bo'yicha o'z texnologiya faoliyatlarini oldindan rejalashtirishni o'rgatish va singdirish lozim. Bu:

a) darsda hal etilishi lozim bo'lgan vazifani va uning ahamiyatini yaxshi tushunish;

b) ishning xarakterini, mahsulot konstrukstiyasini-qism yoki detallar sonini, ularni mahsulotga biriktirish usullarini, kerakli materiallar, o'lchamlar, shakl, mahsulot va detallar proporsiyasini aniq tasavvur qilish;

v) detallarni yasash va ularga ishlov berish usullari; o'lchash va hisoblash, materialda razmetka qilish tartibi, ishlov berish, detallarni yig'ish, yakuniy bezak berish va ishni umumiy baholash tartibini aniqlash;

g) texnologiyani qanday tashkil etishni, ish joyini tayyorlashni, ishni kichik jamoa o'rtasida taqsimlashni aniqlash demakdir.

Oldindan rejalashtirish bosqichi texnologiya jarayonida bolalarning bilish faolliklarini rivojlantirish, ularning aqliy ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish manbayiga aylanishi uchun juda muhimdir. Oldindan rejalashtirish texnologiya ta'limi dasturining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

II. Texnologiya darslarida bolalar detallarni belgilab olish bo'yicha tayyor qilish, namuna, chizma, berilgan texnik shart va o'lchamlar asosida to'g'ri hamda aniqligini tekshirishni, detallarni bir-

biri bilan va mustahkamlash usuli turlicha bo'lgan mahsulotda biriktirishni, tayyor mahsulotni bezashni mustaqil bajaradilar.

III. Texnologiya faoliyatining barcha bosqichlarida ham bolalar oldiga ijodiy, hatto eng oddiy bo'lsa-da, xarakterli topshiriqlar qo'yilishiga alohida e'tibor berish zarur. Ba'zi hollarda bu mavjud tajriba, bilim, ko'nikmalarni yangi sharoitlarda qo'llashni talab qiluvchi topshiriq bo'lishi mumkin. Boshqa hollarda esa, bolalarga ular uchun yangi, ilgarigi tajribalarida uchramagan topshiriq, ya'ni predmet ayrim elementlarining yechimini topishni talab etuvchi topshiriq beriladi. Bolalarga oddiy konstrukstiyaga ega bo'lgan predmetlarning texnik shartlarini tuzishni, o'lchamlarini aniqlashni, chizma yoki belgilab olingan(razmetkas)ini bajarishni ham topshiriq qilib bersa bo'ladi.

IV. O`quvchilar:

-ish joyini to'g'ri tayyorlashlari va ish vaqtida uni tartibli saqlashlari;

- to'g'ri ish qomatini egallab, uni ish davomida saqlashlari;

- asboblarni, detallarni tayyorlash va mustahkamlashda ishlatiladigan materiallardan turli, tartibli, ehtiyotkorlik bilan foydalanish usullarini egallashlari;

- materiallarni tejamkorlik bilan sarflab, shaxsiy gigiyena hamda xavfsizlik texnikasi qoidalariga qat'iy rioya qilishlari kerak.

V. Texnologiya darslarida bajarilgan har bir ish va predmetdan bolalarning politexnik bilim doiralarini kengaytirishda foydalanish zarur. Bu:

- bolalarni umumta'lim predmetlari darslarida egallagan bilim va ko'nikmalarini texnologiya jarayonida qo'llashga o'rgatish;

- turli materiallarning xususiyatlari, ularning kelib chiqishi, nimalarga mo'ljallanganligi hayotda qo'llanishi haqidagi bilimlarni egallashlariga yordam berish;

- oddiy asboblarning ish prinsiplari bilan tanishtirish;

- texnologiyada egallangan bilim, ko'nikmalarni umumta'lim predmetlari darslarida qo'llashga o'rgatish demakdir.

Boshlang'ich sinf o`quvchilarining texnologiya darslarida bajaradigan ishlarning to'g'ri, sifatli va mazmunli bo'lishi ko'p jihatdan ular tomonidan egallangan nazariy bilimlar natijalariga bog'liq. Nazariy bilimi yaxshi bo'lgan o`quvchilar amaliy

masalalarni hal etish uchun muhim bo'lgan turli materiallarning xususiyati va sifati (yumshoq-qattiq; yengil-og'ir; zich-g'ovak; mustahkam-nozik; tiniq, oq, rangli va hokazo), shuningdek, har bir materialning ishlov berishdagi qarshilik xususiyatlarini to'g'ri tushunib ishni sifatli va mazmunli bajaradi.

Texnologiya darslarida o'quvchilar faoliyatining muhim natijasi – ularning o'rganilayotgan obyekt va hodisalarning yangi belgi va xususiyatlarini avvalo, nazariy jihatdan tushunib olishi, ularni mustaqil aniqlash malakasiga ega bo'lishi, darsdan darsga yanada aniqroq va kengroq nazariy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Masalan, darsda o'qituvchi o'quvchilar qog'oz turlari va ularni bir-biridan farqlash haqida, qog'ozning ko'pgina vazifaga ega material ekanligini, qog'ozning umumiy xususiyatlari, qo'llanish va undan foydalanilishining cheksiz imkoniyatlarini ta'riflab, tushuntirib beradi. Amaliy ishlarda qog'ozdan foydalanish texnologiyalarini o'rgatadi.

O'quvchilar shu tariqa qog'oz xususiyatlarini farqlash, boshqa materiallarga o'xshash xususiyatlarni izlash va topish, ularning aniq amaliy maqsadlar uchun tanlanishini asta-sekin o'rganib boradilar. Bularning barchasi bolalarda buyumni konstruksiyalashtirish va uni to'g'ri bajara olish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Mehnat darslarida o'quvchilarga nazariy bilim berishda buyum, material, ulardan foydalanish, tayorlash texnologiyalarini ko'rsatib izohlanishi amaliy ishlarni bajarishda yaxshi natija beradi. Bu buyum-narsani xuddi namunadagidek yasash uchun namuna bo'ladi. Bolalar o'qituvchining nazariy ta'riflashini tinglaydi va amaliy ko'rsatib borishini sinchiklab qarab, buyumni yasash yo'llarini qunt bilan izlaydilar. Masalan, birinchi sinf mehnat darslarida, odatda tayyorlanishi kerak bo'lgan buyum-narsaning namunasi ko'rsatiladi. Bunda birinchi sinf o'quvchilari uchun real, buyum-narsa, buyumning namunasi zarurligi nazarda tutiladi, bolalar unga qarab, mazkur buyum-narsa qanday qilinganligini, qanday qilib xuddi mana shunday qilinganligini, qanday qilib xuddi namunadagidek tayyorlash mumkinligi o'ylaydilar.

Mehnat mahsuloti muayyan buyum-narsalar tayyorlangandan keyin u qanday bo'lishi, tayyor buyum holdagina emas, balki qismlarga bo'lingan holda qanday qismlardan iboratligini, qanday

birikkanligini ham, tasavvur eta olish malakasini tarkib toptirish muhimdir

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Ta'lim usuli deganda nima nazarda tutiladi?
2. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi mavzulari o'zaro aloqador degan fikr mohiyatini izohlang.
3. Sizningcha, texnologiya ta'limi asoslari qaysi davrlardan boshlangan?
4. Boshlang'ich sinflarda texnologiya darsining olib borilishi kelajak uchun nima beradi?
5. Ta'limda «Eskini tubdan buzib tamoman yangini bunyod qilish» rejasi asosida qaysi mafkura ish ko'rdi va nega?
6. Boshlang'ich sinflarda texnologiya kursi tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Boshlang'ich sinflarda texnologiya kursi tuzilishining o'ziga xos mazmunini misollar asosida izohlang.
8. Boshlang'ich sinflarda texnologiya kursi materiallarini o'rganishdagi uzviylikning boisi nimada?

**5-MAVZU.TEXNOLOGIYA TA'LIMINING SHAKL VA METODLARI**

**Reja:**

- 1.Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanining shakl va usullari.
- 2.Metod tushunchalari, uning turlari.
- 3.O'quv bilish faoliyatini tashkil qilish metodi va ular orasidagi bog'liqlik.
- 4.O'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishning shakl va usullari, didaktik materiallardan foydalanish metodlari.

***Mavzuga oid tayanch tushunchalar:***

*Boshlang'ich sinfda mehnat shakl va usullari, metod, metod turlari, boshlang'ich sinfda mehnatga o'rgatish metodlari, o'quv bilish faoliyatini tashkil qilish metodi, metodlararo bog'liqlik, o'quvchilarni mustaqil ishlarga o'rgatish, didaktik ko'rgazmalar yasash metodlari.*

Ilmiy-texnik tafakkurning borgan sari o'lishi va yoshlarning fan-texnikaning jo'shqin rivojlanishida faol ishtirok etishlari faqat ta'lim mazmunini emas, balki o'qitish jarayonining usul va shaklini to'g'ri tashkil etilishini, o'qishga qiziqishni, ijodiy qobiliyatni, egallangan bilimlarni amalda ijodiy qo'llay bilishni rivojlantirish maqsadlarida yanada takomillashtirishni ham talab qiladi. "Bu esa maktab zimmasiga yoshlarda ijodga ehtiyoj uyg'otish, ijodiy qobiliyatlar, har qanday faoliyatga ijodiy yondashish asoslarini tarkib toptirish, ijodiy masalalarni mustaqil hal etishga o'rgatish vazifasini yuklaydi".

Boshlang'ich sinfda mehnat shakli turli-tuman bo'lib, ularni shartli ravishda boshlang'ich mehnat shaklining quyidagi shakllariga ajratish mumkin:

turli materiallarni to'plash, ularga ishlov berish va saqlashga oid mehnat	qog'oz, karton, tolali materiallar plastik massa, lentalar
Tevarak-atrofni muhofaza qilishga oid mehnat	sinf burchagida "jonli tabiat" yaratish, ekinzor tashkil etish, sabzavotlar o'stirish, gulxona yaratish
turli tabiiy materiallarga asboblari va ish qurollari bilan ishlov berishga oid mehnat	daraxt barglari, novda, qamish, poxol, g'o'za chanoqlari, yong'oq qumni to'plash.
mustaqil ravishda ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirishga oid mehnat	o'z uyida gullar parvarishlash, mevali daraxtlar ekish, turli hunarmandchilik sirlarini o'zlashtirish.
obrazlar, personajlar, o'yinchoqlarni yaratishga oid mehnat.	tabiiy va sun'iy tolalarda o'yinchoqlar tikish, "pape mashe" qog'ozlar vositasida yasash.

Mazkur shakllar o'quvchilarda mehnatning :

1. Qog'oz va karton bilan ishlash;
2. Gazlama bilan ishlash;
3. Turli materiallar bilan ishlash;
4. Texnik modellashtirish;

5. Qishloq xo'jaligi mehnati turlari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikma hosil qilishga da'vat etadi

Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini amalga oshirib borishda boshqa predmetlarni o'rgatishda bo'lganidek, o'qitishning xilma-xil metodlari qo'llanilib, o'qitishning xilma-xil metodlari qo'llanilib, o'quvchilarning texnologiyaga bo'lgan qiziquvchanligini va ziyrakligini oshirib boradi. Ma'lum mavzu doirasidagi bilimlarini amalga qo'llay olish usullarini o'rgatadi. O'qitish metodi qisqa vaqt mobaynida o'quvchilarga ko'proq bilim berishni o'ziga maqsad qilib oladi.

O'qitish metodlari bilimlarning shunday darajada egallanishiga xizmat qiishi kerakki, unda o'quvchilar o'qituvchining berayotgan ko'rsatmalari asosida o'zlarining ijodkorliklari, fantaziyalarini ishlata olish, olingan bilimlarini shu ko'rsatmalar asosida amalda ochib bera olishi kerak. Albattaki, har bir metodni o'z o'rnida qo'llash kerak, oddiy chizma chizishni butun sinfga barobar o'rgatishda frontal, amaliy ish bajarishda yakka shakldan foydalaniladi.

Bitta darsning o'zida o'qitishning turli usullari qo'llanishi mumkin. O'qituvchining intilishi, xatti-harakati darsda o'quvchilarning diqqat-e'tiborlari susaymasligiga, fikrlarining jamlangan bo'lishiga, ularning charchamasliklari va zerikmasliklariga yo'llangan bo'lishi kerak.

Didaktik jarayon tuzilmasiga ko'ra ta'lim metodlari 3 guruhga bo'linadi:

1. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va bajarish metodlari;
2. O'quv- bilish faoliyatini rag'batlantirish va motivlash metodlari;
3. Nazorat va o'z-o'zini nazorat (boshqarish) qilish metodlari.

### **Bilimlarni yetkazish shakliga ko'ra:**

- Og'zaki bayon qilish metodlari
- Ko'rgazmali metodlar
- Amaliy metodlar

**Og'zaki metod:** Ta'lim metodlari tizimida muhim o'rin tutadigan metod bo'lib, o'zi ham quyidagi turlarga bo'linadi:

- hikoya
- suhbat

- tushuntirish
- ma'ruza

Ko'rgazmali metod: samarali metodlardan biri hisoblanib, zamonaviy ta'limning asosini tashkil etadi.

Ko'rgazmali metod 5 turga bo'linadi:

- Namoyish
- Tasvirlash
- Sayohat
- Kino
- Grafik ishlar

Amaliy ishlar metodi: Nazariy bilimlarimizni amalda tatbiq etish uchun eng zarur metod hisoblanadi.

- Mashq
- Laboratoriya
- Amaliy ishlar

Og`zaki bayon qilish metodi ikki formada mavjud bo'lishi mumkin:

1. Monologik bayon qilish, bunda faqat o'qituvchi gapiradi, o'quvchilar esa uning nutqini idrok etib, anglab oladilar. Qo'l mehnati darslarida tushuntirish va hikoya qilish, instruktaj ko'rinishida bo'ladi. 2. Dialogik bayon bo'lib bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro suhbatidir.

Hikoya qilish – bu programma materialini jonli va obrazli bayon qilishdir. Bu holda yangi bilimni o'qituvchining o'zi beradi. Ba'zan suhbat davomida o'quvchilar tushuntirilayotgan narsalarni qanchalik o'zlashtirayotganliklarini aniqlash maqsadida ularga savollar bilan murojaat etish maqsadga muvofiqdir. Hikoya agarda bajarilgan ishlar, natural namunalari, rasmlar, fotosuratlar va shu kabilarni ko'rsatib qilinsa, anchagina tushunarliroq bo'ladi. Bu o'rinda tushuntirayotganingda – ko'rsat, ko'rsat va tushuntir degan qoida bajariladi. Yangi materialni bayon qilishda o'quvchilarning bir xil emasligini nazarda tutish lozim.

O'qituvchi hikoyasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

U mazmuniga ko'ra – programmada nazarda tutilgan barcha o'quv materialini aniq va to'liq qamrab olishi kerak;

Bayon etilish shakliga ko'ra – aniq, tushunarli, mantiqiy, iboralari sodda bo'lishi zarur;

Material qiziqarli va o'quvchilarning fikrini aktivlashtiradigan, diqqatini yangilikning asosiy elementlariga jalb qiladigan bo'lishi lozim;

Hikoyada o'qituvchi o'quvchilarbop fakt va tushunchalarga asoslanishi lozim. Nutq sodda va aniq bo'lmasa o'quvchilarning hikoyaga, keyinchalik predmetga bo'lgan qiziqishi so'nishi mumkin. O'qituvchi hikoyasida o'quvchilarning nutqini yangi so'zlar bilan boyituvchi atamalar bo'lishi, ularning ma'nosini shu vaqtning o'zida tushuntirmog'i shart;

Hikoya qilinayotgan materialni saralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, asosiy tushunchalarga alohida urg'u berib, hikoyani qisqa va o'quvchilarda his-hayajon, mavzuga qiziqishini uyg'otib borishi lozim, o'qituvchida albatta aktyorlik qobiliyati bo'lishi, hikoyani obrazga kirib, o'quvchilar e'tiborini jalb qila olish malakasi mukammal bo'lishi kerak.

Instruktaj – texnologiya fanining samarali metodlaridan biridir. Instruktajning maqsadi o'quvchilarning amaliy faoliyatlarini uyushtirish va yo'naltirish orqali ularning amaliy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini hamda ularda mehnatga ongli ijodiy yondashishni tarbiyalashni ta'minlashdir. Instruktaj olgan o'quvchiga ishning maqsadi va usullari ravshan bo'lishi kerak. Instruktajning vazifasi o'quvchilarga texnologik jarayonni ongli va to'g'ri rejalashtirishni o'rgatishdan iboratdir.

*Instruktaj olgan o'quvchilar:* ishni ratsional usullarda va to'g'ri izchillikda bajara bilishlari, mehnatni tashkil etishning belgilangan formalari va xavfsizlik texnikasi qoidalarini amalga oshirishlari, yo'l qo'yilgan xatolarni ish jarayonida tuzatishlari va ularning paydo bo'lish sabablarini bartaraf eta bilishlari kerak.

Og`zaki instruktaj suhbat yoki hikoya qilish metodi orqali berilishi mumkin. Suhbat va hikoya qilish jarayonida ham predmetlar yoki ish usullari namoyish etilishi mumkin. Grafik ishlar texnik mehnatni o'rgatishda muhim o'rinni egallaydi. Biror narsaning chizmasini chizishga butun bir dars, ba'zan ikki dars bag`ishlanadi. Shuning uchun texnik texnologiya darslarida chizmani chizishga kirishishdan oldin, chizmachilikda o'quvchilarni programma asosida



chizmalarni bajarish uchun zarur bo'lgan elementlari bilan tanishtirish lozim.

Chizmani tayyorlashga kirishishdan oldin masshtabning qanday belgilanishini chizg'ichlar yordamida amalga oshirish zarur. Chizmalar daftarda emas, balki chizmachilikka mo'ljallangan albomda bajariladi. Chizmaning butun texnik texnologiya fani darslarida bitta albomda bajarilgani qulay, maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning chizmalarini muntazam tekshirish va baholab borish kerak. Chizmalarni qoralama qog'ozlarga chizish tavsiya etilmaydi. Chizmani bevosita albomga toza qilib chizishga odatlantirish kerak. O'qituvchi o'quvchilardan chizma va yozuvlarni aniq, ravshan va tartibli bajarishlarini talab qilishi lozim. Chizmani aniq bajarmay turib, o'quvchilarga chizmani materialga to'g'ri ko'chirishga, chizmani o'qishga o'rgatib bo'lmaydi; qo'l mehnati darslarining asosiy vazifasi esa ana shundan iboratdir.

O'qituvchi ish sifatini o'quvchilarning albomlarni qanday tutganligi bilan baholashi mumkin.

Amaliy ishlar o'quvchilarga egallagan bilimlarini amalda qo'llashni o'rgatishda yordam beradi. Amaliy ishlarni bajarish rejasini o'quvchilarning o'zlari mustaqil tuzishlari katta ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ko'rgazmali qurollarning o'quvchilar tomonidan bajarilishini ham amaliy ishlarga kiritish mumkin, bu egallangan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Laboratoriya ishlari ta'limning turli bosqichlarida bo'lishi mumkin. Laboratoriya ishlarining o'tkazilishi egallangan bilimlarning ishonarlilik kuchini oshiradi, bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi, ularni amalda qo'llashga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

Laboratoriya ishlari yangi bilimlarni berish maqsadlarida ham o'tkazilishi mumkin. Ushbu jarayonda o'quvchilarda mas'uliyatni his etish, kuzatuvchanlik, diqqatlilik rivojlanadi. Laboratoriya ishlari o'quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, qurol va turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalar o'tkazish metodli hisoblanadi. Amaliy ishlarning laboratoriyalardan farqi shundaki, nazariy bilimlar majmuyini amalda qo'llash faoliyatini tashkil etadi, olingan bilimlar chuqurlashtiriladi, nazorat qilinadi, kamchiliklar tuzatiladi.

Amaliy mashg'ulot quyidagi 5 bosqich asosida tashkil etadi.

1. O'qituvchining tushuntirishi, faoliyat mohiyatini nazariy jihatdan anglash;
2. Ko'rsatma va yo'l-yo'riq berish;
3. Tajribani tashkil etish: (bunda 2-3 nafar o'quvchi amalda bajaradi, qolganlari bu faoliyatni kuzatib boradi);
4. Faoliyatni tashkil etish: (topshiriq mustaqil bajariladi, qiynalgan o'quvchilarga e'tibor qaratiladi);
5. Nazorat (o'qituvchi tomonidan ishning sifati kuzatilib, baholanadi).

Mustaqil ishlar – bu o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, biroq uning topshirig'i bilan maxsus ajratilgan vaqtda bajariladigan ishlardir. Bu o'rinda o'quvchilar o'zlarining intilishlarini qo'llab hamda aqliy va jismoniy harakatlarining natijalarini u yoki bu formada ifodalab, topshiriqda qo'yilgan maqsadga ongli ravishda erishishga harakat qiladilar.

Dastlabki darslardan boshlab ishni shunday tashkil etish kerakki, o'quvchilar qo'l mehnatini egallash uchun nazariy bilimlar va amaliy malakalar o'rtasida uzviy aloqa bo'lishi kerakligini his etsinlar. O'quvchilarda malakani shakllantirish ongli faoliyatdan ajralgan holda bo'lmasligi kerak.

Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida malakalar shakllanishi bilan birga o'quvchilar o'z kuchlari, bilim va qobiliyatlarini sinovdan o'tkazadilar.

Mustaqil ishlarning keng qo'llanilishi o'quvchilarda ishga ijodiy yondashishni, ulardagi bilishga, qiziqishlarni, olingan bilimlarni amalda qo'llay bilishni rivojlantirishga yordam beradi.

**Ekskursiyalar** bilishga qiziqishni avj oldirishda, o'quvchilarga mustaqillik malakalarini singdirish va hayotni bilishda muhim o'rinni egallaydi. Agarda ekskursiyalarni o'tkazishda ishlab chiqarish vakillari ham qatnashsa, u yanada samaraliroq bo'ladi. Ekskursiya jarayonida o'quvchilar ishlab chiqarish texnologiyasi bilan yaqindan tanishadilar. Ekskursiyani o'tkazishdan oldin o'quvchilar oldiga aniq maqsadlar qo'yish, ekskursiyadan so'ng savol – javoblar o'tkazish lozim.

Har bir o'quvchidagi qiziqish turlichadir, shunday ekan, o'qitishda individual yondashishni amalga oshirish kerak bo'ladi.

Bundan tashqari bir sinf, bir yoshdagi o'quvchilarning rivojlanganlik darajasi hamda bilimlarni egallash tezligi turlichadir.

Darsni to'g'ri tashkil etishda har xil o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashning oldindan o'ylab qo'yilgan sistemasi bo'lishi muhimdir. Darsning samaradorlik darajasini oshirish uchun turli tarqatma materiallar, rasmlar, andozalar, o'lchamlar, asbob-uskunalarda o'rinli foydalanilishi lozim. Bular o'quvchilarda ko'rish, tasavvur hosil qilish, diqqatni jamlab qunt bilan ishlash, chiroyli va shinam shakllar yaratishga da'vat etadi. Shuning uchun ham bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarga ham, yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilarga ham oldindan alohida kartochna-topshiriqlar tayyorlab qo'yish kerak.

Umumiy tanishtirish xarakteriga ega bo'lgan ekskursiyani ta'limning biror bo'limi boshlanishidan oldin o'tkazilishi kerak. Aniq mavzuga bag'ishlangan ekskursiyalarni dasturdagi biror mavzuni o'tishdan keyin yoki avval o'tkazilgani maqul. Ekskursiya 15-20 o'quvchidan iborat bo'lib, frontal o'tkaziladi. Mehnat o'qituvchisi rahbarligida ularning ishlash tamoyiliga va mahsulot ishlash texnologiyasiga, mehnatni tashkil etishga qaratiladi. Obyektiv ravishda mavjud bo'lgan munosabatlarni aniqlash va taqqoslash yo'li bilan umumiy tamoyillarni bilib olishni o'rganadi.

Har qanday ekskursiyaning mazmuni 3 bosqichda amalga oshirilishi lozim:

1. Kuzatuv ob'yektini oldindan tanlash, maqsad va vazifalarini aniqlash, ekskursiyaning o'tkazilish tartibi, berilgan topshiriq va hisobotlarning shakllarini tayyorlashdan iborat bo'lgan tayyorgarlik davri.

2. Tayyorgarlik bosqichidagi barcha talablar nazorat qilinadi: Ekskursiyada o'zini tutish qoidalari, turli xil ma'lumot olish uchun suhbatlar uyushtiriladi.

3. Ekskursiyaga yakun yasash. Ekskursiya jarayonida paydo bo'ladigan masalalarni hal qilishga qaratilgan yakunlovchi suhbat.

O'quvchilarning qiziqish va o'zlashtirishlari turlichaligini bilgan o'qituvchi ularning qo'llaridan keladigan topshiriqlarni oldindan o'ylab qo'yadi. Shu orqali u faqat yaxshi o'zlashtiradiganlarninggina emas, balki bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarning ham bilish

faolligini rivojlantiradi. Topshiriqlar albatta muammo xarakteriga ega bo'lishi kerak.

Kuzatishlar o'quvchilarni predmetga diqqat bilan qarashga, uning xarakterli xususiyatlarini sezishga odatlantiradi. O'quvchilarga bilimlarni hayotdan olishni ham o'rgatish kerak. Agarda o'qituvchi topshiriqqa kuzatilayotgan faktlarni kuzatuvchining qo'lidan keladigan tahlil va umumlashtirishlarni kiritsa, kuzatishlarning samaradorligi yanada ortadi.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Boshlang'ich sinfda mehnatga o'rgatish metodlari qaysilar?
2. Metod va uning turlari haqida ma'lumot bering.
3. O'quv bilish faoliyatini tashkil qilish metodlari orasidagi bog'liqlikni izohlang.
4. Ta'lim maqsadi va mazmunining o'zaro mutanosibligi ta'minlashda ta'lim vositalarining roli nimalardan iborat?
5. Ta'lim vositalarining texnologiya fani maqsadi bilan aloqadorligini isbotlang.

## **6-MAVZU.TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIGA INTEGRATSION YONDASHUV**

### **Reja:**

1. Integratsiyalashgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida integratsiyalashgan ta'limdan foydalanishning metodik xususiyatlari.
3. Integratsiyalashgan darslarning samaradorligini oshirish omillari.

*Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Integratsiyalashgan ta'lim, integratsiyalashgan ta'limdan foydalanish, integratsiyalashgan darslar samaradorligi*

Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarni rivojlantirish va amaliy, ilmiy-metodik

tayyorgarligini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkonini beradi. Hozirgi vaqtda pedagogik amaliyotda fanlararo bog'lanish asosida ta'lim jarayoni integratsiya yo'llarida izlanishlar davom etmoqda. Fanlararo bog'lanish, ya'ni integratsiya negizida o'quvchilarda fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish nazarda tutiladi, bu esa o'z navbatida bilim(anglash) jarayoni bilan chambarchas bo'g'liqdir. Professor R. Mavlonova fikriga ko'ra integratsiya(fanlararo bog'lanish):

- tabiatda mavjud bo'lgan obyektlar orqali o'quvchilarning shaxsiyatini shakllantirish;

- "tabiat - inson" tizimida aniq bilimlarga ega bo'lishi uchun fikrlash qobiliyatini shakllantirish;

- materiallarni anglab yetish va didaktik moslashishni shakllantirish uchun o'rganuvchi materialni bilimning har xil tarmoqlaridan olish;

- bilim, ko'nikma, malaka tizimini ishlab chiqish;

- maktab o'quvchilarida har xil turdagi fikrlash qobiliyatini shakllantirish, buning uchun ruhiy mashqlardan foydalanish, materialni tez o'zlashtirishga yordam beradi, uni eslab qolish va hissiy anglash qobiliyatini shakllantiradi.

Integratsiya ( lot. Integratio – tiklash,to'ldirish, integer – butun so'zidan ) – o'zida bir qancha ma'nolarni birlashtiruvchi so'z bo'lib, shu ma'nolardan biri " ikki va undan ortiq fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni" dir. Fanlararo bog'lanish ko'rgazmali ta'lim tizimi bo'lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko'rgazmali, mahoratni vujudga keltirish sirlarini o'rganadi. Ko'rgazmali ta'lim tizimi esa turli xildagi turlar, shakllar, usullar, ob'yektlar asosida quriladi. Boshlang'ich texnologiya fani integratsiyasi asosan, maktabda o'qitiladigan chegaradosh fanlararo tuziladi. Odo'noma, musiqa madaniyati, tasviriy san'at, mehnat, jismoniy tarbiya fanlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq va bu fanlarning maqsadi axloqiy, estetik tarbiya berishdir. Bu fanlar bir-biriga yaqin chegaradosh fanlar hisoblanib ular takibiga kiritilgan materiallar bir-biriga juda yaqin. Masalan, tabiat manzaralari rang-barang tasvirlar,

xilma-xil ko'rinishlar, o'lchamlarda ifodalangan. Bular kichik maktab yoshidagi bolalarga mos bo'lib bir tizimga tegishli bo'lgan tasavvurlarni boyitish imkonini hosil qiladi.

Bir-biriga yaqin, chegaradosh fanlar mazmuni o'quvchilarni har tomonlama ruhiy rivojlanishiga, ularda turli xil tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Har bir o'quv predmetini o'rganish bolaning materialni anglash jarayonini, unda eslab qolishni, ta'sirchanlikni faollashtiruvchi, tafakkurni, nutq va tasavvurni rivojlantiruvchi ruhiy diqqatni yaratishga imkon beradi. Ayniqsa, chegaradosh fanlardan egallangan bilim bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tafakkurning turlarini rivojlantirishda, fanlardagi mavzular mazmunining farqli va o'xshashlik tomonlarini bilib olishda, bir fandan olgan bilim, malaka va ko'nikmani boshqa fanlarda qo'llash uchun imkoniyatlarni hosil qiladi.

Har bir fandan shakllangan tafakkur bolalar tomonidan fikrlarni umumlashtirish, xulosalar chiqarish, ma'lumotlar to'plash vazifasini bajaradi. Uning xususiyatli tomonlaridan yana biri shundaki, u bolalarni fanlardan, jumladan, texnologiya fanidan real voqeliklarni, shakl va usullarni o'rganib ularni amaliy ishlarda qo'llashga o'rgatadi.

Fanlar aloqadorligida texnologiya fanini tashkil etish uchun o'qituvchi maktabda o'rganiladigan o'quv predmetlari bilan uzviy bog'lasa yaxshi natijalarga erishadi. Buning uchun mehnatning o'quv-ijodiy xususiyati hamda ilmiy bilimlardan foydalanishi kerak. Asosiy maqsad - o'quvchilar boshqa fanlar hamda mehnatdan olgan bilimlarini ijtimoiy foydali mehnat jarayonida qo'llash vazifasi bo'ladi.

Fanlar integratsiyasi bolalar mehnatining mazmuni va tashkil etishini aniq mahalliy ishlab chiqarish, xalq xo'jaligi ehtiyojlariga tayangan holda, zamonaviy ta'lim talablari asosida tuzish lozimligini taqazo etadi. Texnologiya fanining bu xildagi shakli o'quvchilarni umumiy mehnat va aniq kasbiy ko'nikmalar bilan tanishtiradi.

Fanlararo bog'liqlikni o'z o'rnida tashkil etish bilan bir qatorda integratsion o'quv topshiriqlarni tuzish va o'quvchilarni bir jarayonga jalb etish ularning dunyoqarashi kengayishi, tafakkur olamining boyib borishida, bundan tashqari ta'limsamaradorligini oshirishda muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Boshlang'ich sinflardagi "Tevarak atrofimizdagi olam", "Texnologiya fani", "Tasviriy san'at" darslari

insoniyat tomonidan foydalaniladigan mehnat vositalarini turli tomondan tabiiy materiallar sifatida, uning xossalari, amaliy ahamiyati jihatdan ochib beradi. Bu bilan texnologiya fanining nufuzi yanada oshadi va bolalarda iqtisodiy tafakkurni har tomonlama rivojlantirishga, uning ijobiy tomonlarga yo'nalganligini shakllantirishga imkon beradi. Fanlar aloqadorligida amalga oshiriladigan texnologiya fani va tarbiyasida har bir o'quv predmetining o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini unutmaslik kerak. Masalan, jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning ijtimoiy foydali mehnat qilishda muhim bo'lgan sog'lig'ini yaxshilashga, ularning jismoniy va ruhiy kamchiligini bartaraf qilishga, chaqqonlik va ishchanligini oshirishga qaratilgan. Musiqa darslarida mehnat tarbiyasining muhim xususiyati, predmeti o'rganilibgina qolmay, balki mehnatga hissiy-ma'naviy tayyorgarlik ham ko'riladi.

Ona tili, matematika, tevarak-atrofimizdagi olam, odobnoma darslarida mehnat tarbiyasi alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar atrof-muhitni o'rganish asosida og'zaki nutqni o'stirish bilan birga maktab ishchi xodimlarining kundalik mehnati bilan tanishadilar, o'z oila a'zolarining mehnati haqida, uy o'simliklari, ekologiya va salomatlik haqida, oyoq kiyimi va ustki kiyimlarni tozalash haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Shuningdek, o'quvchilarga mehnat tarbiyasini singdirishda quyidagilar ham muhim ahamiyatga ega:

- Alifbe, musiqa, tasviriy san'at kitoblarining rasmlariga qarab o'quvchilar turli kasblar haqida tasavvurga ega bo'ladilar, ularda mehnatga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiriladi;

- o'qish darsida boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'pgina kasblar haqida ma'lumotlar oladilar;

- matematika darsida o'rgatiladigan hisob-kitob, o'lchovga oid bilimlar texnologiya fani darslarida buyumlar tayyorlash uchun zarur bo'lgan amaliy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiriladi;

- odobnoma darsida o'quvchilar mehnat qilish, mehnatsevarlik va kasb-hunar tanlashga oid o'zbek va Sharq mutafakkirlarining fikrlari bilan tanishadilar.

Yuqoridagilardan shunday xulosani aytish mumkinki, integratsiyalashgan texnologiya fani natijalari o'quvchilarning ijodiy fikrlari, amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. U texnologiya fanidan o'qish-bilish faoliyatini nafaqat jadallashtirish, tizimlashtirish va

optimallashtirishga, balki turli soha madaniyatini egallashga ham imkon beradi.

Texnologiya fani bilan o'qish, odobnoma, ona tili, matematika, tevarak atrofimizdagi olam, jismoniy tarbiya va boshqa fanlari mazmunini integratsiyalash bu o'quv fanlarining turdoshlik xususiyatlaridan kelib chiquvchi ahamiyati shundaki darsning yanada mazmunli, qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Texnologiya darslarida bolalar ovqatlanish odobi, mehmon kutish odobi, kiyinish, dasturxon tuzatish odobi kabi axloqiy tarbiya me'yorlarini o'rganadilar. Bu ko'rinishdagi mavzularni odobnoma, o'qish, tasviriy san'at materiallarida ham ko'rish mumkin. 4-sinf o'qish fanining "Buzilmagan uya" mavzusida mehnat tarbiyasiga oid materiallar izohlangan. Unda: bir bola bog'da ishlayotgan bobosiga ovqat olib borishi, daraxtlarni payvand qilishda bobosiga yordam berganligi ifodalangan. Yana bir misol – matematika darsida o'rganiladigan o'lchov birliklari mehnat darsida gazmollar o'lchamini olishda, tabiatshunoslikda daraxtlarga ishlov berish, gullarni parvarishlash, yer ag'darish, ekin ekishlar haqida berilgan materiallarda texnologiya faniga oid materiallarni ko'ramiz.

Predmetlararo asosda tuzilgan integratsiya didaktik tizimga ega bo'lib, u o'qituvchi(ta'lim beruvchi) va o'quvchi(ta'lim oluvchi) harakatlarining mos kelishini ko'zda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilish, ya'ni: maqsad, sabab, mazmun, vosita, natija va nazoratlarga ega. Biroq, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlari mazmunida quyidagi farqlar bo'ladi:

1. Maqsadli bosqichda o'qituvchi umumiy maqsadni qo'yadi, o'quvchilar esa o'qituvchi boshchiligida turli predmetlararo bog'liqliklarni tushunishlari, kerakli va turli predmetlararo bilimlarni tanlab olishlari kerak bo'ladi.

2. Isbotlash bosqichida o'qituvchi o'quvchilarning turli predmetlardan tushunchalarini umumlashtiradi, o'quvchilar esa o'z bilimlarini kehgaytirishga bo'lgan qiziqishga irodalarini yo'naltirishlari kerak.

3. Faoliyat mazmuni bosqichida o'qituvchi yangi material asosida integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmuyi darajasida predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi.



### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Integratsiyalashgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.
2. Boshlang'ich sinf texnologiya fani qaysi fanlar bilan aloqadorlikda o'qitilishi mumkin? Misollarda tushuntiring
3. Texnologiya darslarida integratsiyalashgan ta'limdan foydalanishning metodik xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Integratsiyalashgan darslarning samaradorligini oshirishning asosiy omillariga nimalar kiradi?.
5. Integratsiya orqali o'quvchilarda mehnat malaka va ko'nikmalarini oshirish yo'llarini tushuntiring.
6. Fanlar aloqadorligida mehnat darsini tashkil qilishning sifatini oshirish yo'llari qaysilar?

## **7-MAVZU. O'QUVCHILARNING MEHNAT TARBIYASIDA MEHNAT AN'ANALARINING O'RNI**

### **Reja:**

1. Xalq merosida mehnat an'analarining o'rni.
2. Mehnat an'analarining o'quvchilar tarbiyasidagi ahamiyati.
3. Texnologiya darslarida mehnat an'analaridan foydalanishning shakllari.

***Mavzuga oid tayanch tushunchalar:** Xalq merosi, mehnat an'analari, texnologiya darslarida mehnat an'analari, Boshlang'ich sinflarda Texnologiya fani va an'analarining asosiy vazifalari, mehnat madaniyati.*

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyasi Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek ijtimoiy - iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallashga yo'naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda yangi tahrir ostidagi O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab

voyaga yetkazish jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim. O'sib kelayotgan yosh avlodni xalq pedagogikasida milliy qadriyatlar vositasida talabalarni estetik tarbiyalashda mamlakatning milliy ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqqan holda avlod - ajdodlarimizning turmush tarzi an'analari, urf-odatlarini hamda tajribalarini hisobga olgan holda rivojlantirish muhim masalalaridan hisoblanadi. Bu esa, o'z-o'zidan ma'lumki, Respublikamizning milliy davlat sifatida ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy kamol toptiruvchi o'z taraqqiyot yo'lini, milliy istiqlol mafkurasini qaror toptirish va uni barcha xalq ongiga singdirish zaruriyatini taqozo etadi. Kadrlarga bo'lgan hozirgi zamon talabi ham Prezidentimiz aytganlaridek, "Ertangi kun yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan malakali mutaxassislarni talab etadi." O'zbekistondagi tub o'zgarishlarni oily maqsadi – an'analarini, urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash va yanada rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishdan iborat. Shunga ko'ra, mustaqillik ta'lim-tarbiya sohalarida ham, umuman jamiyat ma'naviy-axloqiy hayotida tub burilish davrini boshlab berdi. Bizning mavzu milliylik haqida borar ekan, bu jumlaning mohiyatini anglovchi, ochib beruvchi bir qancha tushunchalar mavjud, ya'ni bular urf-odat, qadriyat, marosim, bayram, an'ana kabi tushunchalardir. Urf-odat, marosim, qadriyat, bayram, an'ana kabi tushunchalar har bir xalqqa xos bo'lib va albatta, har bir xalqning o'ziga xosligini, milliylikni, tarixiy kelib chiqishini, boshqa xalqqa xos bo'lmagan qirralarini ko'rsatib beradi. Jamiyatning har bir a'zosi o'zining kelib chiqishi tarixini bilishi, qadriyat, marosim, bayram, an'analarini hurmat qilishi va o'z navbatida farzandlarini ham milliy ruhda tarbiyalashi lozim. Farzandlarimiz go'zal axloq egasi bo'lishi uchun, ularning ongiga avloddan avlodga o'tib kelayotgan an'analarimizni turmushimizda amal qilgan holda singdirishimiz lozim. Albatta, bu o'z ijobiy samarasini beradi va bu odatlar turmushimizda takrorlanib turishi natijasida ixtiyorsiz ravishda o'z-o'zidan bolalar ongiga singib boradi hamda ularning tarbiyasiga, xulq-atvorini shakllantirishga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Boshlang'ich maktablarda Texnologiya fani va an'analarining asosiy vazifalari o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, o'qitish va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida kasb tanlash izchilligini takomillashtirish, davlat ta'lim standartlari talabi bo'yicha tarbiyalash hamda o'quvchilarni kasb-hunar egasi bo'lib yetkazishda nazariy va amaliy bilim berishlardan tashkil topgan. Mehnat madaniyatini tarkib topishi uchun darslarda doimo bolalarning e'tiborini asbob va materiallarni saqlash qoidasi hamda joylashtirish tartibiga, ish joyini to'g'ri jihozlashga, materiallardan tejamkorlik bilan foydalanish usullariga, ish harakatlarini me'yori va sifatiga, ish ko'rsatkichini ta'minlovchi tadbirlarga, ishlov berishda olingan aniqlik va tozalikka rioya qilishga va nihoyat narsani chiroyli qilib bezashga talab qilib borish kerak.

Mehnatga axloqiy tayyorlash deganda eng avvalo, mehnatga ongli munosabatni shakllantirish tushuniladi. Shu o'rinda buyuk allomalarning hadislarini-ilm, mehnat va hunar haqidagi fikrlaridan foydalanamiz:

1. Ey o'g'il! Qaysi fan bo'lmasin, to uni mukammal egallamaguningcha harakatni to'xtatma, bir ilm ikkinchi ilmni egallashga yordam beradi. Bir ilmni egallashga aqling yo'l berdimi, uni oxirigacha egallamay turib, chala tashlab qo'yma! (A. Sheroziy).

2. Hunarni asrabon netgumdir oxir, Olib tuproqqamu ketgumdur oxir (Alisher Navoiy).

3. Aziz do'stlar, oltin va kumushi bo'lmagan odam kambag'al emas, balki es-hushi va kasb-hunari bo'lmagan kishi kambag'aldir (Abdulla Avloniy).

4. Mehnat inson hayotini farovon qiluvchi davlatdir (Abu Rayxon Beruniy).

5. Mehnat qilmoq insonga xosdur. Agar sen inson bo'lsang, o'z xulqingni mehnat tumori bilan beza (Alisher Navoiy). 6. Sen avvalo mehnatni qadrla va o'zgalar qilgan mehnatni ham qadriga yet, shunda sen o'zingni haqiqiy mehnatsevar deb bilursan (Imom al-Buxoriy).

7. O'z mehnating bo'lsin doim yo'ldoshing, O'zga minnatidan og'ritma boshing. Kunlaring o'tarkan terib dur-hikmat, Kunlaring to'liqdir bo'lsa hur mehnat (Abdurahmon Jomiy).

Agarda boshlang'ich sinflar o'quvchilariga tatbiqan gapiradigan bo'lsak, ularning bu yoshidan mehnatni sevish, shu mehnat

natijalariga hurmat bilan yondashishlari nazarda tutiladi. Mehnatga munosabat shu mehnatning muhimligi va zarurligini tushunish, bunday mehnatda jonbozlik ko'rsatish, ishga shaxsan mas'uliyatni his qilgan holda yondashish ijtimoiy mulkka tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishni anglatadi. Mehnatga axloqiy tayyorlash — bolalarga jamoada ishlashni, do'stona o'zaro yordamni, ijodiy tashabbusni, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilish va mehnatda xatti-harakat normalarini o'rgatishdan iborat. Mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash. Mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash murakkab, uzoq davom etuvchi va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u butun texnologiya fani va tarbiyasiga singib ketgandir. U garchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsada, mehnatga axloqiy tayyorlashga juda yaqindir. Bolani mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash — bu unda mehnatga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarni egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga yoshligidan boshlab mehnat — bu har bir kishining vijdoni va burchi ekanligini, inson o'z mehnati bilan sharaflanishini, faqat Vatan farovonligi yo'lida qilingan mehnatdagina insonning eng yaxshi sifatleri rivojlanishi hamda takomillashishi mumkinligini anglashlariga yordam berishdir. Bolalarning mehnatga qobiliyati har bir kishi jamiyatning hayoti va faoliyati, uning farovonligi uchun zarur bo'lgan vositalarni ishlab chiqarishda qatnashishi zarurligini anglashlari juda muhimdir. Shuningdek, bolalar jamiyatda kishi mehnatsiz yashay olmasligini ham uqib olishlari kerak. Mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib anglash, emotsional idrok, diqqat, xotira, tafakkur va shu kabi jarayonlardir. Boshqacha qilib aytganda, ular mehnatning psixologik tarkiblari deyiladi.

Mehnatga o'rgatishda bolaning imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur. Ma'lumki, mehnat faoliyati, texnologiya fani uchun ham turli sezgilar yig'indisining (ko'rish, eshitish, his etish, ta'm bilish, teri, muskul harakati) namoyon bo'lishi xarakterlidir. Shuning uchun o'qituvchilar quyi sinf o'quvchilariga yangi materialni yoki asbobni tanishtirayotganlarida bolalardagi sezgining barcha turlarini faollashtiradilar: bolalar qog'ozni ushlaydilar, silaydilar, aylantirib ko'rib chiqadilar, uning

qanday shitirlashiga quloq soladilar. Sezgilarning bunday faollashuvi ma'lumot haqida to'liqroq tasavvurga ega bo'lishga yordam beribgina qolmay, balki bu psixologik jarayonni rivojlantiradi, takomillashtiradi. Mehnatga tayyorlashning yanada muvaffaqiyatliroq bo'lishi uchun bolalarning xotiralarini o'stirish vazifasi ham albatta amalga oshiriladi. Texnologiya fani bo'yicha o'quv materiallarini eslab qolish boshqa buyumlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatga ega.

Texnologiya fanini o'rganish jarayonida o'quvchilar xalqimiz ruhiyatini, yashash tarzini, an'analarini tiklash va rivojlantirish maqsadida xalq hunarmandchiligining kiritilishi milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining ko'p qirralari boy merosini o'rganish, o'zlashtirish va amaliy faoliyatlariga qo'llash vazifasini hal etadilar. Texnologiya fanining amaliy va ishlab chiqarish mazmunidagi an'anaviy sinf-dars mashg'ulotlariga nisbatan shogird-ustoz tizimi tarbiyaviy mahsuldorligi, samaraliligi, bo'lg'usi hunarmandning shaxsiy xislatlarini shakllanishida, ularning oilalarini moddiy ta'minlanishida hamda tarixiy qadriyatlarning yanada boyishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "Ustoz-shogird" tizimi mashg'ulotlarini tashkil etishni oliy o'quv yurtlaridagi musiqa ta'limida talabalar bilan o'qituvchilarning yakka tartibdagi mashg'ulotlar o'tkazishi bilan taqqoslash mumkin.

Texnologiya fanida elektron hisoblash texnikasi, mexanizasiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan qurilmalar va avtomatikaning qo'llanilishini o'rganish, o'quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarishidagi avtomatik va dasturli boshqarish tizimlari, robot texnika va ishlab chiqarish texnikasini, texnologiyasini ta'limning davr talablari darajasi va jahon andozasiga mos holda o'rganilishini ta'minlaydi. Keyingi vaqtlarda kam e'tibor berilayotgan, hatto yo'qolib borayotgan turli xildagi ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar: o'quvchilar ishlab chiqarish jamoalari, maktablararo o'quv ishlab chiqarish markazlari, o'quvchilar mehnat jamoalari, mavsumiy ishlarida va otaliq korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatida qatnashishlari va boshqalar mazmunan va shaklan qayta ko'rib chiqilib, qayta ishlab, zamon ruhiga moslashtirilishi va ta'lim tizimi amaliyotiga qo'llanilishi, texnologiya fanining maqsad, vazifalarini amalga oshirishda asosiy shartsharoitlardan hisoblanadi. Texnologiya fanini amalga oshirishda maktablar, maktabdan tashqari tarbiyaviy

muassasalar, oila, jamoatchilik, ishlab chiqarish korxonalari, xalq hunarmandlarining tajribalari hamda o'zaro hamkorlikdagi munosabatlari tiklanib, o'quv jarayonida foydali mahsulot–tovar moddiy ne'matlar yetishtirilib, ta'lim muassasalarining bozor iqtisodiyotini amalga oshirishda qatnashishida erishish ham dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Texnologiya fanini amalga oshirishda ta'limning quyidagi tamoyillariga rioya etish talab etiladi:

I. Ta'limning asosini tashkil etuvchi tamoyillar:

- nazariy ta'limni unumli mehnat bilan qo'shib olib borilishi;
- ta'limning politexnizm asosida qurilishi;
- ta'limning kasbiy yo'naltirilganligi;
- ijodiy rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

II. Umumdidaktik tamoyillar:

- amaliyligi; ilmiyligi; tarbiyaviyligi;
- ijodiyligi; -ko'rgazmaliligi;
- moddiy-texnika jihozlari bilan ta'minlanganligi;
- izchilligi;
- uzviyligi va boshqalar.

Ta'lim tarbiyasi tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalariidan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunar o'rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug'lashi masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz. Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namunalari: topishmoq, xalq qo'shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda ko'ramiz. Ularda mehnat va kasb-hunar odohi, axloqi va qoidalarini o'zlashtirish muhim hayotiy zarurat ekanligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari "Avesto", Kaykovusning "Qobusnoma", Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Geodeziya", "Minerologiya", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalari mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. O'quvchilarning kasb-hunarga qiziqishini tarbiyalashda insoniyat mehnat faoliyati tarixini o'rgatuvchi omillarga tayanib, o'quvchilarni kelajakda to'g'ri kasb tanlashlariga ulkan zamin

yaratilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarni mehnat turlariga qiziqishini oshirish, kasb tanlash va o'zlashtirishni shakllantirib borish uchun pedagoglar zimmasiga o'quvchilarga yoshligidan boshlab ta'lim, tarbiya berish bilan birga kasb-hunarga qiziqishishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishda quyidagi shartlarga amal qilish lozim:

- boshlang'ich sinf o'quvchilariga kasb-hunar to'g'risidagi tushunchalarni singdirish;
- o'quvchilarni yoshiga, jinsiga mos kasb-hunar tanlashida ularga pedagogik-psixologik yondashish;
- kasb-hunarga qiziqtirishda o'quvchilarning yoshi va qobiliyatlarini hisobga olish;
- mahalla oqsoqollari, mehnat faxriylar bilan muntazam aloqalar o'rnatish;
- mehnat ustaxonalariga ekskursiyalar uyushtirishni tashkil etish;
- darslarda mutafakkirlar merosidan foydalanib, kasb-hunarga oid fikrlari bilan tanishtirish

O'tmishdagi mashhur mutafakkirlar, xalq maorifi arboblari va ma'rifatparvar shoirlarning, mehnat, kasb-hunar to'g'risidagi qimmatli fikrlarining biz uchun ahamiyatli tomoni shundan iboratki, ulardan yosh avlodni mehnarsevarlik ruhida tarbiyalash, kasb-hunarga qiziqtirishning vositasi sifatida foydalanish mumkin. Bizga ma'lumki, o'zbek xalqining qadimiy kasb-kori asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bo'lgan. Ushbu kasblar yuzlab yillar davomida shakllanib har biri o'z ichida o'nlab tarmoqlarga ajratilgan va gullab yashnagan.

Muqaddas kitob "Avesto"da ham mehnat moddiy boyliklar manbai bo'lgani uchun emas, balki u mehnatni asosan axloqiy jihat, yaxshilik manbai deb bilganligi uchun insonlarcha mehnat qilishga chaqiradi. Xalq pedagogikasida "Yoshlikda egallangan bilim, hunar toshga o'yib yozilgan naqshdir", deb ta'kidlanadi. "Farzandlarga odob-hunar o'rgatmak merosdur", - deb nasihat qilinadi "Qobusnomada". - "Sen odob, hunar va donishni o'zingdan meros qilgin, toki uning haqqini bajo kelturmish bo'lgaysan". Chunki xos kishilarning farzandiga odob va hunardan yaxshiroq meros yo'qdir. Oliy xaloyiqning farzandlariga xirfa (savdo hunari) pesha (kasb) din yaxshiroq meros yo'qdir. Agar xos odamlarning farzandlari yuz hunar bilsa va lekin hech kasbni bilmasa ayb emasdur. Hunar esa bir kun

ishga yaragusidir. Demak, albatta hunar o'rganmoq zarurdir. Hunarning nechog'lik zarur ekanligi qator rivoyatlar, naqlar, ertak, dostonlarda ham o'z aksini topgan. "Oltin baliqcha", "Savdogar bilan podachi", "Sirli gilamcha", "Baliqchi bola", "Ikki naqqosh ishi" kabi ertaklar, "Hasanxon", "Rustam", "Ziyod" kabi dostonlar shular jumlasidandir. Hunar egallash ham bir fazilat, mahoratdir. Hunar egallashda halollik, poklik, sabr-qanoat, matonat, mehnat madaniyatiga rioya qilish muhim rol o'ynaydi. Ota-bobolarimiz ham hunar o'rganishni asosiy vazifa ekanligini o'rgatib kelganlar. Aburayhon Beruniy mehnat va hunar avloddan avlodga meros bo'lib o'tishini sinchiklab o'rgangan va hunarni yuqori baholagan. U hunarmandchilikda, mehnatda to'liq ustozlik san'atini egallab olish kerak, degan fikrni aytadi. Odatda, o'sha davrda hunar va tabiiy bilimlar maktablarda o'rgatilmay yakka tartibda berilgan.

1. Ota kasbini egallash, oiladagi kattalardan yakka shogird shaklida.

2. Shogird tushish, tanilgan usta qo'lida yakka shogird bo'lish.

3. Ustaxonalarda yakka shogirdlik tartibida o'rganish.

Xalqimiz bolalarda mehnatsevarlik va mehnatga qiziqishni tarbiyalash, otalarimiz izidan borib turli kasb-hunar egallash, ularda mehnat munosabatlarini kamol toptirish, kelajak hayotga tayyorlashni o'zlariga muhim vazifa deb hisoblaganlar. Tanlangan usta-hunarmandlar uyida yakka shogirdlikka tushgan bolalar bir necha yil hunarga ta'alluqli bo'lmagan yumushlarni ham bajarib yuraverganlar.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. O'quvchilarni texnologiya darslariga qiziqtirishda siz qanday usullardan foydalanardingiz?

2. Xalq merosida mehnat an'analarining o'rnini haqida gapirib bering.

3. Mehnat an'analarining vazifasi nimadan iborat?

4. Texnologiya darslarida mehnat an'analaridan qanday shakllardan foydalaniladi?

5. Ta'limning asosini tashkil etuvchi tamoyillar qaysilar?



## 8-MAVZU. MUTAFAKKIRLAR MEROSIDA MEHNAT TARBIYASI

### Reja:

1. Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasining targ'ib etilishi.
2. Mutafakkirlarning kasb-hunarga oid fikrlari.
3. Kasb-hunarga yo'naltirishga oid o'yin va tadbir turlari.

*Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasi, kasb-hunarga oid fikrlari kasb-hunarga yo'naltirishga oid o'yin va tadbir turlari.*

O'tmishda yashab, ijod etgan mashhur mutafakkirlar, xalq maorifi arboblari va ma'rifatparvar shoirlar mehnatning o'ziga xos xususiyatlari, uning inson uchun qadr-qimmati, kasb-hunar egallashning mazmun-mohiyati, mehnatning tarbiyaviy imkoniyatlari to'g'risida qimmatli fikrlar bildirib o'zlaridan juda katta ilmiy meros qoldirgan. Shu ilmiy merosning biz uchun ahamiyatli tomoni shundan iboratki, ulardan yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda, kasb-hunarga qiziqtirishning vositasi sifatida foydalanish mumkin. O'tmish tarixida qayd etilib o'tilganidek, o'zbek xalqining qadimiy madaniyatida mehnat bilan shug'ullanish shon-sharaf hisoblangan, kasb-korining asosiy mazmunini esa dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikni tashkil etgan. Zamonlar o'tib milliy madaniyat rivojlanib borgan, insonlar ongi o'sib borishi natijasida esa ularning turmush tarzi, yashash sharoitlari ham ijobiy tomonlarga o'zgarib kelgan. Asrlar osha shakllanib borgan kasb-hunar davr o'tib borishi bilan ularning har biri o'z ichida o'nlab tarmoqlarni hosil qilgan. Xalq ichidan har bir sohani yaxshi tushunadigan, o'z ishini a'lo darajada bajaradigan ustalar, bilimli kishilar, mutafakkir allomalar kamol topgan. O'rta Osiyoda tug'ilib kamol topgan mutafakkirlar mehnatning, turli kasb-korlar mazmun-mohiyatini yaxshi tushunib o'zlarining oltinga teng ilmiy merosini qoldirgan. Ularning kasb-hunar, mehnatsevarlik haqidagi fikrlari biz uchun milliy merosdir. Mutafakkirlar ta'limotida o'g'il va qizlarga ta'lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o'rgatish g'oyasi muhim o'rin egallaydi. Qadimiy

an'analarimizga binoan hunarmand va kosib, me'mor va naqqosh, dehqon va chorvodor, to'quvchi va nonvoy uztoz-shogird munosabatlarini amalga oshirib kelmoqdolar. Xalqimizning buyuk farzandi, o'zining ilmiy qarashlari bilan ulug' mutafakkirga aylanganlardan biri - Abu Abdullo Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850)dir. Uning insoniylik va mehnatsevarlik haqidagi dono fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mutafakkirning fikricha, har bir kishi qilgan ishlari bilan hech ham mag'rurlanmasligi va takabburlik qilmasligi lozim.

U matematik g'oyalar asosida odamlarning hayotiy zarurati yotishini, ilmiy kashfiyotlar odamlarning amaliy talablari asosida paydo bo'lishini asosladi. Masalan, yer ishlari, binolar qurish, kanallar ochish shunday paydo bo'lgan, deydi.

X asrdagi sharq ijtimoiy tarbiyashunoslik bo'yicha fikrlarning eng yirik vakillaridan yana biri Abu Nasr Al-Farobiy (870-950) hisoblanadi. Al-Farobiyning o'z davri uchun juda katta xizmatlar qilgan. Uning buyuk xizmatlaridan biri - insonlarni ilm-ma'rifatli bo'lishga, mehnat qilishga va kasb-hunar egallashga da'vat qilishi bo'lgan. Farobiy kasb-hunar to'g'risida ilk fikrlarni bildirib, qimmatli maslahatlar bergan, chunonchi, ta'lim-so'z va ko'nikmalar majmuyi, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish-harakat ekanligi, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo'lishini aytrgan. Bu mulohazalardan anglanib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan zarur hayotiy vosita bo'lib kelgan.

Al-Farobiy kasb-hunar va xalqoniy fazilatlar muayyan harakatlarni takrorlash, mashq qilish yo'li bilan paydo bo'lishini uqtiradi. U insonning kasb-hunar egallashi bilan bir qatorda ma'naviy madaniyatli bo'lishini e'tirof etadi. Mutafakkir bu borada, har bir kishi o'zi yoqtirgan kasbni egallaganidan so'ng, o'ziga topshirilgan ishga nisbatan yuksak ma'suliyatni his etishi va o'z "kasb-hunarini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq- atvor fazilatlariga ega bo'lmog'i kerak" deb ta'kidlaydi. Xalqimizning yana bir mutafakkiri - Abu Rayon Beruniy (978-1048) dir. Beruniy mamlakatning obodonchiligi, kishilarning baxt-saodati va kamoloti, uning halol mehnat qilishida va kasb-hunar o'rganishida deb biladi. U kasb-hunarga, turli asboblarni yasashga bag'ishlab 9 ta asar

yozgan. Asarlarida o'zi yashab turgan davrdagi ishlab chiqarishning rivoji va kasb-hunarga oid qimmatli m'alumotlar berilgan.

Beruniy mehnatni ulug'aydi. Ayniqsa, olimlar mehnati tufayli ilmiy yodgorliklar bunyod etilishini tasavvur qilgan mutafakkir sifatida alohida ko'zga tashlanadi. U "har bir kishining qadr- qimmati o'z ishini qoyil qilib bajarishida" deb biladi.

Eng muhimi, mutafakkir inson kamolotida, mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo'ladi. Og'ir mehnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa ilm ahli – olimlar mehnatiga alohida e'tibor berish, xayrixoh bo'lishga chaqiradi, ularni ma'rifat tarqatuvchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo'shuvchilar deb, biladi: shu bilan birga, og'ir mehnat qiluvchi konchilar, yer ostida gavhar izlovchilar, dehqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag'batlantirib turish kerak, deydi. Ayniqsa, podshohlar bunday mehnat ahliga g'amxo'r bo'lishi kerakligini alohida eslatadi. Chunki, ana shu mehnat ahli ular hukmronligining tayanchi, deb ta'kidlaydi.

Olim bolalarni mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshidan mehnatga o'rgatish kerak deydi. Mehnat tarbiyasida o'sha davr tarbiya an'anasiga binoan vorislikka katta ahamiyat beradi. Beruniyning «Mineralogiya» asarida faqat qimmatbaho metallar, toshlar haqida emas, hunarmandchilikka oid, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o'rgatish metodlari haqida ham qimmatli fikrlar bayon etilgan. Bunda hozirgi pedagogika fani tili bilan aytganda, shaxsiy namuna metodidan foydalangani, ish jarayoni bevosita ham nazariy, ham amaliy jihatdan ustaxonaning o'zida bajarilgani shogirdlarning malakali usta bo'lib yetishishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Abu Rayhon Beruniyning zamondoshi, qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino (980-1037)ning ilmiy faoliyatida ham mehnatga bo'lgan ilmiy qarashlarni ko'rishimiz mumkin. Mehnatni va kasb-hunarni sharaflash, mehnat xalqning qadr-qiymati ekanligini, uning manfaati uchun esa astoydil kurashish kerakligini Ibn Sino asarlarida uchratamiz. Mutafakkirning ilmiy qarashlaridan birini - "Odam ijtimoiy jondir" degan fikridan anglash mumkin. Bu fikrning ilgari surilishi shundan dalolat beradiki, Ibn Sino odamning yaxshi yashashi,

sog'lom turmush tarziga erishishi uchun eng zarur narsa foydali mehnat ekanligini muhim deb biladi.

Olimning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o'rgatmoq shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni o'rgansa, unu hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina, otasi uni uylantirib qo'ymog'i lozim, deb hisoblaydi.

Olim ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatishi borasida muhim fikrlar bayon etadi. Insonning xulqi va ruhiga mehnatning ijobiy ta'sirini ta'kidlash bilan bir qatorda turli kasb egalari: hunarmand, dehqonlar mehnatini ulug'laydi va qimorboz, sudxo'r kabilarni qoralaydi. U mehnatsiz hayot kechirish insonga ham jismoniy ham ruhiy tomondan salbiy ta'sir etishini to'g'ri talqin etadi. O'tmishda O'rta Osiyoda juda ko'plab shoirlar ijod qilib o'tgan. Ular o'z asarlarida mehnat tariyasini, ijtimoiy foydali mehnatning inson hayotidagi o'rni va ahamiyatini ko'p bora qayd etganlar. Masalan, O'rta Osiyodagi juda ko'plab shoirlar ustoz bo'lgan Abulqosim Firdavsiy (934-1020) o'zining "Shohnoma" asarida mehnatni ulug'lab o'tgan. Asarda o'z xalqiga mehr-muhabbat bilan yog'dirilgan va kasb-hunarni egallash malakasiga bag'ishlangan misralarni ko'plab uchratish mumkin:

Hunar bilan aqling birikkan hamon  
Har ish bu jahonda yurishgay ravon  
Mehnat tagidadir, ey oqil, har ganj  
Ganj topmas hech kimsa, tortmas ersa ranj

Firdavsiyga yaqin davrda yashagan shoirlardan biri Nosir Xisrav (1004-1088), dunyodagi eng oliyjanob va oliyhimmat odamlar mehnatkashlar ekanligi, bunday insonlar sirasiga jamiyat uchun foydali narsalar ishlab chiqaruvchi hunarmandlar, kosiblar, binokorlar ekanligini o'z asarlarida juda ajoyib misralar bilan bitgan:

Kasbdan shod-u xurram yo'q jahonda,  
Hunardin yaxshidur ham yo'q jahonda.  
Butun kun rizqining bog'boni bo'lg'ay,  
Kishin o'z uyining mehmoni bo'lg'ay.  
Arzir uning bo'lsa boshi osmonda,  
Usiz yashay olmas shoh ham jahonda.

Yuqorida tilga olingan ulug' mutafakkirlarning mehnat tarbiyasi va kasb-hunar tarbiyasi borasida shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, inson dunyoga kelar ekan, o'z hayoti mobaynida insoniy qadr-qiyamatga ega bo'lishi kerak, buning uchun esa mehnatga oshna bo'lmog'i darkor, shundagina mehnat hayot chirog'iga yog' quyib turadi. Mutafakkir Unsurul Maoliy Kaykovus «Qobusnoma» asarida jamiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-hunarning ham zarurligini ta'kidlaydi: «Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo'lsa-yu, ammo hunari bo'lmasa, u xaloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo'lur. Kasb-hunar o'rganishni bilim olish bilan qo'shib olib borishni tavsiya etadi. Fanni amaliyot bilan uzviy aloqada deb qaraydi. Dehqonchilik ilmini egallash, mazkur ishda erni tarbiya qilish, tezkor va g'ayratli bo'lishni ta'kidlaydi. Kaykovus yoshlarda mehnatsevarlikni, mehnatkash insonga hurmat tuyg'usini tarbiyalaydi, jismoniy mehnat bilan ham aqliy mehnat kabi shug'ullanish lozimligini bayon etadi. Muslihiddin Sa'diy ham bilim olishning afzalliklarini yoritib berish bilan birga ma'lum hunar sirlarini egallashning inson hayotidagi ahamiyatini ko'rsatib berishga urinadi. Allomaning qayd etishicha, muayyan hunarning egasi bo'lgan inson eng mashaqqatli damlarda ham o'zgalarning yordami va madadiga muhtoj bo'lmaydi, balki o'z hunarining sharofati bilan muammolarni hal eta oladi.

Mutafakkir ta'kidlab o'tganidek, «Hunar qaynar buloq, tunganmas davlat. Agar hunarmand molidan mahrum bo'lsa, qayg'usi yo'qdir, chunki hunarning o'zi davlatdir. Hunarmand qayerga borsa, qadrlanadi va uyning to'ridan joy oladi. Hunarsiz odam esa, hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi»:

Istar esang otangdan meros,  
Bog'la otang ilmiga ixlos .  
Ne nafi bor otang boyligin,  
Bir kun tugatarsan necha oyligin.

Mehnat, kasb-hunar haqida mutafakkir Mirzo Ulug'bekning ham o'ziga xos qarashlari bor. U bolalarni tarbiyalashda uy sharoiti va ota-onalarning faoliyatiga yuqori baho beradi, ularni hayotda chidamli, mehnatsevar qilib tarbiyalash juda zarur deydi. Buning dalili sifatida «Zij» ustida ishlash paytidagi qiyinchiliklar haqida shunday deydi: «Yulduzlar jadvalini tuzish maqsadida biz kecha-yu kunduz ishladik, o'z mo'ljallagan maqsadimizga yetguncha, biz o'zimizga

qadar yaratilgan jadvallarni taqqosladik, qayta tuzdik va shu tariqa yuz qaytalab tuzatishlar kiritgach, o'n sakkiz yildan so'nggina o'z ko'zlagan niyatimizga yetdik"

Mirzo Ulug'bek kabi davlat arbobi bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy faoliyatida ham mehnat tarbiyasi haqida qarashlari beqiyos. Bobur mehnat haqida o'z farzandlari va yaqin birodarlariga ko'p marotaba gapirgan. U o'zining dunyoga mashhur "Boburnoma" asarida chin ma'noda mehnatni va mehnat qilgan jamoani qadrlash muhimligi to'g'risida yozadi. Mutafakkir alloma Abdurahmon Jomiy esa hunarni e'zozlagan rahbarning o'z xalqi hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lishi hamda rahbar qachonki, elning ehtiromiga muyassar bo'lar ekan, ana shundagina mamlakat gullab-yashnashi mumkinligini ta'kidlaydi. U hunar sirlarini o'zlashtirish foydadan holi bo'lmasligini uqtiradi. Ayni o'rinda insonning qadr-qiymati uning mol-u mulki bilan emas, aksincha, u tomonidan egallangan hunarning kishilar maishiy hayotini farovonligini ta'minlashdagi ahamiyati bilan belgilanishiga urg'u berib o'tadi.

Odamning qiymati emas sim-u zar,  
Odamning qiymati bilim ham hunar.  
Nazar sol, dunyoda hunar tufayli,  
Xojasidan qadri ortiq ko'p qullar.  
Qanchalab xojalar hunarsiz uchun,  
Qullari oldida beo'q, besipar.

Mutafakkir bilim hamda hunarsiz kishini o'tindan boshqa narsaga yaramaydigan mevasiz daraxtga o'xshatadi. U har bir yoshni ilm-u hunar sirlarini o'rganishga, bu yo'lda sabrli, matonatli bo'lishga undaydi. Insonga baxtli turmush baxsh etuvchi vosita - mehnat, har bir inson o'z halol mehnati bilan yashamog'i lozimligini ta'kidlaydi.

Mehnating bo'lsin doim yo'ldoshing  
O'zga minnatidan og'ritma boshing.

Ulug' alloma, o'zbek she'riyatining sultoni, mir Alisher Navoiy asarlarida mehnatning ulug'vorligi, egallangan kasb-hunarni avaylab-asrab faoliyat yuritish kerakligini guvohi bo'lamiz:

Hunarni asrabon netkumdir oxir,  
Olib tuproqqamu ketgumdur oxir.

Mutafakkirlardan biri Muhammad Sodiq Qoshg'ariydir. U ixlos bilan qilingan mehnatning zoye emasligi, kishilarni birlashib mehnat

qilishga chorlaydi. Qoshg'ariy har bir ishda boshqalar maslahati, kengash bilan ish yuritish, olim va tajribali insonlar fikriga tayanish yaxshi fazilat ekanligini ta'kidlaydi.

Buyuk allomalarimiz tomonidan yaratilgan og'zaki va yozma ijodiyot avloddan avlodga o'tib kelayotgan imon-e'tiqod sirlarining nazariy va amaliy jihatlari haqidagi bilimlar bilan yoshlarni qurollantirish lozim. Zero, inson halol mehnati bilan ulug' savoblar vaqtida qilingan darajalarga erishish mumkin.

Atoqli shoir Nizomiy Ganjaviyning: "O'qib-o'rganilgan har bitta hunar hunarmandga bir kun foyda keltirar", - deb yozgani o'ziga xos ilmiy asosga ega. Biror kasb-hunari bor kishi, albatta, hayotda o'z o'rnini topadi. "Har kimning zari bo'lmasa-da, ammo hunari bo'lsa, dunyoda hech bir xavf-xatari bo'lmaydi. Shuning uchun kishi hunar ziynati bilan bezanmog'i kerak", degan hikmatli so'zni Ganjaviy o'z o'rnida juda to'g'ri ifodalagan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab o'tgan taniqli olim va ma'rifatparvar Aliy Nazimoning Markaziy Osiyoda katta shuhrat qozongan va maktab-madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan "Ta'limi banot" ("Qizlar tarbiyasi") kitobida: "Yosh qizlarga ta'lim-tarbiya berishda ular uchun nihoyatda kerakli, o'rganmaslikning aslo iloji bo'lmagan fandır" degan jumalarni o'qiydiz. Zero, mehnat qilgan, kasb-hunarli inson birovga qaram bo'lmaydi, yaxshi mehnat qilish orqali inson o'zining uch ehtiyojini qondiradi. Birinchisi, moddiy ehtiyoj, ikkinchisi, ma'naviy ehtiyoji, uchinchisi esa mehnat ehtiyojini qondirishdir.

Moddiy ehtiyoj qondirilishi natijasida ma'naviy va mehnat ehtiyojlari ham qondiriladi. O'quvchini mehnat qilishga o'rgatish, nafaqat mehnatni sevishga, balki u bilan shunday uyg'unlashishiga ko'niktirish kerakki, mehnat uning vujudiga singib ketsin. Ularni kasb-hunarga yo'naltirish orqali biror kasb egasi bo'lishida, mehnatsiz biror – bir narsaga erisha olmasliklarini o'quvchilar tushunib yetsinlar. Andre Maruo aytganidek: "Agar inson biror kasbni mukammal egallasa, mehnat unga huzur bag'ishlaydi, baxt keltiradi". Shu o'rinda Naqshbandiya ta'limotining ahamiyatli tomonlariga ham e'tibor qaratish lozim. Naqshbandiya halol mehnat qilish orqali kun kechirish g'oyasini targ'ib qiladi. Bahouddin Naqshband tomonidan ilgari surilgan "Dil ba yoru, dast ba kor" (Dil Allohda, qo'l ish (mehnat)da)

shiori fikrimizning yorqin isbotidir. Shuning uchun ham Naqshbandiya ta'limotiga kirgan kishilar mehnat qilish evaziga hayot kechirar edilar. Tun-u kun toat-ibodat bilan shug'ullanib, oila, jamiyat yumushlarini tark etish emas, balki oilani farovon, mamlakatni obod etish yo'lida mehnat qilish talab etilar edi. Ushbu talab hadislar mazmunida olg'a surilgan g'oyalarga to'la mos tushadi. Bahouddin Naqshbandning o'zi ham oddiy, pok inson bo'lib, mehnat qilish evaziga kun kechirgan.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim-tarbiya jarayonida o'tmish merosimiz Sharq allomalarining bebaho asarlaridan to'g'ri foydalana olish, nafaqat milliy qadriyatlarimiz va ma'naviyatimizni yuksaltiradi, balki komil inson shaxsini shakllantirishda ham muhim hissa qo'shadi. Chunki inson hayoti davomida qadrlanib, rivojlantirilib kelayotgan nazariy va amaliy sayqal topgan yaxshilik, adolat, do'stlik, tinchlik, tenglik, erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ota-ona, keksalarga hurmat, iymon, e'tiqod, ustoz va shogird va boshqa umuminsoniy fazilatlar keyinchalik milliy qadriyatlarning asosiy tarkibiy qismlariga aylanib qolgan. Mutafakkirlar ta'limotining sarchashmalarini XIX asrning ikkichi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ta'lim-tarbiyaning rivojlantirishga asos solgan bir qator pedagog-olimlar faoliyatida ko'rish mumkin. Masalan, Abduqodir Shakuriy Samarqand maktablariga birinchi bo'lib mehnat va musiqa darslarini kiritdi. U bolalarni qishloq xo'jalik va bog'dorchilik ishlari bilan tanishtirishdan tashqari, ularga muqovasozlik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o'rgatgan, bu mashg'ulotlar uchun alohida soatlar ajratgan.

Abdulla Avloniy o'tmish mutafakkirlari kabi yoshlarni foydali kasb-hunar egallashga chaqiradi. Adib boylik ketidan o'quvchilarni, ularning odamgarchilikka to'g'ri kelmaydigan ishlar bilan shug'ullanayotganini ko'rib, ulardan nafratlanadi. Avloniy yoshlarni boylikka ruju qo'ymaslikka undaydi. Boylikni o'tkinchi bulutga o'xshatadi. Abdulla Avloniy mehnatsiz kun kechirishni barcha yomon sifatning ibtidosi, deb hisoblaydi. Shuning uchun ham u, mehnatni ulug'laydi, mehnat kishining eng go'zal fazilatidir, deydi. Bu jihatdan uning «Aqlli bog'bon» hikoyasi xarakterlidir. Hikoyada aytilishicha: «bir bog'bonning uch o'g'li bo'lib, ular dangasa va ishyoqmas bo'lganlar. Otada ularga meros qoladigan tangatillo yo'q. Ota umri



tugayotganini sezib, farzandlari taqdiridan tashvishga tushadi. O'ylab-o'ylab shunday yo'l tutadi. Har uchchala o'g'lini yoniga chorlaydi. «Ko'zim ochiq ekan, vasiyatimni sizlarga aytib ketay, mehnat-u mashaqqat ila bir ko'za oltin yiqqanman. Uni mana shu bog'ga, toklarning birini tagiga ko'mganman. U-sizlarniki. Biroq bu ishga ko'p yil bo'ldi. Harchand urinsam ham ko'milgan joyni xotirlay olmadim. Uni o'z'laringiz izlab topinglar va o'zaro bo'lishib olinglar», deydi. Bir ko'za tilla daragini eshitib uch ishyoqmas uni izlashga tushib ketadi. Bog'ning hamma yerini kovlab chiqishadi. Sirli ko'za chiqmaydi. Yana erinmay kovlashga tushadilar. Kutilgan natija esa hamon yo'q. Shu taxlit bog' ichi bir necha qayta ag'dar-to'ntar qilinadi. Yerlar qazilaverib, tuprog'i upaga aylanib ketadi hamki, oltinli ko'za topilmaydi. Bu orada uzumzordagi toklarning eng chuqur ildizlarigacha ochib ko'riladi. Bog'da o'sha yili chunonam hosil bo'ladiki, undan bir necha ko'zani to'ldirgulik oltin oladilar. Uch dangasa o'g'illar ota gaplarining asl ma'nosini, oltin — mehnatda ekanligini tushunib yetadilar.

Adib o'sha hikoyasi bilan mehnatni ulug'laydi, o'quvchi qalbida mehnatga muhabbat uyg'otadi. Kishi baxt va saodatga faqat mehnat orqaligina yetishishini uqtiradi.

Mehnat tarbiyasi masalasi ma'rifatparvarlar ijodida hamisha faxrli o'rin tutgan. Ular yoshlarni jamiyat manfaati uchun ishlashga chaqirish bilan birga, ustozlar va ota-onalarning mehnat tarbiyasi sohasidagi vazifalari nimalardan iborat ekanligini ham ko'rsatganlar. Xalqimizda ajoyib odat bor: kishilarning bir-biri bilan tanishuvi, hol-ahvol so'rashuvidan, muomala maromidan boshlanib, kasb-hunar, kasb-korini aniqlash istagi bilan tugaydi. Shu boisdan har bir fuqaro bir kun kelib o'z-o'ziga: "Dunyoda qay ahvolda yashadim, qanday g'aroyib ishlarni amalga oshirdim, o'z taqdirimdan xursandmanmi, oldimda turgan vazifalarni amalga oshira oldimmi, ko'zlagan maqsadimga erisha oldimmi?" kabi savollarni berishi tabiiy hol. Shuning ushun ham har bir inson mutaffakir Jaloliddin Rumiyning "Sen hamma narsani unutishing mumkin, yolg'iz bir narsani – nechun dunyoga kelgansan, shuni unutmasang bas. O'zingni arzon arzon sotmagaysan, illo bahoying baland". Ushbu jummalarda tafakkur qiluvchilar, bolalarga ta'lim-tarbiya beruvchilar uchun yetarli ma'lumot bo'lishi kerak, deb o'ylash mumkin.

Shu o'rinda Nosir Xisravning quyidagi fikrlari ilm o'rganuvchilar uchun ibratlidir.

Ilm qidirishga urdim boshimni,  
Bekorga o'tkazmadim umrimni bir dam,  
Qaydaki eshitsam ilm-u donishni,  
Eshigin oldida o'ltirdim mahkam.  
Hunaringdan bir kun etarsan baxtga,  
Hunarsiz kim etar toj ila taxtga.

Xullas, boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnat va kasb-hunar bilan tarbiyalashda ulug' mutafakkirlarimizning asarlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Mutafakkirlarning merosiga chuqur hurmat bilan qarash va ular yaratgan asarlarni ko'z qorachig'iday saqlash kerak.

#### *Kasb-hunarga yo'naltirishga oid o'yin va tadbir turlari*

Milliy qadriyatlarimizdan mia'lumki, o'yinlar, jumladan, kasb-hunarga yo'naltirishga oid o'yinlar bolalar tomonidan azaldan o'ynalib kelingan. O'yin – bolalarda unga nisbatan mas'ullik tuyg'usini, o'yin qoidalariga qat'iy rioya qilish burchini shakllantirib borish bilan bir qatorda mehnatga bo'lgan hissiyotini o'stiradi. Bolalar o'yin sujetiga muvofiq kerakli narsalarni o'z qo'llari bilan tayyorlaydilar, materiallar to'playdilar. Bu jihatlar harakatni predmet boshqaradigan o'yin turlarda namoyon bo'ladi. Bolalar o'yinlarni o'ynash uchun tuproq, loy, ro'molcha, lanka, chillak, turli qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, parraklar, varraklar, soqollar, g'altakcha va boshqa narsalarni o'z qo'llari bilan tayyorlaydilar, tikadilar, yasaydilar. O'yinga mos toshchalar, tanga, hanguz, oshiq, koptok, yong'oqlarni to'playdilar. Bular bolalarda ijodkorlik malakasini shakllantirishda xizmat qiladi va o'z navbatida o'yinni tashkil etuvchi topqirlikka o'rgatadi. Masalan, qizlar qo'g'irchoq yasamoqchi bo'lishsa, bir tugma, ozgina ip va mato, ikkita cho'pchak topishsa bo'ldi, ular uni tayyorlaverishadi.

Bolalar kasb-hunar egalarining faoliyatiga taqlid qilib, ular obrazini yaratishga harakat qiladilar. Masalan, "Bo'yoq sotuvchi" o'yinida sotuvchining do'konda o'tirib savdo qilish harakatini, pul va xaridor bilan muomalasini, savdo-sotiqni tashkil qilish, molni maqtash, narxni oshirishga intilish kabi shu kasbgagina aloqador nozik holatlarni o'ynab turib aks ettirishga intiladilar. Shu orqali

bolalarda sotuvchilik kasbiga oid ko'nikma va malaka hosil bo'la boradi.

“Kadi pishdi” o'yini dehqon bilan xaridor dialogi asosida tashkil etiladi. Unda dehqon obrazini haqiqiy dehqonlardek tutishga harakat qiladi. Buning uchun u taqliddan dehqon kabi yer hadayotgandek, hosil ekayotgandek, hosil parvarish qilayotgandek va nihoyat hosilni avaylab yig'ishtirib olayotgandek harakatlarni bajarib ko'rsatadi.

Kasb-hunar egalarining faoliyatiga taqlid qilib ko'rsatishga molik yana juda ko'p o'yinlarni bolalar katta qiqish bilan o'ynaydilar. “Bog'bon va gullar”, “Cho'pon va shog'ol”, “Milissioner”, “Samolyotlar”, “Ot ustida sakrash” va boshqa o'yinlar kasb-hunar egalari faoliyatini taqlid qilib ko'rsatishga molik o'yin turlariga misol bo'ladi.

Maktablarda sahna ko'rinishidagi turli-tuman tadbirlar, jismoniy mehnat, bayram tadbirlari, kasbga bag'ishlangan kechalar muntazam o'tkazib kelinadi. Shu tariqa o'quvchilar zamonaviy ishlab chiqarish turlari va kasblari, xo'jalik turlari, kasbning rivojlanishi, kasblarni o'zlashtirishning shakllari va shartlari, mehnat faoliyati jarayonida kasbiy malaka usullari bilan tanishib, o'rganib boradilar.

#### **Mavzu yuzasidan savol va topshirilar:**

1. O'quvchilarni kasb-hunarga qiziqtirishda mutafakkirlar ta'limotining ahamiyati qanday rol o'ynaydi? Misollarda izohlang.
2. Kasb-hunar haqida ma'lumot bering.
3. Mutafakkirlarning kasb-hunarga oid qarashlari, fikrlarini misollarda tushuntirib bering.
4. Kasb-hunar haqida qanday tadbirlar mavjud?
5. An'anaviy kasb-hunarlar deganda nimalar nazarda tutiladi?
6. Kasb-hunar haqidagi o'yinlar va ularni o'ynash usullarini izolab bering

## 9-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MEHNAT TARBIYASI VA KASB-HUNAR TURLARI

### Reja:

1. O'quvchilarni mehnatga tarbiyalash.
2. Kasb-hunarlar haqida tushuncha.
3. Kasb-hunar turlari va mazmuni.
4. Texnologiya darslarida kasb-hunarga yo'naltirish.

*Mavzuga oid tayanch tushunchalar:* Kasb, hunar, mehnat tarbiyasi, kasb tiplari, kasb guruhlari, kasb turkumlari, mezonlar

Mehnat tarbiyasi o'quvchilarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mehnat tarbiyasini shunday tashkil etish kerakki, inson mehnat jarayoni va uning natijasidan qanoatlanishini tarkib toptirishga ko'maklashsin. Mehnat tarbiyasining pirovard maqsadi shaxs xarakterining asosiy xislati sifatida uning mehnatga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishdir.

Maktab ta'limining hozirgi bosqichida o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, o'sib kelayotgan avlodning ta'lim va tarbiyasidagi eng zarur vazifalardan biri hisoblanadi, chunki mehnat har qanday rivojlanish va taraqqiyot jarayonining asosidir.

Mehnat tarbiyasining maqsadi o'quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:

- yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;

- o'quvchilarda umumjamiyat manfaati yo'lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;

- ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- o'quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;

- ularda mehnat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;

•o‘quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, hayotiy faoliyat yo‘nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;

•o‘quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab turgan hududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblarni egallashga bo‘lgan qiziqishni oshirish;

•o‘quvchilarni kasbga yo‘llash, ularni mehnat faoliyatining barcha turlari, shuningdek, ular yashayotgan hududda ehtiyoj mavjud bo‘lgan mutaxassisliklar bilan tanishtirish.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklari va imkoniyatlariga asoslangan qo'l mehnati hisoblanadi.

Qo'l mehnati jarayonida bolalar asosan ishlab chiqarish texnologiya chiqindilari qog'oz, karton, sim, yog'och, gazmol va boshqalar bilan: tabiiy va sun'iy xom-ashyolar maxsus loy, yog'och va plastmassalar, plastilin, yelim va boshqalar bilan keng iste'mol mollari va xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, tayyorlash uchun mahalliy xom-ashyolar bilan elektr, radiotexnika to'plamlari va hokazolar bilan ishlashga o'rganadilar.

Mazkur vazifalar tizimida o‘quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlash ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Bolani mehnatga psixologik tayyorlash – unda mehnatga nisbatan uning yoshiga mos keluvchi ongli vaq ijobiy (musbatlar) munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarini egallashga qiziqishlarni shakllantirishdan iboratdir.

Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarning aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasi bilan o‘zaro bog‘lik holda yaxlit tizimda amalga oshiriladi. Chunonchi:

1.Aqliy tarbiya o‘quvchilar mehnat tarbiyasi, ularni kasbga tayyorlashning asosi sanaladi. Zero, mehnat – nazariy va amaliy bilimlarni egallashga yordam beradi, bilim esa o‘z navbatida shaxsni mehnatga tayyorlashni takomillashtiradi. Mehnat tarbiyasining samaradorligi o‘quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifasi bilan belgilanadi.

2.Mehnat tarbiyasi axloqiy tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Chunki mehnat faoliyati yordamida o‘quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, irodalilik, tashabbuskorlik, mustaqil harakat qilish kabi axloqiy xislatlar ham shakllanadi.

3.Mehnat tarbiyasi estetik tarbiya bilan mustahkam aloqada olib boriladi. Mehnat tarbiyasi mazmuniga estetik elementlarni singdirish asosida uni amalga oshirish o‘quvchilar mehnat tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Mehnatda go‘zallik va o‘z mehnatidan zavqlanish uning yanada samarali kechishiga yordam beradi. Yuqoridagilarga asoslanib, o‘quvchilar mehnat tarbiyasida quyidagi mezonlarni asos qilib olish maqsadga muvoifq. Bular:

- o‘quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyatini tushunilishi;
- ularning ixtiyoriy ravishda mehnat qilishlari;
- ularda mehnat qilmay hayot kechiruvchilarga nisbatan nafrat uyg‘otish;
- o‘quvchilarda mehnat va mehnat ahliga hurmat tuyg‘ularini qaror toptirish;
- ularda mehnatda javobgarlikni his etish tuyg‘usini tarbiyalash;
- ularning mehnatga ongli munosabatda bo‘lishlariga erishish;
- mehnatda ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash;
- o‘quvchilarda jamiyat va umumxalq mulkini ko‘z qorachig‘iday asrash tuyg‘ularini shakllantirish;
- mehnatda do‘stlik, o‘rtoqlik va hamkorlikka erishish;
- o‘quvchilarning mehnatni go‘zallik manbai sifatida tushunishlariga erishish va boshqalar.

Mehnat eng muhim iroda va ahloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Mehnat ta'limida mehnatga psixologik tayyorgarlik, mehnat faoliyatining to'g'ri motivlaritarbiyalanadi, shaxsning har bir ongli mehnatkash uchun zarur bo'lgan sifatlari shakllanadi.

Kasb - (Lotincha: *professio* — rasmiy ko‘rsatilgan mashg‘ulot, ixtisoslik) — maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar majmuyiga ega tajribali shaxsning mehnat faoliyati turi hisoblanadi. Kasb - kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'ulot turi.

Hunar - o‘zbek tiliga tojik tilidagi shakli olingan; asli “layoqat”, “san’at” ma’nolarini anglatadi; keyinchalik “kasb” ma’nosini ham ang'lata boshlagan. Dunyoda 10000 dan ortiq kasb va mutaxassisliklar

mavjud. Ushbu kasblarning birini qobiliyatlarimizga, dunyoqarashimizga eng asosiysi qiziqish va moyilliklarimizga qarab tanlashimiz kerak. Inson ishlayotgan vaqtda uning diqqat-e`tibori sohaga emas (bu soha qanchalik yaxshi, obro`-e`tiborli va boshqa ko`pgina afzalliklarga ega bo`lishiga qaramay), balki mehnat predmeti (ob`yekti)ga qaratilgan bo`ladi. Mana shu predmetni ishlatib, nimadir qilish kerak (bu endi mehnatning maqsadi bo`ladi). Har qanday mehnatda qurollar, vositalar mavjuddir. Nihoyat, odam uchun uning qanday sharoitda ishlashi muhim ahamiyatga egadir. Kasb tanlashni o`ylayotgan kishi uchun qulay bo`lgan kasblar klassifikatsiyasi mana shu belgiga qarab tuziladi.

### **Kasblarning tiplari**

Mehnat predmetiga qarab barcha kasblar beshta tipga bo`linadi.

1. «Odam — tabiat». Bu yerda mehnatning asosiy, yetakchi predmeti jonli tabiatdir. Bu tipga, masalan, quyidagi kasblar kiradi: urug`shunos, meva-sabzavotshunos, davlat urug`chilik inspeksiyasining laboranti, chorvador-usta, ximik-bakteriologik analiz laboranti, zootexnik, agronom.

Texnika (techne – mahorat, san'at) – moddiy boylik olish hamda odamlar va jamiyatning ehtiyojlarini qondirish maqsadida inson atrofidagi tabiatga ta'sir qilishga imkon beradigan vositalar va ko'nikmalar majmuyi.

2. «Odam-texnika». Bunday kasblar tipida mehnatning asosiy yetakchi predmeti texnika ob`yektlari (mashinalar, mexanizmlar va boshqa shunga o`xshashlar), materiallar, energiya turlaridan iborat bo`ladi. Jonsiz tabiat ob`yektlari (Yer osti boyliklari, tuproq, suv, o`rmon va qishloq xo`jaligi mahsulotlari) ham ko`p jihatdan shularga o`xshagan bo`ladi.

3. «Odam-odam». Bu yerda asosiy mehnat predmeti odamlardir. Mazkur mehnat sohasida mayllar, qiziqishlar qay darajada ekanini aniqlashda o`quv predmetlaridan tashqari, siz shaxsan o`zingiz jamoa bo`lib o`tkaziladigan tadbirlarni tashkil etishda ishtirok etib orttirgan tajribangiz ham yordam beradi. Makzur tipga kiradigan quyidagi kasblarni ajratib ko`rsatish mumkin: - Radioelektron apparatlar va asboblarni montajchisi elektr va radiotexnika sohasida chuqur bilimga ega bo`lmog`i kerak.

4. «Odam-belgilar tizimi». Kasblarning bu tipida shartli belgilar, raqamlar, kodlar, tabiiy yoki sun`iy tillar asosiy yetakchi mehnat predmeti hisoblanadi. Hozirgi zamon kishisi belgilar va belgi tizimlari dunyosida matnlar, chizmalar, sxemalar, kartalar, jadvallar, formulalar, yo`l belgilari ichida yashaydi. Binobarin, bularning hammasini biladigan tegishli mutaxassislar ham zarur.

«Odam-belgilar tizimi» tipidagi kasblar quyidagilarni o`z ichiga oladi:

hujjatlarni (ona tilida yoki chet tilida) rasmiylashtirish, ish yuritish, matnlar va ularning qayta yozilishi, qayta kodlashtirilishi bilan bog`liq bo`lgan kasblar: tarjimon, sekretar-mashinistka, telegrafchi, texnik redaktor va boshqalar;

5. «Odam badiiy obraz». Kasblarning bu tipida badiiy obrazlar, ularning tuzilish usullari yetakchi mehnat predmeti hisoblanadi. Bu yerda quyidagi kasblarni ajratib ko`rsatish mumkin:

tasviriy faoliyat bilan bog`liq bo`lgan kasblar: badiiy mebellar ishlab chiqarish boyicha duradgor, toshga oyib gul soluvchi, yoritish elektrotexnigi (teatrda), poyabzal kanstruktor-modeleri, dizayner-rassom va boshqalar;

**Kasblarning turkumlari.** Mehnatning maqsadi odam faoliyati mazmunining muhim xarakteristikasi hisoblanadi. Mehnatning maqsadlari xilma-xil bo`lishiga qaramasdan, ularni uchta katta gruppaga: bilish, o`zgartirish, o`ylab topish guruhlariga bo`lish mumkin. Mehnatning maqsadiga qarab kasblarni uch turkumga ajratib ko`rsatish mumkin.

1. Gnostik kasblar (G). Bu kasblarning nomi lotincha «gnozis»— bilim, bilish degan ma`noni anglatuvchi so`zdan olingan. Agar siz aqliy mehnat (ya`ni bilib olish, gnostik mehnat) bilan faqat ish stolida, xonada shug`ullanish mumkin deb o`zingizga odat bo`lib qolgan tarzda o`ylaydigan bo`lsangiz, u holda bunday fikrdan voz kechishga to`g`ri keladi. Bilish, o`rganish mehnati bilan bog`liq bo`lgan ko`pgina kasblar mavjud bo`lib, ular bilan bevosita moddiy ishlab chiqarish jarayonida shug`ullanishga to`g`ri keladi. Masalan, nazoratchilar, sortga ajratuvchilar, pirometristlar ana shunday kasbdagi kishilardir.

2. O`zgartiruvchi kasblar (P). Juda ko`p kasblar mehnat predmetlarini o`zgartirish bilan bog`liq bo`ladi.



Odamning o'zgartiruvchi faoliyati faqat buyumlargagina qaratilib qolmay, shu bilan birga energiya turlariga, axborotlarga, jarayonlarga, ijtimoiy hayotning tuzilishiga qaratilgan bo'lishi ham mumkin. Mana, bunga faqat birgina misol keltiramiz. Yetakchi o'quvchilarni uyushtirdi va ular ko'chat o'tqazishda faol ishtirok etdilar. Mana shu misolda faqat tabiatning o'zgarganligi to'g'risida gapirish kifoya qilmaydi. Bu yerda eng muhimi bolalarning mehnatga, bir-birlariga bo'lgan munosabatlari o'zgaradi va hokazo.

3. Tadqiqotchilik kasblari (I). Mazkur turkumning nomi izoh berishni talab qiladi. Bu nomga qarab, mazkur kasb qidiruv ishlari bilan (masalan, geologik qidiruv ishlari bilan) yoki ilmiy tadqiqotlar bilan, albatta, bog'liq kasb bo'lsa kerak, deb o'ylamaslik kerak. Bu yerda o'zgartiruvchi turkumga yaqin bo'lgan kasblar to'g'risida gap boradi.

Mazkur turkumdagi kasbda qilinadigan mehnatning maqsadi-qandaydir bir noma'lum narsani, buning ustiga ko'pincha cheklangan bir vaqt sharoitida qidirishdan iborat bo'ladi.

Kasblarning bo'limlari va guruhlari

Kasblarning bo'limlari. Mehnat vositalariga qarab kasblar bo'limlarga bo'linadi.

1. Qo'l mehnatidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar (Q). Mazkur kasbda ishlovchi kishilar qo'l mehnatidan va mexanizatsiyalashtirilgan mehnat qurollaridan foydalanadilar. Masalan, otvyorka, skalpel (jarrohlik pichog'i), shtixel (yog'ochga yoki metallga oyib gul solish asbobi), reysfeder, tortsovka (boyoqchilar cho'tkasining bir xili), elektr drel, bo'yoq purkagich, pnevmatik otboyka bolg'asi va hokazolar ana shunday ish quroli hisoblanadi.

2. Qo'lda boshqariladigan mashinalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar (M). Boshqacha qilib aytganda, ularni ham mashinada, ham qo'lda ish bajariladigan kasblar deyish mumkin — tokar, frezerchi, kran mashinisti, keng profildagi traktorchi-mashinist, elektrovoz mashinisti va boshqalar ana shunday ham qo'l mehnati, ham mashinadan foydalaniladigan kasblar qatoriga kiradi. Bunday kasblarda ishlaydigan kishilardan faqat texnologik bilimlarga ega bo'lish talab qilinmasdan, shu bilan birga ulardan qo'l mehnati malakasiga ega bo'lish ham talab qilinadi.

3. Avtomatlashtirilgan va avtomatik sistemalardan, apparatlardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar (A). Avtomatlashtirish darajasiga qarab ishlayotgan kishining zimmasiga har xil vazifa tushishi mumkin. Bu vazifa umuman agregatni va uning ta'miri bilan bog'liq bo'lgan ishlarni boshqarishdan tortib o'sha agregat ishini kuzatib turish va agar zarurat tug'ilsa, kerakli mutaxassisni chaqirishgacha bo'lgan ishlarni o'z ichiga oladi. Mazkur kasb bo'limining vakillari prokat stanining operatori, energosistema dispetcheri, kimyo ishlab chiqarishi apparatchisi, avtomatik liniyalar operatori, po'lat quyuvchi va boshqalardir.

4. Funktsional vositalar, mehnat qurollari ko'proq talab qilinadigan kasblar (F). Bu yerda odam xulq-atvoridagi funktsional vositalar va uning nutqidagi ana shunday vositalar, ya'ni imo-ishoralar, tovushlar, so'zlar, jummalarning talaffuz qilinishi, ma'no tashuvchi va emotsional intonatsiyalar, pauzalar, yuz mimikasi mehnat quroli rolini bajaradi. Bu bo'limga: o'qituvchi, tarbiyachi, san'atkor, aktyor, xor yoki orkestr dirijori singari kasblar kiradi.

Mehnat malakalari madaniyati u yoki bu mehnat jarayonida belgilangan tartibga va harakatlat izchilligiga rioya qilish kerakligini muntazam tushuntirib borish bilan birga bo'ladigan ko'p marta mashq qilishlar natijasida tarkib topadi, o'quvchilarda ana shular takomillashib boradi.

Odam organizmi ham funktsional vosita rolini bajarishi mumkin (balet artisti; sport pedagog-murabbiyi, ashulachi, sirk akrobati).

Mana shu kasblarni egallagan kishilar uchun o'z xotirasida juda ko'p qoidalarni, ma'lumotlarni saqlab qolish qobiliyati, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini boshqarish qobiliyati xarakterli bo'ladi.

**Kasb guruhlari.** Nihoyat, piramidaning oxiridan oldingi qavati —mehnat sharoitlari boyicha kasblar klassifikatsiyasiga to'xtalib o'tamiz. Kasblar to'rtta guruhga bo'linadi:

1. Odatdagi («maishiy») mikroiklim sharoitidagi mehnat (Mt). Hisobchi, iqtisodchi, chizmach, o'qituvchi va boshqalarni mana shu kasb gruppasiga kiritish mumkin.

2. Harorat, namlik keskin o'zgarib turuvchi ochiq havoda ishlash bilan bog'liq bo'lgan mehnat (O). Quyidagi kasblar bunga misol bo'la oladi: qurovchi, o't o'chiruvchi, sug'oruvchi va boshqalar.

3. Odatdan tashqari mehnat: yer ostida, suv ostida, balandlikda, havoda, qaynoq tsexlarda, sog'liq uchun muqarrar zararli ta'siri bo'lgan tsexlarda ishlash (G'). Bunday kasbga misollar: uchuvchi, shaxtyor, g'avvos va hokazo.

4. Odamlarning sog'ligi, hayoti uchun, katta-katta jamoat boyliklari, moddiy ne'matlar uchun oshirilgan ma'naviy mas'uliyat bilan bog'liq bo'lgan mehnat (M). O'qituvchi, shifokor, militsiya noziri, texnika xavfsizligi muxandisi va boshqa kasblarni mana shu mehnat guruhiga kiritish mumkin.

Kasb tanlash formulasi. Piramidaning to'rtta-qavati to'ldirilgan Beshinchisi hozircha bo'sh qoldirilgan. Bu yerga siz o'zingiz tanlagan kasbning bir necha harfdan iborat bo'lgan formulasi shartli belgisini yozib qoyishingiz kerak. Bu harflar siz yoqtirgan kasbning tipiga, turkumiga, bo'limiga, guruhiga muvofiq keladi.

Masalan, siz o'simliklar bilan ish olib borishni xohlaysiz, deylik. Siz qo'l mehnatini engillashtiradigan ish quollaridan foydalanib faol ravishda o'zgartiruvchilik faoliyati bilan mashg'ul bo'lasiz. Lekin bunda o'z mehnatingiz kundalik, oddiy, maishiy sharoitlarga yaqin bo'lgan bir vaziyatda kechishini istaysiz. Bunday vaqtda siz tanlagan kasbning formulasi shunday bo'ladi: PPRB («Odam-tabiat» tipidagi kasb, o'zgartiruvchi kasblar guruhidan, qo'l mehnati ishlatiladigan kasblardan, mehnat sharoiti — maishiy). Mana shu yo'nalishda olib borilgan aniq maqsadni ko'zlovchi izlanishlar mashg'ulotning konkret turini topishga yordam beradi: masalan, ushbu formulaga tevarakatdagi iqlimdan himoya qilingan tuproq sharoitida (teplitsa xo'jaligida) ishlovchi meva-sabzavotchi (gulchi) kasbi to'g'ri keladi.

Siz endi yaxshi bilasizki, har qanday kasbni muayyan klassifikatsiya to'riga faqat shartli ravishdagina kiritish mumkin. Amalda esa bir kasbning o'sha klassifikatsiyaning bir necha turiga tegishli ekanligini ko'rsatuvchi misollar juda ko'p. Axir, bir tipga mansub bo'lgan har qanday kasbda albatta, boshqa kasbga xos bo'lgan belgilar ham uchraydi. Hamma gap shundaki, mana shu o'xshash jihatlarning qaysilari asosiy belgilar - u, qaysi biri ikkinchi rejaga olinishini, lekin baribir muhim belgi bo'lib qolishini aniqlab olish kerak. Shularning hammasini formulada hisobga olish mumkin. Buning uchun unga qo'shimcha harfli indekslar kiritish lozim. Masalan, siz o'zingiz xohlagan bo'lg'usi kasbingizda Tab. va B.o.

tipiga xos belgilar bo'lishini istaysiz, deylik (buni biz Tab., B.o. deb belgilaymiz). Bunda sizga yoqadigan kasblarning biri gulchilik-dekoratorlik bo'lib chiqadi.

Shunday ham bo'lishi mumkinki, hosil qilingan formulaga hozircha hech bir kasb to'g'ri kelmaydi, ya'ni hali hayotda bunday kasbning o'zi yo'q. U holda formulani boshqatdan tuzishga to'g'ri keladi, uni real hayotga yaqinlashtiriladi. Bunday qilinayotgan vaqtda kasb tanlashga: «kerak, qo'limdan keladi, xohlayman» degan shior asos qilib olinmog'i kerak. Buyuk yozuvchilardan biri shunday degan edi: «Hayotda Siz uchun eng sevimli bo'lgan kasbni tanlab va Siz bir umr ishga bormaysiz». Agar kishi o'z sevgan kasbida ishlayotgan bo'lsa u hech qachon har ertalab o'zini ishga ketayapman, deb hisoblamaydi. O'z sevgan kasbi bilan shug'ullanish kishiga zavq, xursandchilik, shijoat, rag'bat hamda ma'naviy ozuqa beradi. O'zi yoqtirgan ishni qilayotgan kishi vaqt qanchalar tez o'tib ketganligini sezmay qoladi, u hech qachon bajarayotgan ishidan charchamaydi. Bugun dunyo bo'ylab qanchadan-qancha kishi zavod-fabrikalarda, idoralarda, avtomobillarda, ish maydonlarida ish vaqtining tezroq tugashini intizorlik bilan kutib, tushlik vaqtining tezroq kelishi ilinjida soatga ma'yus termulib o'tirishadi. Bu toifadagi kishilar, o'z haddi-harakatlaridan ma'lumki, o'zlari yoqtirgan mashg'ulotni o'z kasblari sifatida tanlashmagan. Ya'ni, ular o'zlariga yoqmaydigan kasb bilan shug'ullanuvchi kishilardir. Ba'zilar «Kishi bajarayotgan ishidan katta daromad olsa bo'ldi-da, kasb kishiga katta pul keltirsa bo'lgani, uning qilayotgan ishi o'ziga yoqishi ikkinchi darajali», deb hisoblashadi. Ammo hech bir kishi kasbidan zavqlana olmas ekan, o'z bajarayotgan faoliyati orqali katta daromadga erisha olmaydi. Balki biror kishi shug'ullanayotgan kasb katta foyda keltiradigan ishdir, balki kimlardir shu kasb ortidan katta daromadga erishayotgandir, ammo bu kasbning egasida o'z ishiga nisbatan qiziqish va zavqlanish bo'lmasa, u hech qachon o'z kasbidan barakat topa olmaydi. Shundan kelib chiqqan holda bugun haqiqiy hayotda kasbidan zavqlana olganlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotganini, o'z kasbini yomon ko'rganlarning esa kunni zerikarli bekorchilik bilan o'tkazishayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday sharoitda o'z kasbini sevgan, qilayotgan ishidan zavqlana olgan oddiy poyafzal ta'mirlovchisi bugungi kunda milliardlab foyda ko'rish

mumkin bo'lgan ilg'or tashkilotda yetuk mutaxassis sifatida ishlovchi, ammo o'z kasbini yomon ko'radigan, qilayotgan ishidan zavq topa olmaydigan kishidan ancha ko'proq foyda ko'rishi mumkin. Ishoning, kasb – bu faqat pul topish usuli emas, balki hayotingizning katta qismini mazmunli o'tkazish vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Agar Siz hozirgi yoshingizda kelajakda shug'ullanishingiz uchun kasb tanlayotgan bo'lsangiz, faqatgina bu kasbdan Sizga keladigan moddiy daromadni emas, balki undan olishingiz kerak bo'lgan ma'naviy ozuqani ham hisobga oling. Bordi-yu Siz allaqachon biror kasbga ega bo'lsangiz, ammo bu kasb Sizning sevimli kasbingiz bo'lmasa, qilayotgan ishingizdan zavqlana olmasangiz, o'z bajarayotgan ishingizda xursandchilik, ma'no topishga intiling. Bajarayotgan ishingizdan zavqlanishni o'rganing. Agar buning iloji bo'lmasa, kasbingizni imkon qadar o'zingiz zavqlanib ishlaydigan faoliyat turiga o'zgartirishga harakat qiling.

Unutmang, Siz kasbingizda jon saqlashingiz emas, balki yashashingiz kerak. Shundagina qilayotgan ishingiz Sizning haqiqiy sevimli kasbingiz hisoblanadi! O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakat jarayonlaridan iborat bo'lib, buning natijasida ular mehnat predmetlari, vosita va jarayonlari haqidagi bilimlarni hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnati va kasbga yo'naltirish amaliy ko'nikma va malakalarini egallaydilar, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga tezda qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlari hamda tafakkurlarini rivojlantiradilar. Yangi iqtisodiy munosabatlar kasb-hunarga yo'naltirishning yangicha munosabati sharoitida mehnat ko'nikmalari va malakalarini maqsadli shakllantirishdan iborat bo'lib, ongli va har tomonlama rivojlangan fuqoroni tarbiyalashning tarkibiy qismi hisoblanadi. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash ishlari maqsadli texnologiya fanining maqsad va vazifalari bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashga tayyorlashdan iborat bo'lib, bu jarayon shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat subyekti sifatida shakllanishini nazarda tutadi hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib borishiga

ko‘maklashadi. Shu munosabat bilan o‘quvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umum insoniy qadriyatni shakllantirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash mehnat ta‘lim va tarbiyasining vazifalaridir.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy va ilmiy texnikaviy taraqqiyot sharoitida maktab o‘quvchilarini kasb va hunarga yo‘naltirishning muhimligi ancha oshdi. O‘quvchilarni to‘g‘ri va erkin kasb tanlashga yo‘naltirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. To‘g‘ri kasb tanlash insonning kelajagini, hayot tarzini belgilashda katta ahamiyat ega. Har bir shaxs kasbni o‘z qiziqishi, qobiliyati va ijtimoiy muhit nuqtayi nazaridan tanlaydi.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini olib borishda “Kasb o‘zi nima?” degan savol tug‘iladi. Kasb to‘g‘risida bir qancha ta‘riflar berilgan.

- Kasb bu – insonga ma‘lum bir talablar qo‘yuvchi faoliyat turidir.

- Kasb – insonni jamiyat tomonidan tan olinishidir.

- Kasb – tiriklik va tirikchilik manbayi.

O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirishning asosiy yosh bosqich-

larini mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi – I bosqich;

2. Boshlang‘ich kichik yoshdagi (1–4 sinflar) – II bosqich;

3. O‘rta yoshdagi (5–7 sinflar) – III bosqich;

4. Katta yoshdagi (8–9 sinflar) – IV bosqich.

O‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini aniqlash mezonini, ko‘rsatkich va o‘lchovlari.

Birinchi bosqich – maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda ularning mashg‘ulotlarida qo‘llaridan keladigan faoliyat turlari bo‘yicha dastlabki mehnat ko‘nikmalarini ijobiy, hissiy ta‘sirchan shakllantirish:

Ikkinchi bosqich – kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni bilishga oid va o‘yin ko‘rinishdagi ijtimoiy foydali mehnat faoliyatini amalga tadbiiq qilish orqali mehnatga hurmat, mehnat kasb turlari,

yoʻnalishlari bilan tanishtirib borishini hamda ommaviy kasblarga boʻlgan qiziqishini shakllantirish.

Uchinchi bosqich – oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirish mazmuni ulardagi qiziqish, qobiliyat, layoqat va shaxs sifatida jamiyatdagi oʻz oʻrnini topishdagi hamda maʼnaviy-moddiy qadriyatning izlanuvchan-sinchkov koʻrinishlarini shakllantirish.

Toʻrtinchi bosqich – oʻquvchilarda kasbiy oʻzlikni anglashni shakllan tirish davri, yaʼni oʻquvchilarni aniq bir kasbni tanlashning shaxsiy maʼnoga egalligini tushunib yetishi, jamiyat oldidagi burchini, javobgarlik xislatlarini shakllantirish.

Oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirishni quyidagi mezonlar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

1. Oʻquvchilarni kasb-hunar turlari bilan tanishtirish.
2. Kasblar, mehnat yutuqlari talqin etilgan asarlarni oʻqishni tavsiya etish.
3. Har bir kasb haqida maxsus darslar oʻtish.
4. Ishlab chiqarish korxonalari, firma, fan, maorif, madaniyat, sanʼat muassasalariga sayohatlar tashkil etish.
5. Mehnat ilgʻorlari bilan ular erishgan yutuqlari haqida suhbatlar oʻtkazish.
6. Texnologiya fani yoʻnalishi boʻyicha – multimedialar koʻrsatish.
7. Oʻquvchilarni turli xil toʻgaraklarga jalb etish.
8. Kasblar haqida oʻyinlar tashkil etish.
9. Yangi kasb va mutaxassisliklar, fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish texnologiyalari bilan muntazam tanishtirib borish.

Oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirishda pedagoglarning oldida turgan muhim vazifalar quyidagilar:

- oʻquvchilarni kasbga boʻlgan qiziqishlarini yanada takomillashtirish;
- uni kasb tanlash darajasiga yetkazish;
- koʻp qirrali qiziqishga ega boʻlgan oʻquvchilarda oʻziga koʻproq yoqqan sohani, kasbni tanlashga amaliy yordam berish;
- oʻquvchilarda mehnat qiluvchi kishilarga nisbatan hurmat xislatlarini tarbiyalab borish;
- oʻquvchilarning oʻziga xos qiziqishlarini eʼtiborga olgan holda ularni asta-sekin jamiyat ijtimoiy mehnatiga jalb qilib borish;

- kasblar to'g'risida ma'lumotlarni yetarlicha berib borish;
- inson mehnati bilan yaratilgan moddiy boyliklarni har tomonlama tejash xislatlarni tarbiyalash;
- o'quvchilarning o'zi qiziqadigan kasb yo'nalishiga jalb qilish va egallangan bilimlarni amalda qo'llashlariga erishish;
- o'quvchilarda mehnat va kasb tanlashga qiziqish uyg'otish. Bu jarayon to'g'ri tashkil etilganda shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat subyekti sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

Kasbga yo'naltirish uzoq muddatli yalpi dasturlar asosida va milliy xalq hunarmandchilik kasblarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ayrim turdagi kasblarga yo'naltirish bilan cheklanib qolmasdan, balki aniq iqtisodiy hududning turli sohalaridagi kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda yoshlarni sanoat, qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlaridagi kasblar va milliy hunarmandchilik kasblariga umumta'lim maktablarining texnologiya fani darslarida yo'naltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya fani va tarbiyasi jarayonida o'qitiladigan «Loy va plastillin bilan ishlash» ish turiga oid, haykaltaroshlik, kulolchilik, rassomchilik, «Gazlama va ip turlari bilan ishlash» ish turiga oid tikuvchilik, kashtachilik, do'ppido'zlik, ipakchilik, to'quvchilik, dizaynerlik, «Turli va tabiiy materiallar bilan ishlash» ish turiga oid dehqonchilik, gulchilik, bog'bonchilik, tadbirkorlik kasb-hunarlarini to'g'risida ma'lumotlar berish, darslarni xalq milliy qadriyatlarini asosida o'qitishni tashkil qilish lozim bo'ladi.

Buyuk allomalarimiz tomonidan yaratilgan og'zaki va yozma ijodiyot, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan iymon-e'tiqod sirlarining nazariy va amaliy jihatlari haqidagi bilimlar bilan yoshlarni qurollantirish lozim.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning asosiy maqsadi har bir o'quvchiga individual ravishda kasb yoki mehnat faoliyati sohasini asosan va to'g'ri tanlashda yordamlashishdir. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish umumta'lim maktabi ishining tarqibiy qismidir. Ma'lumki, agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa, inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilhom manbayiga aylanadi. Kasb tanlashga yo'llash butun pedagoglar jamoasi tomonidan hal etiladigan umum maktab vazifasi hisoblanadi. Shu bilan birga, bu ishda texnologiya fani alohida o'rinni egallaydi. O'quvchilarni kasb tanlashdagi asosiy omillar ota-



ona, muhit va ta'lim-tarbiyadir. Kasb tanlashning asosiy vazifasi o'quvchilarni politexnik mehnat va malakalari bilan qurollantirishdan, ularni mehnat va ijtimoiy faoliyatga, kasblarni ongli ravishda tanlashga, moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarishda ishtirok etishga tayyorlashdan iboratdir. Maktabda kasb tanlash ishlari quyidagi maqsadlardan iborat:

1. O'quvchilarni kichik sinflardan boshlab xalq xo'jaligining turli tarmoqlari bilan tanishtirib borish.

2. O'quvchilarni xalq xo'jaligining turli tarmoqlari bilan tanishtirib, ommaviy kasblarning mazmuni, sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarni amalga oshirish.

3. Kasb tanlashga yo'llash ishlarini olib borishda o'quvchilarni asosan maktab joylashgan hududning korxonalar, tashkilotlarining ehtiyoji uchun zarur bo'lgan kasb va mutaxassislariga yo'llash.

Kasbni ongli ravishda tanlash mohiyatini ochib berarkan, akademik G.S.Kostyuk uning quyidagi qismlarini qayd etadi:

a) jamiyat manfaatlari yo'lida mehnatga ijobiy munosabat, mehnatsevarlik, mehnat har bir insonning burchi ekanligini to'g'ri anglash; b) muayyan kasb-hunarlar haqidagi bilimlarga ega bo'lish; v) o'z-o'ziga to'g'ri baho bera olish.

Kasbga yo'naltirish ishlarining tarixan shakllangan bosqichlari asosida 3 tizimga bo'lish mumkin.

1. Tashkiliy - texnik
2. Tibbiy - psixologik
3. Pedagogik - psixologik

Kasb tanlash juda muhim masala bo'lib, ko'pincha o'quvchilar uni mustaqil hal qila olmaydilar. O'qituvchilarning ish tajribasi o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashning farq va metodlarini belgilab beradi. Ulardan asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Darslarda kasb tanlashga yo'llash. Masalan, o'qituvchi o'quvchi larni mehnat mashg'ulotlarida bajaradigan ish bilan bog'liq kasblar bilan tanishtiradi. Chunonchi, yog'och kesuvchi, rom yasovchi, duradgorlik, tikuvchilik, oshpazlik va boshqa kasblar haqida bilim oladilar va tanishadilar.

2. Ekskursiyalarda kasb tanlashga yo'llash. Odatda, ekskursiyalarda o'quvchilarni o'quv rejasi doirasidan chiquvchi material

bilan tanishtirishga qulay sharoit yuzaga keladi. Bu imkoniyatdan o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash uchun foydalanish mumkin.

3. To'garak mashg'ulotlarida kasb tanlashga yo'llash. To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni turli kasblar bilan tanishtirishga ko'proq imkoniyatlar vujudga keladi.

4. Har xil mavzuda uchrashuvlar o'tkazish. Odatda, umumta'lim maktablarni bitirgandan keyin ishlab chiqarish sanoati muassasalarida ishlayotgan kishilar bilan suhbatlari o'quvchilarda katta taassurot qoldiradi. Texnologiya fani jarayonida o'quvchilar turli kasb egalari bilan tanishadilar.

5. Har xil madaniy-ommaviy tadbirlar o'tkazish. Kasb tanlashga yo'llash ishining muvaffaqiyatli olib borilishiga yordam beruvchi har xil madaniy-ommaviy tadbirlar maktablarning ish tajribasidan ma'lum.

Masalan, "Kasblar dunyosi", "Kasb tanlash da shaxsiy va jamoat fikri" mavzusida munozaralar uyushtirish, kinofilmlarni muhokama qilish shular jumlasidandir.

6. Kasblar mazmunini chuqur o'rganish. O'qituvchi muayyan kasblar to'g'risida tasavvur berish uchun bir yo'la barcha o'quvchilar bilan ish olib borishdan tashqari bu kasb bilan yaxshilab tanishish istagi bo'lgan o'quvchilar bilan jiddiyroq ish olib boradi. O'quvchilarni qiziqishlariga qarab guruh yoki mikro guruhlariga birlashtiradi. Bunda ishning turli-tuman tashkiliy formalari qo'llaniladi. O'quvchilar o'z kuchi bilan referat yozadilar, ekskursiyalar o'tkazadilar.

7. Fakultativ mashg'ulotlar. Ayrim maktablarda fakultativ mashg'ulotlarga ajratilgan soatlarning ma'lum qismidan kasb tanlashga yo'llash ishi uchun foydalaniladi.

Kasb to'g'ri tanlanganda ular o'z qobiliyatlarini va qiziqishlarini yaxshiroq ro'yobga chiqarishlari hamda jamiyatga ko'proq foyda keltirishi mumkin. Kasbga yo'llash, qiziqtirish hamda malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda o'quv jarayonidagi ta'lim-tarbiya ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin texnologiya fani fanlari bo'yi cha tarbiyaviy ishlar ning o'ziga xos xususiyatlari, maqsadi, vazifalarining beqiyos ahamiyati mavjud.

Tarbiya jarayonida o'quvchining qobiliyatlari, bu qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari u, yoki bu kasb haqida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish, bolalar psixologiyasini hisobga olish talab etiladi.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1.O'quvchilarni mehnatga tarbiyalash uchun qanday ishlar amalga oshiriladi?

2.Kasb turkumlari haqida nimalarni bilasiz?

3.Kasb tiplari haqida nimalarni bilasiz?

4.Boshlang'ich sinfda o'quvchilarni mehnatga tarbiyalashga yo'naltiradigan qanday mavzularni bilasiz?

5. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishning asosiy yosh bosqichlari mazmuni nimalarda o'z ifodasini topadi?

**10-MAVZU. MEHNAT TARBIYASIDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI**

**Reja:**

1.Xalq og'zaki ijodida mehnat tarbiyasining targ'ib etilishi.

2.Xalq maqollarida mehnat tarbiyasi.

3.Xalq rivoyatlari asosida o'quvchilarni mehnatga o'rgatish

*Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Mehnat tarbiyasi, maqol, mehnat qo'shiqlari, xalq rivoyatlari.*

Sog'lom bolaning shakllanishida, nafaqat, jismonan sog'lomlik, balki fikran sog'lomlik ham mohiyatan bir maqsadga qaratilgan. Bolalarni sog'lom fikrlilikka chorlash degani ana shu sog'lom fikrlar haqida uqtirish emas, balki uni hayotga tatbiq qilish orqali singdirishdir.

Ota-bobolarimiz azaldan mehnatni ulug'lab kelishgan, o'zlari sidqidildan mehnat qilishgan. Bizga ulardan meros bo'lib qolgan barcha xazinalar-ilmiy badiiy kitoblar, turli xildagi san'at asarlari me'morchilik obidalari va boshqa narsalar ana shu mehnatning mahsulidir. Bobolarimiz mehnatsevarliklari tufayli ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishgan. Yoshlarni ham mehnatni sevishga, mehnatsevar bo'lishga chaqirishgan. Xalq og'zaki ijodi namunalari qadimiyligi, ta'sirchanligi manbalardan hisoblanadi. Bu tarbiya vositalarini bolalar hayotiga tabiiy ravishda olib kirish lozim. Ular mehnay, poklik,

kattarga hurmat kabi insoniy fazilatlarni bola qalbiga singdirishning muhim vositasidir. Shu boisdan, jahondagi barcha xalqlarning maqollarida bo'lgani kabi, o'zbek maqollarida ham mehnatsevarlik g'oyasi markaziy o'rinlardan birini egallaydi. "Suvsiz hayot bo'lmas, mehnatsiz rohat", "Mehnat qilsang yasharsan, katta-katta osharsan", "Oltin o'tda toblanar odam mehnatda", "Mehnat bilan qarising rahmat bilan yashaysan", "Uzoq umr siri mehnatda", "Daryo suvini bahor toshirar, inson qadrin mehnat oshirar", "Mehnatdan do'st ortar, g'iybatdan dushman" kabi xalq maqollari bejiz aytilmagan. Maqollar odamlarning hayoti va turmushi jarayonida to'plagan tajribalari, dunyoqarashi, o'zi yashab turgan ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati, o'tmish hayoti va uning ibratli saboqlarini, umid va orzularini ifodalaydi. Maqollar xalq og'zaki ijodining bir turidir. Maqollarda xalqning turmush davomida to'plagan tajribalari natijasida yuzaga kelgan xulosalari ixcham va sodda tarzda bayon etilgan.

Demak, maqollar xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'zlardir. Ular qadimdan sinalgan, turmush tasdig'idan o'tgan tushunchalar orqali kishilarni ogohlantiradi. Hayot, yashash tushunchalariga endigina duch kelayotgan boal maqollar orqali to'g'ri yo'lni tanlay oladi.

Bundan tashqari xalq hayotiga hamroh bo'lgan qo'shiqlarda ham halol rizq topish, mehnatsevarlik o'z aksini topgan. Ajdodlarimiz uchun mehnatning samarali bo'lishining yechimi qo'shiq aytishdan iborat bo'ladi. Shuning uchun ajdodlarimiz har bir ishni qo'shiq bilan bajarib ham mehnatning samarali bo'lishini, ham zerikmasdan bajarish yo'lini o'ylab topganlar. Xalqimiz orasida yashab kelayotgan mehnat qo'shiqlari bajariladigan ish sohalariga qarab uch xil bo'ladi:

1. Dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari:  
Shohlari bir quloch-quloch,  
Shohimga qo'nar qaldirg'och.  
Yuray desam, voy, qornim och,  
Men qo'shga qanday yarayin.  
Ho'kizginam, bo'yniginang ezildi,  
Ko'zginangdan yoshlar qator tizildi.  
Bo'yinturuq bilan omoch tortmasang,  
Sening bilan menga go'rlar qazildi.

Dehqonchilik qo'shiqlarida yil-o'n ikki oy mobaynida olib borilgan mehnat jarayoni bosqichma-bosqich o'z ifodasini topadi. Ularda yer haydash, dalaga yangi yil hosili uchun bug'doy sepish, unib chiqqan va boshloqlari yetilgan bug'doylarni o'rish, ularni yanchib donini ajratish kabi har bir jarayon, albatta, qo'shiq aytish bilan qo'shib amalga oshirilgan. Agar bu qo'shiqlarda faqat dehqonning bajarayotgan mehnati aks etgan, desak, xato bo'ladi. Chunki har bir qo'shiqda dehqon, albatta, o'zining ichki kechinmalarini, hayot tajribasidan olgan taassurotlarini, turmush tashvishlarini bayon etishga urinadi. Qo'shiq aytuvchi kishi sahnada san'atkor emas, balki dalada ham oddiy ijrochi, ham tinglovchi sifatida namoyon bo'ladi.

## 2. Chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari:

Shoxlaring bor bir minora, churiya-churiya,  
Minora qushlar qo'nar-a, churiya-churiya,  
Bolang olib iskasang-a, churiya-churiya,  
Kuygan yuraging qonar-a, churiya-churiya.

Chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar xalqimizning qadimdan bu kasbni egallab kelganidan, chorvachilikning sir-sinoatlaridan xabardor ekanidan dalolat beradi. Xalq har bir hayvonga xuddi odamdek muomalada bo'lgan. Uni erkalagan, maqtagan, ta'riflagan, sifatlagan. "Xo'sh", "Turey-turey", "Churey-churey" qo'shiqlarini chorvadorlar ichida yashagan shoirtabiat odamlar to'qishgan. Bu qo'shiqlarda turli badiiy san'atning boshqa namunalarida bo'lganidek turli badiiy san'atdan foydalanilgan.

O'zbek xalqi qadimdan hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan. O'zbekiston hududida ishlab chiqarilgan shohi atlaslar, banoras to'nlar, amaliy san'at namunalari, to'qilgan gilamlar butun dunyoga mashhur bo'lgan. Qadimda o'z hunari bilan nom taratgan ustalar o'z shogirdlaridan kasbiy ko'nikmalar qatori she'r, qo'shiq aytish, biror musiqa asbobida kuy kuychalishni ham talab qilganlar. Ularning fikricha, har tomonlama yetuk bo'lmagan inson, ayniqsa, estetik zavqi yo'q kimsa bironta hunarni ham uquv bilan o'zlashtira olmas ekan. Shuning uchun xalqimiz orasida turli kasb bilan shug'ullanayotgan odam borki, qo'shiq aytadi, askiya aytadi, musiqa chaladi. Bu fazilat unga o'zi ishlab chiqarayotgan narsaning go'zal ko'rinishga ega bo'lishini ta'minlaydi. Qo'shiq bilan tayyorlanayotgan narsaga ustaning mehri quyiladi.

O'zbek xalq mehnat qo'shiqlarining salmoqli qismini kashta tikish, bo'z to'qish, charx yigirish kabi faoliyat bilan qo'shib turli ohangda ijro etadigan she'r namunalari egallaydi. Jumladan, ularning eng qadimgilaridan biri charx qo'shiqlari hisoblanadi. Bugungi kun tekstil sanoati paydo bo'lmasidan avval paxtaning chigiti qo'lda ajratib olinar va paxta momig'idan charxni aylantirish vositasida ip yigirilardi. Ayollar kecha-kunduz ip yigirish bilan shug'ullanib, tayyor bo'lgan iplardan gazlamalar to'qishgan.

3. Kasb-hunar bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari:  
Charx yigirib, charx yigirib, tuyugan.

Shul qo'lginam toladir.

Agar shuni yigirmasam,

Bolalar och qoladir.

Har bir zerikarli va mashaqqatli mehnatning ham chegarasi bo'ladi. Ammo agar odam bevosita charxda ip yigirish orqali kun ko'rsa, unga bu azobli mashg'ulot chegarasizdek bo'lib tuyulgan. Ana shunday daqiqalarda odam o'ziga chorasiz, najotsiz bir shaxs bo'lib ko'ringan. Qo'shiqda bu holat shunday kuylanadi:

Charxginam, ey, charxginam,

Yurakkinam olasan,

Ayt-chi, sen bu yurtlardan,

Qachongina yo'qolasan?!

Tabiiyki, bolalarning eng sevimli mashg'ulotlaridan biri, bu ertak tinglashdir. Ertaklar xalq og'zaki ijodining eng qadimiy, ommaviy va keng tarqalgan janrlaridan hisoblanadi. Ularda insonparvarlik, vatanparvarlik, do'stga sadoqat, yorga vafodorlik, qahramonlik kabi fazilarlar ulug'lanadi, zulm va zo'rlik qoralanadi. Xalq og'zaki ijodida ertaklar o'ziga xos o'rin egallaydi. Xalq ertaklarining ko'pchiligida mehnat ulug'lanadi. "Shirin uyqu" ertagi bunga yaqqol misol bo'la oldi:

"Bir donishmandning uchta o'g'li bo'lib, ota o'limi oldidan o'g'illarini o'z oldiga chaqirib shunday vasiyat qilibdi: Uyquni shirin qilib uxlang, ovqatni shirin qilib yeng. Ikki aka ota vasiyatiga amal qilib, ustma-ust yeb yotaveribdilar. Mehnat bilan shug'ullanmabdilar. Yegan ovqatlari singmabdi. Ko'zlariga uyqu kelmabdi. Borgan sari mol-dunyolari kamayib qashshoqlashib ketaveribdilar. Uchinchi o'g'il esa ertadan kechgacha mehnat qilar ekan. Borgan sari davlati ko'payib, uyqusi shirin bo'lib, ovqati mazali bo'lib boribdi".

Demak, ertakdan shunday xulosa chiqadi, barcha rohatlarning otasi-mehnatdir. Aka-ukalar buni hammalari har xil tushunibdilar. Ota nasihatini to'g'ri tushungan kenja o'g'il o'z murod-maqsadiga yetibdi.

“Qumursqa” ertagida dunyodagi eng zo'r mavjudot mehnatkash, mehnatni sevuvchi mavjudot ekanligi aytiladi.

Muz, bulut, kun, yomg'ir, yer, ot, mol, bo'ri, sichqoncha, merganda “kim zo'r?”deb so'raganda, biri ikkinchisini ko'rsataveradi. Oxirda qumursqa: “otangning olti yuz botmon oshirib yeganman; pochchangning yuz botmon bug'doyini yetti tog'dan oshirib yeganman. Men zo'rman, men zo'r deydi”. Bu yerda qumursqalar mehnatsevar qilib ko'rsatilgan. O'zbek xalq ijodida mehnat va mehnat ahlini hamisha ulug'lab, unga mehr-muhabbat bilan qarashgan. “Qumursqa” ertagida ham shu g'oya ertakka xos uslubda, ajoyib o'xshatishlarda kulguga boy quyidagicha suhbatda bayon etilgan:

-Qorning nima uchun katta?

-jigarim zo'r, -dedi qumursqa.

-beling nima uchun ingichka?

-mehnatim zo'r! –javob berdi qumursqa.

Xalq og'zaki ijoding noyob durdonalaridan biri bo'lmish tez aytishlar chuqurroq tahlil qilib ko'rilsa, barcha tarbiyalar qatori mehnat tarbiyasi yuzasidan juda ko'p manbalar uchratish mumkin.

Novvoy nonni yopar,

Nonni novvot deb sotar.

Jamila jiydani joyiga joyladi.

Soli arralaydi,

Lola allalaydi.

Xalq og'zaki ijoding katta-yu kichikka birdek yoqadigan turi bu topishmoqdir. Topishmoqlarning mazmunidan kelib chiqqan holda ularda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalarining yoritilishini o'rganishimiz mumkin:

Tom ustida bir anor, hadding bo'lsa ushlab ol.

Uzoq tog'da o't yonar.

Uxlab yotar kunduzi, Shomda ochilar ko'zi.

To'rt oyoqli, temir tuyoqli.

Ustida bukrisi bor, Oyoqda tuflisi bor.

Soqoli bor, aqli yo'q.

Boraveradi, boraveradi, Bo'yradek yerni olib yotadi.

Do'stim sherik bo'ladi, uyni qo'rib turadi.

Uyday joyda yotadi, sichqon ko'rsa qochadi.  
Tuya desam, kattakon, Usti keng-u, bir makon.  
Tokchama-tokcha, Azamat xo'ja.  
Suv tagida oltin baldoq.  
Emaklagan toshni ko'rdim,  
Toshdan chiqqan boshni ko'rdim.  
Ovoz berar azonda, mazasi bor qozonda.  
Xafa bo'lsa, koptok bo'lib, Igna ko'rpa yopadi.  
Zumda ko'z ochib kulib, ilgarilab chopadi.  
Makonidir dalalar, pushtalarda bolalar,  
To'ni yo'l-yo'l beqasam, go'shti suvli va asal (tarvuz)  
Bo'lar sariq yo qizil,  
Yer tagida yetilar.  
Tupida yakka hosil, Sochi yashil, selkillar.

Yoshlarni mardlik, halollik, jasurlik ruhida tarbiyalashda, ma'nan pok va barkamol qilib voyaga yetkazishda xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish "Alpomish" dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtini, oilasi, qo'rg'onini qo'riqlashga, do'sti, or-nomusini, otabobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzlardan saqlashga, ma'naviy-axloqiy pok bo'lishga o'rgatadi. "Alpomish" dostoni ijodiy tafakkurimiz, ma'naviy boyligimizning yorqin namunasi bo'lib, tarixiy ildizlarimizning qanchalik chuqur ekani, xalqimiz qanday muhitda shakllanib, rivojlangani, qiyinchiliklarni qanday yengib chiqqanini yorqin tasvirlab beradi. Biz "Alpomish" timsolida ijodiy tafakkurimiz, ma'naviy boyligimizning qay darajada ekanligini, ma'naviy barkamol axloqan pok, vijdonli o'g'lonlarimizning qiyofasini ko'ramiz.

Zardushtiylarning muqaddas kitobi hisoblangan "Avesto"da bolalar yoshligidan daraxt ko'chati o'tqazishi, uy-ro'zg'or qurollari yasashini, yerga ishlov berishi kabi mehnat mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari kerakligi haqida ko'plab satrlar keltirilgan. "Avesto"da ta'riflangan va targ'ib etilgan eng ulug' kasb dehqonchilikdir. Zeroki, bu kasb sohiblari zardushtiylarni moddiy ne'matlar bilan ta'minlaydi. Bu hayot taraqqiyotining asosiy omilidir. Dehqonlar va chorvadorlar jamiyat moddiy ne'matlarini yaratuvchilari sifatida ta'riflangan. Ajdodlarimiz madaniyati merosi bo'lmish "Avesto"da shunday parcha bor:



“Zardusht iloh Ahura Mazdadan so’rdi:

-Ey, Ahura Mazda! Zaminni hammadan ham baxtiyor qiluvchi zot kim?

Ahura Mazda javob berdi:

-Ey, Zardusht! Kimki uni yaxshilab haydasa va ziroatga tayyorlasa!..

Ey, Zardusht! Kimki g’alla eksa, u haqiqatni ekadi...”

Demak, ota-bobolarimiz yer yuzidagi eng qadim zamonlardan buyon dehqonchilik bilan shug’ullanib kelayotgan ekan. Xalqimiz eng qadimgi yodgorligida ham mehnatga undalmoqda mehnat qilgan, yerga ishlov bergan ulug’langan.

Shuni aytish joizki, xalq og’zaki ijodi – xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismi. U xalq san’atining boshqa turlardan o’ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turuvchi og’zaki ijodi janrlari tarkibga bo’linsa-da bir butun meros ekanini tasdiqlaydi. Og’zaki asar qaysi janrga taalluqli ekanidan qat’iy nazar yosh avlodning barkamol bo’lib yetishishini ta’minlash maqsadini amalga ishirishda xizmat qiladi.

Bolalarning bo’sh vaqtlarini unumli tashkil etish maqsadida xalq og’zaki ijodi namunalari bilan ko’proq tanishtirish maqsadga muvofiq bo’lar edi. Chunki tarbiyada xalq og’zaki ijodi durdonalarini bolalar ongiga singdirishning o’rni beqiyosdir.

“Alpomish”, “To’maris”, “Shiroq” kabi timsollarimizni bolalarga tanishtirish, ularning mardonavor surati tushurilgan “mazaika”larni kengaytirishimiz, bolalar bog’chasi, maktablar, saylgohlarda ularning surati tushirilgan yorliqlarni osish kabilar orqali jasoratli, irodali va albatta ma’naviyatli yosh avlodni voyaga yetkazishimiz mumkin.

### **Mavzuga oid savol va topshiriqlar.**

1. Mehnat qo’shiqlarining qanday turlari bor?
2. Zardushtiylik dinida qaysi kasb ulug’langan?
3. Xalq ertaklaridan qaysilarida mehnat qilish, halol risq topish kerakligi targ’ib qilingan?
4. Alpomish dostonida xalq qanday mehnat turlari bilan shug’ullanganligi aytib o’tilgan?

## 11-MAVZU. TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH TEXNOLOGIYALARI

### Reja:

1. Texnologiya darslarida kasb-hunarga yo‘naltirish.
2. Kasbga oid ma‘lumotlar.
3. Kasbga yo‘naltirishda turli boshqotirmalardan foydalanish.
4. Kasbga yo‘naltirishga doir o‘yin texnologiyalaridan foydalanish.

*Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Kasb-hunar, kasbga yo'naltirish, kasbga yo'naltirishda asosiy maqsad, kasbga yo'naltirishda mezonlar, o'qituvchi oldidagi maqsadlar, kasblar, "kasbni toping" o'yini, kasbiy qiziqish, kasbiy layoqat.*

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishganidan so'ng ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida asosiy bo'g'in hisoblangan umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatida o'quvchilarni hayotga tayyorlash va kasb tanlashga yo'naltirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakat jarayonlaridan iborat bo'lib, buning natijasida ular mehnat predmetlari, vosita va jarayonlari haqidagi bilimlarni hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnati va kasbga yo'naltirish amaliy ko'nikma va malakalarini egallaydilar, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga tezda qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlari hamda tafakkurlarini rivojlantiradilar. Yangi iqtisodiy munosabatlar kasb-hunarga yo'naltirishning yangicha munosabati sharoitida mehnat ko'nikmalari va malakalarini maqsadli shakllantirishdan iborat bo'lib, ongli va har tomonlama rivojlangan fuqoroni tarbiyalashning tarkibiy qismi hisoblanadi. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash ishlari maqsadli texnologiya fanining maqsad va vazifalari bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi.

**Kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad** - o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashga tayyorlashdan iborat bo'lib, bu jarayon shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat subyekti

sifatida shakllanishini nazarda tutadi hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib borishiga ko‘maklashadi. Shu munosabat bilan o‘quvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatni shakllantirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash mehnat ta‘lim va tarbiyasining vazifalaridir. Hozirgi vaqtda ijtimoiy va ilmiy texnikaviy taraqqiyot sharoitida maktab o‘quvchilarini kasb va hunarga yo‘naltirishning muhimligi ancha oshdi.

O‘quvchilarni to‘g‘ri va erkin kasb tanlashga yo‘naltirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. To‘g‘ri kasb tanlash insonning kelajagini, hayot tarzini belgilashda katta ahamiyat ega. Har bir shaxs kasbni o‘z qiziqishi, qobiliyati va ijtimoiy muhit nuqtayi nazaridan tanlaydi.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini olib borishda “Kasb o‘zi nima?” degan savol tug‘iladi. Kasb to‘g‘risida bir qancha ta‘riflar berilgan.

- Kasb bu - insonga ma‘lum bir talablar qo‘yuvchi faoliyat turidir.
- Kasb - insonni jamiyat tomonidan tan olinishidir.
- Kasb - tiriklik va tirikchilik manbayi.

O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirishning asosiy yosh bosqichlari mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi - I bosqich;
2. Boshlang‘ich kichikyoshdagi (1-4 sinflar) - II bosqich;
3. O‘rta yoshdagi (5-7 sinflar) - III bosqich;
4. Katta yoshdagi (8-9 sinflar) - IV bosqich.

O‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini aniqlash mezonini, ko‘rsatkich va o‘lchovlari.

Birinchi bosqich - maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda ularning mashg‘ulotlarida qo‘llaridan keladigan faoliyat turlari bo‘yicha dastlabki mehnat ko‘nikmalarini ijobiy, hissiy ta‘sirchan shakllantirish:

Ikkinchi bosqich - kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni bilishga oid va o‘yin ko‘rinishdagi ijtimoiy foydali mehnat faoliyatini amalga tadbiq qilish orqali mehnatga hurmat, mehnat kasb turlari, yo‘nalishlari bilan tanishtirib borishini hamda ommaviy kasblarga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish.

Uchinchi bosqich - o'quvchilarni kasbga yo'naltirish mazmuni ulardagi qiziqish, qobiliyat, layoqat va shaxs sifatida jamiyatdagi o'z o'rnini topishdagi hamda ma'naviy-moddiy qadriyatning izlanuvchan-sinchkov ko'rinishlarini shakllantirish.

To'rtinchi bosqich - o'quvchilarda kasbiy o'zlikni anglashni shakllantirish davri, ya'ni o'quvchilarni aniq bir kasbni tanlashning shaxsiy ma'noga egalligini tushunib yetishi, jamiyat oldidagi burchini, javobgarlik xislatlarini shakllantirish.

**O'quvchilarni kasbga yo'naltirishni quyidagi mezonlar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.**

1. O'quvchilarni kasb-hunar turlari bilan tanishtirish.
2. Kasblar, mehnat yutuqlari talqin etilgan asarlarni o'qishni tavsiya etish.
3. Har bir kasb haqida maxsus darslar o'tish.
4. Ishlab chiqarish korxonalarini, firma, fan, maorif, madaniyat, san'at muassasalariga sayohatlar tashkil etish.
5. Mehnat ilg'orlari bilan ular erishgan yutuqlari haqida suhbatlar o'tkazish.
6. Texnologiya fani yo'nalishi bo'yicha - multimedialar ko'rsatish.
7. O'quvchilarni turli xil to'garaklarga jalb etish.
8. Kasblar haqida o'yinlar tashkil etish.
9. Yangi kasb va mutaxassisliklar, fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish texnologiyalari bilan muntazam tanishtirib borish.

**O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda pedagoglarning oldida turgan muhim vazifalar quyidagilar:**

- o'quvchilarni kasbga bo'lgan qiziqishlarini yanada takomillashtirish;
- uni kasb tanlash darajasiga yetkazish;
- ko'p qirrali qiziqishga ega bo'lgan o'quvchilarda o'ziga ko'proq yoqqan sohani, kasbni tanlashga amaliy yordam berish;
- o'quvchilarda mehnat qiluvchi kishilarga nisbatan hurmat xislatlarini tarbiyalab borish;
- o'quvchilarning o'ziga xos qiziqishlarini e'tiborga olgan holda ularni asta-sekin jamiyat ijtimoiy mehnatiga jalb qilib borish;
- kasblar to'g'risida ma'lumotlarni yetarlicha berib borish;

- inson mehnati bilan yaratilgan moddiy boyliklarni har tomonlama tejash xislatlarni tarbiyalash;

- o'quvchilarning o'zi qiziqadigan kasb yo'nalishiga jalb qilish va egallangan bilimlarni amalda qo'llashlariga erishish;

- o'quvchilarda mehnat va kasb tanlashga qiziqish uyg'otish. Bu jarayon to'g'ri tashkil etilganda shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat subyekt sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Kasbga yo'naltirish uzoq muddatli yalpi dasturlar asosida va milliy xalq hunarmandchilik kasblarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ayrim turdagi kasblarga yo'naltirish bilan cheklanib qolmasdan, balki aniq iqtisodiy hududning turli sohalaridagi kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda yoshlarni sanoat, qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlaridagi kasblar va milliy hunarmandchilik kasblariga umumta'lim maktablarining **texnologiya** darslarida yo'naltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'quvchilarni kasb tanlashdagi asosiy omillar ota-ona, muhit va ta'lim-tarbiyadir. Kasb tanlashning asosiy vazifasi o'quvchilarni politexnik mehnat va malakalari bilan qurollantirishdan, ularni mehnat va ijtimoiy faoliyatga, kasblarni ongli ravishda tanlashga, moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarishda ishtirok etishga tayyorlashdan iboratdir.

Maktabda kasb tanlash ishlari quyidagi maqsadlardan iborat:

1. O'quvchilarni kichik sinflardan boshlab xalq xo'jaligining turli tarmoqlari bilan tanishtirib borish.

2. O'quvchilarni xalq xo'jaligining turli tarmoqlari bilan tanishtirib, ommaviy kasblarning mazmuni, sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarni amalga oshirish.

3. Kasb tanlashga yo'llash ishlarini olib borishda o'quvchilarni asosan maktab joylashgan hududning korxonalar, tashkilotlarining ehtiyoji uchun zarur bo'lgan kasb va mutaxassislariga yo'llash. Kasb tanlash juda muhim masala bo'lib, ko'pincha o'quvchilar uni mustaqil hal qila olmaydilar. O'quvchilarning ish tajribasi o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashning farq va metodlarini belgilab beradi. Ulardan asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Darslarda kasb tanlashga yo'llash. Masalan, o'quvchi o'quvchilarni mehnat mashg'ulotlarida bajaradigan ish bilan bog'liq kasblar bilan tanishtiradi. Chunonchi, yog'och kesuvchi, rom

yasovchi, duradgorlik, tikuvchilik, oshpazlik va boshqa kasblar haqida bilim oladilar va tanishadilar.

2. Ekskursiyalarda kasb tanlashga yo'llash. Odatda, ekskursiyalarda o'quvchilarni o'quv rejasi doirasidan chiquvchi material bilan tanishtirishga qulay sharoit yuzaga keladi. Bu imkoniyatdan o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash uchun foydalanish mumkin.

3. To'garak mashg'ulotlarida kasb tanlashga yo'llash. To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni turli kasblar bilan tanishtirishga ko'proq imkoniyatlar vujudga keladi.

4. Har xil mavzuda uchrashuvlar o'tkazish. Odatda, umumta'lim maktablarni bitirgandan key in ishlab chiqarish sanoati muassasalarida ishlayotgan kishilar bilan suhbatlari o'quvchilarda katta taassurot qoldiradi. Texnologiya fani jarayonida o'quvchilar turli kasb egalari bilan tanishadilar.

5. Har xil madaniy-ommaviy tadbirlar o'tkazish. Kasb tanlashga yo'llash ishining muvaffaqiyatli olib borilishiga yordam beruvchi har xil madaniy-ommaviy tadbirlar maktablarning ish tajribasidan ma'lum.

Masalan, "Kasblar dunyosi", "Kasb tanlashda shaxsiy va jamoa fikri" mavzusida munozaralar uyushtirish, kinofilmlarni muhokama qilish shular jumlasidandir.

6. Kasblar mazmunini chuqur o'rganish. O'qituvchi muayyan kasblar to'g'risida tasavvur berish uchun bir yo'la barcha o'quvchilar bilan ish olib borishdan tashqari bu kasb bilan yaxshilab tanishish istagi bo'lgan o'quvchilar bilan jiddiyroq ish olib boradi. o'quvchilarni qiziqishlariga qarab guruh yoki mikroguruhlariga birlashtiradi. Bunda ishning turli-tuman tashkiliy formalari qo'llaniladi. O'quvchilar o'z kuchi bilan referat yozadilar, ekskursiyalar o'tkazadilar.

7. Fakultativ mashg'ulotlar. Ayrim maktablarda fakultativ mashg'ulotlarga ajratilgan soatlarning ma'lum qismidan kasb tanlashga yollash ishi uchun foydalaniladi. Kasb to'g'ri tanlanganda ular o'z qobiliyatlarini va qiziqishlarini yaxshiroq ro'yobga chiqarishlari hamda jamiyatga ko'proq foyda keltirishi mumkin.

Kasbga yo'llash, qiziqtirish hamda malaka va ko'nikmalarini

shakllantirishda o‘quv jarayonidagi ta’lim-tarbiya ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Kasblar haqida ma’lumot**

O'qituvchi kasbi - sharaflı kasb. O'qituvchi bizga bilim beruvchi inson. O'qituvchidan olgan bilimi bilan inson kelajakda komillik yo'lini topadi. Buning uchun, albatta, o'qituvchi berayotgan bilimni chuqur egallash lozim.

Bilim olib chinakam,  
O'rganamiz harf, raqam.  
Hammaga berar ta'lim,  
O'qituvchi-muallim.

#### **Haydovchi kasbi**

Haydovchi - erta tongdan kun botgunga qadar odamlami o‘z manzillariga bexatar yetib olishlari uchun xizmat qiladi. Haydovchi kasbi doim ziyraklik, hushyorlikni talab etadi. Haydovchi mashina, avtobus, tramvay, yuk mashinalarini boshqaradi.

Mashinada, poezdda,  
Tramvayda - temir izda  
Ziyrak, mohir haydovchi,  
Tashir yuk va yo‘lovchi.

#### **Quruvchi kasbi**

Quruvchi - uy va binolar quradi. Quruvchi qurgan uylarda yashaymiz, binolarda o‘qiymiz, mehnat qilamiz. Quruvchilar qurgan uylar mustahkamligi, shinamligi bilan shahrimiz ko‘rkiga ko‘rk qo‘shadi. Demak, quruvchilik sharaflı kasb.

Suvoqchi, g‘ishtteruvchi,  
Tomni yorib beruvchi.  
Ko‘p ishlarni biluvchi,  
Ular bari -quruvchi.

#### **Baliqchi kasbi**

Baliqchi - baliq mahsulotlarini dasturxonimizga yetkazib beradi. Baliq inson salomatligi uchun zarur oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi.

Baliqchi fursat kutar,  
Baliqchi baliq tutar.  
Baliq tutish vaqti bor,  
Bunga berar e'tibor.

Tashlar qarmoq yoki to‘r,  
Ov bo‘lishi uchun zo‘r.

### Bank xodimi

Bank xodimlari, davlat va nodavlat banklarining faoliyatini yo‘lga qo‘yadilar. Bankda davlatning pul mablag‘lari aylanishi, fuqarolar mablagini saqlanishini tashkil etiladi.

### Bankir bankda ishlaydi,

U hisobni xushlaydi.  
Kredit, lizing va foiz,  
Joyida bo‘lmoq joiz.

### Jurnalist kasbi

Jurnalist- biz sevib tomosha qiladigan televideniya ko‘rsatuvlarini tayyorlab olib boradigan, qiziqib o‘qiydigan gazeta-jurnallarimizga lavhalar tayyorlab beradigan kasb egalaridir. Jurnalistlarning tayyorlagan ma‘lumotlari tanlangan mavzu mazmunini yoritib berishi maqola yoki ko'rsatuvning dolzarbligini belgilaydi. Jurnalist o‘z kasbining ustasi bo'lsa, xalqning ongi, bilimi oshadi. Yurtimizda jurnalistlarning faoliyat yuritishi uchun barcha shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratilgan.

### Mahoratli jurnalist

Ma‘lumotni juda tez -

Qilar bizga havola,  
Yozar qiziq maqola.

O'quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqeni shakllantirish, o'ziashtirish va bilim sifatini oshirish ko‘p jihatdan kuni uzaytirilgan guruhlarning samarali ishlashiga bog‘liqdir. Sinfdan tashqari tashkil qilingan ishlar o‘quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatini to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to‘g‘ri shakllanishiga, kasb-hunar tanlashiga, axloqiy kamol topishiga ko‘maklashadi.

Har bir yangi mavzuni bayon qilish jarayonida crossword va boshqotirmalardan foydalanish o‘quvchilarning ko‘proq ma‘lumot olishlari va darsga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi va yangi bilim, ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish va kasbga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida turli



boshqotirmalardan namunalari keltiriladi. Quyida ular bilan tanishib chiqamiz:

1 Jadval ichidagi harflar yordamida kasblar nomini toping va ularni belgilang

a	S	sh	i	f	o	k	o	r	o	l	y	l	k	r	q
d	G	k	o	p	m	p	l	a	k	r	i	e	r	y	t
z	J	k	l	o	n	k	h	q	r	y	h	f	j	n	o
x	S	p	o	r	t	ch	i	q	p	q	e	r	t	y	u
v	A	s	d	f	g	h	j	o	k	l	z	x	ch	h	b
h	N	m	k	o	g	q	a	s	s	o	b	h	u	a	k
a	D	g	j	i	o	u	y	a	r	k	a	b	p	m	g
y	F	i	k	t	f	r	u	r	u	i	l	i	u	sh	y
d	H	j	l	h	m	u	j	g	j	k	i	d	r	i	h
o	m	u	s	a	v	v	i	r	a	g	q	g	t	r	j
v	Q	e	f	a	e	ch	a	f	e	m	ch	l	f	a	k
ch	A	k	f	q	u	i	a	m	q	m	i	l	g	m	l
i	D	z	x	j	k	f	k	f	g	a	p	k	a	m	q
g	G	d	f	r	l	j	g	m	a	d	s	g	d	h	s
j	J	o'	q	i	t	u	v	ch	i	a	j	a	q	l	f
l	L	s	d	g	h	g	m	j	h	u	m	h	k	m	g
n	m	e	r	f	m	j	u	r	n	a	l	i	s	t	j
a	A	q	k	g	b	o	m	k	k	l	f	t	i	o	p

2. Quyida keltirilgan ustunchalar yordamida kasb va hunar nomlarini ikki qismga ajratib davom ettiring!

Kasb	Hunar
O'qituvchi Jurnalist Hamshira Qorovul ....	Naqqosh Usta Soatsoz Hunarmand ...

## “KASBNI TOPING” O’YINI

O’yinning maqsadi. O’quvchilarni kasblarning psixologik sxemasi bilan tanishtirishdan iborat. O’yindan o’quvchilar xalq xo’jaligining turli tarmoqlaridagi kasblar bilan tanishtirishda foydalaniladi.

O’yining sharti. O’yin sinf bilan ishlashga mo’ljallangan. O’yinning dastlabki ijrosi 10-15 daqiqaga mo’ljallanadi. O’yinda sinf doskasi, kasblar ro’yxati aks ettirilgan jadvaldan foydalaniladi. O’yin g’oliblarini aniqlash uchun mezonlar ishlab chiqiladi. Agar kasblarni topish bilan bog’liq savollarga javob berishda 10ta xatoga yo’l qo’yilsa, ular mag’lubiyatga uchragan sanaladi. O’yin yakunida g’oliblar aniqlanadi.

O’yinning diagnostik imkoniyatlari. O’quvchilarning kasblar to’g’risida bilimlarni va kasblarni tahlil etishga o’rganganligini aniqlashga yordam beradi.

### **O’yinda uchraydigan qiyinchiliklar:**

“Kasbni top” o’yini nisbatan ancha murakkab o’yin sanaladi. Shu sababli, o’yin davomida ishtirokchilar mag’lubiyatga ko’p uchrayversalar, bunga odatlanib qoladilar. Natijada o’yinning ahamiyati yo’qoladi.

Agar o’yin ijrosi yaxshi chiqmasa, ikkinchi bora o’yinni tashkil etish kerak emas. Agar topshiriqqa murakkab kasb taqdim etilsa, uning ba’zi bandlar bo’yicha tavsiflash qiyinchilik tug’diradi. SHuning uchun tavsiflash qiyin bo’lgan bandlar boshqalari bilan almashtirish lozim bo’ladi.

### **O’yinning takomillashtirish istiqbollari:**

O’yinni rivojlantirishning eng maqbul yo’li va kasblarni tasiflashning eng optimal yo’llarini topishdan iborat. Shuningdek, o’yinni o’tkazish tartibini takomillashtirish ham lozim.

### **O’yin bosqichlari**

Tayyorlov bosqichi: o’yindan oldin o’quvchilar “kasblar formulasi” bilan tanishtiriladi. Bunda faqat formula tushuntirilib qolmasdan, balki bir necha kasblar sinf bilan birgalikda muhokama qilinadi. Ayrim hollarda faqat sinf, balki psixolog ham ayrim bandlar bo’yicha kasbni tavsiflashda muammoga duch kelishi mumkin. Bu hollarda kasblar haqida yetarlicha ma’lumotga ega emaslikni tan olish

lozim. Hattoki kichkina shubhalanish holatini ham bartaraf etish lozim. O'quvchilarni o'yinning ijro etishga tayyorlash kerak.

1. Sinfning oldida kasblar formulasi yoki kasblarni tahlil etish jadvali turishi lozim.

2. Guruh a'zolarining ixtiyoriga ko'ra uch kishilik Guruhchalar tashkil etiladi.

3. Umumiy yo'nalish berish: "Hozir uch kishi auditoriyadan chiqib ketadi. Ular sinfxona uchun kasblar bo'yicha topishmoq tayyorladilar va taqdim etadilar. So'ngra tashqaridagi uch kishi sinfxonaga kiradi. Sinf a'zolarining har biri 3-5 daqiqa davomida kasbning tahlil etish sxemasi bo'yicha ularni kuzatadi. 3-5 daqiqadan so'ngra topishmoqni taqdim etuvchilar guruhchalarning a'zolaridan birini tanlaydi. Tanlangan o'quvchi sinf doskasida kasbni tahlil etish bo'yicha o'zini variantini taqdim etadi. Kasbni tahlil etish sxemasini kengaytirilgan varianti taqdim etiladi. Mazkur variant amaliy jihatdan foydalanishga mo'ljallangan.

Masalan, **“matematika o'qituvchisi”** kasbi quyidagicha tahlil etiladi: mehnat predmeti-odam, belgi; mehnat maqsadi-gnostik, ixtirochilik va tub o'zgarishlarga qaratilgan; mehnat vositalari - funksional; shart-sharoitlari – maishiy mikromuhit va boshqalar. Shundan keyin kasbni topuvchi har bir ishtirokchi bitta imkoniyatga ega va 1 daqiqadan so'ngra o'zining javob variantini taqdim etadi. Agar komandaning bitta variantidan bitta to'g'ri bo'lsa, komanda g'olib sanaladi.

4. Topganlar sinfxonadan tashqariga chiqadilar. Ular ham sinfdagilar uchun topishmoq taqdim etadilar.

5. Boshlovchi topishmoq taqdim etuvchilarni sinfxonaga taklif etadi Ular auditoriyaning kasblar tahlil etish sxemasi bo'yicha topishmoq sinfga taqdim etadilar.

6. Topishmoqni topish Guruhchalardan bittadan ishtirokchi tanlab olinadi..

7. So'ngra bir daqiqa davomida ular o'zlarining javob variantlarini taqdim etishlari lozim bo'ladi.

8. Ularning kasbni topgan va topmaganliklari baholanadi. Buning uchun topishmoq sifatida taqdim etilgan kasb nomi aytiladi.

O'yinning muhokama qilish.

Boshlovchi kasbni tahlil etish sxemasining har bir bandi bo'yicha sinf bilan birgalikda doskada yozilgan uchta variantning to'g'ri va noto'g'ri javoblarini aniqlaydi.

1-ilova

Kasbni tahlil etish sxemasi

1.Mehnat predmeti: tabiat, texnika, odam, belgilar, badiiy obraz.

2.Mehnat maqsadi: bilish (baholash, tub o'zgarish qiluvchi, izlanuvchanlik (tadqiqotchilik).

3.Mehnat vositasi: qo'l, mexanik, avtomatik, funksional (nutq, mimika, jismoniy ) , nazariy (bilim).

4.Mehnat shart-sharoiti: maishiy mikromuhit, noodatiy muhitlar (sex, magazin), ekstremal (suv osti, shaxta), ochiq havo.

5.Mehnatni tashkil etish: aniq tartib-qoidaga asosan, odatiy munosabatlar bo'yicha: boshliq-xodim, nisbiy mustaqil.

6.Mehnat jarayonidagi muloqot: individual (mijoz bilan), Guruhda ishlash, katta jamoa va auditoriyalar bilan ishlash.

7.Mehnatga mas'uliyatini belgilovchi: moddiy, axloqiy, inson hayoti va salomatligiga daxldorlik.

8.Harakatlanish xarakteri: o'tirib ishlash, tik turib ishlash, doimiy harakatda ishlash.

9.Salomatligiga qo'yiladigan talablar: yuqori, me'yorda, barchasini amaliy bajarish.

10.Kasbga nisbatan jamiyatning ehtiyoji: talab bor, talab etilmaydi, ish topish qiyin.

11.Kasb xususiyatlari: imtiyozlarga ega (qanday?), barvaqt nafaqaga chiqish, ta'tillarga borish, qiziqtiruvchi imkoniyatlari (mehnat mehnatsiz daromad olish imkoniyati) va boshqalar.

12.Kasbni egallash: ma'lumot talab etilmaydi, ishlab chiqarish o'quvchisi, maxsus kurslarni, kasb-hunar kolleji, oliy o'quv yurti aspirantura, doktorantura, akademiyaning tamomlash. 2-3 ta kasblarni tahlil etilgandan so'ngra murakkab hollarda o'yin to'xtatiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunar tushunchalarini shakllantirish, ularni kasb-hunar tanlashga yo'llash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muammo. Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash g'oyat muhim vazifadir. Shu boisdan yoshlarning kasb tanlash muammosi umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich sinflarida katta o'rin tutadi. "Mening orzuim", "Kim bo'lsam ekan", "Men sevgan kasb",

“Kasbning yomoni yo’q”, “Kasbim faxrim” degan mavzular har bir yigit va qiz uchun asosiy muammolardan biridir. O’quvchilarning o’qishga bo’lgan chaqqonligini qondiruvchi birinchi ziyo – chashma bu maktabdir. Ta’lim jarayonida o’quvchilarda kasblar tiplarini mustaqil holda bilish (Inson tabiati, inson texnika, inson badiiy timsol, inson belgilar tizimi), tanlayotgan kasbning talablarini o’z shaxsiy sifatlari bilan qiyoslay olish, o’z moyilligi qobilyati, salomatligi tanlanayotgan kasbga muvofiqligini, to’g’ri baholash ko’nikmalari shakllanishi lozim. Uslubchining kasb tanlashga yo’llashdagi vazifasi – har bir o’quvchini, uning kasbga va bilimga qiziqishlarini, moyillik, ehtiyojlari, atrof-muhitni, oilaviy ahvolini yaxshi va har tomonlama o’rganishdan iborat bo’lishi kerak.

Bu maqsad va vazifalaridan kelib chiqib o’qituvchi:

- o’quvchilarga “kasb” tushunchasining ma’nosini yoritib berish, ularni kasblarning klassifikatsiyalari bilan tanishtirish;

- o’quvchilar “kasbiy qiziqish”, “mayllik” tushunchalari bilan tanishtirish;

- o’quvchilarni kasb tanlashga asosan o’quv va ijtimoiy – mehnat uyushmasiga nisbatan ongli yondashishga erishish;

- o’quvchilarga kasb tanlashda o’z salomatligini hisobga olish zarurligini tushuntirish;

- o’quvchilarga “Kasbiy layoqat” tushunchasining mohiyatini ochib berish, kasb tanlashga mulohaza bilan yondoshishni shakllantirish;

- qobiliyatlarni kasb tanlashdagi ahamiyatini tushuntirish, umumiy va alohida qobiliyatlar haqida tasavvur hosil qilish;

- har bir o’quvchiga tanlangan kasbini egallashi uchun amaliy yordam ko’rsatishi, unda ijtimoiy – mehnat uyushmasiga ijodiy yondoshishni rivojlantirish.

Yuqorida ko’rsatilgan ma’lumotlar, vazifalar, manbalar yosh avlodni ongli ravishda kasb-hunar tanlashga yo’naltirish yoshlarning kasbni erkin va mustahkam tanlashlari uchun mustaqil zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qo’llash lozim. Bu tizim boshlang’ich ta’lim muassasalaridagi o’quv-tarbiya jarayonida uzviylikda amalga oshiriladi.

Bizning vazifamiz kelajagimiz bo’lgan o’quvchilarni kasb-hunarga, ijtimoiy-iqtisodiy bilimga ega bo’lgan, bozor sharoitini

biladigan har tomonlama tushunadigan, ma'lumotli yigit - qizlarni tayyorlash.

**“Har bir kishi kasb-korini mukammal bilmog’i, yaxshi tarbiya olmog’i va yaxshi xulq fazilatlariga ega bo’lmog’i kerak”.**  
*Abu Nosir Farobiy*

#### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad nima?
2. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishning asosiy yosh bosqichlari mazmuni nimalardan iborat?
3. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda pedagoglarning oldida turgan muhim vazifalar nimalardan iborat?
4. "Kasbni top" o'yini haqida nimalarni bilasiz?

## **12-MAVZU. TEXNOLOGIYA DARSLARIDA XORIJIY TA'LIM TIZIMIDAN FOYDALANISH**

### **Reja:**

1. Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi
2. Texnologiya ta'limining ahamiyati va mohiyati
3. Modulli ta'lim tizimining mohiyati
4. Zamonaviy ta'lim shakllari: masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar va evristik metodlar.

*Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Muammoli o'qitish, "SINKVEYN" texnologiyasi, FSMU texnologiyasi, SWOT tahlil, Shvetsariya ta'limi*

Islohotlarimizdan ko'zlangan maqsad va Prezidentimiz siyosatining bosh omillaridan biri teran fikrlovchi, o'z mustaqil dunyoqarashiga ega bo'lgan iqtidorli yoshlarni qo'llab quvvatlash va tarbiyalashdir. SHuning uchun zamonaviy talablar asosida ta'lim mazmunini boyitish, rivojlangan Evropa davlatlari (Germaniya, Angliya, Fransiya, Kanada), Osiyo mamlakatlari (Yaponiya, Janubiy Koreya) va Amerika Qo'shma SHtatlari kabi davlatlarning o'quv, o'quv - uslubiy, ilmiy - tadqiqot jarayonlari, modulli ta'lim tizimi mohiyati, Evropa yagona ta'lim muhiti (Bolonya jarayoni), modulli - kredit tizimi mohiyati, ESTS kreditlari, uning asosiy tamoyillari va xususiyatlari haqidagi pedagogik kadrlarining kasbiy kompetentlilik

darajasini raqobatbardosh ta'lim tizimi doirasida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi

XXI asrda O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish modelini shakllantirishning muhim sharti hisoblangan innovatsion faoliyatni keng ko'lamda tatbiq etish, ilmiy bilimlarni, yangi texnologiyalarni qo'llash malakasini egallash bevosita texnologiya fanini bilishlariga va kundalik hayotda qo'llay olishlariga erishish, o'quvchilarda mantiqiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish, ularni yozma va og'zaki muloqot me'yorlarini egallashga hamda o'z - o'zini boshqarish va tuta bilishga o'rgatish uchun ta'lim tizimining debochasi bo'lgan boshlang'ich sinflarda sifatli ta'limiy faoliyatni tashkil etishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar ta'lim falsafasi, didaktika ta'lim nazariyasi paradigmalari uzluksizligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'qituvchilari kompetentligi, ijodkorligi, mustaqilligini rivojlantirish, innovatsiyalarni baholay olishi hamda o'z faoliyatiga tatbiq etishi, shuningdek, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish uchun maqbul sharoitlar yaratishga tizimli yondashuvni talab qiladi.

Quyida biz rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim tizimni tashkil qilish masalalariga to'xtalamiz. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so'nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Bugungi kunda Yaponiya dunyodagi barcha davlatlar uchun ochiq va halqaro hamkorlik maydonida faol ishtirok etib kelmoqda. Yaponiya - juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash siyosati asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligidan dalolat bersa, bolalarni ijodkorlik, mustaqillik, erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun, shart - sharoitlar yaratish vazifalari yapon tarbiyasining ilmiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Psixologik adabiyotlar tahlilidan bilamizki, 7 yoshgacha inson bilimlarni 70% ni, qolgan 30% ni butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Mazkur teoriyaga yapon xalqi jiddiy e'tibor qaratgan bo'lib, ularda maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Milliy mintalitetimiz nuqtai nazari doirasida

solishtirganimizda, yapon ayollari uchun onalik birinchi o'ringda turadi.

Yaponlar bolaning erta voyaga yetishi tarafdoridirlar. Ular bolalarning yosh xususiyatlariga qarab tarbiyaning barcha jihatlariga urg'u beradi. Masalan, 1 yoshda – o'ziga ishonch hissini uyg'otish, 2 yoshda – amaliy san'at qo'l mehnatini ko'rsatish, 3 yoshda – burch hissini tarbiyalash, 4 yoshda – yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o'rgatish. Yapon tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, 5 yoshda – liderlik xislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o'rgatish, bolalarda qiziqishlariga doir yo'nalishlarni belgilab olish uchun, eng muhimi o'zgaralar oldida maqsadlarini ifoda qilishga o'rganishlari uchun katta e'tibor berilgan. O'rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko'nikish uchun har 5 oyda o'zgartirib turiladi. Yaponiya bog'chalariga 3-5 yoshdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog'chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko'nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'la olishni o'rgatishdan iborat. Shuningdek, matematik savodxonlik, og'zaki nutq, so'zlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatishga ham katta e'tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o'yinlari, rassomlik kabi shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg'otiladi.

Yaponiyada maktabga 6 yoshdan boriladi. Boshlang'ich maktabga 6 yoshdagi yapon bolalarning 99 % qatnaydi. 99 % yapon boshlang'ich maktablari davlat tasarrufida, 1 % - xususiy. O'quv rejasiga yapon tili, gumanitar fanlar, arifmetika kabilar kiradi. Maktablarda o'qitish dasturi o'zgaruvchan, lekin Ta'lim vazirligi tasdiqlagan standartlarga asoslanadi. Boshlang'ich ta'limni moliyalashtirish, o'qituvchilar bilan ta'minlash, maktab dasturlarini yaratish mahalliy hokimiyat zimmasida. Boshlang'ich ta'limda bolalar davlat hisobidagi 1945 ta kandji ieroglifdan 1006 tasini yod olishi kerak. Boshlang'ich ta'lim "syogakko" quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vataniga, o'z qadriyatlariga hurmat hissini o'rgatish;
- o'quvchilarni xalqaro hamkorlik ruhida tarbiyalash;
- ona tilidan to'g'ri foydalanish;
- iqtisodiy tarbiya berish;



Yuqori oʻrta maktabda yapon tili, matematika, tabiiyot, jamiyatshunoslik va boshqa majburiy umumtaʼlim fanlariga qoʻshimcha holda oʻquvchilar tanlov boʻyicha fanlarni taklif qiladilar, bu ingliz tili, yoki boshqa chet tillar, shuningdek, texnik va maxsus fanlar boʻlishi mumkin

Germaniya Federativ Respublikasi taʼlim tizimi bir necha bosqichni oʻz ichiga oladi: elementar taʼlim: maktab taʼlimining 1-bosqichiga tegishli boʻlib, maktabgacha muassasalar kiradi. Asosan bular bolalar bogʻchalari, tayyorlov sinflari va kirish guruhlar boʻlib, bu yerlarga bolalarning qatnashishi 3 yil davomida ota-onalar xohishiga koʻra ixtiyoriydir.

Taʼlimning birinchi bosqichi. (Primastufe) boshlangʻich maktab, unga 6 yoshdan qatnay boshlaydi. Oʻqish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil. Bu bosqichdagi taʼlimning maqsadi – bolalarga taʼlimning ikkinchi bosqichidagi u yoki bu maktabda taʼlimni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat.

Taʼlimning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe I) “yoʻnalishli bosqich” deb nomlanuvchi bosqichdir, unda bolalarni ularning iqtidoriga koʻra oʻquv muassasalarining kerakli turiga yoʻnaltiradi: asosiy maktablar, real maktablar, gimnaziyalar, kompleks maktablar. Oʻquvchilar taʼlim haqidagi attestatni real va asosiy maktablarni bitirgachgina olishadi. Respublikamizda har yili 1 sentyabrda maktabga ilk qadam qoʻygan bolalar uchun “Prezident sovgʻasi” berilgani kabi Germaniyada boshlangʻich sinf oʻquvchisiga ilk oʻqish kuni shirinliklar va kerakli maktab qurollaridan iborat “maktab sovgʻasi (kulyok)” beriladi. Germaniyada majburiy maktab taʼlimi 6 yildan 19 yilni oʻz ichiga oladi, demak maktabda taʼlim umuman olganda 13 yilni tashkil etadi. Boshlangʻich maktab-taʼlim tizimining poydevori hisoblanadi. Bu taʼlim bosqichining vazifasi – bolalarga taʼlimni davom ettirishga imkon beruvchi bilimlar asosini berishdir. Boshlangʻich maktabdan soʻng oʻquvchilar yoʻnalish bosqichidagi maktablarga oʻtadilar. Germaniyada oʻrta maktab tiplari: asosiy, real, aralash maktablar va gimnaziyalar. Oʻquvchilar ularga tavsiya etilgan oʻquv yoʻnalishlaridan bitta asosiysini tanlab olish imkoniga ega. Bu tabiiy-matematik, texnik, lingvistik, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-tibbiy, musiqiy-badiiy yoʻnalish boʻlishi mumkin. Boshlangʻich sinflarda umumtaʼlim bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish va shular

asosida o'quvchilarni zamonaviy ma'lumotlarni olish va qayta ishlashning ilmiy metodlari bilan tanishtirish, oliy o'quv yurtida muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Germaniyada boshlag'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishda alohida e'tibor qaratiladi. Texnologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilari mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatib boriladi. Bu fan maxsus jihozlangan sinflarda o'tkaziladi.

Janubiy Koreya Respublikasi ko'plab tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortmoqda, sababi bu davlat postindustrial sivilizatsiya yutuqlarini egallagan Osiyo – Tinch okeani regionining noyob davlatlaridan biridir. Koreyaliklar bajarilishi shart bo'lgan asosiy vazifa - o'z an'anaviy madaniyatini saqlash, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'z madaniy-siyosiy identivlik, Sharqning an'anaviy qadriyatlari va markazlari bilan bog'lashga intilish deb hisoblaydilar. Bu davlatning ta'lim tizimi YUNISEF ekspertlari xulosasiga ko'ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida "eng samaralisi" deb tan olingan. Ko'pchilikning yagona fikricha, Janubiy Koreyaning iqtisodiyoti va texnikadagi yutuqlari "inson resursiga investitsiyani to'g'ri tikkanligida" deb ta'kidlashadi. Ko'p rivojlanayotgan davlatlarda ta'lim bugungi kunda jamiyatning faqat sarf-harajatlar sohasi emas, balki asosiy ishlab chiqaruvchi kuchiga aylandi. Ya'ni, ta'lim raqobatbardosh, jiddiy moliyaviy mablag'larni olib keluvchi soha bo'lishi kerakligi isbotlandi. Ta'limning deyarli 1-bosqichiyoq davlat va iqtisodiyotning rivojlanishiga qaratilgan bo'lishi kerak. Faqat bilim olish uchungina emas, balki olingan bilimlarni amaliyotda samarali qo'llash uchun o'qish zarur.

Koreya o'qituvchilarining fikricha 3 yoshgacha bog'chaga brogan bolalarning fanlarni qabul qilishi, uydan to'g'ri kelgan bolalarning qabul qilishidan yaxshiroq. Yasli bog'chaga qatnab kelgan bolalar faolroq, qiziquvchan, o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, bolalar tarbiyasi jarayoniga o'z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go'dakligidan ongi va tafakkurini to'g'ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma'naviyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo'ladi. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

raisligida 14 fevral 2018 yil maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga bag'ishlangan videoselektordan ).

Koreyada davlat tasarrufidagi boshlang'ich maktablardan tashqari qator xususiy maktablar ham mavjud. Bu maktablarning o'quv dasturlari davlat maktablari o'quv dasturlariga birmuncha mos keladi, lekin o'qitish yuqori darajada amalga oshiriladi. Masalan, kam sonli o'quvchilarga ko'p o'qituvchilarning jalb etilishi, qo'shimcha fanlarning kiritilishi, umuman ta'limning yuqori standartlarga egaligi va h.k. Shu bois ko'pchilik ota-onalar o'z farzandlarini xususiy maktabga berishga intiladilar. Lekin bunday maktablarda o'qish narxining balandligi ota-onalarni o'ylantirib qo'yadi. Boshlang'ich maktabni bitirgan o'quvchilar keyingi bosqichlarga imtixonsiz o'tadilar .Kanadaliklarning eng muhim yutuqlaridan biri - bu ularning ta'lim tizimidir. Ilg'or universitet va kollejlardagi ta'lim sifati juda yuqori va Kanada diplomlari butun dunyoda tan olinadi. Xalqaro reytingda Kanada ta'limi AQSHdan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Rivojlangan mamlakatlardagi ta'lim tizimini oladigan bo'lsak Angliyada bolalarning maktab yoshi o'rtasa 5-6 yosh bo'lib, bolalar sinfda o'ynaydilar, mashg'ulotlar bilan shug'ullanadilar, ovqatlanadilar. Hamma mashg'ulotni birta murabbiy olib boradi. Bolalar ko'proq ochiq havoda sayr qilishadi.

Fransiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografni, aholishunoslik, tabiiy fanlar, texnologiya fani, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo'linadi.

Xuddi shunday Shvetsariyada ham texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilar ijodkorligini oshirish maqsadida sinf xonlarini uy ko'rinishida bezab qo'yishadi. Bunday jihozlanishda o'quvchilar o'larini uylaridagiday his qilib mustaqil fikrlashlari uchun zamin yaratiladi.

***Shvetsariya va O'zbekistonda boshlang'ich sinflarda Texnologiya fanini o'qitish holati.***

1-slayd. Shetsariyada boshlang'ich ta'limda tahsil olish 4 yoshdan boshlanadi. Har bir maktab oldida	2-slayd. O'zbekiston Respublikasida boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning 2-bo'gini ya'ni
---	--

<p>yosh bolalar uchun tayyorlov bo'limlari tashkil qilingan. Hozirgi kunda Shetsariyada maktabgacha ta'lim muassasalari birlashtirilib, 2 yillik majburiy maktabgacha ta'lim joriy etilishi jarayoni bormoqda.</p>	<p>maktabgacha ta'limdan keying o'rinda turadi. Boshlang'ich ta'limga 6-7 yoshdan qabul qilinadi. Maktabgacha ta'lim muassasalariga qatnamagan bolalar uchun maktablar qoshida tayyorlav o'quv kurslari tashkil qilingan. O'zbekistonda YUNISEF tashkiloti tomonidan 2011-yildan "BILIMDON" dasturi asosida qisqartirilgan guruhlarda bolalarni maktabga tayyorlash ishlari olib borildi. Bunda bolalarga boshlag'ich mehnat elementlari o'rgatiladi.</p>
<p>3-slayd. Shetsariyada boshlang'ich ta'lim maktablari majburiy va bepul. Boshlang'ich ta'lim jarayoni 6 yilni tashkil etadi. Boshlang'ich ta'lim maktablarida bolalarni qabul qilishda hech qanday test topshiriqlari va imtihonlar qabul qilinmaydi. Boshlang'ich maktabda o'quv dasturi jami 23-32 soatni tashkil etadi. Boshlang'ich maktablarida 100 tagacha o'quvchi qabul qilinadi. Har bir sihfda 10-15 nafardan o'quchi o'qitiladi.</p>	<p>4-slayd. O'zbekistonda 6 yoshli bolalarni qabul qilishda ulardan layoqat testlari olinadi. O'zbekistonda o'rta umum ta'lim jumladan boshlang'ich ta'limham majburiy va bepul. Ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlangan. Texnologiya fani 1-sinfdan boshlab o'qitiladi.</p>
<p>5-slayd. Boshlang'ich ta'limda har bir o'quvchiga alohida e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich maktabda oila sharoiti va muhiti yaratilgan. Boshlang'ich</p>	<p>6-slayd. Texnologiya fani bo'yicha DTS ishlab chiqilgan. Texnologiya fani fan sifatida o'rta umum ta'lim maktabida jami 407 soatni tashkil etib 1-4</p>

<p>maktabida yosh bolalarga mehnat topshiriqlari bajarilish jarayonida ularni ortiqcha zo'riqishiga yo'l qo'yilmaydi. Mutaxasislarning fikricha agar bolada biror narsaga qobiliyat sezilsa u albatta vaqti kelib rivojlanadi deb hisoblashadi. Rossiya Federatsiyasi O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi DTSDagi barcha fanlar o'qitilmasa ham boshlang'ich ta'limni tugatadigan o'quvchilar 2-3 ta chet tillarida gaplasha olishadi.</p>	<p>sinflarda haftasiga 1 soatdan yillik 34 soatni; 5-6-7-sinflarda haftasiga 2 soatdan yillik 68 soatni; 8-9-sinflarda haftasiga 1 soatdan yillik 34 soatni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinfdan boshlab mehnat elementlari o'rgatiladi, mehnatga psixologik tayyorlanadi, ongli ravishda kasb tanlashga o'rgatiladi. Uzluksiz ta'limning keyigi bosqichlarida mutaxasisliklar bo'yicha texnologiya fani o'qitiladi.</p>
---	--

Modulli ta'lim tizimi: Modulli texnologiyaga tizimli faoliyat yondashuvi eng avvalo, kasb-hunar ta'limida qo'llaniladi. Yorqin misoli sifatida Yuneskning xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan "Mehnat ko'nikmalari modullari konsepsiyasi" hisoblanadi. Bu konsepsiya yaxlit o'qitishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Modulli o'qitishda o'quv dasturlarini to'la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali o'qitishni tabaqalashtirish imkoniyati mavjud bo'ladi, ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin.

O'qitishning modul tizimiga o'tish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- o'quv muassasasining moddiy-texnikaviy bazasi darjasi;
- professor-o'qituvchilar tarkibining malakaviy darajasi;
- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi;
- ko'zlangan natijalarni baholash;
- didaktik materiallarni ishlab chiqarish;
- natijalar tahlili va modullarni maqbullashtirish.

Modulli o'qitish dasturlari o'quvchining individual ehtiyojlariga ossonlik bilan moslashadi va erkin vaqt omiliga ega bo'ladi, chunki bu yerda individuallashtirilgan o'qitish jarayoni ustunlik qiladi. Tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi o'quv

materialini individual va mustaqil o'zlashtirishga to'la imkoniyat yaratilishi tufayli ixtisoslikka samarali o'rgatishni ta'minlaydi.

Masofali o'qitish:

Masofadan turib o'quv mashg'ulotlarining barchasi yoki ko'p qismi telekommunikatsion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalari asosida olib boriladi.

Masofaviy ta'lim jarayoni imkoniyati cheklangan va chet elda o'qishni istovchilar, ikkinchi mutaxassislikni egallovchi shaxslar va boshqa shu kabi bir necha imtiyozli jarayonlarni qamrab oladi. Masofaviy o'qitish-ilmiy-texnikaviy taraqqiyot davrining mahsulidir va ayni vaqtda uning rivojlanish katalizatori hamdir.

Maqsadi: Davlat ta'limi standartlari asosida shakllantirib, bilim ko'nikma va malakalarni hamda shaxsiy fazilatlar tizimini o'z ichiga oladi. Bu yaxlitlik tizim bo'lib, o'qitishning maqsadi, o'quv fani maqsadi, mavzuning o'quv maqsadi, mavzuning tayanch tushunchalari o'quv maqsadidan shakllanadi.

### **Savol va topshiriqlar**

- 1.Xorijiy mamlakatlardagi ta'lim tizimi haqida fikrlaringizn bayon eting.
- 2.Xorijiy mamlakatlarda Texnologiya ta'limining ahamiyati va mohiyatini tushuntirib bering.
- 3.Modulli ta'lim tizimining mohiyati ochib bering.
- 4.Zamonaviy ta'lim shakllariga qanday ta'lim shakllari kiradi?
5. Masofali ta'lim qanday tashkil etiladi?
- 6.Boshlang'ich sinf Texnologiya fani bo'yicha mahorat darslarini qanday tashkil etish mumkin?
- 7.Vebinar darslari mahorat darslaridan nimasi bilan farq qiladi?

## **13-MAVZU. TEXNOLOGIYA DARSLARIDA QO'L MEHNATIDAN FOYDALANISH TALABLARI**

### **Reja:**

- 1.Boshlang'ich sinflarda qo'l mehnatiga o'rgatishni tashkil qilish shakllari.
- 2.Qo'l mehnatiga o'rgatishda ish turlarining mazmuni.

3. Amaliy ish samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan talablar.

4. Mavzuga mos o'qitish metodlari.

***Mavzuga oid tayanch tushunchalar:***

*Boshlang'ich sinflarda qo'l mehnati, qo'l mehnatiga o'rgatishni tashkil etish shakllari, ish turlarining mazmuni, mehnat samaradorligini oshirishga oid talablar, o'qitish metodlari.*

O'quvchilar dars va sinfdan tashqari texnologiya fani davomida tajribalar to'planadilar. Tajribalarning texnologik operatsiyalarni bajarish sohasidagi bilim va malakalarga ega bo'ladilar. Bu borada mehnatning boshqa turlari singari qo'l mehnati turidan ham foydalanish jarayonlarini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'l mehnati faoliyatining muhim natijasi—o'quvchilarning o'rganilayotgan obyekt va hodisalarning yangi belgi va xususiyatlarini yanada mustaqil aniqlashga da'vat etib, ularda darsdan darsga yanada chuqur bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qildiradi.

O'quvchilar qo'l mehnati sosida bajaradigan ishlar orqali mehnatning juda ko'p xususiyatlarini farqlash, materiallarning o'xshash xususiyatlarni izlash va topish, ularning aniq amaliy maqsadlar uchun tanlanishini asoslab berishni asta-sekin o'rganib boradilar. Bularning barchasi bolalarda berilgan qo'l mehnati topshiriqlari va vazifalarni to'g'ri bajara olish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflarda qo'l mehnati faoliyati mehnatning o'z-o'ziga xizmat turi, maishiy xo'jalik mehnati, tabiat quchog'idagi mehnat turlari mazmun-mohiyati bilan bevosita bog'liq.

Bolang'ich sinflarda o'quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklar va imkoniyatlar asoslangan qo'l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan mehnat ta'limi jarayoni o'quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, ahloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashni keyigi sinflarda davom ettirilishi uchun zarur aloqadorlik hosil qiladi. Qo'l mehnati jarayonida bolalar asosan ishlab chiqarish texnologiyalar chiqindilari (qog'oz, karton, sitm, yog'och, gazlama va boshqalar) bilan tabiiy va sun'iy xomashyolar (maxsus loy, yog'och va

plastmasslar, plastilin, elim va boshqalar) bilan keng iste'mol mollari va xalq hunarmandchilik mahsulotlari, tayyorlash uchun mahalliy xom-ashyolar bilan elektor, radiotexnika to'plamlari va hokazo bilan ishlashga o'rganadilar. Bularning hammasi o'quvchilarga qo'l asbobi bilan ishlash, har hil xom-ashyolardan foydalanishning ma'lum tajribasini to'plashga imkon beradi, bu esa mehnatning qadrini va ma'nosini tushinishga, mehnat kishilarda hurmatda bo'lishga, mehnatning va kasbning u yoki bu turiga qiziqishga shakllantirishga yordam beradi. Qo'l mehnati mehnatning har bir turiga qarab o'zining pedagogik imkoniyatlarini hosil qiladi. Uning ahamiyati ham boshqa mehnat turlari ahamiyati kabi u yoki bu bosqichda o'zgararib turadi.

Masalan, agar o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish 1-sinflarda kata tarbiyaviy ahamiyat kasb etsa, 2-3-sinflarda esa mehnat endi hech qanday zo'r berishni talab qilmaydi va u bolalar uchun odatdagi hol bo'lib qoladi. Qo'l mehnati tamoyillarini o'zida mujassam etgan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish faoliyatining kundalik mehnat jarayonida pedagogik faoliyatni to'g'ri tashkil etish shakl va usullari o'ziga xos xususiyatlariga ega. Bu faoliyatda bolaning kerakli malakalarini, xulq-atvorida mustaqillikning, amaliy tajribasini egallab olishi uchun eng qulay imkoniyatlar yaratiladi.

Oo'l mehnati tamoyillarini o'zida mujassam etgan maishiy-xo'jalik mehnati ham o'ziga xos xususiyatligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Maishiy-xo'jalik mehnatda bolaning qatnashishi ancha erta boshlanadi. Yosh bolaning hatto chetlangan jismoniy va ma'naviy imkoniyatlari ham navbatchilik vaqtida namayon bo'ladi. Bola binoni, maydoncha(uchastka)ni tartibga keltirish va shu kabilar bilan aloqador mehnat topshiriqlarini bajarib turadi. Bu o'z navbatida bolada o'zining mustaqillik, faollik xislatlarni namoyish etishga imkon beradi.

Maishiy xo'jalik mehnati mazmunida ma'lum davr, vaqt ichida takrorlanib turadigan ishlarni ko'ramiz. Undagi mehnatning o'ziga xos rang-barangligi yoki bir-biriga yaqinligi, yoki o'xshashliklari bilan takrorlanibgina qolmay, balki tipik hayotiy vaziyatlarni ham yuzaga keltiri turadi. Bunda bolalarning mehnat topshiriqlarini bajarishida ulardagi harakatlarning batartibli, ish yuzasidan qo'yilga topshiriq va vazifalarga to'g'ri munosabatlarni o'rnatish, uyushganligi, ishlash ishtiyoqi talab qilinadi. Bunday ishlarni muntazam bajarib



turilishi bolalarda alohida emosional kayfiyat, mehnatsevarlik, jamoatchilik asoslari kabi ahloqiy sifatlarini shakllanishiga yordam beradi. Maishiy-xo`jalik mehnati jarayonida, shuningdek, bolalarga tejamkorlik bo`lish xislatlari, ko`zga ko`rinmas tartibsizlikni seza bilish va o`z tashabbusi bilan uni bartaraf etish qobiliyatlarni tarkib toptirish uchun juda yaxshi imkoniyatlar yaratadi.

Boshlang`ich sinflarda qo`l mehnatiga o`rgatishning tashkil qilish shakillaridan yana biri - tabiat quchog`idagi mehnat turlari hisoblanadi. Bolalarning tabiat quchog`idagi mehnati jismoniy rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi, harakatni takomillashtiradi.

Tabiatdagi quchog`idagi mehnat, shuningdek, bolalarning aqliy va sensor rivojlanishlari uchun katta ahamiyatga ega.

Boshlang`ich sinflarda qo`l mehnatiga o`rgatishning tabiat quchog`ida mehnat turi 2 xil yo`l bilan amalga oshiriladi.

1. Sinfda bajariladigan ishlar.

2. Sinfdan tashqari, ya`ni sinflar uchun ajratilgan er maydonchash(uchastka)si, ajratilgan hududlarda ishlash.

Tabiat quchog`ida bajariladigan mehnat bolalarning tarbiyasida ijobiy omillarni shakllanishiga katta asos qo`shadi. Bu mehnat turi orqali bolalrdagi kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik yanado oshadi. Ularda qishloq xo`jalik mehnatiga qiziqish ushbu ish bilan shug`ullanuvchi kishilarga nisbatan hurmat-izzatda bo`lish, ular mehnatini e`zozlash xislatlarini tarkib toptiradi.

Bolalarni qo`l mehnatiga ahloqiy va ruhiy tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatlar bolalarni politexnik bilim bilan qurollantirish, mehnat ta`limi jarayonida bilim, malaka va ko`nikmalarni o`stirish pirovardlarida tarkib topadi.

Texnologiya fani mashg`ulotlarining eng muhim vazifalaridan biri sifatida: bolalarni mehnatga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyalash, ularni mehnatsevar, intizomli, har bir ishda ham o`z burchi va mas`uliyatini sezadigan, jamoaviy ishlarni qo`llab-quvvatlaydigan qilib tarbiyalash hisoblanadi. Texnologiya darslarida bolalarga ish joyini batartib va ozoda saqlab, asboblarini ayab, ehtiyotlab ishlatish, materiallarni tejab yo`llari o`rgatiladi va ularni shunga odatlantiriladi.

Texnologiya darslarining yana bir muhim vazifasi - bolalarni axloqiy tayyorlash va ularga jamoada ishlash, ijodiy tashabbus, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilishni o`rgatishdan iborat.

Zero, bolalarni mehnatga ruhiy tayyorlash o'ziga xos murakkab, uzoq davom etadigan va mazmun-mohiyatiga ko'ra ko'p qirrali jarayon bo'lib, u bolalarni butun mehnat ta'limi va tarbiyasiga singib ketadigan omillardan biri hisoblanadi. Omillarning har biri garchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsada, mehnatga ahloqiy tayyorlashga juda yaqindir. Bolani mehnat qilishga o'rgatish va buning uchun uni ruhiy jihatdan to'g'ri tayyorlash kerak. Bu unda mehnatga nisbatan, ayniqsa, uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarni egallab olishiga qiziqishni shakllantirish demakdir. Bolalarni mehnat qilishga ruhiy tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib anglash, psixomotor, hissiy idrok, diqqat, xotira, tafakkur va boshqalardir. Boshqacha qilib aytganda, ular mehnatning psixologik komponent(tarkibiy qism)lari deyiladi.

Maktab ta'limining hozirgi bosqichida o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, o'sib kelayotgan avlodning ta'lim va tarbiyasidagi eng zarur masalalardan biri. Qo'l mehnatiga o'rgatishda boshqa fanlarni o'rgatishda bo'lganidek, o'qitishning xilma-xil usullarini qo'llab, ular yordamida o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini egallab olishga, bilish qobiliyatlarini rivojlanishiga erishiladi. O'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, har bir tayyor mavzu mazkur dars uchun uning maqsad va vazifalariga muvofiq keladigan ishni usul va ko'rgazmali qurollarni tayyorlaydi. O'quvchilarga bayon etilayotgan aynan buyum emas, balki o'z biliml, malaka va mahoratlari bilan buyumni shaklan mazmunli bajarilishni yod etishlari talab etiladi. O'quvchilarni qo'l mehnatiga o'rganishda ta'limiy ishlarini to'g'ri tashkil etish va pedagogik usullariga qo'yiladigan umumiy talablarga muvofiq tarzda amalga oshirish kerak. Texnologiya fani o'qituvchisi har tomonlama etuk va o'z ishini mohirona egallagan bo'lishi kerak. O'qituvchining dasga tayorgalik darajasi, mavzu mazmunini yoritish mahorati, intilishi, hatti-harakati dars davomida o'quvchilarning diqqat e'tiborlari susaymasligiga, fikrlarning jamlangan bo'lishiga, ularning chambarchasligiga yo'llangan bo'lishi kerak.

O'quvchilar o'qituvchining darslarda suhbat, gapirib berish, amaliy jihatdan ko'rgazmali bajarib berishini, mavzunu nazariy va amaliy o'zlashtirish qobiliyat va bilimlarni tekshirishini, yangi

mavzuni tushuntirish va o`tilgan mavzuni mustahkamlash usullarini eng boshidan o`rganishlari lozim. O`quvchilar mavzuga oid bilimlarni o`zlashtirgandan keyingina sinfning imkoniyatlarini nazarda tutgan holda yangisini qo`llash mumkin. O`qitish usullari o`quvchilar tomonidan bilimlarni egallanishida shunday xizmat qilishi kerakki, unda o`quvchilar chizmani o`qituvchi chizgan o`lchamlar asosida emas, balki buyumni istalgan o`lchami bo`yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda qo`llay olsinlar.

Qo`l mehnatiga o`rgatishda turli usullar tizimi qo`llaniladi. Jumladan:

1. Og`zaki bayon qilish;
2. Tushuntirish va hikoya qilish;
3. Suhbat;
4. Mashqlar;
5. Amaliy ishlar;
6. Laboratoriya ishlari;
7. Mustaqil ishlar;
8. Ekskursiya;
9. Kitob bilan ishlash;
10. Texnik vositalar.

Bu usullar qo`l mehnati darslarida bolalarni mehnat qilishning dastlabki malakalarini hosil qildirishda, qog`oz, karton, gazlama va boshqa materiallardan o`z qo`llari bilan turli buyum yasash uchun foydalanish ahamiyatli hisoblanadi.

Qo`l mehnati mashg`ulotlarida bolalarga avvalo, eng oddiy buyumlardan turli shakllar, o`yinchoqlar, xilma-xil o`yinlar o`ynash uchun buyumlar, ko`rgazmali qurollar, o`qli asboblardan va shu singari boshqa narsalar yasash o`rgatiladi.

Texnologiya fani o`qituvchisi ta`lim-tabiya samaradorligini oshirishda, avvalambor, o`zining yuksak mahoratiga, ish mahorati va qobiliyatiga ega bo`lishi kerak. O`qituvchi mahorati qanchalik yuksak bo`lsa bolalarga o`z fanini chuqur singdira oladi. Texnologiya fani o`qituvchisi qo`l mehnati mashg`ulotlarida bir qancha usullardan foydalanishi mumkin. Masalan, texnologiya darsida o`tiladigan har bir mavzuga doir nazariy tushunchalar amaliy ishlab bilan o`z tasdiqini topishi kerak. Bu o`z navbatida, o`sha mavzuning qiziqarli, foydali tomonlari va jamiyatda aynan o`sha mehnatning roli kattaligini, aynan

shu mavzu orqali bolalar kelajakdagi hunar yoki kasb tanlashdagi qarorini mustahkamlashga da'vat etadi.

Qo'l mehatining boshqa mehnat turlari singari tarbiyaviy imkoniyatlar keng. Ayniqsa, bolalarni aqliy va axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan o'stirishda qo'l mehnati ta'limining roli ko'p qirralidir. Qo'l mehnati o'zining qiziqarliligi va amaliy ishlarga jalb qilish jarayonlari bilan o'quvchilarning bilim olishlariga intilishlarini qo'zg'ovchi nafaqat vositasi, balki uning manbai, omili hamdir.

Mehnat samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan har qanday usul o'quvchilar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilimlarning etarli darajada egallanishiga xizmat qilishi kerak. O'quvchilar chizmani o'qituvchi chizgan o'lchamlari asosida emas, balki buyumni istalgan o'lchami bo'yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda qo'llay olsinlar.

Mehnat samaradorligini oshirishda hozirgi zamon taraqqiyotidan kelib chiqqan holda, har bir o'qituvchi yangi pedagogik texnologiya fanini yaxshi o'qib, chuqur o'zlashtirsa o'z oldiga qo'ygan maqsadidan ham yuqori natijaga erishdi.

Qo'l mehnati ta'limiga o'rgatishning ahamiyati bolalarda mehnat malakalarini egallash uchun yaxshi imkonni beradi. O'qituvchi ta'limning qo'l mehnati turini o'rgatishda boshqa fanlarni o'rgatishda bo'lganidek, o'qitishning xilma-xil usullarini qo'llab ular yordamida o'quvchilarni bilim malaka, ko'nikmalarini egallab olishlariga, shuningdek, bilim qobiliyatlarini rivojlanishiga erishadi. O'qituvchi o'quvchilarga aynan bayon etilayotgan buyum emas, balki o'z so'zlari bilan buyumning bajarilish texnologiyasini yoddan bayon etishlari talab etiladi. Biroq ko'pchilik o'qituvchilar tajribasida asosiy o'rinni hali ham namuna, tayyor ko'rgazma bo'yicha ishlash usullari egallamoqda. Vaholanki, hozirgi zamon maktablari mehnat darsning zamonaviyligini oshirdi, takomillashtirdi va unga sayqal berdi. Agar o'qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida mavzuning maqsad va vazifalariga muvofiq keladigan ishlarni to'g'ri belgilab olsa, usullarni ham to'g'ri tanlasa, ko'rgazmali qurollar tayyorlasa darsning qiziqarli va mazmunli o'tishini ta'minlaydi. Demak, qo'l mehnatiga o'rganishda ham zamonaviy pedagogika ishlarini to'g'ri tashkil etish va uning usullariga qo'yadigan umumiy talablariga muvofiq tarzda amalga oshirishi shart va zarurdir.

*O`qitish metodlari ma'lumki, o`qituvchi va o`quvchilarning usullari bo`lib, bular yordamida o`qituvchi, o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini egallashlariga erishildi. Har qaysi o`qituvchi o`z tajribasida o`qitishning xilma-xil usullaridan foydalanishi mumkin. O`qituvchining pedagogik intilishi va qarashlari, shuningdek, hatti-harakatlari, butun dars jarayonida o`quvchilarning diqqat e`tibori susaymasligiga, fikrlarning jamlangan bo`lishiga, ularning chambarchasliglariga yo`llangan bo`lishi kerak. O`qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o`quvchilarni ham shunga o`rgatish kerak. Har bir o`qituvchiga o`z uslubi, o`z metodi va o`z usulining o`ziga xosligiga ega bo`lish huquqi berilgan. Biroq shuni aytish kerakki, bularning barchasiga bilim, bir qarashda hammaga ravshan bo`lgan haqiqatlarni egallab olganlaridagina erishish mumkin.*

Mehnat tarbiyasi bolalarda mehnatga munosabatni tarbiyalashda muhim omil bo`lib, dars va sinfdan tashqari ishlarning asosiy o`zagi hamda maktabning hayot bilan aloqasini mustahkamlovchi asosiy yo`llardan biridir. Shu nuqta nazardan qaraganda o`quvchilarni mehnatga ruhiy va amaliy tayyorlash maktabning asosiy ta'limiy va tarbiyaviy vazifalaridan biri bo`lib qolishi kerak.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Boshlang`ich sinflarda qo`l mehnatiga o`rgatishning tashkil qilish shakllari qaysilar? Misollar asosida tushuntiring.

2. Qo`l mehnatiga o`rgatishda ish turlarining usullari aytib bering

3. Mehnat samaradorligini oshirishda qo`llaniladigan usullarga misollar ayting.

4. Mehnat samaradorligini oshirishda qo`llaniladigan o`qitish metodlari qaysilar?

## **14-MAVZU. BOSHLANG`ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA TA'LIMIDAN AMALIY ISHLAR**

### **Reja:**

1. Boshlang`ich sinf texnologiya darslarida amaliy ish turlari.

2. Ish qurollaridan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalari.

3. O`z-o`ziga xizmat ko`rsatish texnologiyai.

4. Texnologiya fani ish qurollari va ish materiallari bilan tanishtirish va ulardan foydalanish talablari.

*Mavzuga oid tayanch tushunchalar:*

*Boshlang'ich sinf texnologiya darslari da amaliy ish turlari, mehnat ish qurollari, texnika xavfsizligi qoidalari, o'z-o'ziga xizmat, har xil turdagi materiallar, ulardan foydalanish qoidalari.*

O'quvchilar ijtimoiy ishlab chiqarish mehnatiga tayyorlashning ilk bosqichlarini texnologiya fani darslarida o'rganadilar. Ular birinchi sinf davridan boshlab nafaqat mehnat darsi mashg'ulotlarida turli materiallar bilan tanishadilar, balki boshqa darslarda ham mehnat turlariga oid materiallarga to'qnash keladilar va ular bilan tanishib boradilar. Masalan, qog'oz va karton bilan ishlash, gazlamaga dastlabki ishlov berish, turli materiallar bilan ishlash, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish hamda uy-ro'zg'or mehnati va shu kabilar bilan tanishib boradilar. Boshlang'ich sinf texnologiya darslari da amaliy ishlarni bajarib bois jarayonida o'quvchilarda mehnatsevarlik, materiallarni tejamli sarflash, mehnatga ijodiy yondashish, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, mehnat madaniyatini tarbiyalash bilan bir qatorda, ularga ayrim kasblar haqida tushunchalar ham berib boriladi.

O'quvchilarga mehnatdan ta'lim berishning xususiyatli va ahamiyatli tomonlari mavjud ular ta'lim berishning asosiy vazifalarini o'z ichiga oladi. Shunday vazifalar sirrasiga o'quvchilarda materiallarga ishlov berish ko'nikmalarini hosil qilish va ularga shunga muvofiq bilimlarni berishdir. O'quvchilarda materiallarga ishlov berish ko'nikmalarini hosil qilish va ularga shunga muvofiq bilimlarni berish birinchi sinfdan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi, chunki o'quvchilar hali eng oddiy buyumlarni tayyorlash operatsiyalarni eslab qolishga qodir emaslar.

Hosil qilingan ko'nikmalar malakalarni ham shakllantirib boradi. Bularning barchasi takror mashq qilishlar natijasida takomillashib boradi. O'qituvchi o'quvchilarning xatolarga yo'l qo'ymasligi uchun ularni o'z-o'zini nazorat qilishga odatlantirib borish lozim. Topshiriqlarni bajarish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni o'zlari topib uni tuzatmagunlaricha hamda bajarilgan ishlarning to'g'riligiga

ishonch hosil qilmagunlaricha o'quvchilardan ishni qabul qilmaslik lozim.

Amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida yangi ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Buning uchun qo'l asboblardan foydalanishning o'ziga xosligini, materiallarni xususiyatini, yasalayotgan buyumlar xususiyatini bilish katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarni qo'l mehnatiga o'rgatish quyidagi ish turlariga bo'linadi:

1. Qog'oz va karton bilan ishlash.
2. Turli materiallar bilan ishlash:
  - a) Applikatsiya va mozayka ishlari;
  - b) Loy va plastilin bilan ishlash;
  - v) Tabiiy materiallar bilan ishlash.
3. Qog'oz va karton bilan ishlash.
4. Gazlama bilan ishlash.
5. Loyihalash va modellar ishlari.
6. Qishloq xo'jalik ishlari.

Dars boshida o'qituvchi biror mavzu bo'yicha suhbat olib boradi, bu buyum qanday maqsadlarda va qayerda ishlatilishini tushuntiradi. Shundan so'ngra o'quvchilar tayyorlanayotgan har bir buyumni amalda qo'llashga o'tadilar.

Buyumni tayyorlash usullarini o'qituvchi sinf doskasiga osib qo'yilgan yo'llanma xaritasidan yoki texnik vositalardan foydalanib ko'rsatadi. Ishni bajarish tartibi va usullariga tegishli savollarni berib, amaliy ish materialini takrorlaydi va buyumni o'quvchilar bilan birgalikda tayyorlashga o'tadi.

Texnologiya fanidan amaliy ishlar tuzilishi quyidagi tartibda olib boriladi:

1. O'quvchilar oldiga mehnat topshirig'ining maqsadi va mavzusini qo'yish:

a) darslarda bajarishga mo'ljallangan buyum yoki ishning o'quvchilar hayotining yoki bu tomoni ehtiyojlarini qoniqtirishdagi ahamiyati;

b) belgilangan ishni yaxshi bajarish uchun qanday yangi bilim va ko'nikmalarni egallash lozimligini ko'rsatish.

2. Ish o'rne, asbob-uskuna, material, namuna, doskadagi chizmalarning tayyorligini tekshirish, ishni yaxshi va uyushgan holda tashkil etishga yordam beruvchi qonun-qoidalarni eslatish.

3. Bajariladigan mehnat vazifalarini oldindan rejalashtirish:

a) namuna, qism va detallar miqdorini tahlil qilish, kerakli materillarni, berilgan o'lchovlarni tayyorlash;

b) buyum tasviri va uning detallarini namunadan tanish, tushunish, barcha o'lchovlarni va ishchi chiziqlarini topish va o'qish, ya'ni ishni buyumni tayyorlash uchun qanday harakatlarni amalga oshirish, qanday asboblarni ishlatish, mehnat harakatlarini ketma-ket bajarish tartibini aniqlash.

4. Materialni namuna, berilgan o'lchovlar bo'yicha belgilab chiqish. O'quvchilarni belgilash tartibini bilishlari va uni doskada belgilash bosqichlarini bajarayotgan yoki buyumni ko'rsatib tushuntirayotgan o'qituvchi bilan bir vaqtda bajarilishi lozim.

5. Belgilash ishlarini bajarish. Detallarni tayyorlash, detallarni moslash va uning barcha detallarini yig'ish; detallardan buyumni yig'ish jarayonida; buyum va uning detallariga ishlov berish jarayonida zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni egallash.

6. Harakatlanayotganda tekshirish, xato va kamchiliklarni tuzatish, ishni baholash.

7. Darsga yakun yasash, yangi vazifalar qo'yish.

Texnologiya fanida amaliy ish mashg'ulotlari tashkil qilishning bu tartibidan o'qituvchi mazkur dars uchun belgilangan aniq buyum yoki ishning xususiyatlarini nazarda tutib foydalanadi.

Amaliy ishlar jarayonida o'quvchilarda mehnatga qiziqish va muhabbat singdirib boriladi. Mehnatga qiziqishning muhim talablaridan biri ishlanadigan buyumni to'g'ri tanlashdir. O'quvchilar tayyorlanadigan narsalarni nimaga kerakligi, qayerda ishlatilishini bilishlari kerak.

O'quvchilarni ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishlari, o'z ishlarini rejalashtira bilishlari, materiallni tejamkorlik bilan sarflashlari, vaqtdan unumli foydalanishlari, o'qituvchi ko'rsatmasiga amal qilishlari, shu bilan birga ish joyini toza va ozada saqlashlari, mashg'ulotdan so'ng sinfni tozalab qo'yishlariga odatlantirib boorish kerak.



Barcha fanlarda qo'llanilgani kabi mehnatning amaliy ish turlarida ko'rsatmali vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.. Jumladan, texnologiya darslari da turli xil namuna, rasm, chizma, sxematik namuna, turli predmetlarning modellari, shuningdek texnika vositalaridan foydalaniladi.


**1-topshiriq: Qog'oz samolyotni tayyorlash.**

Bu samolyotni yasash uchun o'quvchiga rasm daftaridan bir varaq qog'oz, shuningdek bir parcha tunuka, rezina, qaychi kerak bo'ladi. O'quvchiga quyidagicha topshiriq beriladi: eng avval 180x80 mm kattalikda to'rt burchakli qog'oz qirqing. Keyin uni uzunasiga ikki buklang, ya'ni 180x40 mm kattalikda ikkita to'g'ri burchakli to'rtburchak yasang (rasm, a). SHu to'rtburak ichida "b" rasmda ko'rsatilgandek qilib, samolyotning tanasini chizing. Yuk sifatida samolyotning tumshug'i oldiga 1x2 santimetrli tunukani o'rtasidan ikki buklab biriktiring (rasm-1, v).

Boshqa qog'ozdan samolyotning qanotini yasang-da (rasm, g), uni samolyot tanasiga o'tkazib biriktiring (rasm, g). Tanasi tagidagi kesikka rezina iling-da, uni tortib turib, chap qo'lingiz bilan ushlab turgan samolyot tanasini qo'yib yuboring (rasm-1, d).

Agar samolyot uchmasa, uning yukini o'zgartirish kerak. Agar yuk juda engil bo'lsa, samolyot orqaga og'ib ketadi. Agar juda og'ir bo'lsa, tumshug'i bilan erga tushadi.

Rezinani velosipedning eski kamerasidan kesib olish mumkin. Qog'oz samolyot yaxlit (rasm-1, e) quyidagi ko'rinishda bo'ladi:




**2-topshiriq: Yog'och tanali samolyot tayyorlash.**

Samolyotning tanasini bir tomonga ingichkalashib borayotgan prizmagga o'xshatib yog'ochdan yo'nib yasang (rasm-2, a). Pastidan ip

bog'lash uchun ariqcha o'ying (rasm-2, b). Qanoti va rulini rasm daftari qog'ozidan yasash mumkin (rasm-2, v, g). Ularni yasab, tananing ustiga, o'z o'rniga qo'ying-da, ip yoki ingichka rezinka bilan bog'lang (rasm-2 d). Keyin samolyotni olg'a qarab otib, uchirib yuboring (rasm-2, e). Agar samolyot tumshug'i bilan erga tushsa, tanasining old tomoni og'ir ekanligini ko'rsatadi. Bu holda uni pichoq bilan yo'nib, qaytadan uchirib ko'rish kerak. Yog'och samolyot quyidagi ko'rinishda bo'ladi (rasm-2, d).

Bunday ish turlari o'quvchilarda texnik ijodkorlik, konstruktorlik, faraz qila olish, kuzatuvchanlik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

**3-topshiriq** qo'g'irchoq uychasi uchun jihozlar yasashdan iborat bo'lib, bu topshiriqni o'g'il va qiz bolalar hamkorlikda bajaradilar.



A) stol yuzasi 120x100 mm.dan iborat bo'ladi. Uni o'g'il bolalar kartondan yasab, sirtiga qog'oz yopishtiradilar (rasm, a). Oyoqlari esa to'rt tomoni yo'nib tekislangan cho'plardan yasaladi. Ularni kartondan ham yasash mumkin. Kartondan yasamoqchi bo'lsangiz, u holda eni 1 sm, uzunligi 7 sm.lik 12 bo'lak karton tayyorlang. Ularni uch qavatdan qilib bir-biriga yopishtiring (rasm-3, b), hosil bo'lgan to'rtta oyoqni stol taxtasining tagidan yopishtiring. SHu bilan stol tayyor bo'ladi (rasm-3 v).

B) aylana stol taxtasi ham kartondan yasaladi, uning diametri 80 mm (rasm, a) bo'lib, ustiga boshqa jihozlarda bo'lgani kabi qog'oz yopishtiriladi. Buning uchun qog'ozdan diametri 100 mm.lik doira qirqib oling. Keyin unga elim surtib, o'rtasiga doira kartonni yopishtiring. Qog'ozning ortib qolgan chetlarini markazga qarata mayda-mayda qismlarga bo'lib qirqing-da, stol taxtasi ostiga qayirib yopishtiring. Aylana stolning oyoqlarini ikkita karton lentadan tay-

yorlang (rasm-3, b). Bu oyoqlarga rangdor qog‘oz qoplab “v” rasmda ko‘rsatilgandek buklang. Keyin har ikkala bukilgan lentani qo‘shuv alomati tarzida birini-biriga ko‘ndalang qo‘yib, taxta tagiga yopishtiring (rasm-3, g). Agar oyoqlar juda uzun bo‘lib qolsa, uchlaridan qirqib, kaltaroq qiling.

V) gultuvak qo‘yiladigan stol ham xuddi shunday kartondan yasaladi. Kartondan diametri 80 mm kattalikda 4 ta doira qirqing. Keyin shu doira markaziga sirkul uchini qo‘yib, 70 mm diametrlik doira chizing-da, ichini qirqib oling. Shunda eni 10 mm.lik g‘ildirakchalar hosil bo‘ladi (rasm-3, a). Bu g‘ildirakchalarni ikkita-ikkritadan qilib bir-biriga yopishtiring. Keyin har ikkalasidan ham 1/4 qismini qirqib oling (rasm-3, b). Bu qirqib olingan qismini qolgan katta qismining past tomoniga “v” rasmda ko‘rsatilganidek yopishtiring, so‘ngra qalinroq kartondan ikkita taxtacha qirqing. Birining kattaligi 100x30 mm, ikkinchisini 50x30 mm bo‘lsin. Ularning ustiga bir xil qog‘oz yopishtiring (rasm,-3 g). Taxtachalarning yon tomoniga elim surtib, ularni g‘ildirakchalarga o‘rnating. Ostidagisi oyoq qismiga yopishsin (rasm-3, d). Stolchaga qizlar tomonidan rasm daftaridan konus shaklida ishlangan tuvakchalar qo‘yiladi. Unga qo‘yiladigan gullarni qizlar juda yupqa qog‘ozlardan turli rangga bo‘yab tayyorlaydilar.

G) uyhani bezash uchun ishlatiladigan boshqa buyumlar. Uychaga jihozlar qo‘yib chiqilgach, dastlab qizlar tomonidan deraza pardalari tayyorlanadi, chunki har bir uyda deraza bo‘lib, ularga pardalar ilinadi. Buning uchun 13x12 sm kattalikda ikki bo‘lak doka kerak bo‘ladi. Uning bir uchidan katta-katta tikib, ipni tortib, dokani burma qiling, shunda har ikkala pardaning kengligi (rasm, a ga qarang) 16 sm bo‘lsin. Pardani boshi dumaloq nina bilan uycha derazasining tepasiga qistirib qo‘ying. Keyin yupqa kartondan kengligi taxminan 1 sm lenta qirqilib, uning usti rangdor qog‘oz bilan qoplanadi va pardaning ust tomoniga yopishtirib qo‘yiladi. Bu bilan siz ham karniz yasadingiz, ham ko‘rinib turgan iplar bekitildi (rasm-3, a).

Uyni bezatish uchun ramkali rasm ham kerak bo‘ladi. Bu ishni o‘g‘il bolalar bajaradilar. Ramkani ham ustiga rangdor qog‘oz yopishtirilgan kartondan qirqing yoki bo‘yang. Ramkaning orqa tomoniga biror eski jurnaldan chiroyli rasmni qirqib olib yopishtiring.


Tasvir tayyor bo'lgach, uni devorga boshi dumaloq nina bilan biriktirib, osib qo'ying (rasm-3, b).


Agar gilamcha bo'lmasa, chetiga gajim tutilgan bir parcha matodan gilam o'rnida foydalanish mumkin. Gajimni matoning chetidan ip sug'urib osongina yasash mumkin (rasm-3, v).

Qizlar divan va stullarga to'shak ham tayyorlashlari kerak bo'ladi. Buning uchun yo'l-yo'l mato olib, 95x58 mm kattalikda yaxtalik to'shak tiking (rasm-3, g).

Shu usulda stullarga ham to'shakcha tiking. Uning ikki burchagida bog'ichi bo'lsin. Stul va divanlarni probkadan yasash mumkin. Ularni plastilindan ham yasash mumkin. Stolga yozish uchun dasturxon ham kerak. Uni oq matodan tayyorlang. Chetlarini qaychi bilan naqshli qilib qirqib chiqing. Xuddi shu usulda aylana stol uchun ham dasturxon tayyorlang. Aylana stolga dasturxon yupqa oq qog'ozdan tayyorlanishi mumkin. Agar qog'ozdan naqsh qirqa olsangiz, bezakli dasturxon yasang (rasm-3, d).


Yana bir o'ylab ko'ring-chi, qo'g'irchoq uyini bezatish uchun yana nima kerak bo'lar ekan? Vazalar, haykalchalar kerak bo'lmaydimi? Bularni o'zingiz turli materiallardan yasab oling. Ularning katta-kichikligini uyning hajmi va jihoz o'lchamlariga munosib qilib yasashni unutmang.





Bu topshiriqni bajarish davomida qiz va o'g'il bolalar orasida hamjihatlik, hamkorlik barqarorlashuvi bilan bir qatorda rollarni o'quvchilarning jinsiga ko'ra to'g'ri taqsimlash imkoniyati vujudga keladi. Ushbu mashg'ulot o'quvchilarda qurish, yasash, faraz qilish, mehnatsevarlik, nafosat hamda orastalikni tarbiyalaydi.

**4-topshiriq:** Loydan siyohdon yasashdan iborat, bu topshiriq, asosan, o'g'il bolalarga mo'ljallangan. Rasmdagilar oddiy loydan yasalgan siyohdon va qalamdonlardir. Bularni yasash uchun toza sariq tuproqdan loy qiling. Uni qo'lga yopishmaydigan bo'lguncha ezib-iylab pishiting, keyin uni bir parcha taxtacha ustiga qo'yib, istagan narsangizni yasayverasiz.



To'rtta yog'och olib, ularning uchini (rasm-4 a) ingichkalashtiring. Ular sizga loyning ortiqcha erlarini qirib tashlash, shakl yasash uchun kerak bo'ladi.

Biz quyida “Xo‘roz siyohdon” yasash tartibini bayon qilamiz. Pishitilgan loydan xo‘roz shaklini yasaysiz-da, barmog‘ingizni ho‘llab, uning ustlarini silliqlaysiz. Keyin mashina ip bilan uning boshini (qopqog‘ini) kesib tushirasiz. (Qopqoqni alohida tayyorlash ham mumkin). Qopqoq olib qo‘yilgach, xo‘rozning pastki qismini yog‘och pichoqcha bilan kovlab (rasm-4, b) chuqurcha hosil qilinadi. Uning ichiga yog‘ yoki doridan bo‘shagan og‘zi katta shisha yoki chinni bankachani solib qo‘yasiz. Chuqurcha bankachadan kengroq bo‘lishi kerak, chunki loy quriganda kichrayadi, tortishib yorilib ketadi.

Yasagan narsangizni albatta soyada quriting.

Agar shakl yorilsa, suyuq loy bilan suvab qo‘yiig. Qurigandan keyin akvarel bo‘yoq bilan chiroyli qilib bo‘yang. Boshqa shakllarda ham siyohdon yasab ko‘ring.

Bunday ish to‘rini bajarish natijasida o‘quvchilarda loyihalash, chamalash, taxmin qilish, faraz qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

5-topshiriq: “Temirchi ayiqlar” deb nomlangan bo‘lib, uni yasash bilan ham, asosan, o‘g‘il bolalar shug‘ullanishlari kerak. Temirchi ayiqlar juda qadimiy xalq o‘yinchoqlaridandir. Bu o‘yinchoqni yasash uchun bir parcha faner, uchi ikki tomonga buqiladigan to‘rtta mix va qo‘larra kerak bo‘ladi.


Qog‘ozga ayiq rasmining konturini chizib, bu shaklni 3-4 marta fanerga ko‘chiring. Keyin ayiq tanasining yuqori yarim shaklini yana ikki marta chizing (rasm-5, a). Fanerdan ikkita chizg‘ich (taxtacha) kesing. Ularning uzunligi 20 sm, eni 1,5 sm bo‘lsin. Keyin bu taxtachalarni ikki eridan parma yoki qizdirilgan sim bilan teshing. Ikkita butun tanasi o‘rtasiga bitta yarimtalik tanani qo‘yib elimlang (rasm, v). Endi uchi ayri mix bilan ayiqlarni faner taxtachalarga “g” rasmda ko‘rsatilganidek o‘rnating. Ularni yaxshilab bo‘yang. Ikkala faner chizg‘ich galma-gal old va orqaga tortilsa, ayiqchalar navbatma-navbat bolg‘alay boshlaydilar.

Bu turdagi topshiriqlar o‘quvchilarda konstruktorlik, loyihachilik ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**6-topshiriq: “O‘ynoqi qiziqchi”** deb nomlangan. Bu topshiriq, asosan, qiz bolalarga mo‘ljallangan.

O‘ynoqi qiziqchi ham xalq ijodi namunalarida uzoq yillar davomida yashab kelmoqda. Fanerdan qiziqchi qo‘g‘irchoqning

tanasi, qo‘l va oyoqlarini tayyorlang. Har bir oyog‘ini alohida-alohida yasang (rasm-6, a, b, v, g). Fanerdagi aylana belgilar qo‘yilgan erlarni teshing. Qo‘l va oyoqlarini ayri uchli mix bilan tanaga biriktiring. Orqa tomonidan pishiq ip bilan har ikki qo‘l va har ikki oyoqni bir qilib bog‘lang. Bu iplarning uchini uchinchi uzun ipga bog‘lang (rasm-6, d). Qiziqchining kiyimlarini chit nusxa, yuzini esa masxaraboz nusxa qilib bo‘yang. Keyin uning bosh tomonidan ip bog‘lab osib qo‘ying. Pastki ipning uchidan ushlab, siltab-siltab tursangiz, qiziqchi o‘yin ko‘rsatadi.



Ushbu topshiriq qizlarda nafasat, did, tikuvchilik ilmi elementlarini tarkib toptirishga xizmat qiladi.


**7-topshiriq: “Don cho‘qiyotgan tovuqlar”** deb nomlanib, bu topshiriq bilan o‘g‘il bolalar shug‘ullanadilar.

Taxtadan kesib «a» rasmda ko‘rsatilgandek doira yasang. Doiraning to‘rt chekkasiga ikkitadan teshik yasang. Chekkadagi

teshiklarga tovuq shakllarini oʻrnatasiz. Doiraning bir tomoniga ost tomonidan yopishtirib band oʻrnating (rasm-7).

Tovuqlarning shakli toʻrt qismdan: ikki yon tomoni (rasm-7, v), oʻrta qismi (rasm-7, g) va boshidan (rasm-7, d) iborat. Bu qismlarning hammasi fanerdan yasaladi; faner shakllar qoʻlarga bilan qulay arralanadi. Har ikki yon qismlarni oʻrta qismga ikki tomondan yopishtiring. Keyin yon qismlarida bittadan teshik yasab, unga bosh oʻrnatiladi. Boshning boʻyin qismida ikkita teshik teshish kerak. Kattaroq teshikdan mix oʻtkaziladi. Ikkinchisiga esa ip bogʻlanadi (rasm-7, e). Endi tovuq tayyor boʻldi. Tovuqni doiraning chetidagi teshikka oʻrnatib, ipni markazga yaqinroqdagi teshikdan pastga oʻtkazib yuborasiz. Pastga oʻtgan toʻrtala ip uchini birga qoʻshib tugib, unga bitta dumaloq yogʻoch bogʻlab osiltirib qoʻying (rasm-7, j). Agar siz doiraning bandidan ushlab aylantira boshlasangiz, doira tubida osilib turgan dumaloq yogʻoch iplarni galma-galdan goh tortib, goh boʻshatib turadi. Tovuqlar esa, navbatma-navbat taqillatib don choʻqib turadilar.

Bu topshiriq oʻgʻil bolalarda parrandalarning shaklini tasavvur




qilish, ularni yasash, buyumlar orasidagi bogʻlanishni his qilish koʻnikmasini tarkib toptiradi.

**8-topshiriq: “Meva terish uchun kuzanak-xalta yasash”** deb nomlanib, ushbu topshiriq oʻgʻil va qiz bolalarning hamkorlikdagi mehnati asosida bajariladi.

Uzun ensiz tunukadan kuzanak-xaltaning gardishini tayyorlang. Gardish “a” rasmdagidek panjarali boʻlsin. Matodan xaltacha tiking



(rasm-8, b), uni gardish qilib, uchlari bir-biriga parchinlangan aylanaga tiking. Tikish uchun gardishning quyi chetiga bir qator teshiklar yasash kerak (rasm-8, a). Keyin bir bo'lak tunuka truba topib, uning bir uchini bir necha qismga bo'lib qo'ying. Ularni trubaning qolgan qismiga nisbatan tik qilib buking va har birini teshing. Trubaning shu bukilgan tomonini gardishning yoniga qo'yib turib, gardishda ham teshik o'rnini belgilab oling-da, uni ham teshib, trubani unga parchinlab biriktiring (rasm-8, g). Mixparchinni tunukadan yasasa ham bo'ladi. Trubaga to'g'ri yog'och tiqib, band yasang. Meva bandini gardish panjarasidagi kuzanakka ilintirib tortsangiz, meva uzilib xaltaga tushadi, zada bo'lmaydi.



Bu topshiriq o'quvchilarda hamkorlikda mehnat qilish, tejamkorlik, ehtiyotkorlik, tikish, mato va tunukalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

#### SAVOLLAR.

1. O'quvchilarni mehnatga amaliy tayyorlash usullarini izolang
2. Texnologiya darslari da qanday amaliy ish turlari bajariladi?
3. Texnologiya darslari da amaliy ishlar qanday tashkil qilinadi?
4. O'quvchilar tarbiyasida amaliy ish jarayonini ahamiyati?

#### TOPSHIRIQLAR.

1. Amaliy ish turlaridan namuna keltiring.
2. Namunaviy dars ishlanmasini yozing.

#### Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida berilgan amaliy ish turlarini ayting.
2. Ish turlari bo'yicha yasaladigan buyumlarni bajarishda texnika xavfsizlik qoidalari qaysilar?

3. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish deganda nima nazarda tutiladi?

4. Mehnat ish qurollari, har xil turdagi materiallar bilan tanishtirish va ulardan foydalanish qoidalarini misollar asosida izohlang.

## **15-MAVZU. TEXNOLOGIYA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

### **Reja:**

1. Axborot kommunikatsion texnologiyalari haqida ma'lumot.

2. Texnologiya ta'limi darslarida AKTdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.

3. Amaliy mashg'ulotlar uchun taqdimot tayyorlash texnologiyalari.

*Mavzuga oid tayanch tushunchalar: axborot texnologiyasi, power point, prezintatsiya, kompyuter turlari, zamonaviy texnologiyalar.*

Bugungi kunda respublikamizning ta'lim sohasida axborot texnologiyalaridan foydalanishning me'yoriy-huquqiy bazasini tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalar, ilmiy izlanishlar va zamonaviy texnologiyalarni boshlang'ich ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, bilish faoliyatini shakllantirish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini o'stirish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Buni esa aynan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni, salohiyatli, metodik jihatdan kuchli qilib tarbiyalashdan boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim jarayonida natijaviylikka erishish bo'yicha o'quvchilarning aqliy va ijodiy tafakkurini o'stirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish" kabi muhim vazifalar belgilangan. Ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini texnologiya fanini puxta o'rgatish uchun axborot ta'lim resurslari, ijodiy

materiallar tizimini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish, fanga bo'lgan qiziqishni o'stirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Axborot texnologiyalarining boshlang'ich sinf texnologiya darslarida foydalanish va uni darslarda joriy etishda quyidagi bir qator muammolar o'z yechimini topishi kerakligi ta'kidlanadi:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiyani o'rgatishda o'ziga xos innovatsion texnologiya turi bu - axborot texnologiyasi ekanligi;

Boshlang'ich sinf texnologiya darslari jarayonida har bir innovatsion texnologiyalarning o'z o'rnini bor. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalarning bir turi sanalgan axborot texnologiyasi - o'quvchilar tafakkuri, dunyoqarashi va fikrlash qobiliyatini o'stirish uchun xizmat qiladi. Axborot texnologiyasi interfaol metodlar, didaktik o'yinlardan farqli o'laroq, barcha tushuncha va mavzularni ekranda ko'rib, fikr yuritishda va amaliy uchun yaxshi samara beradi. Texnologiya darslari axborot texnologiyalari va ularning turlaridan foydalanish eng yaxshi vosita ekanligi qayd etildi.

2. Boshlang'ich sinf texnologiya darslaridan axborot texnologiyalari orqali o'tishda ehtiyoj seziladigan mavzular bazasini shakllantirish lozim; Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish belgilangan mavzu yuzasidan chuqur bilim olish, tasavvur, tushuncha hosil qilish uchun zamin yaratadi.

3. Axborot texnologiyalaridan boshlang'ich sinf texnologiya darslarida foydalanish uchun uni didaktik vositalari tizimini ishlab chiqish zarur;

4. Boshlang'ich sinf texnologiya darslari jarayonida yaxshi samara bera oladigan axborot texnologiya turlarini ajrata olish va undan foydalanishni tashkillashtirish.

O'qituvchi boshlang'ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan qo'llashda didaktik vositalardan foydalanish uchun maxsus ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur.

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir materiallar quyidagi muammolarni hal etishi zarur:

1. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir materiallarni tanlash va ularni o'qitish samaradordigini oshirishda saralangan materiallardan nazariy

(ma'ruza) va amaliy mashg'ulotlarda qanday an'anaviy, noan'anaviy metodlardan hamda shakllardan foydalanishni aniqlash.

2. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir tanlangan materiallar o'quvchilarning mustaqil, ijodiy fikrlashlarini, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni, mantiqiy mulohaza yuritishlarini, amaliy ishlarni bajarishni hisobga olish.

3. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir tanlangan materiallarni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga samarali usulda o'qitish metodikasini ishlab chiqish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir tanlangan materiallaridan o'quv jarayonida foydalanishi deganda quyidagi maqsadlar tushuniladi:

1. Tanlangan materiallar texnologiya fanining o'quv rejasi va fan dasturi talablariga mos kelishi, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiynalmasdan o'zlashtirib olishlariga yordam berishi;

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni, amaliy ishlash ko'nikmasini o'stirish;

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlashni o'stirish;

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda abstrakt tafakkurni, mantiqiy mushohada yuritishni rivojlantirish;

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni egallagan nazariy bilimni qiynalmasdan amaliyotda qo'llay bilishi;

6. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir tanlangan materiallardan o'quv jarayonida foydalanish maqsadli va rejali asosda bo'lishi, zaruriy pedagogik vaziyatni aniqlangan holda tanlanishi.

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir tanlangan materiallarga quyidagi didaktik talablarni qo'yish mumkin:

1. Tanlangan materiallarning mazmuni didaktik va metodik talablarga javob berishi kerak.

2. Tanlangan materiallar mazmuni sodda, qisqa va tugallangan matnda ifodalangan bo'lishi zarur.

3. Tanlangan materiallar mazmuni va ulardagi faktlar haqiqiy bo'lishi lozim.

4. Tanlangan materiallar va sinov savollari aniq hamda tushunarli bo'lishi darkor.

Axborot texnologiyasi shaxsga yo'naltirilgan texnologiya bo'lib, o'quvchilarning intellektual va emotsional-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, ta'lim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini ta'minlash, faollikni oshirish, o'z-o'zini anglash va mustaqilligini shakllantirish yotadi.

Hozirgi vaqtda ta'limda quyidagi asosiy axborot texnologiyalardan keng foydalanilmoqda va o'rganilmoqda:

**O'qitishning elektron vositalari.** O'qitish jarayoni pedagog, ta'lim oluvchi va o'qitish vositalarining o'zaro ta'siridan iborat. Hozirgi zamon kompyuter vositalari va axborot texnologiyalari imkoniyatlari o'qitish vositalariga o'qituvchi va ta'lim oluvchi vazifalarining bir qismini yuklash imkonini beradi.

**Elektron o'quv-metodik majmualar-** zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida o'qitishning didaktik, dasturiy va texnik interfaol majmuasidan tashkil topgan va o'quv materiallarini kompyuter texnologiyalari, audio-video vositalar asosida taqdim etadigan o'quv-metodik majmuasi.

**Elektron shakldagi o'quv-uslubiy materiallar-** elektron darslik, elektron o'quv qo'llanmalar, elektron ma'ruza materiallari, elektron kutubxonalar, mos(GD, Flash va h.k.) sig'imdagi audio vizual materiallar, interfaol o'quv kurslari, kompyuterda hisoblash tajribasini o'tkazish uchun laboratoriya vazifalari, test sinovlarini o'tkazish tizimlari.

**Elektron darslik-** kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llash, mustaqil ta'lim olish, muayyan fanga oid o'quv materiallari, ilmiy ma'lumotlarni har tomonlama samarali o'zlashtirishga qaratilgan o'quv adabiyoti yoki kompyuter texnologiyalariga asoslangan o'qitish metodlaridan foydalanishga mo'ljallangan o'qitish vositasi.

**Elektron o'quv adabiyot-** zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni to'plash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan o'quv manbalari.

**Multimedia**- kompyuter uchun mo'ljallangan tovush, video va turli animatsiya effektlari jamlanmasidan iborat texnik yoki dasturiy majmua. Tovush, video, animatsiyalarni "multimedia elementlari" - deyish mumkin.

Multimedia texnologiyalari axborotning ko'pgina turlarini o'zida integratsiyalaydi. Masalan:

- a) skanerdan olingan tasvirlar;
- b) yozib olingan ovoz, musiqiy effektlar va musiqa;
- d) murakkab videoeffektli videolar
- e) turli animatsiyalar

Qolaversa, multimedion vositalarga qo'shimcha qilib, proyektor, interaktiv doskani ham kiritish mumkin.

Yana shu narsani ta'kidlash joizki, multimedia orqali olingan bilimlar kishi xotirasiga uzoq saqlanib, kerak paytda amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Umuman olganda, multimediani qo'llash orqali quyidagi o'qitish effektivligiga erishiladi:

. bilimlarni o'zlashtirish majburan emas, balki o'quvchi ixtiyori bilan amalga oshadi;

. multimedia o'quvchi tomonidan xursandlik bilan qabul qilinadi, xursandlik esa o'z navbatida uni o'quv faniga munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi;

. o'quvchini boshqalarga nisbatan o'zini namoyon qilish imkoniyati paydo bo'ladi;

. o'quvchida o'z faoliyatini baholash uchun yangi obyektiv mezon paydo bo'ladi: kim ko'p bilsa va undan muvaffaqiyatli foydalana olsa, o'sha yutib chiqadi;

. o'z fantaziyalariga erk berish imkoniyati tug'iladi, qo'rquv hissi, boshqalarga kulgi bo'lish hissi, yomon baho olishdan qo'rqish hissi chekinadi;

. jamoada sog'lom raqobat va musobaqa muhiti tashkil topadi;

. o'quvchilar mavjud qiyinchiliklarni mustaqil yengib o'tishga intiladilar;

. fanlararo bog'lanishni haqiqiy amalga oshirish imkoniyati tug'iladi.

**Multimediali kitoblar**- bitta axborot tashuvchi vositaga jamlangan (masalan, CD-ROM diskiga) matnli, ovozli, statik-dinamik

va video tasvirli ma'lumotlardan tashkil topgan o'quv kitobi, dasturiy vosita.

**Flash-** bu Web-designerning ijodkorlik quroli bo'lib, u shunday dasturki, uning yordamida turli prezentatsiyalar, kichik o'yinlar, multimediali web sahifalar, dinamik saytlar va boshqa istalgan multimediali mahsulotlar tayyorlash mumkin. Flash yordamida yasalgan mahsulotlarning hajmi kichik bo'ladi, shuning uchun ham unda tayyorlangan fayllarni web sahifalarga joylash yoki internet bo'ylab jo'natish juda qulay.

Flashda, asosan, quyidagilar tayyorlanadi:

- multiplikatsion rolik va multfilmlar;
- videoroliklar;
- o'yinlar;
- prezentatsiyalar.

Microsoft Power Point dasturi Windows qobig'i ostida yaratilgan bo'lib, ushbu dastur prezentatsiyalar (taqdimot qilish, ya'ni tanishtirish) bilan ishlash uchun eng qulay bo'lgan dasturiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu dastur orqali barcha ko'rgazmali qurollarni yaratish va ba'zi joylarda esa ma'lumotlar bazasi sifatida ham qo'llash mumkin. Ayrim hollarda bu dasturlarni multimedia vositalaridan boshqarish va qo'llab, namoyish etuvchi qurilmalarga yuborish vazifalarini ham bajarish mumkin. Dasturda ishlash uchun biz yangi bo'lgan asosiy tushunchalar bilan tanishaylik.

**Prezentatsiya** - bu slaydlar va maxsus effektlar to'plami bo'lib, ularni ekranda ko'rsatish, tarqatiladigan material, ma'ruza rejasi va konspekt shaklida bitta faylda saqlanadi.





**Slayd** - prezentatsiyaning alohida kadri bo'lib, matni, sarlavhalarni grafik va diagrammalarni o'z ichiga oladi. Power Point vositalari bilan barpo etilgan slaydlarni oq-qora rangli printerda chop etish yoki maxsus imkoniyatlari yordamida 35 millimetrli slaydlarni fotoplyonkalarda tayyorlash mumkin.

**Gipermedia kitoblar** -multimedia kitoblarining takomillashgan shakli bo'lib, bunda foydalanuvchi asosiy matndan tashqari turli qo'shimcha manbalarga ham murojaat qilishi mumkin bo'lgan darslik. Qolaversa, o'quvchilar o'quv jarayonida elektron pochtdan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak.

Ayni paytda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan - kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar ularning egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi.

Bir so'z bilan aytganda, boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirishni taqozo etadi. Texnologiya darslari jarayonida ham kerakli va zarur innovatsion texnologiyalardan foydalanish va uni hayot jarayonida ham tatbiq etishga o'rgatmoq zarur.

Microsoft Power Point dasturini ishga tushirishning quyidagi usullari mavjud:

1. Microsoft PowerPoint 2007 dasturini ishga tushirish uchun Windows operatsion sistemasi bosh menyusi  dan  bandiga o'tilib, amaliy dasturlar ro'yxatidan  dasturlar paketidan  tanlanib, sichqoncha ko'rsatkichi orqali ikki marta bosish yoki klaviaturadan "Enter" tugmasini bosish bilan dastur ishi yakunlanadi va PowerPoint ish darchasi ochiladi.

2. Microsoft PowerPointda yaratilgan faylni ochish orqali.

3. Microsoft PowerPoint dasturining yorlig'i -  orqali.


4. Mavjud bo'lsa masalalar panelida joylashgan tezkor ishga tushirish tugmachalaridan Microsoft PowerPoint dasturining piktogrammasini tanlash orqali PowerPoint ish darchasi ochiladi.

Bu muloqot darchasi quyidagilardan iborat:

1. Sarlavha satri; 2. Bosh tavsiyanomasi; 3. Tavsiyanomalar; 4. Asboblari paneli; 5. Slaydlar sohasi; 6. Slayd masshtabi; 7. Slayd holatlari sohasi 8. Ish sohasi;

2.





Microsoft Power Point dasturida taqdimot yaratish jarayonida umumiy jihozlash, yangi slydlarni qo'shish, ularning tarkibi, slydlarni belgilash, zarur bo'lganda slydlarni jihozlash, tasvir ranglarini o'zgartirish, turli qoliblarni jihozlash va slydlarni namoyish etishda animatsiya ta'siri qo'llanishidan iborat. Microsoft Power Point dasturida yangi taqdimot yaratishda quyidagicha amalga oshiriladi. «**Glavnaya**» tavsiyanomasidagi **Maket** bo'limidan yaratiladigan taqdimot uchun mos qoliblarni tanlanib, bu qolib sohaslariga ko'rsatilgan belgili vazifalarga ko'ra ma'lumotlar, matnlar kiritiladi.

## **Power Point taqdimot dasturida ishlash uchun topshiriqlar.**

### **1-amaliy topshiriq**

Amaliy topshiriq mavzusi: PowerPoint dasturida slydlar yaratish va o'nga rasm va boshqa obyektlarni qo'yish.

Amaliy topshiriq tavsifi: O'z faningizdan 1 soatlik dars uchun 8-10ta slyd tuzing.

Amaliy topshiriqdan kutilayotgan natijalar: Tinglovchilarga slydlar yaratishni o'rgatish.

Amaliy topshiriqni bajarganlarida tinglovchilar quyidagi BKM larga ega bo'ladilar:

Boshlang'ich ta'limda «Texnologiya» fanini o'qitishni kompyuterlashtirish to'g'risidagi tasavvurlarni umumlashtirish va ular asosida tadqiqotni davom ettirish ta'limni kompyuterlashtirish muammosining tarkibi, uning fanda qo'yilishi, pedagogik amaliyotdagi o'rni kabi qator savollarga javobni taqozo qiladi. Mazkur paragrafda yuqoridagi savollarga javob izlanadi.

Didaktik va uslubiy tadqiqotlarda, dastlab, o'tkaziladigan tadqiqot, uning natijasida erishiladigan bilimlar, ayni holatda

Boshlang'ich ta'limda «Texnologiya» fanini o'qitishni kompyuterlashtirish muammosining o'zini, uning tarkibini o'rganishda qator afzalliklar mavjud. Bunday tahlil muammo to'g'risidagi tasavvurlarini aniqlashtirish, mavzu dolzarbligini atroflicha anglashini ta'minlaydi. Muammoning hali yetarli tadqiq qilinmagan jihatlarini qayd qilib, tadqiqot yo'nalishini belgilash va kelajakda erishiladigan natijalarni ma'lum darajada aniq ko'ra olish hamda tadqiqot obyektni takomillashtirish yo'llarini aniqlashga imkon beradi.

Fanda qo'yilgan muammoni o'rganishga kirishar ekanmiz uning tarkibi, inson faoliyatidagi ahamiyati, ilmiy tadqiqotdagi o'rni, qanday masalalarga daxldorligi, muammoni o'rganish yo'llari, vositalari, asoslanadigan prinsiplari, qisqa qilib aytganda, muammo mohiyatini yetarlicha bilmaymiz. Muammo obrazini ongda shakllantirish zaruratidan uning o'zini alohida o'rganishga, mohiyati va tarkibini tahlil qilishga ehtiyoj tug'iladi.

Ta'limni kompyuterlashtirish muammosi tashkiliy tizim bo'lib, o'ziga xos qator sifatlarga ega: eng avvalo, ta'limni kompyuterlashtirish didaktika va xususiy uslubiyat fanlari sohasida o'tkaziladigan tadqiqotlar bilan uzviy bog'liq. Kompyuterli ta'lim tashkiliy tizim sifatida o'qituvchining irodasi, mahorati, kompyuterlashtirish bo'yicha egallagan bilimlari, orttirgan tajribasiga bog'liq. Masalan, «Texnologiya» o'quv predmetini kompyuterlashtirish uchun uning logikasi — o'quv materiallarini o'rganish tizimi, har bir mavzuga oid o'quv elementlari ajratiladi, o'quvchilarning real bilish imkoniyatlari o'rganiladi. SHu asosda pedagogik dastur vosita (PDV) larni yaratish xususiyatlari aniqlanib, ularni yaratishda o'quvchilar faoliyatini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish prinsiplari, usullari, vositalari, me'yorlari ishlab chiqiladi.

Ta'limni kompyuterlashtirish to'g'risida fikr yuritilganda uning ikki xil ma'nosini farqlash kerak:

1. Ta'limni kompyuterlashtirish faoliyati. Ta'limni kompyuterlashtirish faoliyati PDVni loyihalash, yaratish, kompyuterning o'zini ta'limni amalga oshirishga tayyorlash kabi elementlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'ziga xos vazifa va vositalarga ega.

2. Ta'limni kompyuterlashtirish jarayoni. Bu ma'noda ta'limni kompyuterlashtirishni mehnatga qiyoslasa bo'ladi. Mehnat jarayonlariga o'xshab ta'limni kompyuterlashtirish maqsadga muvofiq mehnat, mehnat vositasi, mehnat predmetidan iborat.

Endi mehnat jarayoni nuqtai nazaridan muammo tarkibini tahlil qilishga o'tamiz.

«Mehnat jarayoni o'zida uch momentni aks ettiradi: mehnatning o'zi, mehnat vositasi, mehnat predmeti».

Mehnat va uning momentlari jihatidan o'zaro daxldor uchta tizimni ajratamiz:

1. Ta'lim va kompyuter. Ushbu tizimda kompyuterli ta'limni alohida ta'lim turi sifatida qayd etamiz.

2. O'qitish faoliyati va kompyuter. Mazkur tizimda kompyuterli ta'lim sharoitida o'qituvchi bajaradigan ishlarni belgilaymiz.

3. O'qish faoliyati va kompyuter. Bu tizim bo'yicha kompyuterda o'quvchilarning o'quv faoliyatini amalga oshirib, ta'lim mazmunini o'zlashtirishiga oid vazifalarni qayd etamiz.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchining birgalikda amalga oshiradigan mehnati (o'zaro ta'sir)dir. O'zaro ta'sir kompyuterga yo'nalgan. «Ta'lim va kompyuter» tizimida kompyuter ikki xil vazifani bajaradi. Birinchidan, mehnat vositasi. O'qituvchi ham, o'quvchi ham kompyuter vositasida o'z maqsadini amalga oshiradi. Ikkinchidan, kompyuter ta'lim manbai vazifasini bajaradi. Kompyuter xotirasiga kiritilgan ma'lumotlar omborida o'rganilayotgan mavzu mazmuni, yaratilgan PDFda esa shu mavzuni o'zlashtirish uslubiyati aks etadi. Bu tizimda dastur vositasi orqali shakllantiriladigan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, shakllantiriladigan munosabatlar ta'limning — o'qitish va o'qish faoliyati predmeti sanaladi. O'qituvchi va o'quvchi ta'siridan bilimlar o'rganilmagan holatdan o'rganilgan holatga o'tadi. Yuqoridagi rasmda keltirilgan tizimning «kompyuter va ta'lim mazmuni» qismi eng boy bog'lanish hisoblanadi.

Keltirilgan tahlilga asoslangan holda Boshlang'ich ta'limda «Texnologiya» fanini o'qitishni kompyuterlashtirish muammosini tizimli tadqiq qilish uchun quyidagi muammolarni belgilaymiz:

1. Boshlang'ich ta'limda «Texnologiya» fanini o'qitishni

kompyuterlashtirishni didaktik va uslubiy muammo sifatida o'rganish.

2. Ta'limni kompyuterlashtirishni jarayon sifatida tahlil qilish.

3. «Texnologiya» o'quv predmetini kompyuterlashtirishda ta'lim sub'ektlari faoliyatini modellashtirish.

4. «Texnologiya» o'quv predmetiga doir pedagogik dastur vositalarini yaratish uslubiyatini ishlab chiqish.

5. Boshlang'ich ta'limda «Texnologiya» o'quv predmeti bo'yicha kompyuterli ta'limning samaradorligini o'rganish.

Boshlang'ich ta'limda «Texnologiya» fanini o'qitishni kompyuterlashtirishga oid muammolar qayd etilgach, ularning har birini alohida tahlil qilish, tarkibiy qismlarini aniqlashga ehtiyoj tug'iladi. Texnologiya darslarida o'quvchilarning ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, ularning texnik konstruksiyalash va modellashtirish mashg'ulotlarini va o'quvchilarning texnik ijodkorlik to'garaklariga muvaffaqiyatli rahbarlik uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarini bilan qurollantirish murakkab pedagogik jarayon bo'lib, bu o'quvchilarga «O'quv ustaxonasida amaliy mashg'ulot»larida aniq buyum va detallarni yasash jarayonida shakllanadi.

O'quv jarayonini tahlil qilish, mazkur fanning o'quv dasturini o'rganib chiqish natijasida o'quvchilarga ijodkorlik ko'nikmalarini berish jarayonida kompyuterlarni qo'llashning imkoniyatlari, yo'llari ochildi.

Kompyuter – bu o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda yangi texnik - didaktik vosita bo'lib, ularning politexnik tafakkurini kengaytirib va chuqurlashtirib, ularda ijodkorlik bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni yuqori bosqichga ko'taradi.

O'quvchilarning ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini uch bosqichda olib borish lozim:

-birinchi bosqichda o'quvchilarning asosiy ijodkorlik tushunchalari kompyuter o'quv- muloqot dasturlarini qo'llash orqali shakllantiriladi;

- ikkinchi bosqich – buyum va detallarning konstruksiyalarini ishlab chiqish jarayonida zarur bo'lgan grafik ko'nikmalarini kompyuter o'quv-muloqot dasturlaridan foydalanib shakllantiriladi;

~~-uchinchi bosqich~~ - ijodkorlik ko'nikmalarini aniq buyum va detallarni yasash jarayonida kompyuter o'quv dasturlari asosida shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Birinchi bosqichda o'quvchilarning bevosita konstruktsiyalash va texnologik jarayon bilan bog'lik bo'lgan ijodkorlik tushunchalari, kompyuter o'quv-muloqot dasturida aks etgan materiallar asosida olib boriladi. Bundan asosan konstruktsiyalash, loyixalash, texnologik jarayon, texnologik mashina, texnologik karta, konstruktor, texnolog, konstruktsiya, chizma, eskiz, texnik rasm kabi tushunchalarning kompyuter xotirasiga joylashtirilgan muloqot dasturidan foydalaniladi.

### **Mavzuga oid savol va topshiriqlar:**

1. Zamonaviy axborot texnologiyalari va ularning jamiyat taraqqiyotidagi roli.

2. Kompyuter dasturlari: tizimli, amaliy va instrumental dasturlar.

3. Kompyuter dasturiy ta'minoti va ularning rivojlanish tendensiyalari.

4. Ta'lim samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining o'rni va ahamiyati.

5. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan ilmiy-tadqiqot jarayonida foydalanish.

## **16-MAVZU. TEXNOLOGIYA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

### **Reja:**

1. Innovatsion texnologiyalar haqida ma'lumot.

2. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning shakl va metodlari.

3. Innovatsion texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish usullari.

*Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, interfaol metodlar, hamkorlik pedagogikasi.*

Innovatsion texnologiyalar - ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning

bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy baxs-munozaralar o'tkazish, shu materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ro'zalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'psatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Innovatsiya (inglizcha) yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni ifodalaydi, texnologiya yunoncha "texnos"- san'at, mahorat va "logos"- fan so'zlaridan olingan bo'lib, innovatsion texnologiya ta'lim-tarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondashish degan ma'noni o'z ichiga qamrab oladi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish. Ta'lim tizimidagi har qanday islohotlar, innovatsiyalar, investitsiyalar, shubhasiz, ta'lim samaradorligini oshirishga va uni zamonaviy ta'lim talablariga to'la qonli javob berishiga qaratilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'kidlanganidek, "Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq atvorning andozalarini o'zgartirish Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir".

XXI asrda O'zbekiston ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish ustuvor vazifalardan biridir. Bu esa, o'z navbatida texnologiya fani yo'nalishida izlanishlar olib borayotgan olimlarimiz zimmasiga tegishli o'quv fanlari bo'yicha o'quv adabiyotlarini hozirgi davr talabi va ilm-fanning so'nggi yutuqlarini hisobga olgan holda yangilab borish, ta'lim jarayoniga innovatsiya va ta'lim texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda. Ma'lumki mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida barcha fanlarni o'qitish

jarayonida innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash bugungi kunning dolzarb masalaridan biri hisoblanadi. Avvalo fandagi yangilik nima? Fandagi innovatsiya nima? degan savollarga javob berish lozim. Bugungi kunda amaliyotda yangilik va innovatsiya so'zlari o'rtasida farqlar mavjud. Yangilik bu fandagi eng so'nggi kiritilgan yutuqlar, bilimlar, usullar hisoblanadi. Ushbu yutuqlar, bilimlar, usullarni amalda qo'llanilishi bilan innovatsiyaga aylanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda har jihatdan rivojlangan insonni tarbiyalash muammosi hozirgi kun talabiga aylangan. Jamiyatda yuz berayotgan inqilobiy o'zgarishlarni insonni o'zgartirmay amalga oshirib bo'lmaydi, bu esa ijtimoiy munosabatlarning yangilanishiga borib taqaladi, uning tub ildizi esa maktablar tizimiga ulangan.

Axborot texnologiyalarni yuqori cho'qqini zabt etib turganligi xorijiy mamlakatlarda maktablar tizimini, ta'lim mazmunini yangilash zaruratga aylandi, ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan metotlari va shakllariga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi sababli ta'limga qaratilayotgan islohotlar yildan yilga oshib bormoqda. Yaponlarda maktab tizimiga shunday ta'rif bergan: "maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoli"gina bo'lib qolmay, "u insonni yaxshilaydi" degan fikrga asoslanadi. Ta'lim to'g'risidagi masalalar hamisha davlat siyosatchilarining diqqat markazida bo'lgan.

Fransiya prezidenti F.Mettiran "maktab-jamiyatni harakatlantiruvchi kuch" deb hisoblagan. Xorijiy mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqda. Hunar ta'limi Germaniya ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, Germaniyada yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talabning kuchliligidir. Maxsus hunar bilim yurtlari va o'rta maxsus bilim yurtlariga bu mamlakat tayanch maktablarning 25% gacha bitiruvchilari kiradilar. Bu turdagi o'quv yurtlarining bitiruvchilari texnika oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishlari mumkin.

Muammoli ta'lim texnologiyasida aqliy faoliyat usullarini shakllantirish, ijodiy faoliyatga yo'llash, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish funksiyalari yetakchi o'rinni egallaydi, qolgan funksiyalar ularga

go`yoki bo`ysunadi. Shu asnoda boshqa texnologiyalarning ham didaktik funksiyalarini tahlil etish mumkin. Bir qator fanlarni o`qitishda bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda quyidagi innovasiyalar va ta`lim texnologiyalari qo`llanilmoqda.

✓ **Muammoli o`qitish**– Maqsadi - faol shaxsni tarbiyalash. Vazifasi - faol bilish jarayoniga undash, ijodiy fikrni rivojlantirish, tanqid va tahlil qilish, muammoni echish usulini izlashga o`rgatish, tafakkurida ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirish.

➤ Muammoli vaziyatni yaratish metodikasi:

❖ O`quvchilar muammoning echimini o`zlari topishga urinadilar;

❖ O`quvchilar bitta savolga har xil fikrlar bildiradilar;

❖ Fikrlar taqqoslanadi, umumlashadi va xulosa chiqariladi.

➤ Muammoli o`qitishning shakllari:

❖ Nazariy bilimlarni berishda o`quv materialini muammoli bayon etish;

❖ Amaliy mashg`ulot ishlari yoki tajriba qilishda qisman izlanuvchi faoliyat;

✓ **“Zig-zag”** – usuli 1980 -1990 - yillardan boshlab paydo bo`lgan. Bu usulning boshqalardan farqi shundaki, ishtirokchilar mayda guruhlarga ajratiladilar va o`quvchilar raqamlanadilar, spiker (boshliq saylanadi). So`ngra bir xil raqamlar bir-birini “topadilar”. Topshiriq beriladi va o`zlashtirgach, tarqalishadilar. Har bir a`zo o`zi o`zlashtirgan materialni eski sheriklariga aytib beradi. Savol - javobda esa guruh baholanadi. Har bir raqamlanganlar yangi va har xil topshiriqlar olganini hisobga olsak, har bir talaba o`z guruhi manfaati uchun ham berilgan topshiriqni bilishi kerak va bilishga majbur. Chunki, u o`z guruhiga qaytganda, o`rgangan mavzu bo`yicha savol-javobda guruhi nomidan qatnashishi kerak.

✓ **6x6x6** – uslubida o`qituvchi guruh 36 ta qatnashchisini qisqa vaqt mobaynida bironta masalani muhokama qilishga o`rgatish va ular ko`pchiligining fikrlarini bilib olish imkoniyatiga ega bo`ladi. 6-ta guruh ishtirokchilari o`qituvchi tomonidan o`rtaga tashlangan muammoni 6 daqiqada mobaynida muhokama qiladilar. Shundan keyin o`qituvchi 6 ta yangi guruhni shunday tuzadiki, unda oldingi munozara guruhida qatnashganlardan birontasi albatta bo`ladi. Yangi guruh qatnashchilari o`z guruhlarining ish natijalarini muhokama



qiladilar. 6x6x6 – guruhning barcha a'zolarini faollashtiruvchi uslubdir.

✓ **“Kungaboqar”** – Talabalar 4-5 kishidan iborat guruhlariga bo‘linadi. O‘qituvchi fanning mavzusidan kelib chiqib, o‘rtaga bitta muammoni tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab, uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi. Mavzuga qarab, doiraga har bir guruhga yoki umumiy bitta muammo yozilib, doskaga yopishtiriladi. Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlarini bargga yozib, uni o‘sha guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo‘yadilar. Bu uslubdan o‘tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash va takrorlash hamda o‘quvchilar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin.

✓ **“Bumerang” texnologiyasi**– Mazkur texnologiya bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganiyish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo‘naltirilgan. Asosiy tushunchalar quyidagilar:

❖ Ochiq savollar – bu savollar muomala, so‘zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

❖ Yopiq savollar – bu savollar oldindan “ha” yoki “yo‘q” tipidagi to‘g‘ri, ochiq javoblarni berishni ko‘zda tutadi.

❖ Ko‘ndalang so‘roq – bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo‘lib, bu o‘ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponetlarni pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir.

### **“SINKVEYN” texnologiyasi haqida tushuncha**

**“SINKVEYN” – bu besh qatordan iborat bo‘lib, unda bir tushuncha haqida axborot beriladi.**

**Birinchi qatorda – mavzu (kalit so‘z) beriladi;**

**Ikkinchi qatorda – unga bir yoki ikkita aniqlovchi tanlanadi;**

**Uchinchi qatorda – unga harakat-holat (fe‘l) bilan to‘ldiriladi;**

**To‘rtinchi qatorda – so‘z har xil usul bilan yoyiq gapga aylantiriladi;**

**Beshinchi qatorda – kalit so‘zning ma‘nodoshi(sinonimi)**

**keltiriladi.**

## “FSMU” TEXNOLOGIYASI

Metodning maqsadi: Mazkur metod talabalardagi umumiy fikrlardan

xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- Talabalarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi.

- Har bir talabaga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi.

### 1-topshiriq

(F) – Fikringizni bayon eting

(S) – Fikringizni bayoniga biron sabab ko‘rsating.

Har bir talaba yakka tartibda tarqatilgan qog‘ozlardagi FSMUning to‘rt bosqichini taklif etilgan xulosa yoki g‘oyaga nisbatan o‘z mustaqil mulohazalarini yozma bayon etgan holda to‘ldiradilar.

Ushbu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda baxslashishga, egallangan bilimlarni tahlil qilishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi.

S) – Chunki, ....

(M) – Demak, ...

(U) – Fikringizni umumlashtiring.

## MUNOZARA” METODI

Bu metod yordamida talabalarga muayyan muammo bo‘yicha to‘liq axborotlar yetkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni talabalar ayovsiz “shturm” qiladilar va pirovard natijada muammoga tegishli ma‘lumotlarni atroflicha o‘rganadilar.

## «AQLIY HUJUM» METODI

Mashg'ulot o'tkazish tartibi: Ushbu metod turli tarzda qo'llanilishi mumkin. Masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun Yangi savol quyi yoki istalgan qandaydir muammoni hal etish mumkin. Asosiy qoidalari quyidagilar:

✚ Aytilayotgan barcha g'oyalar bir biriga nisbatan muhimlikda tengdir.

✚ Kiritilayotgan g'oyalarga nisbatan tanqid mavjud emas.

✚ G'oyani taqdim etayotgan paytda so'zlovchining gapini bo'lmaslik.

- ✚ Aqliy hujum usuli, uning mazmuni va ahamiyatini tushuntirib bering.
- ✚ Aqliy hujum usulini qo'llash texnologiyasini ishlab chiqing.
- ✚ Aqliy hujum usuli qoidasini tushuntirib bering (Texnologik chizma ko'rinishlarda taqdim eting).

1-topshiriq. O'qituvchi o'quv jarayonida tashabbusni o'z qo'lga shunday oladi: u auditoriyadagi barcha talabalarga savol beradi va qandaydir maxsus mavzuga daxldor barcha mumkin bo'lgan fikrlarni aytishni so'raydi.

2-topshiriq. Barcha xato g'oyalarni ham aytishga ruxsat beradi, aytilayotgan fikrlar ichida birgina asosiy mavzu saqlanib qolishi shart. Fikir sharxlanmaydi, tanqid qilinmaydi, baholanmaydi.

3-topshiriq. Jarayon tugagach barcha g'oyalar to'planishi, guruhlariga ajratilishi yoki kategoriyalarga bo'linishi mumkin.

## «KEYS-STADI» TEXNOLOGIYASI


«Keys-stadi» inglizcha (case – aniq vaziyat, stadi – o'qitish) aniq vaziyatga va hodisaga asoslangan o'qitish. O'quv muammoli vaziyat (o'quv keysi) tashkil etishning maqsadi auditoriyada mavzudan kelib chiqib, aniq muammoli vaziyatni mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda muqobil yechimlarini muhokama qilish orqali qarorlar qabul qilish muhitini yaratishdan iborat.

## «KLAUSTER» METODI

Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilish mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda talabalarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini boyitish.

### KLASTERNI TUZISH QOIDALARI:

- ✚ Topshiriqni diqqat bilan o'qib chiqing.
- ✚ Fikrlarni tarmoqlantirish jarayonida paydo bo'lgan har bir fikrni yozing.
- ✚ Imlo xatolar va boshqa jihatlarga e'tibor bermang.
- ✚ Belgilangan vaqt tugamaguncha yozishni to'xtamang, fikringizni jamlashga harakat qiling.
- ✚ Fikrlarni chegaralamang, ular o'rtasida o'zaro aloqadorlikka e'tibor qarating.



Ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini samarali amalga oshirishda pedagogik texnologiyalarga asoslangan o'qitishning innovatsion shakl, metodlarining tanlanishiga katta ahamiyat beriladi. Ta'lim muassasalarida samarali o'qitish shakllari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi: muammoli ma'ruza; videoma'ruza, vebinarlar; binar ma'ruza; intensiv-interaktiv seminar; trening, videotrening; interfaol ekskursiya; On-line seminarlari; taqdimot, kichik guruhlardagi ish v.h.k.

**Trening.** Trening zamonaviy ta'lim shakllaridan biri hisoblanib, u interfaol mashg'ulotlarni amalga oshirishning o'ziga xos

ko‘rinishidir. Treninglar o‘rganilishi lozim bo‘lgan nazariy g‘oya va fikrlarni amaliy ish hamda mashqlar davomida o‘zlashtirish imkoniyatini beradi va ta‘lim oluvchilarda shaxslararo o‘zaro hamkorlikning samarali ko‘nikmasini shakllantirishga, shuningdek, bo‘lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining umumiy darajasini oshirishga yo‘naltiriladi. Har qanday pedagogik treninglarni tashkil etish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Tashkiliy bosqich: guruhni yig‘ish yoki shakllantirish.
2. Boshlang‘ich bosqich: guruh me‘yorlarini ishlab chiqish, tanishuv va mashg‘ulotdan kutuvlarni aniqlash.
3. Faoliyatli bosqich: trening turi va o‘tkazish metodikasini belgilash.
4. Yakuniy bosqich (refleksiya).

Trening mobaynida talabalar nazariy ma‘lumotlarni o‘zlashtirish bilan birga, ularda bilish, emmotsional va xulq-atvor ko‘nikmalari ham rivojlanib boradi.

**Videoma‘ruzalar.** Bunday o‘qitish shaklida o‘qituvchi ma‘ruzasi videotasmaga yoziladi, chiziqsiz montaj usulida u multimedia, ilovalar, ma‘ruzani bayon qilishning ko‘rgazmali vositalari bilan to‘ldiriladi. Bunday to‘ldirishlar ma‘ruza mazmunini nafaqat boyitadi, balki uni bayon qilishning jonliroq va tinglovchilar uchun qiziqarli bo‘lishini ta‘minlaydi. Videoma‘ruzalar o‘quv markazlariga videokassetalar yoki kompakt disklarda yetkaziladi. Zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlarning amaliy yo‘nalishi sifatida bugungi kunda pedagogikada o‘qitishning bir necha metodlari farqlanadi.

Oliy ta‘lim muassasalaridagi samarali o‘qitish metodlaridan biri bu interfaol o‘qitish metodlaridir. Interfaol so‘zi inglizcha so‘z bo‘lib, «inter» - o‘zaro va «act» - harakat qilmoq ma‘nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol - ya‘ni o‘zaro harakat qilmoq ma‘nosini anglatadi. Bunday o‘zaro harakat turlariga “o‘quvchi – o‘qituvchi” va “o‘quvchi - o‘quvchi” ning maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o‘qitishda o‘qituvchi o‘quv faoliyatninig faol tashkilotchisi bo‘lib, o‘quvchi bu faoliyatning sub’yekti sifatida namoyon bo‘ladi. Ta‘limda ilg‘or xorijiy tajribalar modulini o‘qish davrida bir qancha rivojlangan mamlakatlar jumladan Yaponiyada , Janubiy Koreyada , Fransiyada ,Germaniyada olib borilayotgan ta‘lim

tizimi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lib, hozirgi kunda Shetsariyada olib borilayotgan ta'lim tizimini O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim tizimi bilan farqini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

**Mavzuga oid savol va topshiriqlar:**

1. Innovatsion texnologiya nima? Uning bir qancha ta'riflarini keltiring?
2. Innovatsion texnologiyalarning ta'lim samaradorligidagi ahamiyati?
3. Innovatsion texnologiya va interfaol metodlar bir tushunchami? Ularning farqi yoki o'xshashligi?
4. Texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalarning qo'llash usullari?

**17-MAVZU. INTERFAOL USULLARDAN TEXNOLOGIYA DARSLARIDA FOYDALANISH USULLARI.**

**Reja:**

1. Interfaol ta'lim texnologiyalarining didaktik mohiyati.
2. Interfaol ta'lim metodlari.
3. Texnologiya darslarida interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish tartibi.

***Mavzuga oid tayanch tushunchalar:*** interfaol metodlar, SWOT tahlil metodi, grafik organayzer turlari.

Ta'lim to'g'risidagi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ta'lim jarayoniga tatbiq etish bilan ta'limda sifat va samaradorlikka erishish va shu orqali modernizatsiya qilinga ta'lim standartlari to'liq bajarilishini ta'minlash davri boshlandi. Ta'limda takomillashtirilgan dasturlar, modernizatsiya qilingan, tajriba – sinovdan o'tgan standartlar, darsliklarning yangi avlodi bilan ta'minlash, kompyuterlashtirish Davlat umummilliy dasturi asosida izchil amalga oshirilmoqda. Boshqacha qilib aytganda, zerikarli darslar o'rniga darslarni tashkil etishga mas'uliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, mas'uliyatli, zamonaviy pedagogik

texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'limni tashkil etadigan o'qituvchilarga talab ortib bormoqda. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**“Interaktiv” (interfaol)-inglizcha so‘z bo‘lib,**

**“interact”- “inter”-bu o‘zaro,**

**“act”-bu “harakat qilmoq” ma’nosini anglatadi.**

**Umumlatirganda esa “Interaktiv” (interfaol) –“o‘zaro harakat qilmoq” ma’nosini anglatadi.**

Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichiq guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Demak, ta'lim – tarbiya sifati va samaradorligini o'quvchining o'quv mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil mutolaa bilan samarali shug'ullanishi, mustaqil fikr yuritishi va tafakkur faoliyati bilan bog'liq. Interfaol metodlarda dars jarayonini olib borishda o'quvchilarda quyidagi xususiyatlarning rivojlanishini ko'rsatish mumkin:

-O'quvchi o'qitilmaydi, uni mustaqil o'qish, o'rganish, ishlashga o'rgatiladi. Bunda mustaqil ravishda tahlil qilish orqali o'zlashtirishga, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar asosida erkin fikr yuritishga o'rgatiladi. O'quvchilarda yod fikrlarga qarshi fikr yurita olish, o'z pozitsiyasini himoya qila olish ko'nikmalari shakllantiriladi.

- O'quvchiga bilimlar tayyor holda berilmasdan, bilimlarni darsliklardan, turli manbalardan izlash, topish, qayta ishlash orqali uning bilim olish malakasi shakllantiriladi. Olgan bilimlari orqali ijodiy mushohada yuritish imkoniyati yaratiladi. O'quvchini darsliklar bilan ishlash, o'qish, o'rganish, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalarini egallashga o'rgatiladi.

- Maktabda barcha o'quvchilarning o'z qobiliyatlari darajasida albatta o'zlashtirishlari kafolatlanadi. Bunda o'quvchining o'zlashtirilgan bilimlarini hayotda, amaliy faoliyatda foydalana olish ko'nikma va malakalari bilan belgilanadi.

- Barcha o'qituvchi – o'quvchilar interfaol metodlar asosida ishlashni o'rganib, uni o'z o'quv – biluv faoliyatlariga olib kira olsalar barcha o'quvchilar bir xil natijalarga erisha oladilar.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalaridagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni **Blum taksonomiyasi** deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishi **bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash** darajalarida bo'ladi. Bular quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

**Bilish**-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

**Tushunish** darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarini taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

**Qo'llash** darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, no'anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish,



foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

**Tahlil** darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

**Umumlashtirish** darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, birnechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash.

**Baholash** darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash. Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat-dars jarayonini loyihalash orqali, muamoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali, kreativ-ijodkorlik asosida, axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim o'z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o'qitish, masofadan o'qitish, internet tarmoqlari asosida o'qitish, media-ta'lim metodlaridan iborat.

## INTERFAOL METODLAR XUSUSIYATLARI

<p><b>INDIVIDUALIZATSIYA</b> Talaba shaxsining individual xususiyatlari va qobiliyati nuqtai nazaridan ta'lim olish jarayoni tashkil qilinadi. Shu bilan birga talabanning o'zida o'z-o'zini nazorat qilish, o'z imkoniyatlarini ko'rsata bilish, mustaqil ta'lim olish shakllantiriladi.</p>	<p><b>TADQIQ QILISHGA O'RGATISH</b> Mazkur talabning bajarilishi talabada umrbod kerak bo'ladigan birlamchi ko'nikma va malakalarning shakllanishiga olib keladi hamda talabani tahlil qilish, umumlashtirish xulosa qilish, o'z bilim va malakalarini zarur xollarda ishlatishga o'rgatadi.</p>	<p><b>O'QUV AXBOROTI BILAN SAMIMIYLIK, MUSTAQILLIK, HAMKORLIK ASOSIGA QURILGAN MUNOSABAT</b> An'anaviy ta'limda o'qituvchi olinayotgan axborotga nisbatan "filtr" rolini bajaradi. Noan'anaviy metodlarda o'qituvchi ham o'rganayotganlar qatoridan o'rin oladi va o'rganish jarayoniga ko'mak beruvchi sifatida ishlaydi, o'qituvchi talabalar mustaqil ta'lim jarayonini uyushtiruvchi hisoblanadi, shu bilan hamkorlikni vujudga keltiradi.</p>	<p><b>MOTIVATSIYA</b> Individual va jamoaviy faollik uchun motivatsiya bo'lishi kerak. O'qituvchi motivatsiyasi uchun: Professionalizm Ijodiylik Doimiy raqobatning mavjudligi Darslarning o'yinga aloqadorligi Emotsional qoniqish O'qituvchining manfaatdorligi o'qituvchi faoliyati natijasida vujudga keladigan ijobiy emotsiyalar uni yanada kengroq va chuqurroq olib borishga undashi.</p>
---	--	--	---

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirilgan ta'lim orqaligina amalga oshirish mumkin.

Didaktik o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni, qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ta`lim-tarbiya jarayonida asosan o`quvchilarda ta`lim olish motivlarini, ularni turli yo`nalishlardagi qobiliyat qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko`rsatadigan, didaktik o`yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Didaktik o`yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolly, ishchaniik va boshqa yo`nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o`quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o`lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq o`stirish, til o`rgatish, yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi.

Umumiy o`yinlar nazariyasiga ko`ra, mavjud barcha o`yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o`yinlarga ajratiladi. Didaktik o`yin turlarini tanlashda, quydagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi:

— ishtirokchilarning tarkibi bo`yicha, ya`ni o`g`il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun o`yinlar;

— ishtirokchilarning soni bo`yicha: yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzda o`yinlar;

— o`yin jarayoni bo`yicha fikrlash, o`ylash, topag`onlik, harakatlar asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo`naltirilgan;

— vaqt me`yori bo`yicha dars, mashg`ulot vaqtining reja bo`yicha ajratilgan qismi, o`yin maqsadiga erishguncha, g`oliblar aniqlanguncha davom etadigan o`yinlar.

Shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda o`quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatib kelingan edi. Bunday usul o`quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish tashabbuskorlikni so`ndirar edi.

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida interfaol uslublar (innovation pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta`limning samaradorligini ko`tarishga bo`lgan qiziqish, e`tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo`llanilgan mashg`ulotlar o`quvchilar egallayotgan bilimlarni o`zlari qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O`qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o`quv

jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Ko'pchilik pedagoglar interfaol metodlarni ta'lim metodlari bilan bir xil deb hisoblashadi, lekin bunday emas. Ta'lim metodlari asosan an'anaviy darsda foydalaniladi. Ular yangi bilimlarni o'quvchilarga yetkazishga asoslangan bo'lsa, interfaol metodlar o'quvchilarni mustaqil shug'ullanish, yanada faollik bilan birgalikda, o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga asoslanadi. Quyidagi jadvolda interfaol metodlar turlarini ko'rishimiz mumkin:



O'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari	Yangi materialni anglash metodlari	O'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Semantik xususiyatlar tahlili.	Semantik xususiyatlar tahlili. B-B-B chizmasi. O'qitish bo'yicha qo'llanma. Bir-biriga o'rgatish. Bir-biridan so'rash. Ikki qismli kundaliklar. Eng asosiy tushunchalar	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Konseptual jadval. Venn diagrammasi. Nilufar guli. Besh minutlik esse. O'n minutlik esse.

**“Muammoli vaziyat” metodi** (*o'qituvchining kichiq ma'ruzasi*)

“Muammoli vaziyat” metodi ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sababini va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning

yechimlarini topish bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan metod.

“**Muammoli vaziyat**” metodining tarkibiy tuzilishi quyidagicha:

<b>Muammoli vaziyat tavsifini keltirish</b>
<b>O'quvchilarni guruhlarga bo'lish</b>
<b>Guruhlar muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarini aniqlashi</b>
<b>Guruhlarning muammoli vaziyatni oqibatlarini to'g'risidagi fikrlarini jamlanish bosqichi</b>
<b>Guruhlarni muammoli vaziyatni yechimini ishlab chiqish bosqichi</b>
<b>To'g'ri yechimlarni tanlash bosqichi</b>

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi o'quvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. O'quvchilar qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishi kerak, chunki muammoni yechimini topa olmasa o'quvchilarning qiziqishlari so'nishi va bolalar o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotishi mumkin. Dars jarayonida ushbu metoddan foydalanganda o'quvchilar mustaqil fikr yurtishga, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishga, uning yechimini topishga o'rganadilar.

“**Muammoli vaziyat**” metodini qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. O'qituvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi, muammoni bayon qiladi.

2. O'qituvchi o'quvchilarni topshiriqning vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. O'quvchilarni kichiq guruhlarga ajratadi.

4. Kichiq guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar va muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar. Barcha guruhlar muammoni sabablarini o'rganib chiqqach, taqdimot o'tkazadilar. Barcha guruhlardagi muammoning sabablari to'g'risidagi bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida guruhlar muammoning kelib chiqish mumkin bo'lgan oqibatlarini to'g'risida fikr yuritadilar va vaqt tugagach, har bir guruh o'z taqdimotini o'tkazadi. Taqdimotdan keyin bir xil fikrlar yana jamlanadi.

6. Endi guruhlar muammoni yechishning turli yo‘llari va imkoniyatlarini muhokama qiladilar, tahlillar o‘tkazadilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichiq guruhlar muammoni yechish bo‘yicha o‘z variantlari taklif etilgan taqdimot o‘tkazadilar.

8. Barcha guruhlarning taqdimotidan keyin bir xil yechimlar yoki original yechimlar jamlanadi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechishning eng maqbul variantini tanlab oladi.

Texnologiya darslari da BBB jadvalidan ham foydalanishimiz mumkin. Bunda avval o‘quvchilarning mavzuga oid shaxsiy fikrlarini so‘raymiz. Keyingi bosqichda yangi nazariy amaliy ma‘lumotlar beriladi. So‘ng dars so‘ngida o‘quvchilarning savollarini joylashtiriladi. Dars so‘ngida jadval ustida muhokama olib boriladi. Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar beriladi. Quyidagi BBB jadvalini ko‘rishimiz mumkin:

**“Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” metodi qo‘llaniladi.**

<b>Bilaman</b>	<b>Bilishni xoxlayman</b>	<b>Bilib oldim</b>

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan barcha fanlarning DTS lari va o‘quv dasturlari ishlab chiqildi va u bosqichma-bosqich joriy etib borilmoqda.

Umumiy o‘rta ta’limning DTS (1999 yil 16 avgust) o‘quvchilar umumta’lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo‘yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi.

Texnologiya fani bo‘yicha DTS da umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fani va kasb tanlashga yo‘naltirishning tayanch mazmuni hamda maktabni bitirgan o‘quvchilarning texnologiya fani fanidan tayyorgarlik darajasini me‘yorlari ifodalanadi.



Texnologiya fani o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarini hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko'nikma va malakalarni egallashlariga ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatida ko'nikishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarni va tafakkurlarni rivojlantirishga qaratilgan o'quv fanidir.

**Umumiy o'rta ta'lim maktabida texnologiya fanini o'qitishning maqsadi:**

O'quvchilarning aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari bilan tanishtirish.

Kasblar bilan tanishtirish

Dastlabki mehnat ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish

Mehnatga qiziqish va mehnatsevarlikni shakllantirish

Mehnat va kasblarni qadrlash ularni ahamiyatini tushunishga o'rgatish

Kasb tanlashga tayyorlash orqali ularning kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirish

Boshlang'ich sinflarda 1-4- sinf texnologiya darslari da interfaol metodlarning juda ko'p turlaridan foydalanishimiz mumkin. Masalan, 1- sinf "Qog'oz va uning turlari" mavzusini o'tkanimizdan so'ng, dars so'ngida Venn diagrammasi grafik organayzeridan foydalanib, qog'oz va uning turlarining bir-biridan farqini va ularning o'xshash jihatlarini kiritishimiz mumkin. Bunda o'quvchilarni 3 guruhga bo'lamiz.

1-guruh qog'ozning o'ziga xos xususiyatlarini yozadi.

2-guruh kartonning o'ziga xos xususiyatlarini

3-guruh ularning o'xshash jihatlarini yozadi

Guruhlar ishlarini tugatgach, Venn diagrammasi chizilib, ma'lumotlar joylashtiriladi. Bunda o'quvchilar o'zaro hamkorlikda



faoliyat olib borishadi.

### **SWOT- universal tahlil qilish metodi**

Ushbu metod maqsadlarda qo'llaniladigan metodlardan biri hisoblanadi. Uning nomi inglizcha so'zlarning birinchi harfidan olingan bo'lib, **Strengths** – kuchli tomonlar, **Weaknesses** – kuchsiz



tomonlar yoki muammolar, **Opportunetiss** –tashqi imkoniyatlar, **Threats**-tashqi muhitda mavjud xavf-xatarlar.

Masalan:1-sinf “Tabiiy va turli materiallardan jonivorlar shaklini yasash” mavzusini **SWOT** -tahlil metodidan foydalangan holda o‘tkazish mumkin.

<b>S</b>	<b>Tabiiy materiallardan foydalanishning kuchli tomonlari</b>	1. 2.
<b>W</b>	<b>Tabiiy materiallardan foydalanishning kuchsiz tomonlari</b>	1. 2.
<b>O</b>	<b>Tabiiy va turli materiallardan foydalanishda mavjud imkoniyatlar (ichki imkoniyatlar)</b>	A. V. S. D.
<b>T</b>	<b>Tabiiy va turli materiallardan foydalanishga nisbatan mavjud bo‘lgan tashqi xavf-xatarlar</b>	A. V. S. D.

### **Mavzuga oid savol va topshiriqlar:**

1. Interfaol metodlar deganda nimani tushunasiz?
2. Interfaol metodlar bilan ta’limning metodlarining farqi nimada deb o’ylaysiz?
3. Interfaol metodlarning grafik organayzerlar turlarini sanab o’ting.
4. Muammoli vaziyat metodini tushuntiring.
5. Interfaol ta’limning asosiy mezonlarini ayting.
6. Interfaol metodlarning qanday xususiyatlarini bilasiz.

## 18-MAVZU. TEXNOLOGIYA FANI VA TARBIYASINING UZVIYLIGI

### Reja:

- 1.Mehnatga munosabat.
- 2.Texnologiya fani va tarbiyasining uzviyligi va ularning o'ziga xos jihatlari.
- 3.Integratsiyalashgan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini oshirish omillari.

*Mavzuga doir tayanch tushunchalar: texnologiya fani va tarbiyasi, texnologiya fanining o'ziga xos jihatlari, integratsiyalashgan tarbiyaviy tadbir turlari*

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi, texnologiya fanining xarakteri va mazmuniga, insonni hayotga tayyorlashga yuksak talablar qo'yadi. Shunga ko'ra har bir kishini hayotga tarbiyalashda aniq o'zgarishlar qilishi lozim. Har bir o'quvchida zamonaviy ishchi shaxsining sifatlarini shakllantirish uchun maktabning boshlang'ich sinflarida va hatto ilgariroq maktabgacha muassasalarda, keyinroq maktabdan yuqori sinflardagi ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, o'z bilimlarini davom ettirishlari lozim. Butun kuch va qobiliyatlarini siyosiy bilim doiralari kengaytirish, zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va mehnatni har tomonlama uyg'unlashtira olishga o'rgatishdan iboratdir. O'quvchilarni mehnatga tarbiyalash va kasbga tayyorlash vazifalari

boshlang'ich sinflarda butun ta'lim va tarbiya tizimida hamda barcha o'quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu o'rinda mehnat darslari yetakchi rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limining ilk tushunchalari, malaka va ko'nikmalari mehnat darslarida shakllantiriladi. Boshlang'ich maktabdagi mehnat ta'limining asosiy vazifalari mehnatga axloqiy, ruhiy tayyorlash va amaliy tayyorlash, o'quvchilarni boshlang'ich politexnik bilimlar bilan qurollantirishdan iboratdir. Mehnatga axloqiy tayyorlash - o'zaro do'stona yordamni berishni, ijodiy tashabbuskorlik, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilishni, mehnat kishilari va mehnat

natijalarini hurmat qilishni o'rgatishdan iboratdir. Mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishda jamoa asosidagi mehnatni uyushtirish muhim masalalardan biridir. Zero, jamoa ishtirokida o'tkazilayotgan mehnat jarayonida o'quvchilarda do'stlik, o'rtoqlik, o'zaro yordam va hamkorlik, jamoa mehnat samaralaridan quvonish kabi xislatlar tarbiyalanib boradi. Shuningdek, ularda tashabbuskorlik, tashkilotchilik, mehnatga ijodiy yondashish, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish singari axloqiy sifatlarning shakllanishiga poydevor qo'yiladi. Mehnat jarayonida o'quvchilarda mehnat madaniyatining unsurlarini hosil qilib borish muhim talablardan biri sanaladi. Ta'lim bilan birgalikda tarbiyani har bir xil rivojlantirish faqatgina ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi metod va usullarni yaratibgina qolmay, tarbiya berish jarayonida ham yangicha yondashuv, yangivha metod va usullar yaratilishi har tomonlama barkamol shaxs tarbiyalashiga zamin yaratadi. Ta'lim tizimiga qaratilgan islohotlarning ham tub zamirida shu maqsadlar mujassamlashtirilgan.

Ayniqsa, texnologiya fanlari bu tarbiyaning ilk bo'g'ini hisoblanadi, ularning uzviyligi-mehnat jarayonida tarbiya, tarbiya atrofida mehnat unib chiqishi va buni o'quvchilarga dars jarayonida yetkaza olish demakdir. Tarbiya boshlang'ich sinflardagina bo'lib qolmay, maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib yuqori sinflargacha tatbiq etiladi va takomillashtirilib boriladi. Toki, mehnat bor joyda tarbiyaga zamin yaratiladi va uning o'chog'i shu joydan boshlanadi, mehnatni tushuna olgan, uni amaliy shakllantirgan har qanday shaxs axloqiy, ruhiy, estetik tarbiyani ham o'zlashtira oladi.

Mehnat madaniyati - bajarilayotgan ishga ongli munosabatda bo'lish, uni ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi (puxta rejalashtirish, vaqtdan unumli foydalanish), ish o'rnini ozoda tutish, mehnat (ish) qurollariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, boshlangan ishni natijalash, uning samarali bo'lishiga erishishga yo'naltirilgan faoliyat ko'rsatkichidir. Mehnat madaniyati tushunchasi o'zida yana o'quvchining mustaqil harakat olib borishini, mehnat qilishi va dam olishini to'g'ri tashkil eta olishni ham aks ettiradi. Mehnatga ongli munosabatni tarbiyalashning yana bir talabi o'quvchilarni ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya borasidagi yangiliklardan boxabar etish, ularda mehnatga nisbatan qiziqishni hosil qilish, bu boradagi layoqat, qobiliyat va

iqtidorlarini oshirib borishdan iborat. Mehnatga **ruhiy** tayyorlash - o'quvchilarning yoshiga mos keluvchi ongli va ijobiy xususiyatlarini tarkib toptirish, o'quvchilarning mehnat malaka va ko'nikmalarini egallashga qiziqishini shakllantirishdan iboratdir. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga yoshligidan boshlab mehnat malaka va ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga o'quvchilarning mehnatga qobiliyatini shakllantirish, jamiyat rivojlanishi uchun ishlab chiqarishda qatnashish zarurligini tushuntirish

juda muhimdir. Mehnatga ruhiy tayyorlash o'quvchilardagi turli psixologik jarayonlarni rivojlantirishni va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular: sezib-anglash, psixomotor, emotsional-idrok, diqqat, xotira, tafakkur- mehnatning psixologik komponentlaridir. O'quvchilarni mehnatga o'rgatishda uning ruhiy imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur. Bundan tashqari bolaning xotirasini o'stirish ham alohida ahamiyatga ega. Chunki, mehnat faniga oid materiallarni eslab qolish va amaliy ishlarni bajarish boshqa predmetlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Barcha yangi asboblarni, materiallarni, amaliy ishlarning nomini boshlang'ich sinf o'quvchilari predmetni ko'rib idrok etish bilan fikran biriktirib, tinglab o'rganadilar, tushunib oladilar. O'qituvchi mehnat darslarida amaliy ishlarini tushuntiribgina qolmay, balki asosiy materiallar va buyumlar namunasini, asboblarni materialga ishlov berish usullarini, ish bosqichlarining izchilligini ko'rsatadi. Shu bois mehnat ta'limida eshitish, ko'rish xotirasi va harakatlanuvchi xotira muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarda mehnat darsidan mehnat darsigacha yangidan-yangi bilim va ko'nikmalar mujassamlashtirib boradi, ularni esa anglash va xotirada saqlab qolish kerak. Mehnat ta'limini to'g'ri tashkil etish o'quvchilarni qiyinchiliklarni yengishga, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida qat'iyat bilan mehnat qilish, boshlangan ishni chalatashlabketmay, balki oxirigayetkazishga o'rgatish lozim. Bu o'rinda o'quvchilarda ijobiy natijalar: mehnatdan quvonish, lazzatlanish va qoniqish hissiyotlarining namoyon bo'lishi juda muhimdir. O'quvchilarni mehnatga amaliy tayyorlash. Boshlang'ich sinf mehnat ta'limida keng ma'nodagi mehnatning ilmiy asoslari haqida emas, mehnat ta'limning elementlari to'g'risida gap boradi. Bu o'quvchilarda mehnatning yutuqlariga nisbatan qiziqish uyg'onishiga yordam beradi. Politexnik

bilimga ega bo'lish qo'yilgan mehnat vazifalarini bajarishda yordam beradi. Shuningdek, bu bilim kerakli amaliy ish bosqichlarini qanday va qaysi izchillikda amalga oshirish, qanday asboblarni qo'llash va uning sabablarini anglashga ko'maklashadi. O'quvchilarni mehnatga amaliy tayyorlash mehnat ta'limining muhim omillaridan biridir. U o'zaro bog'langan bir nechta elementlardan: oddiy asbob va moslamalardan foydalana bilish, u yoki bu materialga ma'lum izchillikda ishlov bera olish, yo'l qo'yilgan xatoni o'z vaqtida aniqlash va to'g'irlay olish kabilardan tarkib topadi. Mehnatga amaliy tayyorlashni faqat kerakli bilimlar bazasida amalga oshirish mumkin. U boshlang'ich sinflarda boshlang'ich politexnik bilimlarga asoslanadi. Mehnat ta'limining mazmuniga muvofiq o'quvchilar mazkur yosh uchun qulay bo'lgan materiallarga ishlov berish, qo'llaniladigan oddiy asbob va moslamalardan foydalanish malaka va ko'nikmalarini egallaydilar. Oddiy asbob va moslamalar maxsus asbob va moslamalarning bosh asosi hisoblanadi. O'quvchilar ta'lim jarayonida va darsdan tashqari sharoitlarda mehnatning ijtimoiy jamiyatda tutgan o'rni va rolini, inson kamolotini ta'minlash omili ekanligini, shaxsning qobiliyati va iqtidorini mehnat jarayonida takomillashib borishini hayotiy misollar yordamida bilib olishlari lozim. Mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishda bugungi kunda an'anaviy va noan'anaviy shakllardan foydalanilmoqda. Xususan, mehnat bayramlari, ishlab chiqarish ko'rgazmalari, hashar, "Mohir qo'llar" tanlovi, "Quvnoq shahar ustaxonasi", "Yosh radiotexniklar to'garagi" va ijodiy markazlar faoliyati, shuningdek, ustozshogird an'analari asosida faoliyat olib boruvchi yakka tartibdagi kasb-hunar ta'limi va boshqalar. Mehnat tarbiyasi to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilar maktabga kelgan dastlabki kunlardan o'zlarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos mehnat faoliyatiga jalb qilinadilar. Bunda ular o'z-o'ziga xizmat qilish borasidagi eng oddiy yumushlarni bajaradilar (chunonchi, sinf xonasi ozodaligini saqlash, o'quv qurollarini ta'mirlash, kitoblarni yelimlash, o'quv anjomlarini darsga tayyorlash va hokazolar).

Mehnatga ruhiy, axloqiy va amaliy tayyorlash jarayonida o'quvchilarda mehnatsevarlik, mehnatni tashkil etish jarayonida intizomga bo'ysunish, maqsadni amalga oshirish yo'lida shijoat, qat'iyat ko'rsatish, axloqiy-irodaviy xususiyatlar tarbiyalanib boradi.

Mehnat ta'limi vazifalari haqida gapirilganda, o'quvchilarda mehnatsevarlik, mas'uliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashni tilga olmaslik mumkin emas. Shu bilan birgalikda mehnat odamlar tirikchiligining moddiy va ma'naviy ta'minotining vositasi, jamiyat taraqqiyotining eng muhim omilidir. O'quvchilarni barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida mehnat ta'limining roli ko'p qirralidir. Mehnat o'quvchilarning bilim olishiga intilishlarini qo'zg'atuvchi vositagina emas, balki uning manbayi hamdir. Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni aqliy jihatdan o'stirishda jismoniy va aqliy mehnatni almashtirib turish muhim ahamiyatga egadir. Biroq har qanday mehnat ham aqliy o'sishga yordam bermasligini unulmasligimiz kerak. Mehnat ta'limi shaxsning eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Mehnat ta'limida mehnatga psixologik tayyorgarlik, mehnat faoliyatining to'g'ri motivlari tarbiyalanadi, shaxsning har bir ongli mehnatkash uchun zarur bo'lgan sifatlari shakllanadi. Darslarning jihozlanganligi o'z mehnati uchun shaxsiy mas'uliyatni, mehnat madaniyatini tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Agarda bolalar yomon jihozlangan sinfda, qo'pol, og'ir va yoshlariga nomunosib asboblardan bilan shug'ullansalar ish natijalari ko'ngildagidek bo'lmaydi. Agarda bola har bir qadamda tartiblilikka, aniqlikka rioya qilish lozimligiga ishonch hosil qilmasa, bolalarni tarbiyalashda muvaffaqiyatga erishish haqida gapirish qiyin. Mehnat malaka va ko'nikmalari u yoki bu mehnat jarayonida belgilangan tartibga va harakat izchilligiga rioya qilish kerakligini muntazam tushuntirib borish bilan birga bo'ladigan ko'p mashq qilishlar natijasida tarkib topadi. O'quvchilar o'rtasida yo'lga qo'yilgan o'zaro yordam esa, ularda do'stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlar tarbiyalaydi. Ta'lim muassasalarida mehnat ta'limi va tarbiyasini olib borish maxsus dastur asosida amalga oshiriladi. Mehnat ta'limi dasturi namunali xususiyatga ega. Unda maktab, o'qituvchi va o'quvchilar mehnat faoliyatini baholash bo'yicha ta'lim va tarbiya natijalariga nisbatan davlatning minimum (eng kuchli) talablardan aks etadi. Mehnat tarbiyasi jarayonida bu boradagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish maqsadning o'ziga va pedagogik faoliyatning yakuniy mahsuli emas, balki eng muhim insoniy layoqat — mehnat qilish layoqatini rivojlantirish uchun vosita hisoblanadi. Shu bois bugungi kunning

talabi mehnat ta'limini tashkil etishda reproduktiv metodlar rolini kamaytirib, yuksak darajadagi mantiqiy fikrlash hamda yaratuvchanlik asosini hosil qiluvchi faol tadqiqot metodlaridan foydalanish hisoblanadi. Mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkiliy shakllarini o'qituvchilar yosh, psixologik xususiyatlari, mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda tanlaydigan. Mehnat tarbiyasini yo'lga qo'yishga shunday shakl va metodlardan foydalanish lozimki, natijada mehnat insonning eng sevimli mashg'ulotiga aylansin, shaxs mehnati samarasi, yutug'i va quvonchi bilan yashay olsin.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Mehnat tarbiyasining mazmunini ayting.
2. Mehnat ta'limi turlarini ayting va ularni ta'riflang.
3. Mehnat tarbiyasining o'quvchilarni kasbga yo'llashdagi ahamiyatini ayting.
4. Mehnat faoliyatini tashkil etishga qo'yiladigan pedagogik talablar nimadan iborat?

## 2-MODUL. TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

### 19-MAVZU. APPLIKATSIYA VA MOZAIKA BILAN ISHLASH DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

1. Applikatsiya va mozaika san'ati haqida tushuncha.
2. Applikatsiya va mozaika bilan ishlash texnologiyasi.
3. Applikatsiya va mozaika bilan ishlash darslarini to'g'ri tashkil etish talablari.
4. Applikatsiya va mozaika ishlarining o'quvchilar tarbiyasidagi ahamiyati.
5. Texnika xavsizligi qoidalari.

#### *Mavzuga oid tayanch tushunchalar:*

*Applikatsiya, mozaika, applikatsiya va mozaika bilan ishlash texnologiyasi, applikatsiya va mozaika tarbiyaviy ahamiyat.*

Tasvirlash texnikasining turli shakllari mavjud bo'lib ulardan bir – applikatsiyadir. Applikatsiya - rang-barang qog'oz yoki mato parchalarini biror narsaga yopishtirib yoki tikib naqsh, gul hosil qilish usuli bo'lib, shu usulda hosil qilingan naqsh, gulga aytiladi. Shuningdek, applikatsiya tasvirlash texnikasining turli shakllarini qirqish va ularni fon(suratni orqa planida ko'rinib turadigan qismi) tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir.

«**Applikatsiya**» tushunchasi xususiyatlari va uslublariga ko'ra xilma-xil bo'lgan, lekin ishning bajarilish usulining o'xshashligi bilan birlashgan badiiy asarlarni yaratish usullarini o'z ichiga oladi. Har bir material applikatsiyasi bajarish ish usuliga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi xususiyatlarga ega, masalan, qog'oz, limon, daraxtlar po'stloqlari fonga turli yelimlar bilan yopishtiriladi.

Applikatsiya tayyorlash jarayonida eng sodda va oson hisoblanib unga tabiiy buyumlar bilan ishlov berish mumkin. Asosiy material qog'oz bo'lishiga qaramay, dazmollangan va kraxmallangan gazlama bo'lakchalaridan ham foydalanish mumkin. Bu material bilan bir qatorda quritilgan o'simliklar urug'i- danak, barglardan ham keng foydalaniladi. Qog'ozning yaltiraydigan marmar, bosma gul tushurilgan-barxat, kumush va bronza, rasm solish va chizmachilik



kabi bir qator qog'oz navlari applikasiya uchun foydalansa applikasiya ishini sifatli qiladi. Applikasiya ustida ishlash jarayoni ma'lum izchillikda olib boriladi. Avval eskiz chizilib, so'ngra kerakli detallar o'lchami va miqdori aniqlanadi, tayyor detallar ma'lum tartibda joylashtirilib yopishtiriladi.

Hozirgi kunda applikasiya har bir xalq san'atida juda keng tarqalgandir. Applikasiya eng yosh turi flaristikadir. 1960-yilda dnyoda birinchi florist rassomlar jamiyati tashkil etiladi.

Dekorativ applikasiya u naqsh, gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlardan tarkib topuvchi predmetli hodisa, harakatlar uyg'unligini aks ettiruvchi syujetdan iborat bo'lishi mumkin. Eng oddiy applikasiyalar bu-geometrik figuralardan qilingan ornamental applikasiyalardir.

Applikasiya san'atida kartina, pano, naqshlarni yaratish shuningdek, ko'rgazmali qurollar, turli o'yinlar uchun qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqlar, suvenirlar, devoriy gazetalar, stendlar, ko'rgazmalar va kostyumlarni tayyorlash va bezash maqsadlarida ham keng foydalaniladi.

Applikasiya san'atining manzarali bezash(dekorativ) turi naqsh, gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlar (barg, shox, qo'ziqorin, qush, mashina, odam, uy va shu kabilar) dan tarkib topuvchi predmetli, hodisa, harakatlar uyg'unligini aks ettiruvchi syujetdan iborat bo'lishi mumkin. Dekorativ applikasiya o'zining naqshinligi, shaklining umumlashganligi, rangi bilan ajralib turuvchi tasvirlardir. Qog'ozdan qilinadigan dekorativ apshshkatsiya keng qo'llaniladi. Applikasiyaning bu turi bilan tabrik telegrammalari, taklifnomalar, albom va shu kabilar bezatiladi. Gazlama applikasiyasidan esa mato parchalarini fon xizmatini o'tovchi materialga tikib naqsh yaratilshda foydalaniladi. Ayrim xalyar gazlamadan yasalgan applikasiya bilan kiyim-bosh, uy-ro'zg'or predmetlarini bezatadilar. Qog'ozdan naqsh qirqish applikasiyasi san'at turi sifatida Ukraina va Belorussiyada naqshli parda-firanklar qirqishgan. Qog'ozdan kartinalar yaratib, oynalarga yopishtirilgan. Polshada bezak sifatida qirqilgan naqshlar yangi oqlangan devor va shiplarga yopishtirilgan, bu ijod xalqda – visinanki deb ataladi.

Applikasiya bilan shug'ullanish o'quvchilarni garmonik rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Applikasiya ijodini

rivojlantirishda katta yordam beradi, tasavvurni boyitadi, kuzatuvchanlik va diqqatni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, chamalash va rangni sezishni o'stiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodkorligini oshirishda applikatsiya ishlaridan foydalanishda turli metod va usullardan unumli foydalansagina dars samaradorligini oshirishiga imkon yaratilgan bo'ladi. **Mozaika (koshin, naqsh) san'ati** – qadama(terma) naqsh va shunday ishlash san'atidir. Mozaika monumental dekorativ san'at turlaridan biridir. Turli davrlarda va turli mamlakatlarda mozaika qo'llaniladigan materialiga ko'ra ham, naqsh va rasmlariga ko'ra ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. O'rta Osiyo madrasalari, masjidlar, hukmdorlarning saroylari mozaika bilan bezatilgan. Mozaika hozirgi kunda monumental san'atga aylangan. Mozaika bilan binolarning tashqi qismlari, devorlari va xalq amaliy san'ati asarlari bezatiladi. Mozaika ishlarida oyna, sapol plitalaridan foydalaniladi. Loyda rangli ko'zgu parchalaridan ajoyib mozaika asarlari yaratiladi, ular quyoshda bir-biriga qo'shilib va porlab, shodlik kayfiyatini yaratadi.

Keyingi yillarda yog'ochning turli navlaridan mozaika qilish keng tarqaldi. Bu ish unchalik murakkab emas, uni ustaxona sharoitlarida xam amalga oshirish mumkin. Buning uchun yupqa yog'och plastinkalar (bir qavatli fanera)dan tasvir yig'iladi va keyin ularni asosga yelimlab, ustidan lak yoki politura beriladi. Mozaika bilan mebellarni, jurnal stollari, yodgorliklar va ko'pchilik shu kabi narsalarni bezash mumkin

### **Applikatsiya bilan ishlash texnologiyasi.**


Applikatsiya ishini bajarishda asosiy e'tibor uning umumiy ko'rinishiga qaratilishi kerak. Yaxshi o'ylangan kompozitsiya, ya'ni tasvirlash lozim bo'lgan narsalarni joylashtirish applikatsiyaning muvaffaqiyatining garovidir.

Tasvirlash lozim bo'lgan narsalar yordamida shakl va narsalarning holati aniqlanadi, tasvirlangan hodisalarning uyg'unligiga erishiladi. Tasvirning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham qog'ozdan qirqiladi, ularni chizmaslik kerak. Tayyorlangan qisml(detallar) yelimlanadigan sath, yangi fonga joylashtiriladi va o'ylangan tasvir hosil qilinadi, agarda bu tasvir mahqul bo'lmasa qismlar boshqacha joylashtiriladi. Qismlarni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning o'rnini qalam bilan belgilab qo'yiladi.

Misol tariqasida eng oddiy geometrik shakl – kvadratni olib, uning almashinishini hosil qilish uchun turli holatlarda joylashtirib ko'ramiz. Ishni boshlash uchun markazni topish, simmetriya o'qini o'tkazish va elementlarni shunga ko'ra joylashtirish lozim.

Ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlanadi. Ko'pincha ochiq tondagi qog'oz va fon tanlanadi. Applikatsiya mo'ljallangan tasvir va elementlar miqdori qog'ozni tanlashni belgilaydi. Tasvir ustida ishlanganda asosiy e'tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o'lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi. Tasvir hajmiga ko'ra eng katta element asosiy tematik element bo'lishi kerak.

Namuna tariqasida 1-sinf o'quvchilari 8 – mart uchun tabriknoma yasashlari mumkin(1-rasm). Bu ishda bolalar andoza bilan ishlaydilar, taxlash va simmetrik qirqishni eslaydilar, chamalash ko'nikmalarini sinaydilar va rangli qog'ozdan ingichka oq va sariq to'g'ri chiziqlarni qirqadilar. Quyosh uchun kvadrat qog'ozdan doira qirg'asa bo'ladi. Bolalar yasagan gullar turlicha bo'lishi mumkin. Novdalar ham qo'lda qirqiladi.



### 1-rasm

Suhbatni o'qituvchi "8 Mart kuni" haqida olib boradi va bunda sovg'a masalasini eslatib o'tadi. Eng yaxshi sovg'a o'z qo'li bilan yasagan sovg'adir. Suhbatni mehribon buvijonlarimi onajaonlarimiz, opa-singillarimiz haqida bo'lishi mumkin.

Shundan keyin namuna ko'rib chiqiladi, uning elementlari, ish usullari, kerakli materiallar aniqlanadi va ishning borishi belgilanadi.

1. Tabriknoma uchun qog'oz tayyorlanib u ikkiga buklanadi;

2. Ko'k rangdagi qog'ozga to'g'ri burchak chiziladi, uning o'lchami uzunasiga, tabriknoma ustining uzunligidan 1 sm kam, eniga esa enining yarimidan 2sm atrofida kattaroq;

3. Ko'k qog'ozdan qirqilgan to'g'ri burchak taklifnomaning ustiga yopishtiriladi, bunda ko'k qog'oz taklifnomani bo'yashda halaqit bermasligi uchun bukish chizig'ining chap tomonidan ozgina joy qoldirib yopishtiriladi;

4. Endi quyosh va uning nurlari uchun yoy qirqiladi. Buning uchun kvadrat shakldagi qog'ozni kerakli o'lchamda qirqiladi;

5. Namuna asosida quyosh nuri qirqiladi;

6. Och ko'k va jigar rang qog'ozdan ikkita shox qirqib, namunadagidek yopishtiriladi;

7. Gullar qirqib yopishtiriladi.

Ish ijodiy tarzda bo'lganligi uchun o'quvchilar gullarni shoxlarga o'zlari mustaqil joylashtiradilar. Barglarni o'qituvchi tarqatgan andoza bo'yicha qirqadilar. Tabriknomaning ichki tomoni naqsh bilan bezatilib, tabrik so'zi yoziladi.

#### TABIY MATERIALLARDAN APPLIKATSIYA USULIDA GUL YASASH

Ijod qilish uchun tabiat bizga rang-barang materiallarni tortiq qilgan. Ular har xil shaklda bo'libgina qolmay, tabiatning o'zi bizga ulardan nimalar yasash mumkinligini ham ko'rsatib turadi. Aytinch, quyidagi tasvirlarda qanday tabiiy materiallardan foydalanilgan?



16

**4-sinf Texnologiya**  
darsligida “Tabiiy materiallardan applikasiya usulida gul yasash” mavzusi berilgan (2-rasm). Bunda o'quvchilar applikasiya tayyorlashni bilishadi, faqat turli tabiiy materiallar jamlanadi va ijodkorlik bilan applikasiya tayyorlashadi. Masalan, turli mahsulotlarning ( tarvuz, qovoq) urug'lari, daraxt barglari va shu kabi boshqa turli xildagi tabiiy materiallardan applikasiya usulida gullar tayyorlashadi.

### Mozaika bilan ishlash texnologiyasi

Mozaika bu rasm sathida ayrim-ayrim parchalar (qog'oz, oyna, sapo, gul tojibarglari, tuxum po'sti va shu kabilar) qo'yib chiqishdir. Mozaika bilan ishlash texnologiyasi bilan o'quvchilar 1-

sinf danoq tanishtiriladi. 1- sinf **Texnologiya** darsligida qog'ozlardan mozaika usulida mevalar shaklini yasash darsi berilgan( 3-rasm). 2-sinfga kelib o'quvchilar urug'lardan mozaika yasashni o'rganadilar ( 4-rasm)



**3-rasm**



**4 - rasm**

Tuxum po'stidan mozaika tayyorlash texnologiyasi.(6-rasm)

1. Tuxum po'stidan mozaika ishlarini bajarish uchun yuvib quritilgan tuxum po'sti mo'yqalam yordamida akvarel bo'yoqlari bilan kerakli ranglarga bo'yaladi.

2. Bo'yoq qurigandan keyin tuxum po'stini tanlangan rasimga ko'ra mayda va yirik bo'laklarga bo'linadi.

3. Tuxum po'stidan mozaika qilishda shunday tasvirni tanlash kerakki ularning konturlari mumkin qadar tekis va mayda egri-bugrilari bo'lmasligi kerak.

4. Kontur qora qog'oz orqali o'tkaziladi yoki shablondan aylantirib chiziladi.

5. Avval rasm sathining bir qismiga yelim surtiladi. U yerga tuxum po'sti terib siqiladi, keyin ikkinchi qismiga ham shu tartibda davom ettiriladi.

6. Ortiqcha yelim toza latta bilan artib tozalanadi, po'st yaxshiroq yopishishi uchun ustidan sekin bosib qo'yiladi.

Bunday ish odatda eng oddiy konturlardan boshlanadi. Keyinroq konturlar ancha murakkablashadi.

Turli meva va sabzavot, poliz ekinlarining urug'lari, danak, baliq tangalari, chig'anoq, mayda toshlar bilan xilma-xil mozaika ishlarini bajarish mumkin.

Mozaika bu rasm sathida ayrim-ayrim parchalar (qog'oz, oyna, sapo, gul tojibarglari, tuxum po'sti va shu kabilar) qo'yib chiqishdir.

Tuxum po'chog'ini maydalangan va butun holda saqlash mumkin. Tuxum po'chog'ini butun saqlash uchun tuxumning ikki uchi teshiladi va uning ichidagilari puflab chiqariladi. Buning natijasida ichi bo'sh tuxum po'chog'iga ega bo'linadi. Bunday po'chog'ni sinuvchan bo'lganligi uchun qutichalarda saqlash kerak. Tuxum po'chog'ini maydalanganligini har qanday xom va pishgan tuxumdan tayyorlash mumkin. Faqat ichki pardasi olib tashlanishi kerak.

1. Tuxum po'stidan mozaika ishlarini bajarish uchun yuvib qo'ritilgan tuxum po'sti mo'yqalam yordamida akvarel bo'yoqlari bilan kerakli ranglarga bo'yaladi.

2. Bo'yoq qurigandan keyin tuxum po'stini tanlangan rasmga ko'ra mayda va yirik bo'laklarga bo'linadi.

3. Tuxum po'stidan mozaika qilishda shunday tasvirni tanlash kerakki ularning konturlari mumkin qadar tekis va mayda egri-bugrilari bo'lmasin.

4. Kontur qora qog'oz orqali o'tkaziladi yoki shablondan aylantirib chiziladi.

5. Avval rasm sathining bir qismiga elim surtiladi. U erga tuxum po'sti terib siqiladi, keyin ikkinchi qismiga ham shu tartibda davom ettiriladi.

6. Ortiqcha elim toza latta bilan artib tozalanadi, po'st yaxshiroq yopishishi uchun ustidan sekin bosib qo'yiladi.

Bunday ish odatda eng oddiy konturlardan boshlanadi. Keyinroq konturlar ancha murakkablashadi.

Turli meva va sabzavot, poliz ekinlarining urug'lari, danak, baliq tangalari, chig'anoq, mayda toshlar bilan xilma-xil mozaika ishlarini bajarish mumkin(5-rasm). Bu ishlar o'quvchilarda ijodiy va atroflicha tasavvurni, badiiy didni o'stirishga yordam beradi. Bolalarda qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida qat'iyatlilik, tartiblilik tarbiyalanadi, uyushqoqlik bilan ishlash, ko'rsatmalarga rioya qilish, tashabbuskorlik ko'rsatish ko'nikmalari shakllanadi. O'quvchilar

tayyorlagan applikasiyalar ona tili va matematika darslari uchun ajoyib didaktik material, o'quvchilar nutqini o'stirish vositasi bo'lishi, ularning predmetlar shakli, rangi, fazoda joylashishi haqidagi tushunchalarini boyitishga xizmat qilish mumkin. Bunday applikasiyalar bilan ishlash o'quvchilarga stirkul bilan ishlashni, stirkul yordamida aylanani kislarga ajratishni o'rgatadi.

**Tabiiy narsalar bilan ishlash metodikasi.** Tabiiy material bilan ishlashda darsni tashkil etish va o'tkazish metodikasi qolgan turlardan darsdan oldin tabiiy materialni to'plash tashkil etilishi bilan farqlanadi. I sinfda odatda tabiiy material o'qituvchi rahbarligida ekskursiyalarda to'planadi.

Dars temasi: «Quritilgan barglardan kapalak applikasiyasi».

I sinfda ekskursiya uyushtirishdan oldin bolalarga bo'lajak ish namunasi ko'rsatiladi. Bolalar uni diqqat bilan ko'rib, unda ishlatilgan barg plastinkalarining shaklini, daraxt navlarini aniqlaydilar. Shundan so'ng uyushtiriladigan ekskursiya plani tuziladi. Ekskursiya marshruti, alohida e'tibor beriladigan ob'ekt (eman, zarang, akatsiya daraxtlari, hasharotlar, ninachi)lar aniqlanadi. O'quvchilarning e'tiborlari va aqliy faoliyatlarini kuzatilayotgan ob'ektdan mehnat darslarida ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan asosiy muhim belgilari, elementlari va xususiyatlarini ajratishga, to'planayotgan materialni to'g'ri baholashga yo'llaydigan savollar ro'yxati tuziladi.

Daraxtzorga kelganda bolalar kayfiyati ko'tarilib, ular har narsaga qiziqish bilan qaraydilar, barglar, ularning ranglari bolalarni ajablantiradi. Ular kuzning butun go'zalligini, uning ranglarini, to'kilgan barglar hidi va ular o'zining elastiklik xususiyatini yo'qotganligini, qattiqlashib, sinuvchan bo'lib qolganligini ko'radilar. Bolalarning atrof-tabi'at bilan zavqlanishlari kamayib borishiga qarab, ularning e'tibori barglarning shakli, daraxtlar navlariga karatiladi. Ana shu vaqtda o'simliklarda sodir bo'layotgan ichki jarayonlar qisqa va tushunarli formada bayon etib beriladi: o'simlik yangi sharoitlarga moslashib, qishga tayyorgarlik ko'ryapti. Barglarni to'kish bu o'ziga xos himoya turidir, chunki barglar suvni ko'p buglantiradi, qishda esa tuproqdan namlik juda kam miqdorda keladi.

SHundan keyin bolalarning e'tibori atrofda uchib yurgan kapalak, ninachilarga, ularning asosiy belgilariga jalb qilinadi. Uchib yurgan hasharotlar, ularning tuzilish formalari mehnat darslarida hasharotlar

applikatsiyasini tayyorlash uchun obraz, to'plangan barglar material xizmatini o'tashi kerak.

Bolalar barglarni to'plar ekanlar, ularning ranglari, shakllarini qiyoslashni o'rganadilar, bu ularning kuzatuvchanligi va e'tiborligini o'stirishga yordam beradi. To'plangan barglar oldindan tayyorlab quyilgan daftar varaqlari orasiga qo'yiladi. SHundan keyin o'quvchilarga barglarning mehnat darslarigacha rangini yo'qotmasligi, buralib ketmasligi uchun qanday ishlov berish kerakligi tushuntiriladi. Har bir ekskursiyada o'quvchilarning e'tibori insonning yaratuvchilik mehnatiga aloatta jalb etilishi kerak. Ekskursiya oxirida unga yakun yasaladi, ekskursiyada egallangan bilimlar umumlashtiriladi. Bundan tashqari, o'quvchilarga uylarida kapalak va ninachilar tasviri tushirilgan rasmlarni ko'rish, ularning tanasi va qanotlarining shakli, rangi qandayligiga alohida e'tibor berish topshiriladi.

Bunday uyushtirilgan ekskursiyadan keyingi darsda bolalar applikatsiyalarni zo'r ishtiyoq bilan namoyish qiladilar, agarda applikatsiyani o'z istaklariga ko'ra, o'zlari to'plagan materiallardan mustaqil yasash topshirilsa, qiziqishlari yanada ortadi. Bunday dars kuyidagi sxemaga ega bo'lishi mumkin:

1. Dars temasi va maqsadini aytish.
2. Utkazilgan ekskursiya bo'yicha suhbat:
  - a) ekskursiyada qaerda bo'ldik?
  - b) qanday daraxtlarni ko'rdik, ularning nomi qanday?
  - v) ularning barglarining shakli bir xilmi?
  - g) qanday xasharotlarni ko'rdnk?
3. Namuna razbori:
  - a) kapalak qanday qismlardan tashkil topgan?
  - b) uning qismlari qanday joylashgan?
  - v) uni tasvirlashda qaysi daraxtlar barglaridan foydalanilgan?
4. Ishni bajarish tartibini aniklash:
  - a) kapalakning ayrim qismlarn (tanasi, qanotlari)ning joylashishinn grafik tasvirlash;
  - b) kapalakning tanasi va kanoatlari uchun shakli hamda o'lchamlari bir xil bo'lgan barglarni topish;
  - v) ularni kog'ozda joylashtirish;
  - g) ishni amaliy bajarish.



5. O'qituvchining ishni bajarish usullari haqidagi tushuntirishlari.

6. Applikatsiyani bajarish bo'yicha mustaqil ish:

a) kapalakning ayrim qismlarini kog'ozda to'g'ri tasvirlash;

b) shakl, o'lcham va bo'yoqlarni to'g'ri tanlash;

v) elimlash ishlarini tartibli bajarish;

g) kapalakning ko'z va mo'ylarini to'g'ri tasvirlash;

d) ish bajarilgan qog'ozning orqasida barglaridan foydalanilgan daraxtlarning nomlarini yozish;

7. Ishni baholash.


Ijodiy xarakterdagi ishlar: Masalan: «Baliqlardan kompozitsiya tuzish». O'qituvchi umumiy vazifa be-radi, o'quvchilar esa o'qituvchi namunasi asosida o'z variantlarini izlaydilar.

Uqituvchi kelgusi darsda baliqlardan apshshkatsiya qilinishini aytib, uyda baliqlarning rasmlarini ko'rish va kerakli materiallar (barg, urug', gul tojibarglari va shu kabilar)ni to'lab olib kelishni topshiradi. Darsning sxemasi oldingisi bilan bir xil. Doksaga baliq rasmi tasvirlangan plakatni osib qo'yib, bolalar bilan birgalikda baliq tanasi, baliqning boshi, kanotlari, dumining shakli razbor qilinadi. Baliq turiga ko'ra baliqning tanasi, qanot va dumlari xar xil bo'lishi mumkinligi aniqlanadi, shuning uchun bu nshda turli tabiiy materiallardan foydalanish mumkin bo'ladi.

SHundan so'ng ishni bajarish tartibi aniqlanadi.

Avval baliq qismlari uchun material tanlash, uning umumiy konturini chizish kerak. SHundan keyin kaysi detalning qanday tartibda elimlanishini, detallarning joylarini aniqlash va so'ngra ishga kirishish lozim. Bunday yumushlar bajarilayotgan ishga ijodiy yondoshishni o'stirishga yordam beradi. Darsga yakun yasash va bajarilgan ishni baholashda o'qituvchi foydalanilgan materiallar nomini so'raydi.

Bu tabiiy materiallar bilan ishlash darsining taxminiy tuzilishidir. Har bir dars kompozitsiyalar tuzish, tanlash, material, o'quvchilarning mustaqil ishlashlariga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.



46

### TUXUM PO'CHOG'IDAN MOZAIKA USULIDA KOMPOZITSIYA TAYYORLASH

Tuxum po'chog'ini onangiz bilan amaliy ishni bajarish uchun tayyorlab oling. Kompozitsiya tuzish uchun faqat xom tuxum po'chog'idan foydalaning. Buning uchun tuxum po'chog'ini suvga solib qo'ying. Suvga bir qoshiq tuz va soda soling. Shunda tuxum po'chog'i po'stining olinishi oson bo'ladi.



Karton qog'ozga rasm tasvirini tushirib olamiz.



Tuxum po'chog'ini kerakli ranglar bilan bo'yaymiz. So'ngra quritishga qo'yamiz. Qurigandan so'ng uni maydalaymiz va kartonga chizilgan rasimga yopishtiramiz. Yopishtirishni chekka tomondan boshlash lozim.



86

5-rasm

6-rasm

Yog'ochga qo'l asboblari bilan ishlov berganda xavfsizlik texnikasining ma'lum qoidalarga rioya qilinishini talab qiladi. Asboblari va moslamalarni ishlatish qoidalarini bilish uni ishlatayotgan har bir kishi unun majburiydir.

Ish jarayonidagi xavfsizlikning qat'iy qoidalari:

1. Ishni hech qachon o'qituvchining ruxsatisiz boshlama!
2. Asboblarni faqat o'z o'rnida ishlat!
3. Yaroqsiz asbob bilan ishlama!
4. Ishni chet ishlarga chalg'imag' bajar!

5. Asbob-uskunalarni o'zi uchun belgilangan joyda saqla!
6. Uzun kiyimda bo'lma, engingni shimar, choklarini yig'!
7. Materialni qo'lda yo'nma!
8. Osilib turganda kesma!
9. Pichoq bilan o'zing, o'rtoring tomonga qarab yo'nma!
10. Kesilgan, tilingan, shilingan joylarni yuvib, yod surtib, toza bint bilan bog'la.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Applikasiya ishlari haqida ma'lumot bering.
2. Mozaika ishlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Darslarni to'g'ri tashkil etish haqida tushuncha bering.
4. Applikasiya va mozaika ishlarining maqsadi deganda nimalar nazarda tutiladi?
5. Applikasiya va mozayka ishlarining tarbiyaviy ahamiyati nimalarda seziladi?
6. Bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish deganda nimalar nazarda tutiladi?

## **20-MAVZU. QOG'UZ VA KARTON BILAN ISHLASH DARSLARINING MAZMUNINI TASHKIL ETISH METODIKASI**

### **Reja:**

1. Qog'oz va karton haqida ma'lumot.
2. Qog'ozning ishlab chiqarishdagi o'rni.
3. Qog'oz va karton turlari va xususiyatlari.
4. Qog'oz va kartonga ishlov berish usullari.
5. Qog'oz va karton bilan ishlash texnologiyasi.
6. Ish joyini tashkil qilish talablari.
8. Texnika xavsizligi qoidalari.

#### *Mavzuga oid tayanch tushunchalar:*

*Qog'oz, karton, ishlab chiqarishdagi o'rni, ishlov berish usullari, ishlash texnologiyalari, Ish joyini tashkil qilish, texnik xavsizligi qoidalari.*

Tarix manbalarida yozilicha qadim Hindistonda yozuvlar palma barglariga bitilgan. Palma yaproqlarini quritib ulardan plastinkalar qirqib olinib keyin tush bilan yozilgan. Bu plastinkalar keyin bir biriga mustakahmlanib, jilti yaxshi silliqlangan, taxtachalardan qilingan ustiga bezak berilib kitob holatiga keltirilgan. Qadimgi Greklar mum kitoblarini ixtiro qilishgan. Bu yaxshi tekislangan taxtacha o'rtasidan kvadrat o'yilgan bo'lib, u sariq yoki qora mum bilan to'ldirilgan. Yozuvda esa po'lat cho'pdan foydalanilgan. Bir uchi o'tkir po'lat cho'p bilan yozishgan bo'lsa, ikkinchi dumaloq uchi bilan yozilgan narsani o'chirishgan. Bir biri bilan birlashtirilgan taxtachalardan kitoblar yasalgan, kitob jadval yoki sahifalarning qulayligi shundaki, ulardan uzoq muddat bemalol foydalanish, yozuvni o'chirish va qayta yozish juda oson bo'lgan. Misrliklar yozish materiallarini Nil daryosidan olganlar. Nil vodiysi botqoqliklarida qamishga o'xshash o'simliklar bo'lib qadimgi Rim xalqi uni papirus deb ataganlar. Silliq poyasiz, bargsiz o'simliklarni bo'yi 4 metrga yetar edi. Yozuv quroli uchun poya barglaridan tozalanib, uning o'rtasidagi yumshoq g'ovvak o'zak olinar edi. Ulardan uzun yupqa plastinkalar qirqilib tik holda taxlanardi. So'ngra ho'l barg yopishtirilib presslanar edi, ular qurigach sirti pemza bilan sayqallanardi. Bulardan qilingan eng katta kitob Britaniya muzeyi kutubxonasida saqlanardi. Bir necha ming yillar davomida papirus yagona yozuv materiali bo'lib kelgan. Unda asosan misrliklar, greklar, rimliklar foydalanib kelganlar. Osiyoda yozuv uchun hayvonlar terisidan foydalanilgan. Teri masus eritmada namlangan, cho'zilgan, quritilgan keyin qirilgan, sayqal berilgan va tekislangan. Bu kitob uchun butun bir poda mol so'yilgan. Teri kitob papirusga nisbatan bir necha afzalliklarga ega bo'lib, uning ikkala tomonidan bemalol yozish mumkin bo'lgan. Eramizdan V asr muqaddam uzoq Sharq mamlakatlarida shoyiga yozish rasm bo'lgan. Bu ham qimmatbaho material bo'lib, madaniyat rivojlana borgan sayin yozish uchun arzon materialga talab orta borgan. Qog'oz tayyorlashda XVIII asr fransuz Nikola Lui Robert kashf etgan samocherpka-birinchi qog'oz mashinasi kashf qilgan.

Qog'oz ishlab chiqarishda yog'och, poxol ip, gazlama, eski ishlatilgan qog'oz xom-ashyo hisoblanadi. Ip, gazlamadan asosan qog'ozning qimmatbaho va maxsus navlarini ishlab chiqarishda foydalaniladi. Poxoldan karton, uram qog'ozlari tayyorlanadi. Qog'oz


ishlab chiqarishda suv ko'p talab qilinadi. Bundan tashqari yog'ochni o'tkazish ham qulaydir. Tarkibida klechatka foizi ko'p bo'lgan qora qarag'ay sellyuloza tayyorlashda eng yaxshi xom-ashyo hisoblanadi. Har bir qog'oz navi o'z tayyorlash retseptiga egadir. Qog'oz va karton faqatgina kollegrafiya sanoatidagina emas, balki xalq xo'jaligining hamma tarmoqlarida ham keng qo'llaniladi. Gazeta qog'ozi eng arzon va ko'p tarqalgan qog'oz turidir. Sifatiga ko'ra unchalik pishiq emas, namlikni va yelimni yaxshi singdiradi. Yozuv qog'ozi sathi silliq, yelim, singdirilgan namlikni kamroq singdiradi. Narsalarni muqovalash, kartondan yasalgan narsalarni yelimlashda juda qulay. Chizmachilik qog'ozi eng pishiq va eng qalin qog'oz. Lattadan tayyorlanadi. Unda karnaval maskalari va shu kabilarni yasashda foydalaniladi.

Rasm qog'ozi ikki nomerli bo'lib, to'liq sellyulozadan tayyorlanadi, oliy naviga 25 % latta qo'shiladi. Qo'l mehnati darslarida, shuningdek chizmalar chizishda foydalaniladi. Yelimlangan qog'oz jilo berilgan qog'oz bo'lib, bir tomoniga yelim surtilgan, qo'l mehnati darslariga juda qulay. Gul qog'ozi rangi va guli turlicha bo'lib, muqovalash, narsalarning ustidan yelimlash, bezash ishlarida keng foydalaniladi.

Karton qog'oz deb, 1kv.m.200 gr.dan ortiq bo'lgan qog'ozga aytiladi. Oq karton –uni qirqish oson, u unchalik pishiq emas, tez sinadi. Sariq karton oq kartondan ko'ra pishiqroq, egiluvchan yaxshi qirqiladi, yelimdan shishmaydi.

Dastlab I sinfda o'quvchilar qog'oz va uning turlari bilan tanishtiriladilar. 1-sinf **“Texnologiya”** darsligida **“ Qog'oz va uning turlari”** mavzusi bilan tanishadilar.





1-rasm.

Qog`oz va karton bilan ishlash texnologiyasi II sinf texnologiya darslari ni tashkil etishda o`ziga xos xususiyatligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Birinchi navbatda, o`quvchilar qog`ozdan tayyorlanadigan buyumlarni yaxshi tayyorlashlari uchun ularni qog`oz turi va navlarini yaxshi bilishga, bu materialning ko`p ishlatiladigan turlarining muhim sifat xususiyatlarini farqlashga o`rgatish muhim. O`quvchilar qog`oz turlaridan ba`zi namunalarning nomi va farqli xususiyatlarini bilmasligi mumkin. Dars jarayonida o`qituvchi o`quvchilarga ko`p miqdorda qog`oz turlarining borligi, mamlakatda turli xususiyatga ega bir necha yuz turdagi qog`oz ishlab chiqarilishini misollar va ko`rgazmali materiallar orqali ko`rsatib, tushucha berib borishi lozim..

O`qituvchi o`quvchilarni o`zlari ko`p ko`radigan va ishlatadigan qog`ozning asosiy xususiyatlarini farqlash, ularni ayta olishga o`rgatishi maqsadga muvofiq. Yozuv qog`ozi, muqova qog`ozlari, bosmalash, rasm chizish, o`rash uchun qog`oz, rangli qog`ozlar haqida, keyinchalik esa bu ro`yxatni papiros qog`ozi, stol usti qog`ozlari va gulqog`ozlar bilan to`ldirish mumkin.

O`quvchilar texnologiya darslari uchun materiallarni, xususan, qog`ozlarni hamma vaqt ham ehtiyotkorona asramaydilar. Birinchi

texnologiya fani darslaridayoq bolalar bilan kuzatishlar o'tkazib, qog'ozni asramay saqlanishi undan tayyorlanuvchi buyumlar sifatiga qanday ta'sir etishini yaqqol va ishonchli ko'rsatish muhimdir. Keyinchalik, III va IV sinflarda o'qituvchi oddiy va g'ijimlangan qog'oz xususiyatlarini solishtirishga bir necha marta qaytishi zarur.

Tajriba ko'rsatishicha, o'qituvchi tomonidan bolalar turmushda va maktabda doimo foydalanadigan qog'oz turlari va navlarining eng muhim xususiyatlari va sifatlarini yaqqol aniqlash maqsadida tashkil etiluvchi ko'rsatishlar va maxsus jamoa bo'lib kuzatishlari katta foyda keltiradi.

Qog'oz xususiyatlari bilan tanishish o'quvchilarga turli amaliy maqsadlar – yozish, chizish, buyumlar yasash, turli predmetlarni o'rash uchun qog'ozdan to'g'ri foydalanishga yordam beradi. Qog'oz xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarni o'quvchilar texnologiya fani darslarida va atrofda g'ilarning qog'ozdan foydalanishini har kuni kuzatish orqali egallaydilar. O'z qog'oz namunalari va o'qituvchi tayyorlagan va ko'rsatayotgan namunalarni ko'rib chiqib, o'quvchilar o'qituvchi yordamida turli maqsadlarda qo'llanuvchi qog'ozlarning katta miqdordagi turlari mavjudligini qayd etishadi. Vazifasiga ko'ra har bir tur va nav qog'ozi muayyan xususiyatlar, sifatlarga ega. Bu xususiyatlar qog'ozga uni qog'oz fabrikalarida tayyorlashda yoki keyingi qo'shimcha pardoqlashda maxsus beriladi. O'quvchilar oddiy ko'rib chiqish va ushlab ko'rish, hamda o'zlari to'plagan hayot tajribalarini ishga solib osongina aniqlash mumkin bo'lgan qog'ozning quyidagi umumiy xususiyatlarini qayd etishadi:

- qog'oz – varaqli material. Qog'oz katta varaqli (chizish va stol usti qog'ozi), o'ramlarda (applikatsiyalar uchun qog'oz, texnologiya darslari uchun rangli qog'ozlar va pochta qog'ozi to'plamlari, qog'oz salfetkalar), rulonlarda (gulqog'ozlar, gofri qog'oz) va hokazo holatda sotiladi;

- qog'oz qalin va yupqa bo'ladi (masalan, rasm chizish va chizmalar uchun qog'oz, papiros va nusxalash qog'ozi);

- qog'oz oq va rangli (yozuv qog'ozi va rangli yaltiroq qog'oz). U to'liq ranglangan, bo'yoq eritmasi qog'oz tayyorlash massasiga qo'shilgan bo'ladi yoki uni tayyorlangandan keyin bir tomonidan bo'yashadi (applikatsiyalar uchun rangli qog'ozlar, gulqog'ozlar, o'rash uchun qog'ozlar);

- qog`oz yuzasi silliq va nosilliq bo`lishi mumkin. Masalan, yozuv qog`ozi unda yozish mumkin bo`lishi uchun albatta silliq bo`lishi kerak, namni shimib oluvchi va o`rash uchun qog`ozlar nosilliq yuzali bo`ladi. Ba`zi qog`ozlarning bir tomoni silliq, ikkinchi tomoni nosilliqroq bo`ladi. Misol sifatida afisha yoki chiptalar uchun qog`ozni keltirish mumkin – teatr afishalari, tramvay va avtobus biletleri matni faqat silliq tomonda bosmalanadi;

- qog`ozning ba`zi turlari yarim tiniq bo`lib, undan hamma narsa ko`rinib turadi, boshqalari esa aksincha. Qog`oz kalka tayyorlashda uni iloji boricha tiniqroq bo`lishiga harakat qilinadi, aks holda chizmalardan nusxa ko`chirish qiyin bo`ladi yoki umuman ko`chirib bo`lmaydi. Papiros qog`ozi va pergamin tiniq bo`ladi. Bosmalash va yozuv qog`ozlari, ularning ikki tomonida yozuv bajarish uchun tiniq bo`lmasligi kerak;

- qog`oz zich va g`ovak bo`ladi. Masalan, chizma va namni shimib oluvchi qog`ozlarni taqqoslash bunga misol bo`la oladi;


- qog`oz rasm bilan bezatilgan, yaltiroq yoki yaltiramaydigan yuzali bo`lishi mumkin. Bunday qog`ozlarga muqova qog`ozlar, gulqog`ozlar, qog`oz-lederinlar kiradi.

Oxirida o`qituvchi maxsus mo`ljallangan qog`ozlarni ko`rsatadi, ularga tayyorlashda muayyan xususiyatlar beriladi. Bunday qog`ozlarga hujjatlar uchun qog`oz (ularda pul, lotereya chiptalari, pasport va boshqa hujjatlar bosiladi); fotoqog`oz (fotoemulsiyaning maxsus qatlami bilan qoplangan); parafinlangan qog`oz ho`llanmaydi, muzqaymoq o`rash va sut mahsulotlari uchun o`ramlar tayyorlashda qo`llanadi; pergamin – yog`ni o`tkazmaydigan qog`oz (yog`, margarin, vetchina o`rash uchun qo`llanadi); metallashtirilgan qog`oz (metall folga bilan yelimlangan qog`oz, choy qadoqlash uchun qo`llanadi), silliqlovchi qog`oz (silliqlovchi kukun yupqa qatlami yelimlangan). Har qanday material yoki predmet majmuasini tuzish, ularni maqsadli tanlash, ishlov berish, tizimlashtirish va joylashtirishni talab etadi. Majmuada namunalar muayyan mantiqiy tartibda joylashtiriladi, u qabul qilingan tasniflash to`g`risida yaqqol tasavvur beradi.

Qog`oz majmuasini har bir qog`oz turi va navining vazifasini ko`rsatishga qarab tanlash va tasniflash kerak. Buning maqsadga muvofiqligi shundaki, eng ko`p tarqalgan qog`oz turlarining nomlari



odatda ularning vazifasini aks etiradi: yozuv – yozish uchun, bosmalash – bosmalash uchun, chizish – chizish uchun, stol usti – stol ustini qoplash uchun, gulqog`oz – devorlarga yopishtirish uchun va hokazo.



1-rasm. O`quvchilar tomonidan qog`oz namunalari majmuasining joylashtirilishi:

1 – alohida varaqda; 2 – o`quvchi daftarida.


To`plam tuzishda o`quvchilar qog`ozning ko`p namunalarini ko`rib chiqadilar va ushlab ko`radilar hamda o`ziga xoslarini tanlab oladilar. Bunda ular qog`ozning sifat xususiyatlari va muhim jihatlari to`g`risidagi dastlabki tasavvurlarga ega bo`ladilar. Bolalar qog`oz tayyorlashda unga vazifasiga qarab u yoki bu xususiyat berilishini o`zlashtirib oladilar.

1-rasmda o`quvchi ish daftarining qog`oz majmuali sahifalari ko`rsatilgan.

O`quvchilar qog`oz namunalarini tanlash va majmuasini tayyorlash bo`yicha o`z ishlarining ma`nosini tushunib olishlari muhim bo`lib, u nafaqat muhim qog`oz turlari va ularning nomlarini amaliy bilib olishdan iborat, balki qog`ozni uning tashqi ko`rinishi va xarakterli xususiyatlari: qalinligi, rangi, yaltirashi, yuzasining pardozi va hokazo bo`yicha farqlashga yordam beruvchi qo`lbola lug`at tayyorlashdan ham iboratdir.

2-rasmda ko`p ishlatiladigan qog`oz turlari majmuasi ko`rsatilgan devoriy jadval keltirilgan. Albatta, bu jadvalda ko`rsatilgan qog`oz mahsulotlarining barchasini o`qituvchi darsga olib kelib ko`rsatishi mumkin. Biroq ushbu jadvalning didaktik qimmatini shundaki, u ikkinchi sinf o`quvchisi xotirasida qog`ozlar tasnifi va ularning inson tomonidan bevosita vazifasiga ko`ra foydalanilishi muhimligini saqlab qolishga imkon beradi.

Q O G' O Z



2-rasm. Qog`oz devoriy majmuasi

**2-sinf o`quvchilariga qog`oz – tez g`ijimlanuvchan material haqida ham bilimlar beriladi.** O`qituvchi o`quvchilarga rangli qog`oz (glyantslangan bo`lsa yaxshiroq) olishni (taxminan 100x200 mm o`lchamda), uni ikkiga teng bukish va egilish chizig`i bo`ylab qirqishni o`rgatadi. O`quvchilar qog`ozning qirqilgan yarmini g`ijimlashadi. Keyin esa unga dastlabki ko`rinishni qaytarishga harakat qilib, uni tekislashadi. Buning iloji bo`lmaydi. O`tkazilgan tajriba asosida o`quvchilar xulosa chiqarishadi: g`ijimlangan qog`ozga oldingi ko`rinishni qaytarib bo`lmaydi.

O`qituvchi taklifi bo`yicha bolalar rangli qog`oz tayyorlanmalaridan - g`ijimlangan va tekis – shakli bo`yicha bir xil va tuzilishi oddiy ikkita buyum yasashga harakat qilishadi (masalan,

oddiy buklash bilan hosil bo`luvchi buyumni tayyorlashni tavsiya etish mumkin). Bu narsalarni taqqoslash o`quvchilarni quyidagi xulosaga olib kelishga imkon beradi: g`ijimlangan qog`ozdan to`laqonli, mustahkam va chiroyli narsa tayyorlab bo`lmaydi.


Yuqorida aytilganlar asosida o`quvchilar yana bir xulosani qayd etishlari kerak: qog`ozdan mustahkam va chiroyli narsalarni tayyorlash imkoniga ega bo`lish uchun materialni avaylab asrash kerak. Qog`ozni jildda saqlash kerak, katta varaqlarni rulonga o`ramasdan – ular g`ijimlanadi – jild o`lchamiga mos qirqish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, rulonga o`ralgan qog`ozni belgilash, kesish, yelimlash qiyin, ayniqsa qog`oz qalin bo`lsa.

**2-sinf o`quvchilari, shuningdek, qog`oz – tolali material haqida ham ma'lumotlar oladi.** Qog`oz va karton o`simlik materiallari – yog`och, poxol, qamishdan tabiiy mineral to`ldiruvchilar (oq loy, talk) va yelimlovchi moddalar qo`shish bilan tayyorlanadi. O`simlikdan olinuvchi materiallar tolali tuzilishga ega. Ular katta yoki kichik, uzunlik, qalinlik, egiluvchanlik va turli mustahkamlikka ega bo`lgan o`simlik tolalaridan tayyorlanadi. O`qituvchi o`quvchilarga gazlamalar oddiy paxta, zig`ir yoki kanop, yog`och yoki shox va shu kabilardan iborat ekanligini amalda ko`rsatadi (3-rasm).

O`quvchilarga yuqoridagi materiallarni nafaqat ko`rish, balki ularni ushlab ko`rish, tolalarni ajratishga harakat qilish, ularning uzunligini aniqlash, uzib ko`rishga berish foydali. Bunday tajriba ishi katta foyda keltiradi, bolalarning materiallar tuzilishi, xususiyatlari to`g`risidagi tasavvurini kengaytiradi va o`quvchilarni ularning muhim xususiyatlarini o`rganish, bu bilimlarni turli buyumlarni yasash bo`yicha amaliy ishda qo`llashga tayyorlaydi.


Navbatchilar o`quvchilarga ikki-uch turdagi qog`oz namunalarning tayyorlangan to`plamlarini, masalan, gazeta, namni shimib oluvchi va o`rash uchun qog`oz tarqatadilar. O`qituvchi bolalarga bu namunalarning har biridan bir cheti bo`ylab tor yo`llarni yirtib olib, qog`oz chetini yirtilish chizig`i bo`ylab qarab chiqishni taklif etadi. O`quvchilar birgalikda chetlar tukli bo`lganini qayd etishadi. Keyingi suhbat davomida qog`oz varaqlarining yirtilishida tolalar o`rtasidagi bog`lanish buzilishi, ularning ko`pchiligining

uzilishi, sinishi, bunda uzilish chizig`i bo`ylab po`pakchalar hosil bo`lishi aniqlanadi (4-rasm).



3-rasm. O`simlikdan olinuvchi tolali materiallar:

1 – ip-gazlama paxta; 2 – zig`ir tola va zig`ir tolali ip;  
3 – ip-gazlama ip; 4 – ip-gazlamalar; 5 – zig`ir toladan dasturxon



4-rasm. Qog`oz va karton tolali materiallar:

1 – tolalar uzilish chizig`i bo`yicha yaxshi ko`rinadi; 2 – qog`oz va kartonni lupa orqali qaraganda tolalar qo`shilib ketganligini ko`rish mumkin

Bunday tajribani karton bilan takrorlab, o`qituvchi bu holda materialning tolali tuzilishi ko`rsatishini ta`kidlaydi: kartonda tolalar yirikroq, ya`ni uzunroq, qalinroq, qo`polroq.

Yuqorida qayd etilgan ko`rsatish va oddiy tajribalar natijasida ikkinchi sinf o`quvchilari keladigan birinchi xulosa shunday: qog`oz va karton toladan iborat, bu material tolali tuzilishga ega.

Ikkinchi xulosani ham o`quvchilar qiynalmay ifodalab beradilar: ba`zi tur va navli qog`oz tolalari mayin va bir turli (yozuv qog`ozi, rasm qog`ozi) boshqalarida esa ular turli kattalikda va qo`pol, ba`zan esa to`qroq rangdagi tolalar qo`shilgan bo`ladi (bu, ayniqsa, karton va arzon turdagi qog`oz, masalan, o`rash uchun qog`oz, afisha qog`ozida yaqqol ko`rinadi).

Qog`oz kabi tolali tuzilishga ega materiallar (paxta, tikuvchilik iplari, muline, zig`ir tola, arqon, gugurt qutisi bo`lagi)ning namunasini ko`rib chiqish asosida o`qituvchi o`quvchilarga uchinchi xulosani chiqarishga yordam beradi: bu materiallarning hammasi tolalardan iborat, faqat ulardagi tolalarning sifati turlicha va o`zaro har xil tarzda bog`langan (paxtada ular chirmashgan, iplarda yigirilib yengil yelimlangan, qog`ozda – chirmashgan va yelimlangan va hokazo).

O`quvchilarning kuzatishi va xulosalarni umumlashtirib, o`qituvchi ularni yana bir xulosaga olib keladi: ular ko`rib chiqqan barcha materiallar o`simlikdan olinadi. Ular o`simlik xom-ashyosidan tayyorlanib, paxta, zig`ir, kanop, yog`och, somon, qamish tolalaridan tuzilgan. Keyinchalik gazlama bilan ishlashga bag`ishlangan darslarda o`qituvchi I sinf o`quvchilariga o`simlik tolalaridan tayyorlangan ip-gazlama va zig`ir matolar to`g`risida hikoya qilib berganda bu xulosadan foydalanadi.

**III va IV sinflarda** o`quv buyumlari konstruktsiyasi, ularni tayyorlash usullari murakkablashtiriladi va shunga muvofiq texnologiya darslari da qo`llaniladigan qog`oz va karton turlari assortimenti ham kengayadi. Har safar o`quvchilar o`z buyumlari uchun yangi turdagi qog`oz yoki karton tanlashida o`qituvchi materialning o`ziga xos xususiyatlari bilan bolalarni tanishtirish va bu xususiyatlar aniq bir buyum yoki uning detalini tayyorlash uchun

qanchalik mos kelishini ko`rsatib o`tish imkoniyatini qo`ldan chiqarmaydi. Masalan, darsda samolyot yoki planerning qog`oz modelini tayyorlashda bu buyum uchun qalin va tarang qog`oz olish zarurligini qayd etadi. Turli qalinlik, zichlik va taranglikdagi bir xil o`lchamdagi qog`oz ishlanmalarini ko`rsatib, o`qituvchi amalda ushbu modelni tayyorlash uchun chizma va karton qog`ozi yaxshiroq mos kelishini ko`rsatib beradi. Qog`ozning xuddi shu turlari turli inshootlar maketi, geometrik jismlar modellarini tayyorlash uchun ham mos.

Bolalar tomonidan ishlov beriluvchi materiallar assortimentining yangi yoki o`ziga xos xususiyatlarga ega turlari bilan asta-sekin to`ldirilib borilishi kichik maktab o`quvchilariga bu xususiyatlarni yaxshiroq o`rganish va olingan bilimlarini amaliy faoliyatlarida ongli qo`llashga ko`maklashadi.

Bu bilimlar tizimlashtirilsa, o`quvchilarning material xususiyatlari va ularga ishlov berish usullari to`g`risidagi bilim sifati yaxshilanadi. Bunday tizimlashtirishning ajoyib vositasi – bu o`quvchilar tomonidan material majmuasining tanlanishi va tayyorlanishidir. Shuning uchun o`quvchilarni qog`oz va kartonning yangi turlari bilan o`quvchilarni amaliy tanishtirib borib, o`qituvchi ular oldiga majmualarini yangi namunalar bilan to`ldirib borish vazifasini qo`yadi.

Masalan, III va IV sinf o`quvchilarining o`quv majmualarida o`rash qog`ozi, gul qog`oz va gofrilangan qog`oz, kalka, metallashtirilgan va parafinlashtirilgan qog`oz, fotoqog`oz va hokazo namunasi paydo bo`ladi.

III va IV sinf o`quvchilari o`z majmualariga yangi qog`oz turlarini oddiy qo`shish va namunalar ostiga u yoki bu turdagi qog`oz nomlarini yozib qo`yish bilan cheklanib qolmaydilar. Ular o`zlarining qog`oz va karton majmualari uchun namunalar tanlab, bu namunalarni eng muhim belgilari: vazifasi, pardoz turi, sifati bo`yicha guruhlaydilar.

Namuna ostiga qisqa yozuv yoziladi, shu yozuv asosida material nomi, uning vazifasi, qo`llanish sohasi bo`yicha ma`lumotga ega bo`lish mumkin. Masalan, «Bosmalash qog`ozlari» degan umumiy sarlavha ostiga kitob-jurnallar uchun, gazeta uchun, muqovalash uchun, afisha uchun, hujjatlar uchun degan yozuvlar ostiga namunalar joylashtirilishi mumkin.

Albatta, III va IV sinf o`quvchilari tomonidan texnologiya darslari va sinfdan tashqari mashg`ulotlarda qog`oz va kartonning aynan qaysi turlari amaliy qo`llanishini oldindan bilish qiyin. Bu amaliy ishlar mavzusi va materiallar borligiga bog`liq. Lekin barcha hollarda majmualar tuzish va tayyorlash bo`yicha ishlarning muhim ahamiyatini tan olish zarur.

**III sinfda** qog`oz va kartonni o`rganish davom etadi, asta-sekin bu materiallarning kuzatiluvchi sifat xususiyatlarini aniqlash malakasi takomillashtiriladi, o`quvchilar aniqlay oladigan xususiyatlar to`ldirilib boriladi. O`quvchilar qog`oz va kartonning mustahkamligi, qalinligi, egiluvchanligi va sinuvchanligini aniqlash va taqqoslashning elementar usullari bilan tanishib boradilar(2-rasm). Buning uchun kerakli kuzatishlar va eng sodda tajribalarni o`tkazib borib, III sinf o`quvchilari qog`oz va yupqa kartondan detallarni bukish, qo`shish, kesish va yelimlash mehnat operatsiyalarini bajarish jarayonida olingan bilimlardan foydalanadilar.

#### TURLI QOG`OZLARDAN GIRLYANDLAR VA QOR PARCHASINI YASASH

! Qor parchasini quyidagi tartibda yasab ko`ring.



1



2




3



4


? O`ylab ko`ring, yana qanday qor parchalarini yasash mumkin?

27



2 – rasm.

IV sinf o`quvchilari qog`oz va kartonning fizikaviy va texnologik xususiyatlarini o`rganishda ularni texnologiya darslarida foydalanadigan boshqa materiallar – gazlama, tabiiy material, plastmassa plyonkalar xususiyatlari bilan taqqoslaydilar (3-rasm). O`quvchilar ishlov berilayotgan materiallarning sifat xususiyatlari to`g`risidagi o`z bilimlarini oshirib borib, ular bajarayotgan ishlari sifatining yaxshilanishiga erishishlaridan qoniqish hosil qilishlari muhim.



3-rasm



O`quvchilar amaliyotidan aniq misollar asosida o`qituvchi materiallar xususiyati to`g`risidagi bilimini to`ldirib borish qanchalik muhimligini tushuntiradi. U bolalarga barcha ishlab chiqarish xodimlari o`rganadigan materiallar to`g`risidagi maxsus fanlar – materialshunoslik, materiallar qarshiligi, ularga ishlov berish texnologiyasi – mavjudligini ma`lum qiladi.

**Qog`oz – varaqli material.** Texnologiya darslarida amaliy ish, suhbat va maxsus kuzatishlar jarayonida o`qituvchi o`quvchilarni qog`oz varaqli material degan xulosaga olib keladi: uning qalinligi boshqa ikki o`lchamga (uzunligi va kengligi) qaraganda ahamiyatsiz. Qog`oz sotuvga u yoki bu kattalikdagi varaqlar yoki muayyan kenglik va foydalanish uchun qulay uzunlikdagi yo`llar ko`rinishida chiqariladi. Boshqa ko`pchilik yupqa materiallar (gazlama, plyonka, tunuka va hokazo) kabi qog`oz qaychi bilan kesiladi.

Darsda birgalikda kuzatish, tajriba almashish va turli tur va navdagi qog`oz namunalarini o`rganish orqali o`quvchilar u yoki bu turdagi qog`oz vazifasiga qarab varaqlar va yo`llar shakli va o`lchami o`zgarishini bilib oladilar. Yozuv uchun qog`oz «kanselyariya» formati ko`rinishidagi o`ramlar shaklida kesilib sotuvga chiqariladi: katta bo`lmagan varaqlarda yozish qulay, ularni saqlash ham qulay. Pochta qog`ozi varaqlari formati yana ham kichik. Rasm va chizmalar uchun qog`oz, aksincha, katta varaqlarda, ba`zan esa rulonlarga o`ralgan keng yo`llar ko`rinishida chiqariladi: inshootlar va mashinalar loyihalari chizmalari va rasmlar uchun turli formatdagi qog`oz kerak va u joyida kesiladi.

Chizma uchun kalka, millimetr qog`ozi, gul qog`ozlar rulonlarda o`ralgan holda chiqariladi, bosish va o`rash uchun qog`oz esa katta og`ir rulonlarda chiqariladi: ularni bu holda tashish, saqlash va keragicha foydalanish oson.

Kuzatishlar orqali o`quvchilar qog`oz namunalarini boshqa varaqli materiallar – gazlama, charm, plastmassa plyonka, fanera, tunuka, folga namunalari bilan taqqoslaydilar. Bu ishning politexnik ahamiyati beqiyos: taqqoslash ishi kichik maktab o`quvchilarining turli materiallar, ularning xususiyatlari, tasnifi to`g`risidagi tasavvurlarini kengaytirishga yordam beradi.

**III sinfda qog`oz qalinligini baholash ishlari amalga oshiriladi.** O`quvchilar qog`ozning taxminiy qalinligini ushlab ko`rib

aniqlash mumkin. O`quvchilar o`z buyumlari uchun u yoki bu qog`ozni ishlatar ekanlar uni tanlashga o`rganadilar. Boshlang`ich sinf o`quvchilari qog`oz, karton va boshqa varaqli materiallarning qalinligini to`g`ri aniqlay olmaydilar. Ular bunday o`lchovlar uchun mo`ljallangan asbob – mikrometr va mos o`lchov birliklari – mikronlardan foydalana olmaydilar, o`nlik kasrlarda o`lchovlarni bajara olmaydilar.

Biroq III sinf o`quvchilari matematika darslarida sonlarning ayirmasi va karrali taqqoslanishini o`rganadilar va bir son ikkinchisiga nisbatan qanchaga katta yoki kichikligini aniqlay oladilar. Shuning uchun texnologiya darslari da o`quvchilar oldiga, masalan, shunday savol qo`yish mumkin: “Papiros qog`ozi yozuv qog`oziga nisbatan necha marta yupqaroq yoki yozuv qog`ozi rasm qog`oziga nisbatan necha marta yupqaroq?”. O`quvchilar tomonidan bunday masalaning laboratoriya ishi shaklida yechilishi bolalarni turli varaqli materiallarni taqqoslay olishga o`rgatib, amaliy ahamiyat kasb etadi.

Masalani hal etish uchun kerakli turdagi bir xil qalinlikdagi qog`oz o`ramlarini olish, har bir o`ramdagi varaqlar sonini hisoblash va bu sonlar nisbatini aniqlash, ya`ni katta sonni kichikka bo`lish kifoya. Bu maqsad uchun 1 sm qalinlikdagi o`ramlarni olish qulay. Shunda, o`quvchilar bir santimetr qalinlikdagi o`ramlarda, masalan, 60 varaq yozuv qog`ozi va 120 varaq gazeta qog`ozi borligini aniqlab, gazeta qog`ozi yozuv qog`oziga qaraganda ikki marta yupqaligini ayta oladi. Shunday qalinlikdagi o`ramlarda ular 85 va 90 varaq qog`ozni sanashsa, bu o`ramlardagi qog`ozlar qalinligi deyarli bir xil deb aytishlari mumkin.

**III sinfda** o`qituvchi tolali tuzilishga ega materiallar sifatida qog`oz va karton ta`rifiga bir necha marta qaytadi. Busiz o`quvchilar tomonidan bu materiallarning muhim texnologik xususiyatlarini o`zlashtirilishi qiyinlashib, ishlov berishda – detallarni belgilash va yelimlashda – ularni hisobga olmay bo`lmaydi. Hayvonlardan olinadigan tolali materiallar – tabiiy jun va ipak to`g`risida texnologiya darslari da dastlabki ma`lumotlarni berishda o`quvchilarga o`simlikdan olinuvchi tolali materiallar to`g`risida eslatish foydali. Bunda o`qituvchi hayvonlardan olinadigan tolali materiallar: tabiiy jun parchasi, jun iplar o`rami, jun qo`lqop, namat

parchasi, tabiiy ipak o`rami va ipak mato parchasini ko`rsatishi mumkin.

**IV sinfda** o`qituvchi o`quvchilarga qog`oz va kartonning tolali tuzilishi to`g`risida ma`lumot berib, karton detallarini qog`oz bilan yelimlab chiqishda qirilishi sabablarini aniqlash maqsadida dasturda ko`zda tutilgan tajribalarni o`tkazish bilan bog`liq tagribada eslatib o`tadi. Qog`oz va kartonning tolali tuzilishi xususiyatlari to`g`risida qog`oz va karton ishlab chiqarish haqida suhbat o`tkazish chog`ida ham fikr yuritiladi.

O`qituvchi IV sinf o`quvchilariga qog`oz va karton tayyorlash uchun asosiy material yog`och ekanligi haqida gapirib beradi (uning turlaridan biri yog`och karton deb ataladi). Odatda archa yog`ochidan foydalaniladi, unda smolali moddalar nisbatan kam bo`lib, shu tufayli u tez qaynaydi va bo`tqasimon massaga aylanadi. Bu massa qog`oz va karton ishlab chiqarish uchun boshlang`ich material bo`lib xizmat qiladi. Qarag`ayning smolali yog`ochi buning uchun kamyaroqli va kamroq ishlatiladi. Qog`oz va karton ishlab chiqarishda keyingi yillarda bargli daraxtlarning kam qimmatli yog`ochlaridan foydalana boshlashdi, masalan, osina, qayin, terak daraxtlari, shuningdek, bug`doy poxoli va qamishning o`tli qismi. Bu qog`ozni ancha arzonlashtiradi va xvoyali daraxtlarning qimmatli yog`ochini tejashga, undan mebel, viskoz, qurilish materiallari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishni oshirish uchun samarali foydalanishga imkon beradi.


Qog`oz va karton ishlab chiqarishda yog`ochni tejash uchun makulatura - qog`oz va kartonning sanoat va turmushdagi chiqindilaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Xuddi shu maqsadda to`qimachilik sanoati chiqindilari hamda uy xo`jaligi chiqindilarini tashkil etuvchi turli lattalar ham qo`llanadi. Makulatura yig`ish va topshirish orqali maktab o`quvchilari qog`oz ishlab chiqarishni kengaytirish – bunda minglab gektar o`rmonni saqlab qolish, juda ko`p suv, yelim, oq loy va boshqa materiallarni, yoqilg`i va elektr energiyasini tejashga yordam beradi. O`rmon ishchilari, transport xodimlari, qog`oz, kimyo, mashina, qurilish va boshqa sanoat tarmoqlari xodimlari mehnatining tejalishi ham, albatta, katta xalq xo`jaligi ahamiyatiga ega.

Qog`oz, karton varag`ida tolalarning joylashuvi. Turli buyumlar tayyorlash uchun material sifatida qog`oz va karton bilan tanishishning birinchi qadamlaridanoq o`quvchilar maxsus kuzatish va tajribalar o`tkazib, bu materiallardan texnologiya darslarida foydalanib, qog`oz va karton bir-biri bilan tartibsiz chirmashgan, presslangan va yelimlangan son-sanoqsiz mayda tolalardan iborat ekanligini bilib oladilar. Bu tolalarning joylashuvida bitta qonuniyat mavjud bo`lib, uni turli buyumlar yasash uchun qog`oz va kartondan foydalanuvchi hamda bunda ishning yuqori sifatiga erishmoqchi bo`lgan har bir kishi bilishi va hisobga olishi kerak. Gap shundaki, qog`oz tayyorlash mashinalarida qog`oz quyishda ko`pchilik tolalarning quyish yo`nalishida tortilishi yuz beradi (bu yo`nalish ko`pincha bo`ylama deb ataladi). Natijada qog`oz turli yo`nalishlarda – bo`ylama va ko`ndalang – turlicha xususiyatlarga ega bo`ladi. Yirtishda mustahkamlik, qattqlik, namlanishida cho`zilish (o`lchamlarning kattalashuvi) farqlanadi. Ishda nuqson bo`lmasligi, buyumlarning yuqori sifatiga erishish uchun bularning hammasini bilish va hisobga olish kerak.

Quyida keltirilgan kuzatishlar qatori va bajarilish texnikasi bo`yicha oddiy tajribalar o`qituvchi tomonidan kichik maktab o`quvchilarini tushunarli, ko`rgazmali va qiziqarli tarzda asta-sekin, darsdan darsga bu materiallardan amaliy foydalanish jarayonida qog`oz va kartonning tolali tuzilishi xususiyatlarini qanday hisobga olish kerakligi bilan tanishtirib borish maqsadini ko`zlaydi. Ushbu kuzatishlar va tajribalarni o`tkazish jarayonida o`quvchilar egallaydigan bilim va malakalar boshqa barcha materiallar bilan ishni to`g`ri bajarish uchun katta ahamiyat kasb etishi haqida gapirish ortiqchadir.

O`qituvchi ko`rsatib berish va o`quvchilar tomonidan kuzatish va tajribalarning mustaqil bajarilishini tashkil etib, ko`rgazmali va amaliy ishlarning turli variantlarida bolalarga qog`oz varag`ida tolalar asosiy massasi yo`nalishi (mashinada qog`oz quyish bo`ylama yo`nalishi) qog`oz varaqlari bo`ylama tomonlari yo`nalishi bilan hamma vaqt ham mos kelmasligini ko`rsatib beradi. Shuning uchun ham o`quvchilar mustaqil tajriba yo`li bilan qog`oz varag`ida tolalar qanday joylashganini bila olishlari kerak.

Yirtilish chiziqlari shakli bo'yicha qog'oz varag'ida bo'ylama va ko'ndalang yo'nalishlarni aniqlash. Oddiy tajriba o'quvchilarga qog'oz varag'ining yirtilish chizig'i uning bo'ylama yoki ko'ndalang yo'nalishda o'tishiga qarab turlicha bo'lishini ko'rsatadi. Demak, qog'ozning yirtilish chizig'i shakli bo'yicha qog'oz varag'i bo'ylama yo'nalishini aniqlash mumkin.



5-rasm. Yirtilish chizig'i shakli bo'yicha qog'oz varag'ida bo'ylama va ko'ndalang yo'nalishlarni aniqlash: 1 – bo'ylama (to'g'ri chizikli uzilish chizig'i); 2 – ko'ndalang (uzilish chizig'i egri yo'lli); 3 – ikki qog'oz varag'ini bir vaqtda yirtish. Katta qog'oz varag'idan, yaxshisi yozuv yoki bosmalash qog'ozidan o'quvchilar o'lcham va shakli bo'yicha ikkita bir xil varaqcha kesib oladilar, undan oldin ularning asosiy varaqdagi holatini belgilaydilar. Bir varaqchani ustki burchaklaridan ushlab bir yo'nalishda, ikkinchisini perpendikulyar yo'nalishda yirtadilar (5-rasm). Har bir varaqchada yirtilish chizig'i boshida dastlab kichik (2-3 mm) yirtiq hosil qilish maqsadga muvofiq. Yirtilgan qog'ozni ko'rib chiqib, o'quvchilar ularda yirtilish chiziqlari turli shaklda bo'lganini qayd etishadi, lekin bir varaqda yirtilish chizig'i to'g'ri yo'lli, boshqasida esa egri yo'lli ekanligini aytishadi. O'qituvchi bu holat sabablarini tushuntirib beradi: qog'oz tayyorlash mashinasida qog'ozni quyishda qog'oz massasi tolalarining bo'ylama yo'nalishda tortilishi yuz beradi. Qog'ozni bo'ylama yo'nalishda yirtishda yirtilish chizig'i tolalar asosiy massasiga, ularni buzib emas,

ajratib, parallel boradi. Bunda yirtilish chizig`i to`g`riga yaqin bo`ladi. Qog`oz varag`ini ko`ndalang yo`nalishda yirtishda ko`proq kuch sarflanadi, chunki bunda ancha ko`p tolalar uziladi. Bu tolalar uzilish chizig`i yo`lini to`sadi va u qog`oz varag`i yirtilayotgan to`g`ri chizikli yo`nalishdan suriladi, og`adi. Yirtilish yo`li egri chizikli bo`ladi (5.2-rasm).

Qog`oz varag`ida tolalar asosiy yo`nalishlarini aniqlash tajribasini quyidagicha o`tkazish mumkin:


O`qituvchi ikkita bir xil g`ijimlanmagan qog`oz varag`ini oladi. Ularni biri bo`ylama tomoni gorizontal, ikkinchisining bo`ylama tomoni vertikal qilib ustma-ust qo`yadi, varaqlarning ustki chetlarini tekislab, o`rtasida sal yirtilish chizig`i boshini belgilaydi (5.3-rasm). Keyin o`qituvchi ikkala varaqni shu nuqtadan teng masofada ustki chetlaridan olib, qog`ozni turli tomonga tortadi. Ikkala qog`oz varag`i bir vaqtda yirtiladi, bunda yirtilish chiziqlari turlicha bo`ladi: bir varaqning yirtilish yo`li – to`g`ri chizikli, ikkinchisining yo`li – murakkab, chetga ketuvchi shaklda bo`ladi.

O`quvchilar bu tajribani mustaqil takrorlab, ikki qog`oz varag`i yirtilish yo`lining farqi sabablarini birga aniqlaydilar.

Bo`ylama yo`nalishda qog`ozni yirtishda yirtilish yo`li asosan tolalar orasidan boradi, qog`ozni ko`ndalang yo`nalishda yirtishda ko`proq tolalarni tortish va uzishga to`g`ri keladi, bunda odatda yirtilish chizig`i chetga og`adi.

O`quvchilar oldin qilgan xulosalarini takrorlaydilar: qog`ozning yirtilish chizig`iga qarab uning varag`ida tolalar qanday joylashgani to`g`risida fikr yuritish mumkin, ya`ni ko`ndalang va bo`ylama yo`nalishlar holatini aniqlash mumkin.

Qog`oz yo`llarining egilishiga qarab bo`ylama va ko`ndalang yo`nalishlarni aniqlash. O`qituvchi o`quvchilarning ko`zi oldida o`lchamlari bir xil (taxminan 10x150 mm) qog`oz yo`llarini tayyorlaydi, lekin ularni o`zaro perpendikulyar qog`oz varag`i chetlari bo`ylab kesib oladi, 6-rasmda ko`rsatilganidek ustma-ust qo`yib, pastki chetlaridan ushlaydi.



6-rasm. Qog'oz varag'idan o'zaro perpendikulyar chetlardan qirqib olingan yo'llar egilishi bo'yicha bo'ylama va ko'ndalang yo'nalishlarni aniqlash:

1 – tolalar asosiy massasi bo'ylama yo'nalishli; 2 – ko'ndalang yo'nalishda kesib olingan yo'l

O'qituvchi qog'oz yo'llarni avval o'ngga, keyin chapga egib, ularni muvofiq tomonlarga egilishga majbur qiladi.


O'qituvchi o'quvchilar diqqatini qog'oz yo'llaridan birining ko'proq ikkinchisining esa kamroq egilishiga qaratadi. O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda buning sababini aniqlashadi. Bu qog'oz yo'llar varaqdan turli yo'nalishlar: biri qog'oz bo'yiga, ikkinchisi ko'ndalang kesib olingani bilan bog'liq. Demak, qog'oz yo'llaridan biri bo'ylama yo'nalishda, ikkinchisi esa – ko'ndalang yo'nalishda kesib olingan. Xuddi shu qog'oz varag'i bilan ularga ma'lum bo'lgan ikki yo'nalishda qog'ozni yirtish tajribasini o'tkazib o'quvchilar bo'ylama va ko'ndalang yo'nalishlarni aniqlaydilar. Bu ularga bo'ylama yo'nalishda kesib olingan qog'oz yo'l kamroq ko'ndalang yo'nalishda kesib olingani esa ko'proq egilishini aniqlash imkonini beradi.

Yuqorida qayd etilganlar asosida o'quvchilar xulosa chiqaradilar: to'g'ri burchak ostida qog'oz varag'idan kesib olingan ikki qog'oz yo'lining egilishida qarab qog'oz varag'idagi bo'ylama va ko'ndalang yo'nalishlarni aniqlash mumkin.

Yirtish orqali qog'oz mustahkamligini aniqlash. (III sinf) Uchinchi sinf o'quvchilarining qog'oz xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytirishda qog'ozning yirtilishda chidamliligi bo'ylama yo'nalishda ko'ndalanga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rsatuvchi foydali va qiziqarli ko'rsatish, tajriba va eng oddiy tajriba ishlari o'tkaziladi. Qog'ozning bu xususiyatini bilish o'quvchilarga

baʼzi amaliy masalalarni toʻgʻri hal etish, hamda yuqoriroq sifatli buyumlar yasashga yordam beradi.

Bir qogʻoz varagʻidan, masalan, yozuv yoki rangli, shakli va oʻlchami bir xil boʻlgan yoʻllar bir-biriga nisbatan toʻgʻri burchak ostida, yaʼni qogʻoz chetiga oʻzaro perpendikulyar qilib kesib olinadi. Oʻzlariga maʼlum istalgan yoʻl bilan bolalar bu qogʻoz yoʻllarning tolalari qaysisida boʻylama, qaysisida koʻndalang joylashganini aniqlaydilar. Bu yoʻnalishlarning yoʻllari chetiga B va K harflari (boʻylama va koʻndalang) yoki 7-rasmda koʻrsatilgandek koʻrsatkichlar bilan belgilab qoʻyadilar.




7-rasm. Boʻylama yoʻnalishda qogʻozning uzishga chidamliligi koʻndalangiga nisbatan yuqoriroq:

1 - qogʻoz varagʻidan oʻzaro perpendikulyar chetlardan kesib olingan ikki qogʻoz yoʻli; 2 – uzunligi boʻyicha yopishtirilgan yoʻllar; 3 – choʻzishda eng boʻsh joydan AB uchastkada uziladi.

III sinf oʻquvchilari qogʻozni bukish chizigʻi boʻyicha yirtishni ham oʻrganadilar. Qogʻoz varagʻini toʻgʻri chiziq boʻylab yirtish zarur boʻlganda, uni dastlab bukadilar va bukish chizigʻi boʻyicha barmoq bilan yoki maxsus silagich (faltsovka) bilan tekislab chiqadilar. Oʻquvchilar kichik tajriba oʻtkazib, bu nima uchun qilinishini tushunib olishlari foydalidir.





8-rasm. Qog`oz varag`ini qismlarga yirtish:


1 – tajriba uchun bir xil o`lchamli yo`llar tayyorlanmasi; 2 – A yo`lni yirtishda yirtish yo`li chetga og`adi; 3 – bukish chizig`i bo`yicha qog`ozni tekislash; 4 - qog`ozni bukish chizig`i bo`ylab yirtish

O`quvchilar katta bo`lmagan qog`oz varag`ini bukib, bukish chizig`ini barmoq bilan, qalam o`chirg`ichi yoki maxsus silagich bilan tekislab chiqadilar (8.3-rasm). Qog`oz varag`ini qarama-qarshi tomonlarga tortadilar, uni yirtib, yirtilish chizig`i bukish chizig`i bilan mos kelishiga ishonch hosil qiladilar (8.4-rasm). Keyin o`quvchilar o`sha yo`nalishda qog`ozni dastlab bukmasdan va bukilish chizig`ini tekislamasdan yirtishga harakat qiladilar. Yirtish chizig`i tekis bo`lmaydi, u chetga og`adi. Bu o`quvchilarga asoslangan xulosa chiqarishga imkon beradi: qog`ozni bukish yirtish chizig`ini aniq belgilashga imkon beradi, bu chiziqni dastlabki tekislanishi esa ishni ancha osonlashtiradi va tezlashtiradi.

O`qituvchi taklif qiladi: – O`ylab ko`rib javob bering, nima uchun bukish chizig`ini tekislashdan keyin qog`oz shu chiziq bo`ylab oson va tekis yirtiladi? (chunki bukish joyini tekislashda biz tolalarni buzamiz va belgilangan yo`l bo`ylab qog`oz mustahkamligini kamaytiramiz).

III sinf o`quvchilari g`ijimlangan qog`oz o`z mustahkamligining bir qismini yo`qotishi haqidagi ma`lumotlarni o`rganadilar:

Qog`oz varag`idan o`quvchilar 200-220 mm uzunlik va 25-30 mm kenglikdagi qog`oz yo`lni kesib oladilar. Uning taxminan yarmini bolalar g`ijimlab, keyin tekislaydilar. Uni ikki uchidan ushlab turli tomonga tortadilar, bunda kuchlanish asta-sekin oshirilib boriladi. Qog`oz yo`l dastlab g`ijimlangan qismida yirtiladi (9-rasm).



9-rasm. G`ijimlangan qog`ozda yirtilishga mustahkamlik g`ijimlanmagan qog`ozga nisbatan past:

1 – tajriba o`tkazishga tayyorlangan qog`oz yo`l; 2 – bu qog`oz yo`lning yarmi g`ijimlangan; 3 – qog`ozni tortishda g`ijimlangan joydan yirtiladi

– Bu tajribadan qanday xulosalar chiqarish mumkin? – so`raydi o`qituvchi (Buyumlar mustahkam bo`lishi va uzoq xizmat qilishini istasak, qog`ozni g`ijimlamaslikka harakat qilish kerak. Buyum tayyorlash uchun ishlatiluvchi qog`ozni jildlarda saqlash kerak, kitob varaqlarini bukmaslik kerak, eski kitoblarda o`z vaqtida g`ijimlangan betlarni yelimlash kerak).

Qog`oz yo`l mustahkamligi to`g`risidagi bilimlarga asoslanib, o`qituvchi keyinchalik o`quvchilarni boshqa materiallar – iplar, gazlama, karton, plastmassa plyonka mustahkamligi bilan tanishtiradi. O`quvchilar turli materiallar mustahkamligini qiyoslash, taqqoslashga o`rgatiladi.


**Qog`oz namlanishida nima ro`y beradi? Bu borada o`quvchilar II sinf jarayonidayoq qog`oz va karton bilan ishlashda paydo bo`luvchi ko`pgina savollarni to`g`ri hal etish uchun bu materiallarni bo`yash, kleyster yoki yelim surtish jarayonida**

namlanishi tufayli nima ro'y berishini yaqqol tasavvur etishlari muhim.

Qog'oz varag'idan ikki o'zaro perpendikulyar chetlardan o'quvchilar shakli va o'lchami bir xil qog'oz yo'llar kesib oladilar (20x200 mm) (bu tajriba uchun gazeta, o'rash uchun qog'oz va oddiy gulqog'oz olish tavsiya etiladi). Boshqa istalgan qog'ozdan bolalar yana bitta shunday qog'oz yo'l qirqib oladilar. U tajriba o'tkazish paytida nazorat qilish uchun xizmat qiladi.

Dastlab ikkinchi sinf o'quvchilari birinchi ikki qog'oz yo'llar bilan tajriba o'tkazib ularning qaysi biri bo'ylama, qaysisi esa ko'ndalang yo'nalishda kesilganini aniqlaydilar. Natijalarni o'quvchilar qog'oz yo'l uchlarida belgilaydilar - qalam bilan bo'ylama yoki ko'ndalang strelka qo'yadilar yoki B va K harflarini yozadilar. Keyin qog'oz yo'llarni eski qog'oz varag'iga yonma-yon qo'yib, bir vaqtda namlaydilar. Buni katta mo'yqalam yoki toza yumshoq matodan tampon bilan bajaradilar. Keyin qog'oz butun qalinlikda bir tekis namlanishi uchun 2-3 daqiqa kutib ular qog'oz varag'iga yonma-yon yotqiziladi. Nazorat qog'oz yo'ldan foydalanib, namlangan ikkala qog'oz yo'l uzunroq bo'lganini aniqlaydilar (10.4-rasm). O'quvchilar birinchi xulosani ifodalaydilar: qog'oz namlanishda o'lchamlari kattalashadi, uzayadi.

Diqqat bilan o'lchash natijasida o'quvchilar namlangan qog'oz yo'llar uzayishi bir xil emasligini aniqlaydi: biri ko'proq, ikkinchisi kamroq. Qog'oz yo'llardagi belgilarga e'tibor berib, ikkinchi xulosani chiqarishadi: qog'ozning namlanishida uning bo'ylama yo'nalishida cho'zilishi ko'ndalangga nisbatan kamroq (10-rasm).



10-rasm. Namlashda qog'oz detallar o'lchamining o'zgarishi:

1 – tajriba uchun tayyorlangan ikki bir xil qog`oz yo`llar; 2  
– ustkisi namlanib uzunroq bo`lgan o`sha qog`oz yo`llar; 3 –  
ikkinchisi tajriba uchun tayyorlanmalar – bo`ylama, ko`ndalang va  
nazorat uchun kesilgan qog`oz yo`llar; 4 – birinchi ikki qog`oz yo`l  
namlangandan keyingi qog`oz yo`llar

Tajriba natijalari bo`yicha suhbatda o`quvchilar qog`ozning aniqlangan xususiyatlarini uni bo`yash va yyelimlashda, ya`ni qog`ozdan tayyorlangan detallar namlanuvchi barcha hollarda hisobga olish zarur. Bir necha misollar bilan o`quvchilarga qog`ozning namlanishida cho`zilish xususiyatini hisobga olmaslik buyum sifatining pasayishi va hatto buzilishiga olib kelishini ko`rsatib berish juda muhim.

II-IV sinfda o`quvchilar qog`oz detallarni yelim bilan qoplashda saqlab turish ahamiyatini o`rganib olishi muhim. Oldingi tajribada o`quvchilarga qog`oz yo`llarni namlashdan keyin ularni 2-3 daqiqa saqlab turish taklif etiladi. Bu vaqt ichida qog`oz namni shimish va cho`zilishga ulguradi.

O`qituvchi so`raydi: - Biz kutib o`tirmay detalni kleyster yoki yelim bilan qoplashdan keyin darhol uni joyiga yotqizib yelimlasak nima bo`ladi? (Detal namni shimish va o`lchamlari kattalashishda davom etaveradi. Natijada unda burmalar hosil bo`ladi va ish buziladi).

Xulosa: Qog`ozdan tayyorlangan detallarni yopishtirishda, ularga yelim yoki kleyster surtishdan keyin 2-3 daqiqa kutib turish kerak. Ayniqsa detallar o`lchami katta bo`lsa, buni qilish muhim.

O`qituvchi maslahat beradi: - Ustalar devorlarga gulqog`oz yopishtirishini kuzating. Gulqog`ozga kleyster surtib, uning namlanib, cho`zilishini kutib turadilar va shundan keyin uni devorga rasmini kelishtirib yopishtiradilar. Ba`zan ustalar ketma-ket ikki, uch, hatto to`rt yo`l gulqog`ozga kleyster surtib, o`sha ketma-ketlikda ularni devorga yopishtiradilar. Bu vaqt ichida qog`oz yaxshi namlanib, cho`zilishga ulguradi. Devorda qurib, gulqog`ozlar taranglashadi va burmalar hosil qilmaydi.

Karton va qog`ozdan tayyorlangan buyumlar yuzasida burmalar hosil bo`lishi sabablarini o`rganish. Kichik maktab o`quvchilari karton va qog`oz bilan bajaruvchi ishlarining ko`pchiligi kleyster yoki yelimdan foydalanib bajariluvchi ishlardir. O`quvchilar bu ishlarni

toza bajarishlari uchun ular qog`oz detallar, applikatsiyalar, mozayika, rasmlar, suratlarni yopishtirishda yo`l qo`yadigan xatolardan saqlab turish kerak. O`quvchilar bajaradigan amaliy ishlar misolida qog`oz buyumlar yuzasida burmalar paydo bo`lishi sabablarini ko`rsatish kerak.

Qog`oz detallarga kleyster yoki yelim surtishda ko`pchilik o`quvchilar yetarlicha tez ishlamaydilar. Buning natijasida detalning bir qismida, ayniqsa u katta o`lchamda bo`lsa, qog`oz yelimni shimib boshqa qismiga qaraganda ko`proq uzayishga ulguradi. Bunda qog`ozning turli joyida turlicha cho`zilish ro`y berib, buyum yuzasida burmalar hosil bo`ladi.


Ko`pchilik o`quvchilar qog`oz yuzasiga yelimni turli qalinlikda surtadilar, ba`zan yyelimlanmagan joylarni qoldiradilar. Bu holda ham qog`ozning notekis namlanishi ro`y beradi, buyum yuzasida burmalar paydo bo`ladi, ish esa pala-partish ko`rinishga ega bo`ladi.

Qog`oz detallarni faqat uchlari yoki chetlariga yelim surtib yopishtirishda qo`pol, xunuk ko`rinishga ega bo`ladi. Bu holda burmalanishlar hosil bo`lishi kuzatiladi. Qog`ozni yyelimlashda ish sifati uchun o`quvchilar tomonidan quyidagi qoidaga rioya qilish muhim ahamiyatga ega: yelim surtilgan detalni joyiga yotqizishdan keyin uning ustiga toza qog`oz varag`ini quyish, uni ushlab turib o`rtasidan chetlarga qarab bosish kerak. Lekin yopishtirilayotgan detalni qog`oz bo`lagi yoki barmoqlar bilan bosib yurgizish mumkin emas: detal yirtilishi va buyum yelim bilan kirlanishi mumkin.

Bu ish nima uchun qilinishini o`quvchilar yaxshi tushunib olishi uchun quyidagi tajribani ko`rsatish foydali. Yozuv, o`rash yoki gazeta qog`ozdan taxminan 100x200 mm o`lchamli to`g`ri burchakli qog`oz kesib olinadi, uni ikki bukib, teskari tomoniga yelim surtib qalin qog`oz yoki karton varag`iga yopishtiriladi. Uning ustini toza varaq bilan yopib, bosib chiqiladi. Ikkinchi bo`lak ham bosib chiqiladi, lekin ustiga toza varaq qo`yilmaydi. Yelim qurigach, o`quvchilar yelimlangan to`g`ri burchakni qarab chiqadilar va yelimlash sifatidagi farqlarni aniqlaydilar. Odatda, usti qog`oz bilan yopilib ishlangan detal usti toza, tekis, burmalarsiz bo`ladi.

Qog`oz namlanishida nima sodir bo`ladi? (II sinf) Qog`oz varag`ida (buning uchun yozuv, rasm qog`ozini olish mumkin) o`quvchilar 90x90 yoki 100x100 mm o`lchamli kvadratlarni

belgilaydilar. O`zlariga ma`lum usullarning biri bilan varaqdagi bo`ylama yo`nalishni aniqlab, kvadratlarida kerakli belgilar qo`yadilar, masalan, 11-rasmdagidek strelkalar bilan ko`rsatiladi.



11-rasm. Bir tomondan qog`oz namlanishi tajribalari:

1 – ikki o`zaro perpendikulyar chetlar bo`yicha qog`oz varag`ining namlanishi; 2 - qog`oz aylanani suv yuzasiga joylashtirib pastki yuzasining namlanishi; 3 - qog`oz tarnovchadek egilib, uning uchlari qog`oz varag`ining bo`ylama yo`nalishiga mos keladi.

Kvadratlarni kesib olib, o`quvchilar ularni oldilariga qo`yib mo`yqalam yoki yumshoq matodan tampon bilan varaqning ikki o`zaro perpendikulyar chetlarini suv bilan namlab, qog`oz bilan nima yuz berishini kuzatadilar. Bir necha soniyadan keyin qog`oz chetlarning biri bo`ylab tarnovsimon egiladi, uning uchi kvadrat chetlariga parallel bo`ladi (11.1-rasm). Kvadratning ikkinchi namlangan uchi bo`ylab taxlamalar hosil bo`ladi. O`quvchilar kvadratlarning birinchisida uning cheti qog`oz varag`ining bo`ylama yo`nalishiga, ikkinchisida ko`ndalang yo`nalishga to`g`ri kelishini aniqlaydilar.

Xulosa chiqariladi: qog`oz varag`i chetlari namlanishida o`zgarishi bo`yicha bu qog`ozda bo`ylama va ko`ndalang yo`nalishlarni aniqlash mumkin.

O`quvchilarga yuqorida ta`riflangan tajriba varintini ko`rsatish, keyin esa o`zlariga qilib ko`rishni taklif qilish foydalidir. O`qituvchi qog`oz varag`ida radiusi 90-100 mm bo`lgan aylana belgilab, uning ichida strelka bilan bo`ylama yo`nalishni belgilaydi. Keyin

belgilangan aylanani kesib olib, likopcha yoki surat vannachasiga solingan suv yuzasiga joylashtiradi (11.2-rasm). 2-3 soniyadan keyin, aylanacha suvdan olinib, ho'l tomoni bilan kaftga qo'yiladi. O'quvchilar qog'oz ancha tez tarnovdek egilishini ko'radilar, u ko'pincha o'ralib qoladi. Tarnovcha uchi va qog'ozning bo'ylama yo'nalishi mos kelishini o'quvchilarga ko'rsatish qoladi (11.3-rasm).


O'qituvchi o'quvchilar diqqatini chetlari yuqoridan namlangan kvadratda bo'ylama uchda tarnovcha yuqoriga tomon egilgani, pastdan namlangan aylana tarnovchasi ham yuqoriga tomon egilganiga qaratadi. Bu tasodifmi? yo'q. Bu savolga o'quvchilarni qiziqtirish va uning amaliy ahamiyatini yaxshiroq o'zlashtirilishi uchun ularga mustaqil nazorat tajribasini o'tkazishni taklif qilish mumkin.

Bolalar qog'oz varag'ida ikkita bir xil aylana belgilab, ularni kesib oladilar va suv yuzasiga turli tomonlari bilan qo'yadilar: birining belgisi yuqorida, ikkinchisi – pastga. Ularni oldingi tajribada qilingandek, bir vaqtda kaftga o'tkazilsa, qanday o'zgaradi? (Bir xil: aylanachalar uchlari tarnovcha hosil qilib yuqoriga ko'tariladi; ularning uchlari qog'oz varag'ining bo'ylama yo'nalishiga to'g'ri keladi) Nima uchun? (Suv yuzasiga joylashtirilgan qog'oz darrov namlanmaydi. Uning pastki qatlami tezroq namlanib, uning tolalari ustki qatlam tolalariga nisbatan oldinroq shishib cho'ziladi. Bunday cho'zilish qog'ozning tarnovchadek egilishiga olib keladi).

Yuqorida ta'riflangan tajribalarni o'tkazishda qog'oz qanday o'zgarishini o'quvchilar yaxshiroq tushunib olishlari uchun darsdan tashqari mashg'ulotlarda qog'oz bir paytda ikki tomonidan namlanuvchi tajribalarni o'tkazish vazifasini berish foydali.

**Namlanishning qog'oz mustahkamligiga ta'siri. (III sinf)**  
Uchinchi sinf o'quvchilari turli qog'oz va karton turlarining muhim xususiyatlari, xususan qog'oz va karton mustahkamligini taqqoslash bo'yicha tajribalar va kuzatishlar o'tkazadilar.

Qog'oz namlanishida uning mustahkamligi, ya'ni yirtilishga qarshiligi kamayadi. O'quvchilar qog'oz namlanishi bilan bog'liq ishlarni ko'p bajarishi uchun, masalan, qog'oz detallariga yyelim yoki kleyster surtish, qog'ozdan tayyorlangan detallarning mustahkamligiga namlanish ta'sirini hisobga olishlari muhim.



12-rasm. Namlanishda qog`oz mustahkamligining o`zgarishi:  
 1 - qog`oz yo`lni o`rtasini namlash; 2 - qog`oz yo`l cho`zilishi – namlangan joydan uziladi

O`qituvchi shunday tajribani ko`rsatadi. Qog`oz varag`idan 200-220 mm uzunlik 15-20 mm kenglikdagi qog`oz yo`l kesib olinadi. Uni ikki chetidan ushlab, o`rtasi suvga solinadi. Suvga 1,5-2 daqiqa ushlab turib, undan ortiqcha suvni qoqib o`qituvchi uni o`quvchilarga ko`rsatadi va qog`oz yo`lni qarama-qarshi tomonga ikki uchidan tortishda qayeridan uzilishini so`raydi. Qog`oz yo`l eng ko`p namlangan joyidan, ushbu tajribada - qog`oz o`rtasidan uziladi (12-rasm). Xulosa: qog`oz namlanishda o`zining uzilishga bo`lgan mustahkamligining bir qismini yo`qotadi.

**Qog`oz va karton buyumlarning tirishishi. (IV sinf)** II va III sinflarda texnologiya darslari da o`quvchilar yelimlashda qog`oz va karton tirishish va buyumlar yuzi qiyshayib pala-partish ko`rinishini ko`p marta uchratadilar. Ish usullari bo`yicha o`qituvchi ko`rsatmalari o`quvchilarga tirishish oldini olish yoki uni kamaytirishga yordam beradi.

IV sinfda o`quvchilar karton qog`oz buyumlar tirishishi sabablari to`g`risidagi o`z bilimlarini umumlashtirish uchun yetarlicha kuzatishlar to`playdilar. Qog`oz namlanishi bilan bog`liq yuqorida ta`riflangan tajribalarni bajarib, o`quvchilar qog`oz detallar yyelim eritmasidan namni shimishda cho`zilishi, ma`lum sharoitlarda esa burmalanishi va tirishishini aniqlaydilar. Bu tirishish detallar notekis namlanishida ayniqsa sezilarli bo`ladi.

Tirishishning yana bir sababi bo`lib, uni buyum tayyorlashda qog`oz va kartondan foydalanuvchi har bir kishi bilishi kerak. Namlangan qog`oz qurishdan keyin o`lchamlari kichrayadi – kirishadi. Bu kirishish ancha bo`lib, tirishishga olib keladi:



yopishtirilgan qog`oz detal qurishda o`lchamlari qisqarib, o`zi yopishtirilgan materialni tortadi va uning tirishishini chaqiradi.

Tirishishni kamaytirish uchun kam namli quyuq yelimdan foydalanishga harakat qilish, uni tez, butun detal yuzasini yupqa qatlam bilan qoplashga harakat qilib surtish kerak. Yassi karton buyumlar va ularning detallarini ikki tomondan qog`oz bilan yopishtirish yaxshiroq. Hamma hollarda, imkoni bo`lsa, buyumlarni press ostida quritish kerak.

### **Kartoning asosiy turlari va undan foydalanish. (III sinf)**

Yupqa karton bilan ishlashni o`quvchilar III sinfda qog`oz bilan ishlashning asosiy usullarini o`zlashtirish va bu material tasnifi hamda muhim sifat xususiyatlari, qog`ozning muhim xususiyatlari to`g`risida yetarlicha tasavvur to`plagandan keyin boshlaydilar.


3-sinf o`quvchilari karton, uning turlari, tasnifi, muhim xususiyatlari, qo`llanishi va ishlov berish usullari to`g`risidagi ma`lumotlarini umumlashtirish uchun o`qituvchi texnologiya darslari da turli metodlardan foydalanadi: aytib berish va tushuntirish, suhbatlar, ko`rsatib berishlar, kuzatishlar va eng oddiy tajribalar. Amaliy ishlar jarayonida kartondan turli buyumlar va ularning detallarini tayyorlashda o`quvchilar bularni bilib oladilar.

Turli amaliy maqsadlarda qo`llaniluvchi material sifatida karton to`g`risidagi ma`lumotlarni o`quvchilarga asta-sekin berib borish maqsadga muvofiq bo`lib, ular o`quvchilar bu material turlari, uning muhim xususiyatlari, qo`lda ishlov berish xususiyatlari, buyumlardan foydalanish sharoitlari to`g`risida tasavvurlarning to`planishiga qarab beriladi. Bunday ma`lumotlarni o`quvchilarga berish uchun materialni tanlashda o`qituvchi odatda o`quvchilarda to`plangan hayot tajribalaridan foydalanadi.

O`quvchilar odatda kartondan jilddan, kitob muqovalari, qutilar, stol usti o`yinlar, poyafzal tayyorlashda qo`llanish, o`quv ko`rgazmalar tayyorlashda foydalanilishini eslaydilar. O`quvchilarga kartondan ishlab chiqarishda, qurilishda foydalanilishi, masalan asosi bitum shimdirilgan kartondan iborat bo`lgan tol va ruberoidning qo`llanishi to`g`risida hikoya qilib berish foydali.

Ko`p tarqalgan karton turlari namunalarining sinf to`plamini birgalikda tuzish karton, uning qo`llanishi, asosiy turlari va xususiyatlari to`g`risidagi bilimlarni umumlashtirish va

tizimlashtirishga yordam beradi. Vazifasiga ko`ra hamda karton tayyorlash tarkibi bo`yicha tizimlangan karton namunalarini to`plash alohida qiziqish kasb etadi. O`quvchilar e`tiborini kartonlarning qalinligi, zichligi, yuza pardozi, rangiga ko`ra tasniflashga qaratish muhim. Masalan, aytish mumkin: pressshpan – yuqori zichlik va mustahkamlikdagi karton, elektrokarton – silliq yaltiroq yuzali zich karton, rangli karton. Karton bilan umumiy tanishib chiqqach o`quvchilar ishlarni bajarish uchun karton tanlashga ongli yondasha boshlaydilar.



13-rasm. Karton xususiyatlarini o`rganish:

1 – kartonning sinf ko`rgazmali majmuasi; 2 – karton asosiy xususiyatlarini o`rganish uchun karton tarqatma namunalari to`plami

O`quvchilarga kartonning hamma turlari ham kichik maktab o`quvchilari kuchlari bilan ishlov berishga to`g`ri kelmasligini tushuntirish zarur. Masalan, texnologiya darslari da nisbatan yupqa - qalinligi 1-1,5 mm bo`lgan kartonlardan foydalanish mumkin.

Kartonning ba`zi turlari, masalan pressshpan, poyabzal kartoni, elektrokarton, shunchalik yuqori zichlik va mustahkamlikka egaki, ularni nafaqat oddiy qaychi, bichish qaychilari bilan ham kesib bo`lmaydi. Boshlang`ich sinf o`quvchilariga kartonni chiziq bo`ylab

pichoq bilan kesish operatsiyasi to`g`ri kelmaydi, chunki katta mushaklar kuchini talab etadi.

Karton to`plamini tuzishda qog`oz to`plamini tuzishdagidek namuna tanlash, joylashtirish va belgilashga bo`lgan yondashuv saqlanib qoladi (13-rasm).

**Qog`oz va karton xususiyatlarini taqqoslash.** Qog`ozning eng yaqin qarindoshi karton bilan tanishishda, uning buyumlar yasashda amaliy qo`llanishida uning xususiyatlarini qog`ozning o`xshash xususiyatlari bilan taqqoslash foydali. Bunday qiyoslash, taqqoslashlar birinchi darajali politexnik ahamiyatga ega, barcha materiallarning texnologik xususiyatlari to`g`risida o`quvchilar bilimlarining to`planishi va tizimlanishiga yordamlashadi – bu xususiyatlarni bilmasdan materiallarda ishlov berishni amalga oshirib bo`lmaydi.

O`qituvchi qog`oz va karton namunalarini ko`rsatib, bu materiallarning o`rtasida tayyorlanish materiallari bo`yicha ham, usullari bo`yicha ham ahamiyatli farq yo`qligini ma`lum qiladi. Bundan tashqari 1 m<sup>2</sup> 250 g og`irlikdagi kartonni ko`pincha qog`oz deb ta`riflaydilar.

Oddiy tajriba va kuzatishlar qatori bilan o`quvchilar karton qog`oz kabi tolali tuzilishli varaqli material ekanligini aniqlaydilar. Qog`oz kabi karton ham asosan o`simlik tolalaridan iborat bo`lib, ularning oralari yyelimli maxsus to`ldiruvchilar bilan to`ldirilgan.

O`quvchilar qog`oz va kartonning kichik bo`laklarini yirtib olib ularni yirtilish chiziqlarini kuzatadilar. Ular qog`ozda tolalar mayda va bir turli, kartonda esa ancha yirikroq, qo`polroq va bir turda emasligini aniqlaydilar. O`qituvchi yordamida o`quvchilar bu nafaqat qog`oz tayyorlashda asosiy xom ashyo – tolali massa yaxshiroq maydalanib aralashtirishishiga, balki kartonni tayyorlashda odatda qo`polroq va arzonroq materiallar poxol va qamishning qo`llanishiga ham bog`liq ekanligini tushuntiradilar.

O`qituvchi yirtishda yoki ko`p marta bukishda qatlamlarga ajraluvchi karton namunalarini ko`rsatib, sinfga savol beradi: nima sababdan qatlamga ajralish ro`y beradi. U karton ishlab chiqarishda uni tayyorlashning ikki usuli qo`llanishini gapirib beradi. Birinchi usul bo`yicha karton taxminan qog`oz quyilishidek qo`yiladi: ortiqcha suv siqib olinadi, quritiladi, yuzasi pardozlanadi.

Ikkinchi usul bo'yicha dastlab qo'pol qog'oz varaqlari tayyorlanadi, ular keyin bir necha qatlam qilib yyelimlanib, ancha-muncha qalin va mustahkam karton olinadi. Ba'zan bunday kartonning ustki qatlami yuqoriroq sifatli yoki boshqa rangdagi qog'oz bilan yyelimlanadi. Bunday karton ba'zan qatlamlarga ajraladi.

O'qituvchi taklifi bilan uchinchi sinf o'quvchilari qo'lbola kartonni bir necha qog'oz qatlamini yelimplab tayyorlashlari mumkin. Bunday qo'lbola karton qurishda tirishib qolmasligi uchun uni bir necha qatlam qog'ozga o'rab, press ostida quritish kerak. Quritish jarayonida qog'ozni bir necha marta almashtirish yana yaxshiroq - bu qurishni tezlashtiradi va karton yuqoriroq sifatli bo'ladi.

Qo'lbola karton tayyorlash ishini amalga oshirishda politexnik taqqoslash – yelimplangan kartonni yyelimplangan fanera va qatlamli plastiklar bilan solishtirish, shuningdek bolalarni pape-mashedan buyumlar tayyorlash bilan tanishtirish foydali.

Qog'oz va karton namunalarini bir vaqtda ko'rib chiqish va o'quvchilarga ularning sifatli xususiyatlarini ko'rsatib, o'qituvchi o'quvchilarga karton qog'oz kabi yupqa va qalin, silliq va g'adir-budir, zich va g'ovak, egiluvchan va sinuvchan, yaltiroq va yaltiramaydigan yuzali, rangli bo'lishi mumkinligini ko'rsatib beradi. Materiallarning sifat xususiyatlarini taqqoslash o'quvchilarning barcha materiallarning muhim xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlarini aniqlashtirish va umumlashtirishga yordam beradi.

O'quvchilarning karton to'g'risidagi bilimlarini umumlashtirish va mustahkamlashtirish uchun tayyorlanishida kartondan foydalaniladigan buyumlar ro'yxatini birgalikda tuzishni taklif qilish foydali. O'quvchilar sanoat va oziq-ovqat tovarlarini joylashtirish uchun qutilar, kitob muqovalari, jildlar, albomlar, chemodanlar, poyabzal astarlari, o'quv qo'llanmalarini aytadilar.

O'quvchilarga karton va qog'oz bilan ishlashda qaychi bilan qirqish, elimlash, ishlob berishda asbob-uskunalrni ishlatish usullarini, ehtiyotkorlik qilish lozimligini xavfli tomonlarini tushuntirib, texnik xavfsizlik malakalari singdiriladi. Dars jarayonini boshlashdan avval o'qituvchi o'quvchilarga har bir mavzuga oid texnika xavfsizlik qoidalarini aytib o'tadi va o'quvchilarni dars jarayonida kuzatib boradi, ba'zi eslatmalarni eslatib o'tadi:

1. Ish joyini to'g'ri tashkil qilish;

2. Foydalanadigan jihozlarni tayyorlab qo'yish;
3. O'tkir tig'li asboblardan ehtiyotkorona ishlash ;
4. Qaychini uzatishda o'tkir tomonidan ushlab uzatish;
5. Yelimdan foydalanib bo'lgandan so'ng, qo'lni sovunlab yuvish;
6. Ish stolini tozalab qo'yish.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Qog'oz va karton haqida tushuncha bering.
2. Qog'oz va kartonning ishlab chiqarishdagi xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Ish joyini tashkil qilish yo'llarini sanang.
4. Qog'ozning turlari haqida ma'lumot bering.

## **21-MAVZU. TURLI XIL MATERIALLAR BILAN ISHLASH DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI**

### **Reja:**

1. Turli xil materiallar haqida tushuncha.
2. Turli xil materiallarni to'plash va ishga tayyorlash
3. Turli xil materiallardan turli buyumlar yasash texnologiyasi.
4. Ish joyini to'g'ri tashkil etish talablari.
5. Texnika xavfsizligi qoidalari.
6. Turli materiallar bilan ishlash darslarida tejamkorlik.

*Mavzuga oid tayanch tushunchalar:*

*Turli xil materiallar turlari, noorganik materiallar, ish joyini to'g'ri tashkil qilishga talablari, xavfsizlik qodalari.*

**Turli materiallar bilan ishlash.** Plastilin va noorganik materiallar: loy, qum, sement, yog'och, folga, yumshoq sim, tunuka bilan ishlash. Turli materiallar bilan ishlash 1-sinf Texnologiya darsligida tabiiy materiallar bilan birgalikda o'tiladi. Bunda o'quvchilar tabiiy va turli materiallardan foydalanib turli hayvonlar, gullar yasashni o'rganadilar.



Yog'och bilan ishlash. Yog'och zagotovkalarini qirqish bo'yicha barcha operatsiyalarni taxtaning ustida bajaradilar. Arra, qo'larra yoki lobzik bilan ishlanganda, belgilangan detallarni kichik tiskalar yoki iskanja (lobzik nabori) bilan siqib qo'yiladi. Yog'ochdan yasalgan detallarni kozein yoki o'qituvchi tayyorlagan yog'och elim vositasida yopishtirish nazarda tutiladi. Bunday ishlar uchun o'qituvchii bolalar elimlagan yog'och detallarni press yoki iskanjada qurita olishlari uchun joyni oldindan tayyorlab qo'yishi kerak. O'quvchilar yog'ochdan yasalgan detallarni mayda mixlar yordamida mustahkamlash bilan tanishadilar, bslg'a bilan to'g'ri ishlash usullarini o'rganadilar. Buning uchun ularga mix qoqiladigan joyni bur bilan qanday belgilash, bolg'ani qanday ushlash, yog'och detallarga jilvir bilan qanday ishlov berish kerakligini ko'rsatish lozim. Bolalar gigiena va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishlarini, mehnat madaniyati qoidalarini bilishlari va unga amal qilishlarini qat'iy nazoratda tutmoqlik lozim. Masalan, ish vaqtida haddan tashqari ortiqcha egilmaslik, yog'och changini yutmaslik, chiqindilarni ehtiyotkorlik bilan to'plash, ish joyini ish tugashi bilanoq yig'ishtirish va shu kabilardan iboratdir.

«Texnik modellash» – oddiy uchadigan, suzadigan, yuradigan texnik o'yinchoqlarni, shuningdek, sxematik namunalar asosida modellarni yasash mehnatning maxsus turi sifatida ajratilgan.

Shuni aytish kerakki, ilgarilari klub-to'garak tipidagi darsdan tashqari mashg'ulotlarning vazifa va mazmuni bilan mustahkamlangan texnik modellash bo'yicha temalar texnik texnologiya darslari ning boshqa barcha temalari bilan organik birikib ketadi. Dastlabki darslaridayoq o'quvchilar tabiiy materiallar, qog'oz va karton, gazmol, turli materiallar bilan ishlar ekanlar, texnika

elementlari bilan tanishadilar, qism va detal, oddiy razvyortka, detallarni biriktirishning kattiq, suriladigan, olinadigan usullari va buyumlar haqidagi tasavvurga ega bo'ladilar. Bolalar detallarni biriktirishning turli usullari, shuningdek, mix bilan «tirqish qoldirib biriktirish» kabilar bilan tanishadilar. Bir yoki bir nechta detallardan tashkil topuvchi oddiy narsalar misolida bolalar pishqlikni oshirish, ishqalanishning zararli ta'sirini bartaraf etib, foydali ta'siridan foydalanish, o'zlari ishlayotgan materiallarning tuzilishi haqida tasavvurga ega buladilar. Bolalarda narsalarni yasash ustida ishlash tartibi mo'ljallash, tayyorlash, yig'ish, bezash, amal (harakat)da tekshirish, nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, ish joyini to'g'ri tashkil qilish kabilar xaqida tasavvuri shakllanadi. Bularning barchasidan keyinchalik modellar hamda texnik o'yinchoqlarni yasashda foydalaniladi, ular bolalarning ijodiy fikrini o'stiradi, bolalarga to'plagan mehnat tajribalarini atroflaridagi texnika bilan bog'lashlariga yordam beradi. Qishloq xo'jalik mehnati gul-dekorativ va sabzavot ekinlarini maktab tajriba uchastkasi hamda xona sharoitlarida o'stirish ishlarini uz ichiga oladi. Qishloq xo'jalik tajribashunosligiga katta e'tibor beriladi. Bolalar o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sharoitlar, o'simliklarni «urug'dan- urug'gacha» o'stirish, qalamcha qilish, ko'chatdan o'stirish, bachki shoxlarni qirqish, mevali bog'dagi bir qator ishlar bilan tanishadilar. Bolalar o'z kuzatishlarida ko'rib va ularni takrorlab o'zlari yaratgan sharoitlarda o'simliklarning turlicha o'sishi va rivojlanishi yuzasidan olib borgan ishlarining natijalarini qiyoslash va tahlil qilishni o'rganadilar. Ilgari planlashtirilgan tajribalarning yakun va xulosalari bolalarni biliminn mustaqil egallashga, oddiy tadqiqotlar olib borishga, tabiatda sodir bo'layotgan hodisalarning sabablarini axtarish va asoslashga o'rgatadi. Qishloq xo'jalik mehnati darslarining aqlni o'stiruvchi xususiyatlari va ahamiyati mana shundadir.

III sinf texnologiya fani programmasi boshlangich ta'lim yillari davomida egallangan bilimlarni mehnatda qo'llashga oshirilgan talablar qo'yishni nazarda tutadi.

Texnologiya fani mazmunidan kelib chiqib bolalar o'qituvchi rahbarligi ostida oddiy yigma chizmalarni o'qishni o'rganadilar, bu narsalarning detallarini uzlari chizadilar yoki belgilaydilar. Bu

maqsadda predmet chizmada 2 – 3 ko‘rinishda («oldindan ko‘rinishi», «tepadan ko‘rinishi» va «yon tomondan kurinishi») ifodalanadi. Bu bolalarning har bir detal o‘lchamlarini topishlari uchun zarurdir. Detallar, odatda, predmet (parsa, buyum) namunasi yoki uning texnik rasmi mavjud bo‘lganda razmetka qilinadi.

Bolalarga avval texnologiya darslarini planlashtirish va o‘tkazishda ajratilgan yangi bir qator programm bilim hamda ko‘nikmalar beriladi.

III sinf texnologiya fani programmasi talablari qisqacha ko‘rinishda quyidagichadir.

O‘quvchilar yasashlari lozim bo‘lgan narsaning chizmasini tuzish bilan tanishadilar. Bu maqsadda ular chizmada aks ettirilishi lozim bo‘lgan predmet va detallarning o‘lchamini bilish uchun namunalarni o‘lchaydilar, predmetlardan andaza oladilar. Sungra ular uz chizmalari bo‘yicha razmetka qiladilar. Chizmalar berilgan razmer, va texnik, shartlar, shuningdek, o‘quvchining o‘zi o‘ylab topgan fikr bo‘yicha ham chizilishi mumkin.

Asosiy e’tibor turli materiallarga ishlov berishning kiritilishi turli materiallardan tayyorlangan bir necha detalli narsalar tayyorlash, bu detallarni buyumda birlashtirish va ularni turli usullar bilan biriktirish, kartonchani pichoq bilan kesib ishlov berish, lobzik arra bilan tanishish, yogoch, karton, yumshoq tunukadan tayyorlangan zagotovkalarda teshiklar ochishni o‘rgatishga qaratiladi. Imkoniyati bor joylarda yangi sun’iy materiallar: shaffof plyonka, yumshoq plastik massa (pirolon, penoplast) kleyonka, plastik - materiallar, sun’iy mo‘yna va shu kabilardan narsalar tayyorlashni kiritish lozim. Hozirgi kunda bu materiallarning chiqindisi ko‘p bo‘lib, maktablar ularni bemalol topa oladilar.

Ish vaqtida «ish qoidalariga» qat’iy rioya qilinadi. Butun e’tibor xilma-xil qoidalar «asbob va materiallarni asra, avayla», «doimo ishni yaxshiroq qilishni o‘yla» kabi rioyalarga qaratiladi. Bolalar elektr modellashga mo‘ljallangan ish joyini tayyorlash va uni tartibli saqlash bilan maxsus tanishadilar.

Bolalarning uch yil davomida ishlatgan va to‘qnash kelgan turli materiallarining xususiyatlari haqidagi programma bilimlariga yakun yasaladi hamda umumlashtiriladi. Bu ish asosan ikki yo‘nalishda olib boriladi: 1) o‘qituvchi o‘quvchilardan materiallarning xususiyatlari



haqidagi bilimlaridan xilma-xil narsalarni yasashdagi amaliy ishlarida foydalanishni talab qiladi; 2) ayni bir namunani turli belgilari kelib chiqishi, mo'ljallanishi, xususiyatlari, tashqi bezagiga kura kvalifikatsiya qila bilishni talab qiladigan material va detallar namunalarining turli kolleksiya va naborlarini tuzish;

O'qituvchining programma talablarini amalga oshirish bo'yicha intilishlarini, birinchidan, mexnat darslariga rahbarlik qilish metodikasini egallash, ikkinchidan, texnologiya darslari uchun asbob-uskuna va materiallar zapasini yaratishga yo'llash zarur.

1. Butun yoz va o'quv yili davomida maktabning ma'lum belgilangan joyida tabiat, uydan, otaliqqa olgan korxonalaridan keltirilgan materiallar: korobka, upakovka materiallari, qog'oz, ip, shpagat, sim, laxtak, tunuka, folga, reyka, faner, gula, tabiiy materiallar, yangi sun'iy materiallarning chiqindilaridan tayyorlangan zagotovkalar.

2. Yuqori sinflar aktiv o'quvchilari pionerlardan maxsus komissiya yoki brigadalar tuzilib, ular boshlang'ich sinflar texnologiya darslari da qo'llaniladigan asbob-uskunalar va detallarni mustahkamlaydigan materiallarning holati, saqlanishi va remontini o'z zimmalariga oladilar.

Texnologiya resurslarida foydalaniladigan asbob va uskunalar komplekta, detallar, moslamalar ro'yxati 1-ilovada hamda I va II sinflar qo'llanmalarida berilgan.

Boshlang'ich sinf, ayniqsa III sinfda, texnologiya darslarining moddiy jihozlangan bo'lishi – boshlang'ich ta'limning yangi programmasiga ko'chgan har bir maktab direktori, ilmiy bo'lim mudiri, barcha pedagoglarning vazifasidir.

Biroq hamma gap faqat asbob-uskunaga taalluqli deb o'ylash xatodir. Shunday misollar borki, maktabda hamma material va asbob-uskunalar mavjud, ammo texnologiya darslarining darajasi juda past.


Bu o'rinda asosiy narsa – o'qituvchilarning boshlang'ich sinflardagi politexnik tayyorgarlik bo'yicha mexnat darslarining programmasidagi barcha yangi narsalarni chuqur o'zlashtirilishi lozimligini anglashlaridir.


Texnologiya politexnik tayyorgarlik programmasi boshlang'ich ta'lim predmetlar sistemasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Obrazli qilib aytganda, «aql ishini qo'l ishi bilan boglamay turib» matematika


va rus tili, tabiatshunoslik va rasm programma talablarini bolalar o‘zlashtira olmaydi, oktyabryat va pionerlar kollektivini, har bir o‘quvchi shaxsini rivojlantirish bo‘yicha darsdan tashqari ishlarni etarlicha yuqori darajada amalga oshirib bo‘lmaydi. O‘qituvchilar buni tushunib, qalblari bilan his qilganlaridan so‘nggina, texnologiya darslarining samaradorligini oshirishning yo‘l va vositalarini har qanday qiyin sharoitda ham axtarib topadilar. Ular uchinchi sinf texnologiya programmasini o‘z sinf va maktablarining turli sharoitlarida eksperimental tekshiradilar, demak, I – III sinflar uch yillik texnologiya darslari programmasini bolalar qay darajada uddalashlarini tekshirish bo‘yicha katta va muhim ishni muvaffaqiyatli yakunlashga o‘z hissalarini qo‘shadilar.

III sinfda texnologiya darslari to‘g‘ri tashkil etilsa o‘quvchilar texnologiya darsida istalgan predmetlarni yasay biladi. O‘quvchilar mehnatini to‘g‘ri tashkil etishda eng muhimi, amaliy ishga mo‘ljallangan topshiriqni to‘g‘ri tushuntirishdir.

**TURLI GEOMETRIK SHAKLLARDAN HARAKATLANUVCHI MODELLAR QURISH-YASASH**

 Kichik hajmdagi bo‘sh qutichalardan harakatlanuvchi mashina modelini yasab ko‘ring.



 Harakatlanuvchi mashina model qismlarini to‘g‘ri belgilab oling.

44



Mashina g‘ildiraklarini yasashda plastmassa qopqoqdan foydalaning.



5



6

45



7



Haydovchi erta tongdan kun botgunga qadar odamlarni o'z manzillariga bexatar yetib olishlari uchun xizmat qiladi.

Haydovchilik kasbi doim ziyraklik, hushyorlikni talab etadi.

46

Har bir topshiriqning mazmuni bolalarda ko'nikma va malakalar, texnik tafakkur, mehnatga qanday yondashishning shakllanishi va rivojlanishiga yordam berishi, shuningdek ularning ishdagi mustaqilliklarini ta'minlashi lozim. Bu o'rinda o'quvchilarning qiziqishlari va individual xususiyatlarini nazarda tutish kerak. Shuning uchun mehnat topshiriqlarini tuzishda ularga quyidagi o'quv vazifalarini hal etish uchun zarur bo'lgan bir qator ma'lumotlarni kiritish lozim.

1. Buyumning konstruksiyasi, tuzilishi, asosiy qismlarini biriktirish usullari va nimaga mo'ljallanganligini tushuntirish.

2. Bolalarni narsani tayyorlash ishining umumiy plani va ishni bajarish tartibi bilan tanishtirish.

3. O'quvchilarni material-zagotovkani tanlash bilan tanishtirish.

4. Razmetka qilish jarayoni bilan tanishtirish.

5. O'quvchilarni narsani yasash bo'yicha boshqa operatsiyalar va ularni kontrol qilish bilan tanishtirish.

6. O'quvchilarda turli texnologik, texnik, shu jumladan, konstruktorlik masalalarini hal etish ko'nikmalarini shakllantirish.

O'quvchilarga topshiriqni quyidagi tartibda, ya'ni o'qituvchi buyumning namunasini tayyorlab, sinf doskasida ayrim detallarning texnik rasmlarini va ularning razvyortkasini aks ettirib berishi o'zini oqlaydi. O'qituvchi narsaning rasmini ko'rsatib, uning asosiy qismlari nomini (masalan, fyuzelaj, old qismi, qanoti, stabilizator) tartibi bilan aytadi. Bunday tushuntirish o'qituvchi oldindan tayyorlab qo'ygan modelni ko'rsatish davrida ham qilinishi mumkin. So'ngra o'qituvchi detallarning texnik rasmlari va razvyortkalari yordamida bolalarni

mehnat ob'ektining detallari hamda ularni tayyorlash va yigishning umumiy ish plani bilan tanishtiradi.

1. Samolyot modelining qismlarini o'rganish (rasm buyicha). 2. Qog'oz tanlash. 3. Detallarni razmetka qilish (shablon bo'yicha). 4. Detallarni qirqish. 5. Detallarni egish va elimlash. 6. Modelni yig'ish. 7. Modelni uchirib sinash va tekshirish. Birinchi navbatda bolalarga zagotovkani tanlashni o'rgatish kerak: avval rasm va namuna bo'yicha detal shaklini, uni tayyorlash mumkin bo'lgan materialni, so'ngra razvyortka bo'yicha detalning o'lchamlarini aniqlab chiqish lozim. Bolalarga belgilangan razmerlar detalning gabarit o'lchamidan 5 – 10 mm katta bo'lishi (ya'ni, pripusk kattaligida) kerakligi aytib qo'yiladi. Agarda tayyor zagotovkalar bo'lsa o'quvchilarga ularni o'lchab chiqish, uning detal tayyorlash uchun yaroqliligini, undan detal chiqish- chiqmasligini aniqlash topshiriladi. Topshiriqlarni tushuntirishda razmetka jarayoniga katta e'tibor beriladi. Topshiriqning murakkabligi razmetkaning qaysi usulda texnik rasm yoki shablon bo'yicha qilinishiga bog'liq buladi.

III sinfda bolalarga razmetkaning izchilligini rasmdan ko'rsatishda eng oddiy texnologik kartaga murojaat etilib, uning quyidagi bosqichlari tushuntiriladi:

1. Asosiy chiziqlarni tanlash va to'g'ri burchakni razmetka qilish. 2. Gorizontal chiziqlarni, 3. Vertikal chiziqlarni, 4. Qiya chiziqlarni utkazish. 5. Detallarda teshik, kesma elementlari va shu kabilarni razmetka qilish va tekshirish.

Topshiriqlarni tushuntirish va o'quvchilarga instruktaj berishni kontrol savol, texnik va texnologik savollar berish bilan yakunlash foydalidir. Bu savollar taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin.

1. Narsaning nomi nima? U qanday qismlardan tarkib topgan?

2. Narsaning detallarini qanday materialdan tayyorlagan ma'qul? Nima uchun?

3. Detalning qanday qismlari bor? Nima uchun detalning aynan shu formasi tanlangan?

4. Detallarning forma va razmerini (qurilmani yaxshilash maqsadida) qanday o'zgartirish mumkin?

5. Detallarning materiallarini almashtirish mumkinmi? Nima uchun?

6. Detallarni qanday izchillikda tayyorlash lozim?

7. Zagotovka qanday tartibda razmetka qilinadi?

8. Detallar qaysi asbob va moslamalar yordamida tayyorlanadi?

9. Boshqa asbob va moslamalardan foydalanish mumkinmi?

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga texnologiya fani ni berishning muhim vazifalaridan biri texnik texnologiya darslaridagi amaliy ishlarni bajarish jarayonida bolalarning konstruktorlik ko'nikma va qobiliyatlarini o'stirishdir.

Ishga konstruksiyalash vazifalarining kiritilishi o'qituvchiga texnik modellar yasash mashg'ulotlarini o'tkazishida yordam beradi, chunki konstruksiyalash texnik modellar yasashning tarkibiy elementi hisoblanadi. Texnik modellashda oddiy predmetlarni qog'oz yoki gazmoldan konstruksiyalash bo'yicha ishlar amalga oshirilgach, bolalarning ijodkorliklarini, texnik tafakkurlarini o'stirish uchun juda qulay sharoit yaratiladi. Ishlab chiqarishda konstruksiyalash, odatda, inson turmush faoliyatining turli sohalaridagi talablarini yaxshiroq qondirishni nazarda tutuvchi qulay, chiroyli, sanoat, ro'zg'or va boshqa buyumlarni loyihalash, tayyorlash jarayoni bilan aloqadordir. Estetik ifodalanganlikni, kompanovkaning ratsionalligini, foydalanishning kulayligi, pishiqligi, chidamliligini ta'minlovchi badiiy konstruksiyalash alohida muhim ahamiyatga egadir. Texnologiya darslaridagi konstruksiyalash ishlari bolalarning politexnik tasavvurlarini rivojlantiradi, narsalar yasashdagi mustaqilliklarini, tashabbus va ijodlarini ustiradi. Biror predmet shaklini yaratishdagi texnologik asoslarni pishiq egallashlariga, konstruktorlik fikrlarini materialda mujassamlashtirishlariga yordam beradi. Qog'ozdan narsalar yasash bo'yicha ishlarni bajarishda konstruksiyalash elementlariga o'rgatish o'z xususiyatlariga ega bo'lib, buni o'qituvchi nazarda tutishi lozim. Narsalar konstruksiyasi va texnologik jarayonlarni o'qituvchi quyi sinflar o'quvchilarini o'qitish xususiyatlari, shunga muvofiq ishlarni texnologiya darslarida amalga oshirish imkoniyatlarini hisobga olib tanlaydi. Buning uchun o'qituvchi qog'ozdan predmetlarni konstruksiyalashning mazmuni va xususiyatlarini bilishi, bu ishning quyi sinf o'quvchilariga texnologiya fani berishdagi vazifalarini tushunishi, konstruksiyalash ishini tarkib toptiruvchi bosqichlarni egallab olishi zarur. O'qituvchi o'quvchilarda konstruksiyalash bo'yicha xilma-xil, avvaliga konstruksiyaning o'zini, asl nusxalarini, o'z fikrini amaliy ro'yobga

chiqarishga asta-sekin yondashishi uchun oddiy masalalarni hal etish ko'nikmasini shakllantirishda ularga individual yondashishni amalga oshirishi zarur.

Narsalarni konstruksiyalash ishlarining asosiy mazmuni quyidagichadir:

1. Ob'ektni, narsaning nimaga mo'ljallanganligi hamda uning pishiqligi, chidamliligi, bezalishi, foydalanishga qulayligi, jihozlanishiga qo'yilgan talablarga muvofiqligini hisobga olib tanlash.

2. Narsaning ratsional konstruksiyasini asosiy va qo'shimcha detallarning shakli, o'lchami va sonini, ularni birlashtirish usullarini aniqlash.

3. Ratsional va foydalanishga qulay texnologiyani izlash, materiallar, bajarishning usul, vosita, tartib va sharoitlarini, yordamchi ishlov beradigan, yig'ish va bezash operatsiyalarini tanlash.

Texnologiya darslariga konstruksiyalash elementlarining kiritilishi o'quvchilar tomonidan yangi narsalarning yasalanishini shart qilib qo'yilmaydi. Agarda o'quvchilar, masalan, karnaval bosh kiyimlarini hech qachon tayyorlamagan bo'lsalar, ularga bu narsani konstruksiyalashning topshirilishi xato bo'lgan bo'lur edi, Konstruksiyalash bo'yicha dastlabki ishlar uchun tanish predmetlar, operatsiyalar va mehnat usullaridan foydalanish zarur.

Konstruksiyalash uch bosqichga bo'linadi:

a) fikr yuritish operatsiyalarini qamrab oluvchi aqliy konstruksiyalash – konstruksiyani o'ylash, uning asosiy qismlari, detallari ustida fikr yuritish, o'ylangan konstruksiyani ilgari ma'lum bo'lganlari bilan qiyoslash;

b) grafik konstruksiyalashda chizma va rasmlarni ma'lum fikr bo'yicha detallarning shakli, o'lchamlari va shu kabilarni kerakli hisob-kitoblar asosida aniqlab amalga oshirish.

v) predmet-manipulyativ konstruksiyalash, bunda oldingi ikki bosqich asosida tasvirlash, chizma yoki rasm bo'yicha ishni bajarishning fikriy va qo'l operatsiyalari birlashtiriladi.

Texnologiya darslarida konstruksiyalash ishlarining tartibi quyidagicha amalga oshirilishi mumkin.

1. Buyum namunasini tahlil qilish, qog'oz yoki boshqa materiallardan tayyorlangan qurilmalarni eslash.

2. Buyumning nimaga mo'ljallanganligini aniq bilib olish va

anglash.

3. Asosiy va qo‘shimcha detallarning shakli, o‘lchami, miqdorini kollektiv o‘rtasida muhokama qilish.

4. Muayyan materiallarni almashtirish imkoniyatlarini aniklash.

5. Buyumning dekorativ bezagini nazarda tutib eskizini yasash.

6. Narsani tayyorlash uchun zarur bo‘lgan operatsiyalarni, ularning izchilligini, operatsiyalarni o‘zgartirish yoki almashtirish imkoniyatlarini qayd qilish.

Ishdagi aniqlik va tartiblilik talablarini, o‘zini-o‘zi kontrol qilish xususiyatlarini anglash.

Sim bilan ishlash va undan o‘yinchoqlar yasash. Turli maydachuyda narsalarni yasashda xilma-xil simlardan foydalanish mumkin. Xlorvinil izolyasiyasi yoki usiz yumshoq sim to‘qish va o‘rib ishlash uchun yaroqlidir. Qattiq po‘lat yoki alyumin simdan texnik modellashda bir qator detallarni yasashda foydalaniladi. Bu simdan arava, avtomobil o‘qlari, suv parragi, yumshoq o‘yinchoklar va shu kabilarni tayyorlashda foydalaniladi.

Ishlab chiqarilayotgan simlarning ayrim xususiyatlari hakida ma’lumotlar. Chiqarilayotgan simlarning diametri 0,005 dan 17 mm gacha bo‘ladi. U asosan dumaloq kesimli bo‘ladi. Biroq kvadrat, olti qirrali, trapetsiyasimon yoki oval shakldagi simlar ham bo‘ladi. Simlardan turli maqsadlarda: elektr, radio, telefon simlari, prujinalar, mixlar, elektrodlar, ingichka parma, muzika asboblari uchun torlar yasash va shu kabilardan foydalaniladi.

Simdan tayyorlanadigan narsalardan turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Masalan, engil archa o‘yinchoqlari (xar xil to‘qilgan gullar, barglar va ustiga rangli ip o‘ralgan), turli o‘yinchoq suvenirnlarni yasash, agarda ma’lum tema bo‘yicha 2-3 figura birlashtirilsa, syujet kompozitsiya (masalan, «balet», «zoopark», «muzikantlar» kabi)larni yaratish mumkin. Bu o‘yinchoqlarda o‘quvchilar o‘z ijodiy qobiliyatlarini namoyish etadilar. Karkaslarga rangli iplar, yumshoq, sim, gazlama o‘ralishi mumkin. Simdan yasaladigan har qanday o‘yinchoq bir bo‘lakdan hech qanday qirqishlarsiz, ulashlarsiz yasalishi kerak. Ayrim bo‘laklardan faqat bezash maqsadlarida foydalaniladi. Ishni oddiy narsalarni yasashdan boshlagan ma’qul.

Xo'tik, echki va shu kabilarni yumshoq simdan tanasini yasashdan boshlab, keyin oyoqlari, boshi, quloqlari qilinadi. Uni kiyintirish ham mumkin, buning uchun unga rangli ip o'rab chiqiladi. Ip, gazlamadan kokil, dum yasaladi, umuman figurani o'z istagiga ko'ra bezash mumkin.

Turli xil ajoyib odamchalarni yasash uchun 400 mm sim, har xil rangdagi qog'oz, gazlama, mo'yna, mochalka, rangli ip, shablon uchun qog'oz kerak bo'ladi. Avval narsa yasaladigan barcha detallar tayyorlanadi. Oyoq-qo'llar, gavda burab yasaladi, so'ngra xam-ma detallarni biriktirib odamcha yasaladi. Bu odamchani gavdasi karton taglikka o'riatiladi, kartondan bosh andazasi olinadi (ikki bo'lak) va ularni bo'yin, bosh xamda bosh bo'laklari bir-biriga muvofiq keltrib elimlanadi. Shundan so'ng uni o'z istagiga ko'ra bezaladi.

Yumshoq simdan xilma-xil o'yinchoqlarni yasash mumkin. Taklif etilayotgan rasmlar o'quvchida ijod va fantaziya cheksizligini oshiradi.

Simlardan jumboqlar yasash. Sim jumboqlar bir-biriga birikkan sim figuralardan iborat bo'lib, ularni butunligi va tashki ko'rinishini buzmay, ya'ni simlarni sindirmay va egmay bir-biridan ajratish kerak. Jumboqlarni yasashda o'rtacha qattqlikdagi 1,5—3 mm simlardan foydalaniladi. Sim jumboqlarning o'lchami cheklanmaydi, biroq ularni haddan tashkari mayda yoki kattalashtirib yubormaslik kerak.

Har bir sim jumboqni yasashga kirishishdan oldin natural kattaligida chizib ko'rish kerak. Bunda sim jumboqlarning turli detallari o'z mo'ljallangan joyiga qat'iy muvofiq kelishiga rioya qilish kerak.

Sim jumboklarni yasashda bolg'a, jag'i o'tkir, jag'i yassi va jag'i yumaloq ombirlar kerak bo'ladi. Simni barcha konturlar bo'yicha rasmga aniq muvofik keladigan qilib qirqish qiyin.

Xar bir sim jumboqda faqat figuralarni qanday ajratish yo'linigina emas, balki keyin ularni biriktira bilish ham muhimdir.

### **Plastmassalar**

Plastmassa sun'iy olingan modda bo'lib, unda molekulalar sintez yo'li bilan oldindan belgilangan tuzilishga olib kelinadi. Sun'iy yaratilgan moddalar *sintetik* ham deyiladi.

Sanoatimiz plastmassadan turli predmetlarni va kapron, neylon, organik oyna, paralon, polietilen va shu kabi xilma-xil to'qimalarni



ishlab chiqaradi. Zamonaviy ximiya sanoati shunday materiallarni yaratganki, ulardagi xususiyatlar tabiiy materiallarda uchramaydi. Sintetik materiallar — plastmassalar o‘sha qimmatli sifatleri bilan ajralib turadi. Plastmassalar juda engil va shu bilan birga bukiluvchan va elastikdir. Ayrim plastmassalar. o‘ta mustaxkam bo‘lyb, issiqliq va elektrni yaxshi izolyasiya qiladi, kislotalarga bardoshlidir. Plastmassaning qimmatli xususiyatlaridan biri ulardan yuksak unumdor usulda: quyish, presslash va shu kabi usullarda mahsulot ishlab chiqarishning mumkinligidir.

Plastmassaga ishlov berish jarayonnda deyarli chiqindi bo‘lmaydi, mahsulot darhol tayyor holda chikadi, ya’ni ularga qo‘shimcha ishlov berilmaydi. Plastmassalar boshqa qimmatli xususiyatlarga ham egadir-ki, bu ulardan qurilish, texnika va turmushda yanada kengroq foydalanish imkonini beradi. Plastmassa yo sof tarzdagi polimerdan, yo polimerning to‘ldirgichlar bilan birikmasidan iborat bo‘lishi mumkin. Yog‘och qirindilari, ip-gazlama, oyna tolasi, qog‘oz va boshqa materiallar to‘ldirgich bo‘lishi mumkin. To‘ldirgichlar pishiqlikni, qattiqlikni, o‘tga bardoshlilikni oshirish va shu kabilarga xizmat qiladi. Ba’zan plastmassalar tarkibiga ularning plastikligini oshirsh uchun plastifikatorlar, tashqi ta’sirlardan saqllovchi bo‘yovchi kabilar kiritiladi.

1-sinf Texnologiya darsligida “Tabiiy va turli materiallardan hayvonlar yasash” mavzusida plastmassa bilan ishlash keltirilgan.

Keyingi yillarda aviatsiya sanoati, avtomobilsozlik, asbobsozlik, stanoksozlik, meditsina va turmushda keng qo‘llanilayotgan xilma-xil plastmassa turlari yaratildi.

Amaliy mashg‘ulotlarda topilishi oson bo‘lgan plastmassalardan va ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalaniladi. Bular: organik shisha, paralon, penoplast, linoleum, ebonit, kapron, tekstolitdir. Organik shisha, Keyingi yillarda yangi ajoyib material — organik shisha yoki pleksiglis keng tarqaldi. Bu odatda oddiy shisha singari shaffof, ammo sinmaydigan sun’iy plastmassadir. Organik shishani arralash, egish va elimlash mumkin. U turli ranglarga bo‘yaladi. Organik shishadan harflarni (stend sarlavhalari uchun), turli emblema va bezaklarni, ayniqsa asboblari, kolleksiyalar uchun quticha va g‘iloflar, texnik modellash uchun turli detallarni qirqish mumkin



Organik shisha 2—10 mm qalinlikda ishlab chiqariladi. U bilan qalinligi 3 mm gacha bo'lgan yupqa taxtachalarga ishlov beriladi. Organik shishani arra va lobzik bilan arralanadi, uni egish uchun bir oz isitish kerak, uning kichikroq parchalarini suvda qaynatib yumshatish mumkin.

Organik shisha o'zidan tayyorlangan elim bilan yaxshi yopishadi. Organik shishani yopishtiradigan elimlarning soni ko'p, biroq, o'quv ustaxonalarida BF-2 dan foydalangan ma'qul. BF-2 bilan elimlangan narsa 3—4 sutka davomida biriktirilgan holatda saqlanishi kerak. Atseton va amilatsetatda organik shishadan tayyorlangan elim yaxshi va tez yopishtiradi, biroq uining xidi juda yomon bo'lganligi uchun ustaxonani yaxshilab shamollatishga to'g'ri keladi.

Paralon sun'iy yo'l bilan olingan material bo'lib, g'ovak strukturaga ega, usti yumshoq, juda engil, yaxshi bo'yaladi, suv ta'sir etmaydi. Paralonni gazlamaga, qog'ozga va ko'pgina boshqa materiallarga yopishtirish mumkin. Paralon xalq xo'jaligida, jumladan, mebel sanoatida: divan matratslari, stul, kreslo o'tirgichlari uchun foydalaniladi. Tikuvchilik sanoatida paralondan vatin, paxta, mo'yna o'rnida foydalaniladi. U juda engil hamda ajoyib issiqlikni izolyasiya qilish xususiyatiga ega bo'lib, qo'g'irchoq fabrikalarida keng ko'llanadi, undan turli xil o'yinchoqlar tayyorlanadi, chiqindilari

o'yinchoqlar g'ovagini to'ldiradi. Paraloidan o'yinchoqlar, turli narsalarni yasashdan oldin bo'lajak buyumning chizmasini yoki tasvirini chizish lozim. Ana shu chizma yoki tasvir asosida kartondan andaza qirqiladi. Andazani paralonning ustiga qo'yib, oddiy qalam bilan chizib chiqiladi, so'ngra detallar yoki to'liq mahsulot qaychi bilan qirqib olinadi. Paralonnin oz-ozdan qirqish kerak, chunki paralon siqiladi, shuning uchun uzun qirqilgan joylar notekis chiqishi mumkin.

Detallarni mahsulotga biriktirishning boshqa usuli ham mavjud. Unda detallar sim bilan biriktiriladi. Bunda o'quvchilar o'z fantaziyalarini namoyish qilishlari, figuralar qomatini turlicha ko'rsatishlari mumkin.

Penoplast anchagina pishik, juda engil, oq rangdagi material. Undan kemasozlik, samolyotsozlik, qurilish va elektronika hamda boshqalarda foydalaniladi.

Uquv ustaxonalarida maxsus asboblarsiz turli o'yinchoqlar, postanovkalar uchun butofariyalar, texnik modellashtirish bo'yicha suvda suzadigan modellar va shu kabilarni yasash mumkin. Penoplastni qirqish, qchrish va turli materiallarga elimlash oson, uni topssh qiyin emas, ishlab chiqarish chiqindilaridan ham foydalanish mumkin. Penoplastdan narsalar yasash jarayoni juda oddiy. Rasm yoki chizmani penoplastning tekis sathiga qalam bilan chiziladi va u mayda tishli arra, lobzik bilan qirqib olinadi. Arralashda paydo bo'lgan kirdi-chiqdi, notekis joylar egovlab tekislanishi mumkin. Tayyorlangan materiallar turli elimlar vositasida montaj qilinadi.

### **Yog'och bilan ishlash**

Yog'och eng ko'p tarqalgan materiallardan bo'lib, ukuvchilar mashg'ulotlarda ko'p tarqalgan daraxt turlari bilan tanishib chiqishlari kerak.

**Qaragay** — ko'p tarqalgan va ishlov berilishi oson daraxtdir. U unchalik qattiq emas, ammo pishiq, yorish, arralash oson, tolalari bo'ylab randalanadi. Qarag'ay yogochning rangi bir oz qizg'ish ottenkali ochsariqdir.

**Qoraqarag'ay** — yaxshi ishlanadi, uning yog'ochi ok rang, ba'zan sarg'ish ottenkali bo'ladi. Qoraqarag'ay strukturasi ko'ra qarag'aydan yumshoq va engil. Biroq, qoraqarag'ayda butoqlar ko'p, qurigaida yorilib ketadi, bu uning nuqsonidir.

**Kayin** — qaragʻayga nisbatan pishiqroq va ogʻirroq, biroq oson arralanadi va randalanadi, qayin yoqimlp qizgʻish tovlanuvchi ochsariq ottenkaga egadir.

**Joʻka** — yogʻochi yumshoq, arralash oson, stameska, pichok bilan oson ishlanadi, chetlari uqalanmaydi, darz ketmaydi. Joʻkani yorish qiyin. Joʻka qaragʻay va qoraqaragʻaydan engil, sargʻish ottenkali ok rangga ega.

**Togʻterak** — asosan mayda buyumlar yasashda foydalaniladi. Egʻochi yumshoq, anchagina engil.

**Eman** — yogʻochi qattiq, u pishiq va zich hamda ogʻir, chiroyli jigar rangga ega.

Turli materiallar bilan ishlash darslarining texnologik xususiyatlari, qogʻoz va karton bilan ishlash hamda gazlama va tolali materiallar bilan ishlash darslaridan farq qiladi. Chunki qogʻoz, karton va gazlama hamda tolali materiallar tayyor mahsulot boʻlib, ulardan turli oʻyinchoqlar yasaladi, ularning chiqindilaridan ham tejamkorlik bilan foydalanish oʻrgatiladi.

Turli materiallar bilan ishlashda esa, eng avval, qaysi narsadan nimalar yasash mumkinligini avvaldan rejalab, anchayin izlanib, tabiat qoʻynidan axtarib topib, yigʻib olingandan soʻng, reja asosida turli oʻyinchoqlar, ertaklar asosida koʻrsatmali koʻrinishlarga boy personajlar yasash mumkin. Turli multfilmlar asosida qahramonlar qiyofalari, turli rangli manzaralar yasaladi.

Mehnat darslarida turli tabiiy materiallar- daraxt novdalari, qamish, poxol, gʻoʻza chanoqlari, yongʻoq, qum, loyning ishlatilishi hamda plastic massalar: plastilin, rezina, sellofan, polietilin lentalar, plyonkalar, gugurt qutilari, gʻaltak, iplar, turli chiqitlar; tuxum poʻchogʻi, xandon pista poʻchogʻi, danak poʻchoqlari, boʻshagan plastmassa idishlari ishlatiladiki, ana shunday tashlab yuborilishi mumkin boʻlgan narsalardan chiroyli, goʻzal oʻyinchoqlar, ertak qahramonlari, turli koʻrsatmali manzaralar yasash mumkinligi tejamkorlik ruhida tarbiyalash imkoniyatlar koʻpligini koʻrsatadi. Tashlandiq narsalardan ham kerakli buyumlar, estetik zavq olsa boʻladigan, ayniqsa, oʻz koʻrinishi, mazmuni bilan bolalarni tarbiyalashi mumkin boʻlgan narsalar yasalishi ular tarbiyasiga ijobiy taʼsir qiladi.

Turli tabiiy materiallarni to'plash, saqlash yo'llarini, ularga ishlov berish yo'llarini qo'llash bolalarga tabiatshunoslik darslarida olgan bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Turli tabiiy materiallardan bilan ishlash mashg'ulotlarni rejalashtirish va materiallarni tanlashda, albatta, mahalliy sharoitlardan kelib chiqish, o'lka iqlimi, tabiati, ishlab chiqarish korxonalari, xalq badiiy ustaxonalari va shu kabilar e'tiborga olish kerakligini unutmaslik lozim. Bunday mashg'ulotlar bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stiribgina qolmay, ularning ijodkorligini o'stiradi, estetik hissiyotlarni shakllantiradi.

Turli materiallarning o'ziga xos texnologik xususiyatlari xilma-xilki, ulardan narsalar yasashda material sifatida ham, yasalgan narsaga bezak berish materiali sifatida ham foydalanish mumkin.

Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, turli materiallar bilan ishlash jarayonida bolalar quyidagi malaka va ko'nikmalarni egallaydilar.

1. Turli tabiiy materiallarni to'plash va saqlash qoidalari bilan tanishish. Tevarak-atrofnii muhofaza qilish.

2. Turli tabiiy materiallarga ishlov berish va rejalashtirish.

3. Turli tabiiy materiallarni to'plash uchun atrof-muhitdan obyekt tanlash.

4. Turli tabiiy materiallardan nimalar yasa olishni tahlil qilish hamda ularga ishlov berish asboblarni tanlash.

5. Mustaqil fikrlab, ijodkorligini namoyon qilish. Ijodkorlik qobiliyatini o'stirish.

6. Boshqa xil materiallar bilan tanishish (yog'och, yumshoq sim, tunuka, turli chiqindilar to'plashlari).

7. Obrazlar, personajlar, o'yinchoqlarni yaratishda konstruktorlik va ijodiy qobiliyatlarni o'stirish.

8. Yog'och va metallga ishlov berish asboblari bilan tanishish, ya'ni pichoq, bolg'a, arra, parma, bigiz, qaychi, ombur, o'tkir tig'li asbob kabi...

Bolalarda turli tabiiy materiallar bilan ishlash alohida qiziqish uyg'otadi. Ayniqsa, o'quvchilar loy, plastilin va tabiiy materiallar, jumladan, daraxtlarning shoxlari, chinor urug'lari, turli qurigan barglar, daraxt po'kaklari, yelimlaridan foydalanib qushlar, jonivorlar, ertak ishtirokchilarining shakllarini qiziqib yasaydilar. O'z tasavvurlaridagi personajlar bilan boyitadilar.

O'quvchilar turli materiallar bilan ishlashda ishlash qoidasiga, texnika xavfsizligi qoidalariga, gigiyena-sanitariya holatlariga rioya qilibgina qolmay, telamkorlikka ham alohida e'tibor beradilar. Shuni unutmaslik lozimki, ko'zga tashlanmagan qismlar, chiqindilar yig'ilib kattalashadi. Demak, o'qituvchi tabiiy materiallardan turli narsalar yasashni rejalar ekan, o'quvchilarga:

- turli tabiiy materiallarning xossasi va xususiyatini hisobga olgan holda isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikni tushuntirishi;

- ularning shakli, ko'rinishlarini rejalab, aniq narsa yasash yo'li bilan tejashni o'rgatishi;

- qanday asboblarni ishlatish mumkinligi va asboblarni to'g'ri ishlatish (sindirmaslik, buzmaslik) yo'lini uqtirishni bilishi;

- asboblarni ishlayotganda juda egilib, chang-to'zon yutishdan, ish joyini tartibsiz qilishdan saqlanishni ta'kidlashi;

- ish mazmunini sodda, murakkabligiga qarab, bosqichma-bosqich sinflarga moslash yo'li bilan tejamkorlik tuyg'usini singdirishi talab etiladi.

Yuqoridagi tartib va qoidalar sinf o'quvchilarda tejamkorlik, tadbirkorlik sifatlarini tarbiyalash, mehnat darslari samaradorligini oshiradi.

Asosan 1-sinflarda bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olib sanchmaydigan, qirqmaydigan, kesmaydigan asboblardan foydalangan holda po'kak, turli bo'sh qutilar, qutichalar, daraxtning urug'lari, qurigan barglaridan yelimlab yopishtirib, plastilin yordamida yopishtirish yo'li bilan turli shakldagi o'yinchoqlar yasash o'rgatiladi va o'rganish jarayonida bolalarda yig'ilgan tabiiy materiallarni o'rni bilan ishlatishga, turar joyini asrab-avaylashga, tabiatni muhofaza qilishga o'rgatish bilan tejamkorlik hissini rivojlantira boriladi. Ayniqsa o'quvchida turli materiallardan foydalanib narsalar yasayotganda ish joyini saranjom-sarishta tutush, plastilinyordamida yopishtirish kerak bo'lganda, plastilinni partaga ishqab yumshatmaslik, maxsus taxtachada yoki klyonka, sintetik qog'ozcha ustida yumshatish, kiyimlariga surtmaslik uqtiriladi. Chunki partani plastilin ishqab qo'ysa, kitob-daftarlari yopishadi, sifati buziladi, yirtiladi, parta ham xunuk bo'ladi. Qolaversa, kiyimlariga yuqadi, iflos bo'ladi. Ifloslangan partani hadeganda tozalab bo'lmaydi. Partani toza tutish bilan maktab mulkini asragan bo'ladi hamda hozirgi iqtisodiy

taqchillik davrida maktab mulkini tejaydi. Shuningdek, plastilin ham tejaladi. Yuqoridagi omillarni bosqichma-bosqich o'stirib, rivojlantirib borilishi o'quvchilarda tejamkorlik sifatlarining shakllanishiga olib keladi.

O'quvchi 2-sinfga o'tgach, endi turli tabiiy materiallar bilan ishlash asta murakkablashib boradi. 2-sinf o'quvchisi xilma-xil materiallar, yog'och, metall, loy, qum kabilardan narsa-buyumlar tayyorlashni o'rganadilar. Endi o'quvchilar ayrim asboblardan foydalanishni, asboblarni ishlatishda texnika xavfsizligi qoidasiga rioya qilishni va bu bilan o'zlarining sog'liqlariga zarar keltirmagan holda asboblarni ham asrab-avaylashni o'rganadilar. Shu yo'nalishda o'quvchilarda o'yinchoqlar yasash va turli materiallarni ishlatishda tejamkorlik hissiyoti chuqurlashtirilib, singdirib boriladi. 3-sinfga o'tganda bu holat yana ham kengroq shakllantiriladi. Bunday ijobiy fazilatlarni o'quvchilarning turli materiallardan maketlar, texnik o'yinchoqlar, yog'och va fanerdan gul tuvaklarini (guli bilan) qo'yish uchun naqshli tokchalar, stellyajlar; yumshoq simlar yordamida turli shaklli o'yinchoqlar yasashlarida ko'ramiz.

Turli materiallar bilan ishlash turidan tashqari texnik modellashtirish, ya'ni konstruktorlar bilan ishlash, qishloq xo'jalik mehnati hamda o'z-o'ziga xizmat turlari borki, bu mehnat turlarini o'quvchilarga singdirishda ham tejamkorlikka alohida e'tibor beriladi.

Konstruktor to'plamlari bilan ishlashda bolalar texnik modellar yasaydilar, shu tariqa ularda qurish-yasash, konstruktorlik qobiliyatlari o'sib boradi. Mehnat darslarida texnik modellar-samolyot, mashina, parovoz, paroxodlar haqida tushuncha berib borish bilan birga shu texnika vositalari inson mehnatini osonlashtirgani haqida to'xtalib, ana shu texnikani asrab, uzoq vaqt ishlatish bilan hayotimizda tejamkorlikka erishayotganligimizni, hayotimiz farovon bo'lib borayotganligini tushuntiradi. 4-sinfda o'tar ekanmiz, elektr energiyasini tejash kerakligini, u inson hayotida nafaqat yoritish vazifasini bajarishi, balki sanoat va qishloq xo'jaligida, oziq-ovqatlar ishlab chiqarishda dvigatellarni, katta zavodlarni yurgizishi haqida tushuncha beramiz.

Mehnatning boshqa turlarida ham tejamkorlikning zarurligi haqida fikr yuritilsa, suhbatlar o'tkazilsa, ko'zlangan natijaga erishishi mumkin.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Turli xil materiallar turlarini ayting.
2. Yog'ochning qanday turlarini bilasiz?
3. Turli xil materiallar bilan ishlashda qanday texnika xavfsizligi qoidalar mavjud?

**22-MAVZU. TABIIY MATERIALLAR BILAN ISHLASH  
DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI**

**Reja:**

1. Tabiiy materiallarni to'plash va ishga tayyorlash.
2. Tabiiy materiallardan (barglar, somon qalamchalari, yong'oq po'choqlari, patlar, o'simlik urug'lari va boshqa materiallar) applikatsiyalar va o'yinchoqlar yasash texnologiyasi.
3. Tabiiy materiallar bilan ishlashga oid ish joyini tashkil etish talablari.

***Mavzuga oid tayanch tushunchalar:***

*Tabiiy materiallar turlari, somon qalamchalar, applikatsiyalar, o'yinchoq yasash texnologiyasi.*

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar quyidagi tabiiy materiallardan: qum, tuproq, shag'al, suv, qor, daraxt va o'simliklarning barglari, shox-shabballari, ildizlari, sabzavot va mevalarning urug'lari, tuxum po'choqlari, somon va shu kabilardan foydalanadilar. Tabiiy materiallarning haqiqiy shakllaridan kerakli o'rinlarda foydalanish mumkin. Bunda bolalar tabiiy materialda ifodalangan biror-bir obrazning o'xshashlik tomonlarini yanada bo'rttirish, qo'shimcha ishlov berish orqali haqiqiyasiga yaqinlashtirish hamda bunda asbob-uskunalaridan foydalanishni o'rganadilar. Tabiiy materiallar bilan ishlash o'quvchilarning tasavvurini, ijodiy qobiliyatini o'stirish bilan birga, u yoki bu tabiiy shakllarni o'zaro biriktirish orqali o'ziga xos bo'lgan qiziqarli o'yinchoqlar va shu kabilarni tuza olish malakasini ham rivojlantiradi. Tabiiy materiallardan qurish-yasash jarayonida o'quvchilar turli bo'laklarni o'zaro biriktirish, ulash, qo'zg'aluvchan yoki qo'zg'almas qilib o'rnatish, qumqog'oz, egov, pichoq va shu



kabilar bilan ishlov berish usullarini ham bekamu ko'st o'zlashtirib oladilar. Ayrim hollarda tabiiy materiallardan yasaladigan shakllar, o'yinchoqlarning ifodaliligini, ta'sirchanligini oshirishda tashlandiq materiallar ham ishlatiladi. O'qituvchi o'quvchilarga kerakli tushunchalarni berishda masalaning ana shu jihatiga ham e'tibor berishlari lozim.

Mashg'ulot uchun kerak bo'ladigan tabiiy materiallar mavsumga ko'ra yig'ib boriladi va kerakli turlarga ajratib qo'yiladi. Bu ishlarni o'quvchilar bilan tabiat qo'yniga sayohatga chiqqan paytda amalga oshirish maqul. Syohat jarayonida o'qituvchi bolalarga har bir tabiiy material haqida kerakli tushunchalar va ularni yig'ish, qanday saqlash borasida zarur bo'lgan ko'rsatmalarni beradi. Mazkur ishlarning o'z vaqtida bajarilishi, tabiiy materiallardan qurish-yasash mashg'ulotlarining samarali o'tishida katta ahamiyatga egadir. Bu o'z navbatida o'qituvchidan va o'quvchilardan katta mas'uliyatni talab qiladigan jarayondir. Mashg'ulot uchun kerakli bo'lgan tabiiy materiallar qanchalik ko'p g'amlansa, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv topshiriqlarining mazmuni ham shunchalik turli-tuman bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari texnologiya darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida turli xil maneriallarni to'plash va ularga ishlov berish lchlarini o'rganadilar. Turli va tabiiy matriallarga misol tariqasida qog'oz, karton va gazlamalardan tashqari o`simliklarning turli qismlari (shoxi, barglari, gullari, ildizi, po`sti, urug`i, mevasi); foydali qazilmalar (kvarts qumi, loy, minerallar); yog`och (archa, sosna, qayin, lipa, ryabina); metallar (temir, mis, alyuminiy); plastmassa (polietilen, tekstolit, kapron) va boshqa materiallarni aytish mumkin.

Bu materiallarning ayrimlari, masalan o`simlik qismlarini o`quvchilar tabiatga sayr qilish paytida teradilar, fanera, turli metallar, plastmassalarni esa tayyor holdagisi yoki yarimfabrikatlar shaklidagisini oladilar.

O`qituvchi o`quv yili boshidan o`quvchilarga tabiiy materiallarni to`plash haqida ma'lumotlar berib boradi, ularga ishlov berish sir-asrorlarini o`rgatadi, saqlash texnologiyalarini yaxshilab tushuntiradi. Bolalarga o`simliklar shoxi, barglari, gullari, po`stlog`i, mevasini terib borishni vazifa sifatida topshiradi; kvarts qumi va loy

tayyorlash hamda undan narsalar tayyorlash usullari bilan tanishtirib boradi. Tushuntirish ishida o`qituvchi mamlakatimizda tabiatni qo`riqlash to`g`risida qonun mavjudligi, shu qonunda belgilangan talablarni albatta bajarish shartligi va shunga ko`ra tabiiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo`lishni talab etishini aytib o`tishi ahamiyatlidir.


O`qituvchi bu qonunning asosiy qoidalarini qayd etib, daraxt barglari va o`simliklardan faqat yerga tushgan materiallarnigina terish kerakligini eslatadi. Qonunga ko`ra daraxt va butalarni sindirish, tabiatni ifloslashtirish, o`simlik shoxlari, po`stlog`i, barglarini kesish mumkin emasligini uqtiradi. Dastlab tabiiy materiallar bilan tanishtirish 1-sinfdan boshlanadi. Quyida 1-sinf Texnologiya darsini ko`rishimiz mumkin:



O`qituvchi tabiiy materiallarni qanday to`plash haqida maslahatlar beradi. Masalan, kvarts qumini daryo va suv havzalari sohillarida quruq holda, loyni esa tabiiy holda yig`ish kerakligi; barglar va gullarni ho`l holda yig`ib botanik pressda quritish lozimligi shular jumasiandir. O`qituvchi o`simliklar va ularning qismlarini botanik pressda qanday quritishni mumkinligini ko`rsatib berishi o`ta ahamiyatli.

Tajriba ko`rsatishicha, boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun ta`limning birinchi bosqichida eng oddiy va qiziqarlisi tabiiy materiallardan dekorativ tayyorlash ishlaridir. Bolalar tabiiy materiallardan turli o`yinchoqlarni tayyorlash ishini katta intilish bilan

bajaradilar. Birinchi sinf o`quvchilarida tabiiy materiallar bilan ishlashga qiziqish uyg`otish uchun ularga xalq o`yinchoqlari namunalarini ko`rsatish juda foydali. O`quvchilarni tosh, loy, yog`ochdan bajarilgan xalq o`yinchoqlari namunalari bilan tanishtirish, ayniqsa ahamiyatli. (1-rasm). Bu ishning yong`oqlar, yong`oq po`stlog`i, loy, shoxlardan o`yinchoqlar tayyorlashdan oldin o`quvchilarga ko`rsatilishi faoliytni mazmunli va samarali o`tishini ta`minlashi mumkin.



1-rasm. Xalq ustalari mahsulotlari:

O`qituvchi xalq ustalari nafaqat tosh, loy va yog`ochdan turli o`yinchoqlarni tayyorlashi, balki rangli toshlardan ayiqchalar, itlar, bug`ular, otlar figurachalarini yaratichi, ural o`ymakorlik sohasida ham mashhur bolib, loydan o`yinchoq - hushtakchalar tayyorlovchi ustalar bilan bemalol bellasa olishini aytib beradi. Loydan otlar, bug`ular, qushlar, ertak qahramonlari figuralarini yasab, olovda quritib, bo`yaydigan dimkovlik ustalar shuhrati uzoqlarga ketganligini ma`lum qiladi.

Kuzatishlar jarayonida bolalarga xalq o`yinchoqlari namunalarini diqqat bilan qarab chiqish va savollarga javob berish topshirig`i beriladi: 1-rasmda tasvirlangan o`yinchoqlar qanday nomlanadi? Har bir o`yinchoq qanday materialdan tayyorlangan? Tosh, loy va yog`ochdan o`yinchoqlar qanday tayyorlanadi? Qaysi o`yinchoqlar

ayniqsa yoqadi va nima uchun? Bolalar qaysi o`yinchoqlarni yasashni istar edilar?

Bolalarning kuzatishlarini umumlashtirib, o`qituvchi xalq o`yinchoqlarida xalq ertaklaridagidek ko`p kulgili quvnoq detallar, aqlli ifodalangan kuzatishlar borligiga o`quvchilar e`tiborini qaratadi. O`qituvchi o`yinchoqlar hamma vaqt ham haqiqiy insonlarga va hayvonlarga o`xshayvermasligi, biroq hamma vaqt juda ifodali va dabdabali bo`lishini tushuntirib beradi.. Har bir o`yinchoq o`ziga xos ko`rinishga ega ekani va takrorlanmasligi, biroq yaratiluvchi o`yinchoqlarning turli-tumanligiga qaramay xalq ustalarini bir narsa yaqinlashtirishi, ya`ni ularning hammasi juda kuzatuvchan va ishlov beriluvchi material xususiyatlarini yaxshi bilishi, uning go`zalligini ochib bera olishida ekanligini ta`kidlab o`tadi. Ilgari xalq ustalari tomonidan tayyorlanuvchi buyumlarning ko`pchiligi ajoyib o`yinchoq bo`lgan bo`lsa, hozirgi vaqtda ular kichik dekorativ haykalchalar bo`lib, xonadonlarni bezatib turganligini aytadi.


Bunday haykalchalarning har biri katta qiymatga ega, chunki u usta qo`li bilan yagona nusxada yaratiladi. Xalq ustalarining tasviriy vositalari sodda, quvnoq, ochiq, ular ko`p asrlar davomida xalq tomonidan tanlab olingan va sinalgandir. Shu sababli har bir xalq o`yinchog`i biz uchun taqlid qilishga namuna bo`lib xizmat qila oladi.

O`quvchilar tabiiy materiallardan narsalar tayorlashga kirishishdan oldin ularga ba`zi laboratoriya ishlarini bajartirish maqsadga muvofiq. Masalan, qurigan loy, yog`och parchasi, kichik toshchalar bilan ishlash uchun quyidagi laboratoriya ishlarini bajartirish mumkin: O`qituvchi navbatchilar bilan birgalikda har bir partaga qurigan loy, yog`och parchasi, kichik toshchalar tarqatib, o`quvchilarga bu materiallarni suv bilan ho`llash, qaychi uchi bilan tirnab ko`rish va akvarel bo`yoqlar bilan bo`yashni taklif etadi.

O`quvchilar tosh suvda ho`llanmasligi, kesilmasligini, loy suvda ho`llanib bu holda oson kesilishini, quruq loy bo`yoqlar bilan ranglanishini; yog`och suvda bir oz ho`llanishi, nisbatan oson kesilishi va yaxshi ranglanishini o`zlari bajargan ish natijalari orqali aniqlaydilar.

**Yong`oqlar bilan ishlash texnologiyalari:** O`qituvchi yong`oqlar bilan ishlashda turli asboblardan foydalanilishini aytadi:

pichoq - kesish uchun; arracha – aralash uchun; parmacha va bigiz – teshish uchun.



2-rasm. yong`oqlardan shoxchalarni qo`shib o`yinchoqlar yasash uchun materiallar.

Asboblari va ishlash usullari: 1 – shox; 2 – yong`oq; 3 – kesilgan yong`oq; 4 – ish asboblari; 5 – yelim; 6 – ishlash usullari


O`qituvchi pichoq va arracha yordamida toza yong`oqlarni kesish, parmacha va bigiz bilan tuynuk hosil qilish usullarini ko`rsatib beradi (2-rasm, 5 va 6). Keyin xuddi shu ishlarni eski yong`oqlar bilan bajarib ko`rsatadi. O`qituvchi ishini kuzatib turgan o`quvchilar toza yong`oqlarni eskilariga qaraganda ishlov berish ancha osonroq ekanligini bilib oladilar. Pichoq va arracha bilan kesish, parmacha va bigiz bilan teshish ishlari birinchi sinf o`quvchilari uchun biroz xavli, shuning uchun ular amaliy topshiriqlarni bajarishda hamma yig`ish jarayonlarini loy va tez quruvchi yelim yordamida bajaradilar.

O`quvchilar detal(qism)larni plastilin, loy va BF-2 hamda PVA yelimlari yordamida birlashtirish tajribalarini amalga oshiradilar.

Bolalar detallarning eng oddiy, lekin mustahkam bo`lmagan birlashtirilishi – plastilin bilan, ularning mustahkamroq biriktirilishi – loy bilan va eng mustahkam va ishonchli biriktirish tez quruvchi BF-2 va PVA yelimlari yordamida amalga oshirilish kerakligini bilib oladilar.

Yelimlangan shoxchalar yordamida yong`oqlardan alohida detallarni biriktirishda o`quvchilar diqqatini dastlab shoxchalarni yo`nish, keyin yelim surtib, oldindan ochilgan teshiklarga zich joylashtirish kerakligiga qaratish kerak.

Ikkinchi sinf o`quvchilari yong`oqlardan shoxchalar va boshqa materiallarni qo`shib ko`pgina qiziqarli buyumlar tayyorlaydilar (3-rasm).



3-rasm. Yong`oqdan o`yinchoq namunalari

Yong`oqlardan o`yinchoqlar yasash bo`yicha amaliy mashg`ulotlarda o`quvchilar predmetlarning fazoda joylashuvi va predmet qismlarining bir-biriga nisbatini kuzatadilar, harakatda qushlar va odamlar xarakterini yaxshi aks ettirish usullarini aniqlaydilar (3-rasm).

Bolalar shahardan tashqariga, o`rmon, saylgohlar yoki bog`larga sayr qilishda turli mevalar, shu jumladan, yong`oqlarning ham o`ishi va yetilishini kuzatadilar. Yong`oq mevalari sentyabrda yetilishi va sarg`aygan barglar bilan birgalikda yerga tushishini bilib oladilar,


ularni terib olib, texnologiya darslari ga olib keladilar va turli tajribalarni o`tkazadilar.

Kuzatishlar davomida o`quvchilarga yong`oqlarni diqqat bilan ko`rib chiqib quyidagi savollarga javob toppish uchun topshirig`i beriladi: Yong`oqlar qanday shakl va kattalikda bo`ladi? Ular qanday rangda? yong`oq qanday qismlardan iborat? Ulardan texnologiya darslari da nima tayyorlash mumkin?

O`quvchilarga yong`oqlardan tayyorlangan turli o`yinchoq rasmlarini epidiaskop yordamida ko`rib, ularni shakli va ranggi u yoki bu personaj xarakterini aniqroq ifodalab berish, uni tayyorlashda qaysi qo`shimcha materiallardan foydalanish mumkinligini aniqlashlari aytiladi. Bu bilan bolalar yong`oqlardan o`yinchoqlar yasash texnologiyalarini bilib oladilar. O`yinchoqlar yasashda yong`oqlar bilan bir qatorda shoxchalar, patlar, ryabina mevalari va hokazo bo`lishi kerakligini aniqlaydilar.

#### **Yong`oq po`stlog`i bilan ishlash texnologiyalari:**

Yong`oqlarning o`shishi va rivojlanishini kuzatish imkoniyati bo`lmasada, ularning po`chog`ini to`plash qiyin emas. Birinchi sinf o`quvchilari yong`oq po`chog`iga boshqa tabiiy materiallarni qo`shib ko`pgina qiziqarli o`yinchoqlar tayyorlashi mumkin (4-rasm).



4-rasm. Yong`oq po`chog`idan o`yinchoqlar

O`qituvchi bolalarni o`yinchoqlar tayyorlash uchun faqat yaxshi po`choq yarashi to`g`risida ogohlantiradi, shuning uchun yong`oqlarni

ikkala po`choq bo`lagi butun qolishi uchun pichoq yordamida ehtiyotkorona sindirish kerakligini uqtiradi. Bu ishda birinchi sinf o`quvchilarining texnik xavsizligiga rioya qilishi va buning uchun ularga kattalar yordam berishi kerak.

Yong`oq po`chog`ini kuzatish va ishlov berish bo`yicha eng oddiy tajribalar jarayonida o`quvchilarga quyidagi savollarga javob topishlari vazifa sifatida beriladi: Yong`oqlar qanday shakl va rangda bo`ladi? Ular dub daraxti yong`oqlaridan nima bilan farq qiladi? yong`oqlarni qaysi asboblarda yordamida ishlov berishi mumkin? Yong`oq po`chog`idan qanday o`yinchoqlar yasash mumkin?

O`qituvchi o`quvchilarga yong`oqning yumshoq mag`zi olingach, bo`sh po`stlog`i qolishini tajribada ko`rsatadi. Uni ehtiyotkorona sindirishda, aylana qayiqchilarga o`xshash ikki qismga ajratish mumkinligi, yong`oq po`stlog`ini bigiz bilan teshishi, pichoq va arracha bilan ishlov berish, BF-2 va PVA yelimlari bilan yelimlash, lak bilan qoplash usullarini ko`rsatib beradi.

Tozalangan yong`oq po`chog`iga dasta yasalsa, savatcha hosil bo`lishi; parusli machta o`rnatilsa, kemacha hosil bo`lishi; ikki po`choq bo`lagini biriktirib, ularga qog`oz, loy, shoxchalardan oddiy detallarni qo`shib jo`jacha, baliqcha, ukkicha yasash mumkinligi amalda ko`rsatib bveriladi..

Shunday qilib, yong`oq po`chog`idan o`yinchoqlar yasash jarayonidagi kuzatishlar va tajribalar paytida o`quvchilar predmetlar kattaligi, shakli, rangi, ularning fazoda joylashuvi, buyumlarning ishlov berilishi, o`rnatilishi va pardozi to`g`risidagi bilimlarini mustahkamlaydilar.

Bolalarning yong`oq po`chog`idan kemachalar, kolyaskalar, tarozilar tayyorlashi ayniqsa qimmatli. Bu o`yinchoqlar bilan o`quvchilar qo`shimcha kuzatishlar va tajribalar o`tkazadilar. Kemachani suvda sinab ko`rib, bolalar o`yinchoq haqiqiy kemadek suzishiga ishonch hosil qiladilar; kolyaskani yurgizib, o`quvchilar u haqiqiydek harakatlanishini qayd etadilar; ba`zi predmetlarni qo`lbola o`yinchoq tarozida o`lchab bolalar haqiqiy tarozi ishlashi haqida tasavvurga ega bo`ladilar.

**Barglar shakli va tuzilishini kuzatish, yog`och bilan tajribalar.**



Kuzda III sinf o`quvchilari o`qituvchi rahbarligi ostida qayin, dub, terak, o`rik, sosna daraxtlari barglarini to`playdilar. Ularni botanik presslarda quritadilar. Quritishda barglar o`rtasida 8-10 qavat gazeta qog`ozi yotqizadilar. Yetarlicha quritilmagan va qiyshaygan barglarni issiq dazmol bilan taxta ustida tekislaydilar.

Amaliy ishdan oldin birinchi sinf o`quvchilariga quritilgan barglarni diqqat bilan qarab chiqib, savollarga javob berish topshirig`ini beradi: quritilgan barglar oxirigacha quritilmagan barglardan qanday farq qiladi? Nima uchun panno tayyorlash uchun yaxshi quritilgan barglar olinadi? Quritilgan barglar rangi qanday bo`ladi? Nima uchun quritishda barglar orasiga bir necha gazeta qog`oz qatlami qo`yiladi? Botanik papkada quritish va issiq dazmol bilan dazmollashda barglar nima bo`ladi?

Keyin o`quvchilar quritilgan barglarni iplar, qog`oz yo`llar va yelimlar yordamida qalin qog`ozga o`rnash ishini bajaradilar (5-rasm). O`quvchilar to`plamlarda barglarni iplar va qog`oz yordamida joylashtirish qulayligiga ishonch hosil qiladilar. Papkada barglarni tez quriydigan BF-2 va PVA yelimlari yordamida yopishtirish qulay.

O`qituvchi unchalik qurimagan dub barglarini o`rtasidan bukishni topshiradi. Bu tajriba natijasida o`quvchilar bargning ikkala yarmi mos kelishini aniqlaydilar.



5-rasm. Daraxt barglari gerbariy namunalarini o`rnatish

Ikkinchi sinf o`quvchilari barglar va ular o`rnatilayotgan fon ranglarining uyg`unligini kuzatadilar. Bir rangli barglarni turli fonlarga joylashtirib, bolalar barglar turlicha ko`rinish olishini aniqlaydilar. O`qituvchi turli daraxt yog`ochlari namunalari ko`rsatib bu yog`och turlari bir-biridan rangi va mustahkamligi bilan farq qilinishini ko`rsatadi. Osina yog`ochi oq, archa – och-sariq, dub – och jigar rangda bo`ladi. Ulardan eng yumshoq va mustahkam bo`lmagani osina yog`ochi, eng qattiq va mustahkami – dub yog`ochidir. O`qituvchi to`plamdan osina, archa va dub barglarini topishni taklif qiladi.

Keyingi ko`rsatish tajribalarida o`qituvchi bolalarni yog`och materiallar yonuvchanligi bilan tanishtiradi. O`qituvchi yondirilgan gugurt cho`pini quruq loy bo`lagi va yupqa quruq yog`och parchasiga navbat bilan yaqinlashtiradi. Ikkinchi sinf o`quvchilari tajribani diqqat bilan kuzatib, loy yonmaydigan, yog`och esa yonuvchi material degan xulosaga keladilar. Bolalarning kuzatishlarini umumlashtirib, o`qituvchi gugurt cho`plari yumshoq, tez yonuvchi osina yog`ochidan tayyorlanishini aytadi.

Ish turli barglardan panno tayyorlash bilan yakunlanadi. Qayin va osina barglaridan birinchi sinf o`quvchilari yo`lda ko`k fonda, ryabina va dub barglaridan kvadratda yashil fonda, dub va tol barglaridan qizil fonda aylana ichida panno tayyorlaydilar (6-rasm).

Panno tayyorlashda o`quvchilar tajribalar jarayonida ranglar va material joylashuvining eng uyg`un holatlarini topadilar.



6-rasm. Yo`l, kvadrat va aylanada barglardan panno tayyorlash

**III sinfda to`ng`izyong`oqlar bilan ishlashda kuzatishlar, tajribalar va ko`rsatishlar.** Yozda o`quvchilarga to`ng`izyong`oqlar paydo bo`lishi va rivojlanishini kuzatish topshiriladi. Bolaollar bahorda archa va sosna daraxtlarining shoxlari uchida kichik to`ng`izyong`oqchalar paydo bo`lishini aniqlaydilar. Kuzga kelib ular yiriklashib yetiladi. Yetilgan va daraxtdan tushgan to`ng`izyong`oqlar turli o`yinchoqlar yasash uchun ajoyib material bo`lib xizmat qiladi.

O`quvchilar taxminan bir xil shakl, kattalik va yoshdagi ikkitadan archa va sosna yong`oqlarini tanlab oladilar. Bitta archa yong`og`i va bitta sosna yong`og`ini bir necha marta suyuq duradgorlik yelimiga botirib oladilar va quruq joyga yelimga botirilmagan yong`oqlar bilan olib qo`yadilar. Yong`oqlarni ma`lum vaqt davomida kuzatib, o`quvchilar yelim bilan qoplanmagan yong`oqlar o`lchami birmuncha kattalashib, g`ovak va «paxmaygan» bo`lib qolganini, yelim bilan qoplangan yong`oqlar esa o`z shakli va kattaligini o`zgartirmaganini aniqlaydilar (7-rasm).



7-rasm. Sosna va archa to`ng`izyong`og`idan o`yinchoqlar

Ko`pincha yong`oq shaklining o`zi va unda tangachalar joylashuvi o`quvchilarga undan nima yasash mumkinligini aytib turadi. Kuzatishlar jarayonida o`quvchilar zich tangachali oval yirik archa yong`oqlaridan o`yinchoqlar: tipratikan, pingvin, cho`chqacha, echki, ot yasashda; oval sosna yong`oqlaridan turna bo`ynini yasashda; paxmoq archa yong`oqlaridan – xo`roz bo`ynini yasashda; egilgan archa yong`oqlaridan – mushuk gavdasini yasashda foydalanish yaxshiligini bilib oladilar.


O`yinchoqlar yasashda to`ng`izyong`oqlarga boshqa tabiiy materiallarni qo`shish mumkin. Masalan, tipratikan panjalari va tumshug`ini, pingvin, xo`roz va turna boshini, cho`chqacha boshi va

oyoqlarini loydan; chavandoz va ot boshlarini, echki va mushuk boshini yong`oqdan; turna xo`roz, echki va mushuk bo`yni va oyoqlarini shoxchalardan tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

**Shoxlar bilan ishlashda kuzatishlar, tajribalar va ko`rsatishlar.** III sinfda turli o`yinchoqlarni yasash uchun turli daraxt shoxlaridan foydalanish imkoniyati katta. Diqqat bilan qaralsa, deyarli har bir shoxda biron bir hayvon, odam, ertak qahramonining yashirin belgilarini ko`rish mumkin.

O`quvchilarga yozda turli daraxtlardan tushgan shoxlarni terish vazifasi beriladi. Turli daraxt shoxlarini diqqat bilan qarab chiqib, o`quvchilar ularning o`ziga xos belgilarini aniqlaydilar. Shoxlarni pichoq bilan kesib ko`rib, ulardan qaysilari eng qattiqligini aniqlaydilar. Oxirigacha qurimagan shoxlarni bukib, ulardan qaysilari eng egiluvchan ekanligini aniqlab oladilar.

Kuzatishlar, tajribalar, sinashlar natijasida o`quvchilar turli daraxt shoxlarini po`stlog`i, yog`och rangi, barglar shakli va boshqa belgilari bo`yicha aniqlash mumkinligini bilib oladilar. Hamma daraxtlarning quruq shoxlari nam shoxlardan qattiqroq, qurishda shoxlar qattiqlashib, sinuvchan bo`ladi.




8-rasm. O`yinchoqlar tayyorlashda shoxlarga ishlov berish yo`llari

O`quvchilar shoxlardan po`stloqni ajratish, yo`nish, shoxlardan taxta ustida parcha kesib olishni mashq qiladilar (8-rasm). O`quvchilar

nam shoxlardan po`stloq osonroq olinishi, yog`ochni tolalar bo`ylab yo`nish osonligiga ishonch hosil qiladilar.

O`quvchilar amaliy ishlar uchun turli shoxlarni tanlab, ulardan turli figurachalar yasaydilar (9-rasm). Masalan, bolalar butun shoxdan yugurayotgan odamchani eslatuvchi figurachalar kesadilar; turli shakl va qalinlikdagi shoxlardan turna, kiyik figurachalarini hosil qiladilar, yong`oq va patlar qo`shib raqqosa figurachasini yasaydilar.



9-rasm. Mayda shoxlardan o`yinchoqlar namunasi

O`quvchilar to`g`ri shoxlarni kuzatish va tajribalar o`tkazib, ular ajoyib qurilish materiali degan xulosaga keladilar. Ulardan o`yinchoq uycha, sol yasash mumkin. Bunda ikkinchi sinf o`quvchilari detallarni mustahkamlashning ratsional usullarini (masalan, loy, plastilin, yelim, iplar va hokazo yodamida) aniqlaydilar.

Oxirida o`quvchilar nam majnuntol shoxlarini kuzatish va sinab ko`rish ishlarini amalga oshiradilar. Ular nam majnuntol shoxchalari juda egiluvchanligini aniqlaydilar. Ulardan turli o`yinchoqlarni o`rab yasash mumkin.

**Po`stloq bilan ishlashda kuzatishlar, tajribalar va ko`rsatishlar.** Ba`zi daraxt po`stlog`i, masalan, o`rik va qayin daraxti, turli o`yinchoqlarni yasash uchun juda qulay.

O`quvchilarga yozda sosna va qayin daraxti po`stlog`ini to`plash topshiriladi. Bunda o`qituvchi bolalarni faqat qurigan daraxt, kesilgan shoxlardangina po`stlog`ini kesib olish mumkinligi haqida ogohlantiradi.

Amaliy ishlardan oldin ikkinchi sinf o`quvchilari kuzatishlar va tajribalar o`tkazib, savollarga javob beradilar: Qayin va sosna po`stlog`ini tashqi ko`rinishidan qanday aniqlash mumkin? Qaysi po`stloq yupqaroq? Qaysi po`stloq g`ovakroq? Qaysi po`stloq zichroq, egiluvchan va mustahkamroq? Qaysi po`stloq yupqa qatlamlarga bo`linadi? Qaysi asboblarda yordamida qayin va sosna po`stlog`ini ishlov berish mumkin?

Shu tariqa o`quvchilar o`rik po`stlog`i jigarrang, qayin po`stlog`i – oq rangda bo`lib qora chiziqlari bo`lishi, qayin po`stlog`i o`rikdan yupqaroq, o`rik po`stlog`i g`ovakroqligi, qayin po`stlog`i mustahkamroq, egiluvchan va zichligi, uni mayda qatlamga ajratish mumkinligi, sosna po`stlog`ini pichoq yordamida, qayin po`stlog`ini qaychi yordamida, ishlov berish osonligini bilib oladilar.

Keyin tajriba yo`li bilan o`quvchilar qayin va sosna po`stlog`ini qattiq qalam yoki ruchka bilan belgilash mumkinligini; bu po`stloq turlari kazein, duradgorlik yelimlari, hamda BF-2 va PVA yelimlari bilan yopishtirilishini aniqlaydilar.



10-rasm. Daraxt po`stlog`idan buyumlar namunasi

Kuzatishlar jarayonida bolalar sosna po`stlog`i va berestadan qanday buyumlar yasash mumkinligini bilib oladilar (10-rasm). Engil hajmli murakkab shakldagi detallar olmoqchi bo`lganda sosna po`stlog`idan foydalaniladi. Masalan, o`rik po`stlog`idan shamol tegirmoni korpusi, kemacha, yaxtacha korpuslarini yasashda foydalanish mumkin. Qayin po`stlog`idan yupqa mustahkam buyumlar, masalan, yaxta modeli yelkanlarini yasashda foydalaniladi.

**IV sinfda xalq ustalari mahsulotlarini ko`rsatish.** Barglar, gullardan applikatsiyalar va panno va somonchalardan dekorativ ishlar

tayyorlash bo'yicha amaliy ishlardan oldin o'qituvchi to'rtinchi sinf o'quvchilariga o'simlik naqshlari bilan bezatilgan xalq ustalarining ishlarining namunalarini ko'rsatadi.

Xalq ustalarining ishlarini diqqat bilan kuzatib o'quvchilar ularning vazifasi, naqsh shakli va xarakterini aniqlaydilar.

Ishlarni ko'rsatishda o'qituvchi yog'och va metallardan ko'pchilik buyumlarni bezashda shoxlar, barglar, gullardan tuzilgan o'simlik naqshi asos qilib olinganini ma'lum qiladi.

Xalq ustalari buyumlari namunalarini ko'rsatishda o'qituvchi, quyidagi savollarga javob berishni so'raydi: Bu buyumlar nima uchun mo'ljallangan? Xalq ustalari buyumlari sizga nimasi bilan yoqadi?

Xalq ustalari dastlab buyumni yog'ochdan yo'nib yoki kesib oladi, keyin uning yuzasi loy, yog' va alyuminiy kukuni eritmasi bilan surtadilar. Buyum metall kabi silliq va yaltiroq bo'lgach, bo'yoqlar bilan bezatilib, lak bilan qoplanadi. Shundan keyin ular pechkada toblanadi. Yuqori harorat ta'siri ostida lak plenksi to'q rangga kirib, buyum yuzasi iliq qahrabo tusini oladi. Kukun bilan bo'yalgan yog'och yuzasi lak ostidan ko'rinib turib, oltinga o'xshab ketadi.


**Panno va applikatsiyalar uchun gullar terishda kuzatishlar va tajribalar.** Yozda o'quvchilarga dala, o'tloq va o'rmonlarda yozning boshida, o'rtasida va oxirida paydo bo'luvchi gullarni terish, ularning nomlarini aniqlash, ularning qaysi biri o'tloqda, o'rmonda, dalada o'sishini eslab qolish topshirig'i beriladi. Bunda o'quvchilari tabiatshunoslik va tasviriy san'at darslarida olingan bilim va tushunchalarni mustahkamlaydilar.

Bolalar gul turlari yozda doimo o'zgarib turishini aniqlaydilar. Iliq bahor kunlari kelishi bilan baxmaldek to'q-ko'k rangli chuchmomalar paydo bo'ladi, keng bargli daraxt cho'qqilari birlashib, o'rmonda quyuc soya paydo bo'lishi bilan nozik oq marvarid – gullar ochiladi. Iyun boshida o'tloq chinnigullari paydo bo'ladi. Keyin yarongullar, moychechaklar yashnab ketadi. Kech kuzgacha mingyaproq gullari ochilib turadi. Terilgan gullarni darhol quritish kerak. O'qituvchi bolalarga turli o'simlik gullarini quritish qoidalari to'g'risida gapirib beradi. Katta bo'lmagan gullarni, masalan chinnigul, mingyaproq, geran, oddiy usulda botanika apapkasi orasiga gazeta qog'ozi qavatlarini qo'yib quritiladi. Yirikroq gullarni, masalan, moychechaklar, yarongullar va hokazo, quritish uchun

paxtadan ikkita yostiqlar tayyorlab, ular orasiga quritiluvchi o'simliklar joylashtiriladi. Gulli yostiqlar gazeta qog'ozini bilan yopilib, botanika pressiga joylashtiriladi.

Gullarni turli fonlarga joylashtirib, uchinchi sinf o'quvchilari eng mos rang qo'shilishlarini topib, kontrast tuslarni aniqlaydilar. O'quvchilar qizil chinnigul yashil fonda yaxshi ko'rinishi, oq marvaridgul qorada; ko'k chuchmomalar to'q sariq fonda yaqqolroq ko'rinishini aytadilar.

Tasviriy san'at darslaridan o'quvchilar ranglar sovuq va iliq bo'lishni biladilar. Amaliy ishlar jarayonida bolalar mos ranglarni tanlab gullardan applikatsiyalar va panno tayyorlaydilar (11-rasm).



11-rasm. Quritilgan o'simliklardan panno namunalari


**Somon bilan ishlashda kuzatishlar, tajribalar va ko'rsatishlar.** Somondan turli o'yinchoqlar yasash imkoniyati juda katta.

Amaliy ishlardan oldin o'quvchilar kuzatishlar va tajribalar jarayonida quyidagi savollarga javob topadilar: Qaysi somon arpa yoki bug'doy ochiqroq tusda? Bu somonlardan qaysi biri egiluvchanroq? Qaysi somon kesish va tekislashda kamroq yoriladi? O'simlik poyasining qaysi qismi – pastki, o'rtacha yoki ustki – ish uchun eng qulay?

Kuzatishlar va tajribalar jarayonida o'quvchilar arpa somoni ochiq va nafis tusga egaligi, u juda egiluvchan bo'lib, kesish va




tekislashda kamroq yorilishini aniqlaydilar. Ish uchun poyaning o`rta qismi eng yaxshi hisoblanadi.



12-rasm. O`yinchoqlar tayyorlashda foydalanish uchun somonni tayyorlash


Ba`zi amaliy ishlar uchun yumshoq, elastik somon kerak bo`ladi. Uni quyidagicha olish mumkin. Somon poyalari keng tog`orachaga solib, qaynoq suv quyiladi. Suv sovigach, somon tog`oradan olinadi, u yumshoq va elastik bo`ladi (12-rasm). Bunday somondan qutichalar, savatlar, o`yinchoqlar yasash osonroq (13-rasm).



13-rasm. Somondan o`yinchoq namunalari

Bu o`yinchoqlarni tayyorlashda o`quvchilar somonning texnologik xususiyatlarini o`rganadilar. Ular somonni bog`larga bog`lash, o`rash, pichoq va qaychi bilan kesish mumkinligini bilib oladilar. O`yinchoqqa yakunlangan ko`rinish berish uchun somonga boshqa materiallar, masalan, rangli iplar, gazlama bo`laklari va hokazo qo`shishi mumkin.

Tekislangan somonchadan applikasiyalar tayyorlashda uchinchi sinf o`quvchilari qator kuzatish va tajribalarni o`tkazadilar. O`quvchilar somonchalarni barglardan tozalaydilar, tugunolarini kesib oladilar, eng yaxshi bo`laklarni tanlab oladilar, ularni qaynoq suvda damlaydilar, ikkiga bo`ladilar, ochib, dazmol bilan tekislaydilar. Bunda o`quvchilar qaynoq suvda damlangan va kesilgan somoncha dazmol bilan oson tekislanishi, tor yassi tasmachaga aylanishini aniqlaydilar.



14-rasm. Somondan applikasiya

Tekislash jarayonida to`rtinchi sinf o`quvchilari dazmol isitilishiga va ishlov berish vaqtiga qarab somonchaga turli tus – och-sariq, sariq, och-jigar rang, to`q jigar rang – berish mumkin degan xulosaga keladilar. Rasmlarni somoncha bilan yelimlab chiqishdagi amaliy ishda kuzatishlar bevosita davom ettiriladi (14-rasm). Detalni kesib, yopishtirishdan oldin o`quvchi shunday somonchani tanlaydiki, u o`z fakturasi, shakli va rangi bilan o`ylangan kompozitsiya g`oyasini

muvaqqiyatliroq ifodalasin. Tajribalar jarayonida o`quvchilar somondan applikasiyalarni qog`oz, karton, yog`ochdan fon ustida bajarish mumkinligini bilib oladilar. Biroq fon uchun eng yaxshi material ko`p qatlamli qayin fanera yoki yupqa qayin taxtadir.

Applikatsiyani ustidan duradgorlik yelimi qatlami qoplangan to`q fonda bajarish qulayroq. Bu holda somondan detallar bir oz ho`llab, qaychi uchi bilan bosishda planshet yuzasiga mustahkam yopishadi.

Applikatsiyalarni yopishtirishdan keyin o`quvchilarga somondan applikasiyalar boshqa materiallarga nisbatan (masalan, qog`ozdan applikasiya) vaqtda qancha saqlanishini kuzatish topshirig`i beriladi. O`quvchilar qog`ozdan tayyorlangan applikasiyalar vaqt o`tishi bilan rangi o`chishi, o`zining boshlang`ich bo`yoqlarini yo`qotishi, somondan applikasiyalar esa o`zgarmay qolishini aniqlaydilar.

**O`quvchilarni sopol bilan tanishtirishda kuzatishlar.** IV sinf o`quvchilari texnologiya darslari da o`zlarining amaliy mashg`ulotlar va ishlab chiqarishga ekskursiyalar vaqtda olingan loy to`g`risidagi bilimlarini tizimga soladilar. Kuydirilgan loydan buyumlar keng tarqalgan. Sanoat sopol buyumlari, qizil qurimcha g`ishti, cherepitsa, chinni buyumlarni ko`rsatib, o`qituvchi ularning ishlab chiqarilishi to`g`risida hikoya qiladi (35-rasm).



15-rasm. Xalq ustalarining sopol va chinnidan yasagan buyumlari:

1 – skopin sopoli (Ryazan viloyati); 2 – dmitrov chinnisi (Moskva viloyati)

Loydan tayyorlangan, yuqori harorat ostida kuydirilgan buyumlar sopol deb ataladi. Sopol tayyorlash bir necha bosqichni o'z ichiga oladi. Avval loydan xamir tayyorlanadi, keyin undan buyum shakli yasalib, bir hafta atrofida quritiladi, shundan keyin u kuydiriladi. Kuydirishda loy pishadi, undan suv yo'qotiladi va ba'zi aralashmalar kuydiriladi. Kuydirishdan keyin qizdirilgan loy asta-sekin soviydi. Quritish va kuydirishni tezlatish uchun loyga sopol uvoqlari, pemza, yog'och poxollari qo'shiladi.

Sopolni ishlov berish, ayniqsa badiiy-dekorativ ahamiyatga ega buyumlarni ishlov berish muhim operatsiya hisoblanadi. Buyumning o'ng yuzasiga ko'pincha relief solinadi. Ba'zan pardoz uchun maxsus bo'yoqlar qo'shilgan bo'yalgan loydan foydalaniladi. Rangli pardozlash kuydirishdan oldin bajariladi. Rasm solingan buyumlar yuqoriroq haroratda yana kuydiriladi. Bunda rangli pardoz yanada yaqqolroq tus olib, buyum yuzasi silliq, shishasimon bo'ladi. Qadimgi Samarqand sopollari juda mashhur.


Chinni buyumlar namunalarini ko'rsatib, o'qituvchi ularni sopolning boshqa turlaridan quyidagi belgilar bo'yicha farqlash mumkinligini aytib o'tadi: chinni yupqaroq va yaqqolroq bezakda bo'ladi, chinni idish devorlari yupqaroq bo'lib, yorug'likka tutilsa, sal ko'rinib turadi, yengil urishda chinni nozikroq, baland va uzoqroq jaranglaydi.

**Qurilish materiallari bilan o'quvchilarni tanishtirish darslarini tashkil qilish.** Qurilish maydonchasiga ekskursiya oldidan o'quvchilarga yashash binosining asosiy qismlarini qarab chiqish va qurilish materiallarining namunalarini: beton bo'laklari, qizil va oq g'isht bo'laklari, gudron, shifer, yog'och, yupqa metall, sement, gips (alebastr) bo'laklarini yig'ishni topshiradi.

Ekskursiyadan keyin o'quvchilar o'zlarining qurilish va qurilish materiallari to'g'risidagi bilimlarini tizimlashtiradilar.

O'qituvchi bino rasmini diqqat bilan ko'rib chiqib (16.1-rasm), uning qismlarini aytishni taklif qiladi. Uchinchi sinf o'quvchilari bino poydevor, devorlar, tom, deraza, eshiklar, tutun o'tuvchi va shamollatish quvurlaridan iborat ekanligini aytadilar. O'quvchilar binoning alohida qismlari qaysi materiallardan qilinishini aytib o'tadilar: tutun o'tish quvurlari - g'ishtdan, devorlar - g'isht va temirbeton plitalardan, poydevor – temirbeton bloklardan, pol va

derazalar – yog`ochdan, tom – yog`och, yupqa temir, shifer, tol - qora smola shimdirilgan kartondan; tashqi eshiklar – DSP dan, ichki eshiklar – DVP dan qilinadi.



16-rasm. Yashash binosi arxitekturasini va qurilishi bilan tanishish:

1 – binoning asosiy qismlari; 2 - qurilish materiallariga suvning taʼsirini aniqlash tajribalari; 3 – material yonuvchanligini tekshirish; 4 – bino qurishda ishlatiluvchi materiallar

Bino va uning qismlari bilan tanishgandan keyin uchinchi sinf o`quvchilari ekskursionida to`plangan qurilish materiallari namunalarini diqqat bilan qarab chiqish, bu materiallar rangini, ularning qattiqligini aniqlash vazifasini olishadi. O`quvchilar beton va shifer kul rang, g`isht - qizil va oq, gudron - qora rangdaligini aniqlashadi. Bu materiallarning hammasi qattiq.


Ko`rsatish tajribalari jarayonida o`qituvchi bolalarni bu materiallarning suv va olovga munosabati bilan tanishtiradi. O`qituvchi navbat bilan beton, g`isht, shifer va gudron bo`laklarini suvli stakan ichiga solib oladi, o`quvchilar ularni qarab chiqadi. Bolalar bu materiallar suvda cho`kishi va ho`llanmasligini qayd etadilar (16.2-rasm). Qurilish materiallarini alanga ustida qizitish jarayonida o`quvchilar beton, g`isht va shifer qattiqligicha qolishi, gudron esa yumshashini aniqlaydilar (16.3-rasm).

Zamonaviy qurilish materiallarining asosiy xususiyatlari – mustahkamlik, namga chidamlilik va olovga qarshilik. Bunday materiallardan qurilgan binolar uzoq saqlanadi. Ular yomg`ir va olovdan qo`rqmaydi.

O`qituvchi o`quvchilarga beton va g`isht parchalarini yana bir marta qarab chiqishni taklif qiladi. U bu materiallar zamonaviy binolarni qurishda asosiy ekanligini aytadi. Qizil g`isht loydan, oq silikat g`isht – sof kvarts qumiga (92-95 %) ohak qo`shib (5-8 %) tayyorlanadi. Beton qum, sement, suv aralashmasidan olinadi. Beton qisilishda yuklanishga yaxshi chidaydi, lekin cho`zilishdagi yuklanishni yaxshi ko`tarmaydi. Undan detallar cho`zilishda sinmasligi uchun avval metall xivichlardan to`r yasalib, keyin uning ustiga beton quyiladi. Beton quyilgan metall to`rlardan tayyorlangan detallar temirbeton deb ataladi. Yirik temirbeton bloklardan uylar qurish g`ishtdan ko`ra tezroq amalga oshiriladi. Hozir temirbeton zavodlarida plitalar bilan birga butun xonalar, ba`zan esa butun xonadonlar tayyorlanmoqda. Tayyor xonalar yoki xonadonlarni qudratli avtomashinalarda qurilishga tashib kelib, katta kranlar bilan ko`tarib, joyiga o`rnatiladi. Bir hafta ichida bunday bloklardan quruvchilar beshqavatli uy yig`a oladilar.

Ekskursiya vaqtida o`quvchilar qurilishda yog`och keng qo`llanishini kuzatganlar. Yog`ochdan romlar, deraza va eshiklar, pollar qilinadi. Katta yuzalarni qoplashda yog`ochdan foydalanish maqsadga muvofiq emas. Ularning o`rniga DSP va DVP dan foydalaniladi. DSP tayyorlash uchun yog`och qirindilari, DVP tayyorlash uchun tolalari maydalanib ishlatiladi. Ular smolalar bilan aralastirilib, press yuzasiga muayyan qalinlikda eyiladi va qizitilgan holatda katta bosim ostida qisiladi. Shunday tarzda bir necha kvadrat metr kattalikdagi tekis plitalar hosil qilinadi. DSP qalinligi odatda 10-12 mm, DVP esa 3-5 mm bo`ladi.

Uchinchi sinf o`quvchilari DSP va DVP bo`laklarini diqqat bilan ko`rib chiqib, ular yuzasi silliq ekanligini aniqlaydilar; DSP ning yuzasida mayda qirindilar, DVP da esa tolalar ko`rinib turadi. DVP ning teskari yuzasi odatda unchalik silliq bo`lmaydi.






17-rasm. Qurilish materiallari mustahkamligi va egiluvchanligini sinash

O`qituvchi yog`och materiallarining tarangligi va mustahkamligini ko`rsatuvchi tajribani ko`rsatadi (17-rasm). U yog`och DSP va DVP dan kesib olingan 150x20x3 mm o`lchamli bo`laklarni navbat bilan olib egadi. O`quvchilar yog`och bo`lagi bir tekis egilishi, DSP bo`lagi sinishi, DVP bo`lagi esa bukilib qolishini kuzatadilar. Tajriba asosida o`quvchilar eng tarang va mustahkam material bu yog`ochligi, ikkinchi o`rinda DVP turishi, eng nozik va mustahkam bo`lmagani DSP ekanligi haqida xulosa chiqaradilar.

**Plastik massalar bilan tanishishda kuzatishlar va ko`rsatib berishlar.** Ekskursiyalarda, uyda, maktab ustaxonalarida o`quvchilar sinf to`plamlari uchun plastik materiallarni to`play oladilar.

O`qituvchi plastik massalar gazlamadek yumshoq va egiluvchan (kapron), tiqindek yengil (penoplast), po`latdek mustahkam (shisha plastik), toshdek qattiq (tekstolit), billurdek tiniq (orgshisha) bo`lishini aytadi. Zamonaviy plastik massalar uchun toshko`mir, neft, tabiiy gazlardan olinuvchi sintetik smola asos bo`lib xizmat qiladi. Plastik massalar uchun smolalar qozonlarda yuqori bosim ostida qizitiladi. Smolalardan quyish va turli qo`shimchalar bilan presslash yordamida turli mahsulotlar tayyorlanadi.



18-rasm. Plastik massalar va ulardan mahsulotlar:

1 – plastik massalar; 2 – plastmassadan tipik mahsulotlar;

3 – plastmassaning baʼzi xossalari oʻrganish

Quyidagi plastik materiallar keng maʼlum: xaltachalar, sisternalar, chelaklar, bochkachalar, plyonkalar tayyorlash uchun ketadigan yumshoq, chidamli, yengil material – polietilen (18-rasm), baliq ovlash toʻrlari, tasmalar, tiqinlar tayyorlashga ketuvchi elastik va mustahkam material kapron, mashina detallarini tayyorlashga ketuvchi mustahkam material – tekstolit (smola shimdirilgan mato); plita yuzlari, gramplastinkalar, oʻyinchoqlar va boshqa mahsulotlarni tayyorlash uchun ketuvchi yengil elastik material – polixlorvinil.

Uchinchi sinf oʻquvchilari plastik massalarning baʼzi xususiyatlari bilan tanishadilar. Har bir partaga navbatchilar karton, polietilen, tekstolit, kapron va polixlorvinilning 0,3-0,5 mm qalinlikdagi parchalarni tarqatadilar. Namunalardan qaychi bilan



yo'llar kesib olib, o'quvchilar karton, polietilen, polixlorvinil oson kesilishi, tekstolit esa kesilmasligini aniqlaydilar.

Namunalarni yirtishga harakat qilib, bolalar karton yirtilishi, polietilen, kapron, tekstolit, polixlorvinilni yirtib bo'lmaydi – ular juda mustahkam material degan xulosada keladilar.

Namunalarni bukib, o'quvchilar karton oson bukilib, bukilgan holda qolishi, polietilen, kapron, polixlorvinil bukilib, darhol tekislanishi, tekstolit bukilishda sinishini aniqlaydilar.

Turli xil materiallari bilan ashlash jarayonida o'quvchilarga igna, qaychi, elimni ishlatish usullarini, ehtietkorlik qilish lozimligi va ularni xavfli tomonlarini tushuntirib, kerakli ko'rsatmalar berilishi zarur.

**Gerbariy ramkalarida quritilgan o'simliklarning ko'pchiligi o'zining tabiiy rangini saqlab qoladi.** Bunda o'simlik yumshoq kogoz yoki gazeta orasiga solib qo'yiladi. Har bir varaq qog'oz va o'simlik o'rtasiga yana bir necha qavat qog'oz yoki gazeta qo'yiladi, chunki quritilayotgan o'simlik o'zidan namlik chiqaradi. Shundan so'ng papka ikkita to'rsimon rama o'rtasiga qo'yilib, ochiq havoga qo'yiladi. Agarda havo harorati kechqurun va kechasi juda pasayadigan bo'lsa, quritilayotgan o'simlik issiq va quruq joyga **Tabiiy materiallar bilan ishlashga oid ish joyini tashkil etish talablari.** O'simliklarning gullari, barglari, poyasi va shu kabilarni to'plash maqsadida ekskursiyaga chiqilganda bir juft gazeta, qaychi bo'lishi shart, Gazeta daftarsimon taxlanib, orasiga materiallar tartib bilan joylanadi. Gullarni qo'l bilan sindirib olib bo'lmaydi, aks holda poyasi zararlanishi mumkin. Quritib olishga mo'ljallangan o'simliklar har qanday namlik (yomg'ir yoki shudring)dan xoli bo'lishi kerak, aks holda o'simlik quritilganda unda dog'larning izi qoladi. Quritilayotgan o'simliklarda tabiiy rangni asrab qolishning eng muhim sharti ularni shamol o'tib turadigan joyda, elvizakda, quyosh nurida tez kuritib olishdir. O'simliklarni quritish 3 sutkadan ortiq davom etmasligi kerak. Turli o'simliklarni to'plashni o'z muddatlari bor. Gerbariy olib kiriladi.

Murakkab gullilar quritilganda to'pgullilar poyasidan ajratilib pastgacha joylashtiriladi, so'ngra uning ustiga paxtani aylana qilib qo'yiladi, bunda faqat barglar usti yopilib, gulning o'rtasi ochiq qoldiriladi. Yirik to'pgulli o'simliklarning gulini quritish murakkab tayyorgarlikni talab qilganligi uchun ham kuyi sinflar o'quvchilari

ularni quritish bilan shug'ullanmaydilar. O'simliklarni gerbariylar va applikatsiya ishlari uchun quritishda ishlov berish hamda tayyorlash usullari M. P. Berimchgauzenning «O'simliklarni tabiiy rangini saqlagan holda quritish», 3. A. Mamatovaning «O'simliklarning tabiiy rangi va shaklini saqlagan holda gerbariy qilish» kitoblarida yaxshi bayon etilgan. Pressda kuritish. Orasiga o'simlik solingan qog'ozlar gerbariy papkasi o'rniga ikkita faner listlari o'rtasiga joylanib, og'ir narsa bostirib qo'yiladi. Og'irlik pressga qancha o'simlik joylashtirilganiga bog'liq bo'ladi. Mayda nozik o'simliklar kam og'irlikni va kuritish uchun kamroq vaqtni talab qiladi. 2—3 soatdan so'ng qog'oz prokladka almashtiriladi. Quritish shu usulda davom ettiriladi. Issiq dazmol bilan odatda barglar, poyalar, maysalar quritiladi. Qavat-qavat gazeta yoki yumshoq qog'oz orasida o'simlikni qo'yib, ustidan dazmol yurgiziladi. So'ngra ustki qavatdagi gazetani olib, quritilayotgan narsani shamollatiladi va quruq joyga suriladi, so'ngra gazetani yopib yana dazmollanadi. O'simlik 2—3 minutda quriyda va u o'zining tabiiy rangini yo'qotmaydi. Agarda quritilgan narsa ko'tarilganda o'z tanasini ushlab tursa, u yaxigi quritilgan hisoblanadi, agarda u sinib, maydalanib ketsa, demak, u ortiqcha quritib yuborilgan hisoblanadi. Quritilgan o'simliklar, ayniqsa gullar gigroskopik bo'lib, nam tekkanda ular tezda ildiz otadi, shuning uchun foydalanishga qadar ularni quritilgan joylarida, varaqlar orasida, yopiq papka, quti, shkaflarda saqlagan ma'qul. Bunda ular pechka va shu kabi isitish asboblaridan uzoqroqda bo'lishi kerak, aks holda ular ortiqcha qurib, sinuvchan bo'lib qoladi. Zarang, jo'ka, shumtolning urug'larini kuzda urug'lar pishib daraxtdan to'kilganda teriladi. Biroq bu ishni kech kuzga qoldirib bo'lmaydi, aks holda ular ortiqcha qurib sinuvchan bo'lib qoladi. To'plangan urug'lar qutichalarda quruq, ammo issiqlik manbalaridan uzoqroq joyda saqlanadi.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Tabiiy xomashyolar deganda nimalar nazarda tutiladi?
2. Mahalliy xomashyolar haqida ma'lumot bering.
3. Ish joylarini to'g'ri tashkil etish talablari qaysilar.
3. Turli materiallar bilan ishlash qoidalarini tushuntiring.
4. Materiallarning hayotdagi ahamiyatini misollar asosida izohlang.
5. Kasb-hunar o'rgatish omillari qaysilar v anima uchun?

## 23-MAVZU. PLASTILIN VA LOY BILAN ISHLASH DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

### Reja:

1. Kulolchilik va haykaltaroshlik ishlari haqida ma'lumot.
2. Plastilin va loyning tarkibi va xususiyatlari.
3. Plastilin va loyga ishlov berish usullari.
4. Plastilin va loy bilan ishlash darslarida ish o'rnini tashkil etish talablari.
5. Plastilin va loy bilan ishlash darslari tashkil etish metodikasi.
6. Plastilin va loy bilan ishlashda sanitariya-gigienik talablar.

### ***Mavzuga oid tayanch tushunchalar:***

*Kulolchilik va haykaltaroshlik, plastillin va loy, plastillin va loyning tarkibi, xususiyatlari, , plastillin va loyning ishlatish usullari, plastilin va loy bilan ishlash darslari, sanitariya-gigienik talablar*

Boshlang'ich sinflarda loy va plastilin bilan ishlash mashg'ulotlarining maqsadi va vazifasi bolalarning haykaltaroshlikning elementar asoslari bilan tanishtirish va amaliy ishlashga o'rgatish ularda bu qadimiy hunarga qiziqishlarini oshirish nazarda tutadi. Bunday mashg'ulotlarni yuksak saviyada tashkil etish va o'tkazish har bir o'qituvchidan mazkur soha bo'yicha ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchilar o'z ustlarida ko'proq ishlashlari, xaykaltaroshlik va kulolchilik asoslarini yaxshi bilib olishlari kerak bo'ladi.

Haykaltaroshlik tasviriy san'at ichida eng qadimgi san'atdir. San'atning haykaltaroshlik turining xususiyati tasvirning hajmli plastik formasidir. Odamlar hali yozish va surat solishni bilmagan chog'lardayoq yopishqoq materiallardan odam va hayvon gavdasiga o'xshash shakllarni yasashga harakat qilganlar.

Haykaltaroshlikning bosh ob'ekti – odamdir. Haykaltaroshlik odamni turli-tuman kayfiyatda ifodalay oladi: odamning figurasini, chehrasini, murakkab kechinmalarini, kayfiyat, xarakterni ko'rsatishi, odamning ichki dunyosi, intilishi, ehtirosi va umidlarini hikoya qilishi mumkin.

Haykaltarosh o'z g'oyasini avval qog'ozda aniqlab oladi: suratini chizadi, qismlar joylashishini tuzadi, massa va hajmlar nisbatini qidiradi. So'ngra esa yasay boshlaydi. Metalldan ishlangan qattiq plastinka (karkas) ustiga to kerakli tasvir paydo bo'lmaguncha gil yoki plastilin chaplaveradi. Bunda hajm doim kattalashaveradi, haykaltaroshlar tili bilan aytganda, "o'saveradi". Shu sababli haykaltaroshlikni plastic san'at deb ataladi (grekcha "plastika" so'zidan, ya'ni "yasamoq" demakdir).

Haykalni toshdan yoki yog'ochdan ishlansa, uni yopishtirib yasamaydilar, tarashlab yoki chopib yasaydilar. Shu sababdan haykaltaroshlikni ba'zan o'ymakorlik deb ham ataydilar.

Haykaltarosh odam obrazini yaratar ekan, odamning tana tuzulishini kuzatadi, materialning yuzasiga shunday ishlov beradi, hajmini shunday yasaydiki, har bir muskul, tananing har bir qismi boshqalari bilan garmonik suratda uyg'un bo'ladi. Shu tariqa haykaltarosh o'z ijodiga ko'p bilim, aql, ko'pgina his-tuyg'u, mehnat sarflaydi.

Mo'ljallanishiga ko'ra xaykaltaroshlik monumental, monumental dekorativ hamda stanokli turlarga bo'linadi. Monumental haykaltaroshlik asarlari haykallar, monumentlar va byust-monumentlardir. Ular jamoat joylarida va asosan ochiq havoga o'rnatiladi. Monumental-dekorativ haykaltaroshlik shaxarlar, istirohat bog'lari arxitekturasini, turar joy va idora binolari inter'erini bezaydi. Xotira taxtalari, xotira komplekslari hamda istiroxat bog'i haykallari statuyalar, byustlar, favvoralar, dekorativ guldon kabilar ham shu bo'limga taalluqlidir. Stanok haykaltaroshligida odatda intererni bezaydigan cho'yan, yog'och, bronza, chinnidan yasalgan kichik statuetkalar yasaladi. Material asarning nimaga mo'l-jallanganligi hamda yaratilayotgan obrazga ko'ra tanlanadi. Plastik tasvirlar orasida aylana haykaltaroshlik yolg'iz tur emas. Undan tashqari, barelef va gorelef xam mavjud. Relief aylana haykaltaroshlikdan farq qilib, yassi satxda aks etadi. Barelef o'z hajmining yarmidan kamrog'iga, gorelef esa yarmidan ko'progiga bo'rtib chikadi. Bu haykaltaroshlik formalaridan idish-tovoq sathini, binolarning old tomoni, intsreri va shu kabilarni bezashda foydalaniladi.

Kulolchilik- hunarmandlikning loydan turli buyumlar tayyorlaydigan turi kulolchilikda asosiy xomashyo- tuproq. Loy

qancha ko'p pishitilsa, sopolning sifati shuncha yaxshi bo'ladi. Kulolchilikda asosiy qurol kulolchilik charxi, usta unda idishlar tayyorlaydi va ularga shakl beradi. Tayyorlangan idishlar quritilib, xumdonda qizdiriladi. Idishlarning turlariga qarab xumdonlar ham turlicha (katta-kichik) bo'lishi mumkin. Sirlanadigan idishlar sirlangandan so'ng yana bir bor xumdonda qizdiriladi. Odatda, kulollar ma'lum idishlar ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashgan bo'ladilar.

Kulolchilik O'zbekistonning hamma joyida uchraydi. Ammo badiiy buyumlar yaratishda eng yirik markazlardan Rishton, G'jduvon, Shahrisabz, Xiva, Xonqa, Samarqand, Toshkent qadimdan mashhur bo'lgan. Masalan, G'ijduvon sopol idishlari o'zining rang-barangligi, pishiqligi va qatlamliligi bilan ko'zga tashlanadi. Ularda xatlami uslubida to'q jigar rang, fonida yashil, to'q sariq, to'q ko'k va qizil g'isht rangli naqshlar bir necha qatlamda berilgan bo'lib, bo'rtirilgandek seziladi.

Rishton kulollari yaratgan sirli idish va sopol buyumlar o'zining nozik va murakkab naqshlari, bo'yoqlar koloriti, ayniqsa, och ko'k kobalti va feruza rangli bir necha ohangligi bilan ajralib turadi. Hozirgi Rishton buyumlaridagi qalami uslubida yaratilgani naqshlar yirik va dekorativ xildagi ornamentli.

**Plastilin** – narsalar yasashda qo'llaniladigan materialdir. U sun`iy plastik massa bo'lib, loydan hech qachon qurimasligi va doimo ishlatishga tayyorligi bilan farqlanadi. Plastilinning har xil – oddiy va murakkab turlari bo'lib uni tayyorlashni bir nechta usullari bor.

Birinchi variant – toza quyuq loyga glitserin qo'shib bir turli massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Glitserin tayyorlanadigan massa qo'lga yopishmaydigan holatga kelguncha qo'shiladi.

Ikkinchi variant – quritilgan toza loy mayda qilib tuyuladi va unga vazelin qo'shib, qo'lga yopishmaydigan quyuq massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Plastilinga kerakli rangdagi quruq bo'yoq massasini qo'shib va puxta aralashtirib bo'yash mumkin.

Uchinchi variant - 1 qism tuprog'iga 1/5 qism ilitilgan mum hamda plastilin qo'lga yopishmaydigan darajaga yetguncha glitserin qo'shib aralashtiriladi.

Loy va plastilin ham turli narsalar yasash uchun juda qulay bo'lib, ayrim xususiyatlariga ko'ra, bir-biridan ajralib turadi. Masalan plastilin rang-barangligi va doimo ishga tayyor holda ekanligi bilan

ajralib turadi. Lekin asosiy kamchilik shundaki, plastilin issiqda tez erib ketadi va o'zining qayishqoqlik xususiyatini yo'qotadi. Bundan tashqari plastilindan ishlangan haykalchalarni ochiq joyda saqlash juda qiyin. Undan asosan kichik modellarni yasashda foydalaniladi. U sun'iy plastik massa bo'lib, loydan hech qachon qurimasligi bilan farqlanadi.

Texnologiya darslarida loy, plastilin, mum kabi materiallardan foydalanib, ulardan turli o'yinchoqlar, jonivorlar, qushlar, ertak qaxromonlari yasaladi. O'yinchoq – dekorativ sa'natning eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, qadim asarlarda loydan yasalgan narsalar bizgacha yetib kelgan. Mamlakatimizda sanoat va madaniyatning rivojlanib borishiga ko'ra o'yinchoqlarni assortimenti, ularning obrazlari yildan-yilga boyib bormoqda. O'yinchoqlar yasaladigan materiallar xilma-xildir. Biroq afzallik loyga beriladi. Loy narsalar yasashda asosiy material hisoblanadi.



**1 – rasm**

Chunki u istalgan joyda topiladi, arzon va qayishqoqdir. Narsalar yasaladigan materialda chet predmetlar, tosh, qum va shu kabilar bo'lmasligi kerak. Chunki ish qo'lda bajariladi. Shuning uchun ish boshlashdan oldin loyni tayyorlash kerak, topilgan matni narsalar yasashga yaroqli yoki yo'qligini oldindan tekshirish kerak. Loy shirali va shirasiz bo'ladi. Shirasiz loy tarkibida qum ko'p bo'lib, unda

yopishqoqlik xususiyati ko`ngildagidek bo`lmaydi. Plastilin va loy bilan tanishtirish ishlari dastlab 1-sinfdanoq boshlanadi. Bunda plastilin va loyning xususiyatlari, ulardan foydalanish qoidalari aytib o`tiladi. Hozir 1- sinf Texnologiya darsligida berilgan “Plastilin va loy bilan ishlash qoidalari” mavzusini ko`rishimiz mumkin (1-rasm). Plastilindan turli hayvonlar, buyumlar yasashni 4 – sinf Texnologiya darsligida ham ko`rishimiz mumkin (2-rasm)



## 2 – rasm .

Loy tayyorlashda tabiatda uchraydigan soz tuproqdan foydalaniladi. Soz tuproqdan odatda kulolchilik buyumlari tayyorlanadi, uy devorlarini pardozlashda ham undan foydalaniladi. Ana shu tuproqni har xil aralashmalardan tozalab, ozgina ishlov berish orqali loy holida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida ishlatish mumkin. Buning uchun tuproq tarkibidagi kesaklar yaxshilab maydalanadi va yirik ko'zli elakdan o'tkaziladi. Ustiga suv qo'yib, 5-6 soat saqlanadi, so'ngra suvini to'kib, qo'lga yopishmaydigan quyuproq xamir holatiga kelguncha yaxshilab ishlanadi. Tayyor loy selofan yoki kleyonka qopchalarda saqlanadi va darsga foydalanishga tayyor loy sifatida keltiriladi. Loy bilan ishlaganda asosan oddiy asboblari, pichoq, oddiy konstruktsiyadagi yog'och va metall uchli steklardan foydalaniladi. Plastilin va mum bilan ishlaganda metall steklardan foydalaniladi. Ularni qizitish hamda yo`g'on mis, alyumin yoki temir simdan tayyorlash mumkin. Sirkul, o'lchov, chizg'ich va burchaklar kabi o'lchov asboblari modellarni chizish va o'lchash ishlarida kerak bo'ladi. Tayyor narsalardagi changlarni yo`qotish, loy narsalarni


supurib tashlash, narsani solish va unga narsalar surtish jarayonida har – xil mo'yoqalamlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan ishlov beriluvchi qulay va sevimli materiallardan biri loydir.

Kuz boshida birinchi sinf o'quvchilari o'qituvchi rahbarligi ostida loy va kvars qumi namunalarini to'playdilar. Mehnat darslarida bu materiallar bilan kuzatishlar va tajribalar o'tkazadilar va o'qituvchi savollariga javob beradilar.

Quruq loy va quruq qum uyumchalarini qarab chiqib, o'quvchilar bu materiallar rangini aniqlaydilar. Qum va loyni kaftlari orasida ishqalab, bolalar bu materiallar tuzilishini aniqlaydilar. Loy va qumni namlab o'quvchilar bu materiallar xususiyatlarining o'zgarishini kuzatadilar.

Nam loy va qumni kaftlar orasida siqib, o'quvchilar bu materiallarning plastikligini qayd etadilar, quritishdan keyingi o'zgarishlarni aniqlaydilar.

Dastlabki kuzatishlar va tajribalar natijasida o'quvchilar quruq loy, oq, kul rang, qizil rangda, qum esa – sariq rangda bo'lishi mumkinligini aniqlaydilar. Ishqalashda quruq loy mayda zarralarga aylanishini; qum esa o'zgarimasdan qolishini; namlashda loy to'qroq tusga kirib, yopishqoq massaga aylanishi; qum ham to'qroq tus olib, uning zarralari o'zaro yopisha boshlashini bilib oladilar. Nam loy va qumga kerakli shakl berish mumkin. Quritishdan keyin loydan yasalgan buyum o'z shaklini o'zgartirmay qotadi, qumdan yasalgan buyum esa quritishdan keyin to'kilib ketadi



Loy va qum bilan tajribalar



Keyingi tajribalar jarayonida birinchi sinf o'quvchilari ishlash uchun istalgan loydan foydalanish mumkinligini bilib oladilar. Loyni yirik qum va boshqa aralashmalardan ajratish uchun uni tozalash ishini amalga oshiradilar. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligi va bevosita ishtirokida loyni maydalab, idishga yarmidan ortiq to'ldirib solib, ustigacha suv quyadilar. Keyingi kuni eritma tingan, asta suvni to'kib, loyning ustki qismi ajratib olinadi, quritib, ishlatiladi. Loy emallangan idish yoki yog'och qutida ustiga nam latta yopib saqlanadi.

Tabiiy loy yog'li (aralashmalarsiz) va oriq (aralashmali) bo'lishi mumkin. Birinchi sinf o'quvchilariga har ikkala loydan bir xil o'lchamli sharchalar yasab quritish topshirig'i beriladi. Keyingi kunlarda bolalar oriq loydan yasalgan buyumlar tezroq qurishini qayd etadilar. O'qituvchi oriq loyda yirikroq zarralardan iborat bo'lgan aralashmalar borligi va ular havoni yaxshiroq o'tkazishini, shu sababli u tez qurishini tushuntiradi.

O'qituvchi yog'li loyga bir oz qum qo'shib, undan shar, silindr, konus yasashni topshiradi. Quritishdan keyin yasalgan buyumlar yorilmasa, loy tarkibi ishlash uchun yaxshi. Bunday loydan 1-sinf o'quvchilari oval shakldagi predmetlar: olma, nok, qo'ziqorin, sholg'om, bodring, lavlagi, gilos, qulupnay, idishlar, hayvonlarni yasaydilar.

Bu buyumlarni quritishdan keyin birinchi sinf o'quvchilariga ular yuzasini silliqlash va akvarel yoki guash bilan bo'yash bo'yicha tajriba va kuzatishlar o'tkazish topshirig'i beriladi. Buyum yasashda o'qituvchi nozik detallarni dastlab barmoqlar bilan, keyin esa stek deb nomlanuvchi uchi o'tkir cho'plar bilan ishlov berish topshirig'ini beradi. O'quvchilar detallarni steklar bilan ishlov berish qulayroqligini bilib oladilar.

**Narsalar yasashda ishlatiladigan asbob va moslamalar.** Loy bilan ishlaganda asosan oddiy asboblari: pichoq, oddiy konstruktsiyadagi yog'och va metall uchli stekalardan foydalaniladi. Plastilin va mum bilan ishlaganda metall stekalardan foydalaniladi. Ularni qizitish hamda yo'g'on mis, alyumin yoki temir simdan tayyorlash mumkin. Sirkul, sirkul-pantograf, merka, chizg'ich va burchaklar kabi o'lchov asboblari modellarni chizish va o'lchash ishlarida kerak bo'ladi.

**Malbert** - bu oddiy yog'och taglikni ustaxonada bemalol yasash mumkin. O'lchami 20 x 30 yoki 25 x 25 sm bo'lgan fanera, organik shisha yoki boshqa materiallardan tayyorlangan tagliklardan ham foydalanish mumkin.

Tayyor narsalardagi changlarni yo'qotish, loy parchalarini supurib tashlash, narsani solish va unga narsalar surtish jarayonida har xil mo'yqalamlar kerak bo'ladi. Diametri 2-3 sm va 1,5 sm li mo'yqalamlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Sprintsovka loydan yasalgan narsalarga suv purkash va formalash vaqtida loyni yuvib tashlash uchun kerak. Sprintsovka dorixonalarda sotiladi.

**Loydan narsalar yasash usullari.** Loy va plastilin bilan ishlash o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bir qator qoidalarga rioya qilishni talab etadi.:

**Yumaloqlash** - bu bir parcha loydan shar yasash, unga olcha, olma kabilar shaklini berishdir. Bir bo'lak loydan kaftda aylana harakatlar bilan shar yasaladi. Shar yasash, so'ngra uzunasiga harakatlar bilan uni tuxum, ustun kabilarga aylantirish.

**Yassilash** - sharikdan yassi non yasaladi, qo'lning xolati doimo o'zgarib turadi.

**Cho'zish** - sharikning bir qismi cho'ziladi.

**Surish (yamash)** buyumning ayrim qismlarini o'zaro biriktirish.

Haykaltaroshlik va kulolchilik mashg'ulotlarida plastilin ham keng miqyosda qollaniladi. Lekin u bilan ishlashda ayrim qonun-qoidaga rioya qilishga to'g'ri keladi. Plastilin sovuq bo'lganda ancha qattiqlashib qoladi. Ish boshlashdan oldin esa uni biroz yumshatish kerak bo'ladi. Buning uchun plastilin solingan qutichamashg'ulot boshlanishidan oldinroq issiqlik manbaiga yaqinroq joyga qo'yiladi yoki salgina namlangan qo'lning kaftida tutib turiladi. Natijada plastilin yumshab, ishga tayyor bo'ladi. Plastilinni qo'lda uzoq vaqt tutib turish yaramaydi.

O'zbekistonning iqlimi issiq, jazirama bo'lganligi bois narsalar yasash bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni loydan bajarilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki plastilindan yasalgan narsalar issiqda o'z shaklini tez yo'qotadi. Ishni oddiy predmetlar: sabzavot-mevalarni yasashdan boshlash kerak. Tayyor namuna yoki rasm bo'yicha ishlashni taklif etish mumkin. O'quvchilar narsalar yasash usullarini

egallab olganlaridan so'ng o'yinchoqlar, badiiy bezakli dekorativ idishlarni yasashga o'tishlari mumkin.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Plastillinning xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Plastillinning tarkibi haqida nimalarni bilasiz?
3. Plastillindan qachon, qayerda va nima maqsadda foydalaniladi?
4. Plastillin ishlatish usullari haqida ma'lumot bering.
5. Loy qanday xususiyatlarga ega?

**24-MAVZU. GAZLAMA BILAN ISHLASH DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI**

**Reja:**

1. Gazlama va ip turlari.
2. Gazlamaning xususiyatlari.
3. Gazlamaning sanoatda ishlab chiqarilishi.
4. Gazlama bilan ishlash metodikasi.
5. Gazlamaga ishlov berish (o'lchash, andoza olish va qirqish) metodikasi.
6. Gazlama bilan ishlashda ish joyini to'g'ri tashkil qilish talablari.

***Mavzuga oid tayanch tushunchalar***

*Gazlama va ip turlari, gazlamaning xususiyatlari, gazlamaga ishlov berish metodikasi, andoza olish, o'lchash va qirqish, gazlama ishlab chiqarish.*

Bolalar birinchi sinfga o'qishga kelgunga qadar qanday gazlamalar va iplar bo'lishi, ulardan inson qayerda va qanday foydalanishi, ular qanday foyda keltirishi to'g'risida ba'zi tasavvurlarga ega bo'ladilar. Ulardagi bu tasavvurlar aniq va to'liq bo'lmaydi, shu sababli ham bir tizimga solinmagan bo'ladi. Qizlar va o'g'illarda bu tasavvurlar hajmi, to'liqligi va sifati bo'yicha turlicha bo'ladi. Gazlamalar va trikotaj mahsulotlardan foydalanishda bolalar ko'pincha ongsiz, noto'g'ri ish tutadilar, natijada matqriallarning buzilishiga yoki xizmat muddatlarining qisqarishiga olib keladi.


Birinchi sinfdagi gazlama va tolali materiallar bilan ishlash bo'limi, asosan suhbatlar va chok tikish ilk mashklari o'tkaziladi. Gazlama va tolali materiallarning tayyorlanishi; Paxta kanop tolalari, junning qayerlarda yetishtirilishi; Dehqonlar va chorvadorlar mehnati haqida tushuncha beriladi. Paxtani qanday etishtirish toladan tashqari hayotga kerakli yana qanday narsalar olishni tushuntiriladi. Gazlamaning turlari haqida gapirib gazlamalar namunalari ko'rsatiladi.

Birinchi sinf mehnat darslarida o'quvchilarga mato turlari, iplarning turlari, kelib chiqishi, tabiiy va kimyoviy tolalar haqida rasmlar va ko'rgazmali vositalar yordamida to'liq ma'lumot berish lozim.

Birinchi sinfda kashta tikish turlari bilan tanishtirilgandan boshlab, milliy maktab kiyimi uchun yoqa, manjet tikish, nonushta xaltachasi tishkish, kiyim kechaklarni tartibga solish mavzularida ish olib boradilar. Biz birinchi sinfda gazlamaning turlari xossasi, ishlatish o'rnini suhbat asosida o'quvchiga tushuntirar ekanmiz, xom-ashyo, gazlama bo'lib kelgunga qadar mehnatkashlarning qo'lidan o'tishi, ularning ko'p mehnati singanligi, shuning uchun gazlamalardan bo'lgan kiyim-kechagimizni asrab avaylashimiz, qadrlashimiz, bu bilan ota-onalarimiz mehnatini ham qadrlagan bo'lishimizni uqtiramiz. Ikkinchi sinfda esa birinchi sinfdagi mehnat malakasi davom ettiriladi. O'qituvchi ip gazlama bilan tanishtirish, gazlama turlarini tanlash, shakl uchun yoqa va manjet tikish, gazlama bilan ishlashda asboblardan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish, oddiy chok va operatsiyalarni qo'llab tikishning asosiy usullari, oralatib tikish, bahya chok kabilar bilan tanishtirish, nonushta xaltachasi tikish, kashta bilan bezashni, kiyimlarni yamash, tugmalarni qadashni o'rgatadi.

Uchinchi sinfda asosan uchinchi chorakda gazlama va tolali matolar bilan ishlash darslari o'tiladi. Bunda to'r tukish, ro'molcha solinadigan xaltacha tayyorlash, fartuk tikish, ularni naqshli kashtalar bilan bezash mavzulari o'tiladi. Endi o'quvchilarni tikish malakalari ancha rivojlangan, bemalol igna bilan ishlay oladilar. To'rtinchi sinfda endi birinchi chorakning boshidanoq ish fartuklari, salfechkalar tikish, sanitar sumkachasi tikish, to'r xalta tikish ishlarini bajaradilar. Endi o'qituvchi o'quvchilardan bu mehnatni o'zlari mustakil

bajarishlarini talab qilishi kerak. O'quvchi bu harakatlarni o'zi



bajarishi unda o'lchov bo'yicha bichish,"andoza"ga qarab, gazlamalarni rejalash, qismlarini bir biriga choklab birlashtirib olish, tepchima choklar bilan tikish, ayri choklar bilan bezash, gazlamalar ipini so'gurish usullarini bilish, chizmaga qarab mustaqil rejalash, aplikatsiya usuli bilan chetlarini merjka choki bilan bezash malakalarini hosil qilgan bo'ladilar. To'rtinchi sinf o'quvchilarini mahalliy seleksionerlar mehnat faoliyati bilan tanishtirish, kichik ekskursiyalar uyushtirish maqsadga muvofiq. Gazlama- arqoq va tanda iplarining o'rilishidan hosil bo'ladigan pardozlangan va ishlatishga tayyor mato. O'lchab – gazlab sotilgani uchun shunday nomlangan. Gazlama qadimda daraxt po'stloqlaridan qo'lda, keyinchalik tolalardan yog'och dastgohlarda, to'quv dastgohlarida to'qilgan, hozirda avtomat stanoklarda to'qiladi. IV sinf Texnologiya darsligida "Gazlamadan gul pannosi yasash" mavzusi o'tiladi.

Gazlamalar va tolali materiallar bilan ishlash darslarini samaradorligini oshirish uchun quyidagilarga e'tibor berishli lozim buladi:

1. Gazlama va tolali materiallar haqida o'quvchilarga umumli tushuncha berish, ularning turlaridan namunalar ko'rsatish;
2. Gazlamalarning asosan nimalarga muljallanganligini o'quvchilar bilishi va u bilan ularni tanishtirish, kiyim-kechak, turmushda buyumlardan namunalar ko'rsatish;
3. Buyumlarni tayyorlashda, bajarishda foydalaniladigan asbob uskunalardan qanday foydalanish kerakligini o'quvchilarga amaliy ko'rsatish bilan birga texnika xavfsizligiga rioya qilishni tushuntirish;

4. Tayyor mahsulotni andozalar yordamida bichish, kiyib olish va tikish usullarini o'qtirish;

5. Tayyor bichilgan qismlarni tikib biriktirish, chok usullarini amaliy ko'rsatish;

6. O'quvchilar gazlamalar bilan ishlash, bichish, tikish tartib va uslublarini puxta o'rganganlaridan so'gina amaliy bajarishga o'tish.

Mehnat ta'limi darslarida sanchiluvchi, qirkuvchi asbob-uskuna borligini, hisobga olib, albatta, mehnat xaltasi tashkil qilishi kerakligini unutmaslik kerak. Chunki, birinchidan, mehnat xaltasiga maxsus cho'ntakchalarni, ignadonni, qaychidonni, turli iplar, gazlamalarni solib qo'yish imkoniyati bo'ladi. Ikkinchidan, mehnat darsiga kerak bo'ladigan narsalar har joga sochilmay, bir joyda, o'qituvchi shkafida saqlanadi. Uchinchidan, o'quvchi mehnat darsiga to'la qatnashish imkoniga ega bo'ladi. Ba'zilar ko'tarib kelishgandan chuchibmi, unutib qoldirishi mumkin bo'lgan holatlarni oldini oladi.

Ma'lumki, birinchi sinf o'quvchilari o'qituvchi rahbarligida o'z hayot tajribalarini ishga solib, gazlamalardan ichki kiyim, ko'ylaklar, palto va kostyumlar, turli bosh kiyimlari, dasturxon va yostiqlar, pardalar, sochiqlar va dastro'mollar, parashyutlar, divan, stullar uchun qoplamalar, poyabzal astarlari, bayroqlar, sumkalar tikilishini aniqlaydilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qituvchining eng oddiy tajriba ishlaridan asta-sekin ravishda to'qimachilik tolalari, undan tayyorlanuvchi iplar va gazlamalar, turli gazlamalarning tayyorlanish xususiyatlari to'g'risida ko'p yangi va foydali ma'lumotlarni o'rganadilar. Shu tariqa o'quvchilarda to'qimachilik materiallari, ularning asosiy xususiyatlari va ishlov berish usullari to'g'risidagi bilimlar sayqal topa boshlaydi. Bular o'z navbatida esa bolalarda materiallarni bir-biridan farqlash, ulardan to'g'ri foydalanish va ishlov berish malakalari shakllanib boradi.

II sinfning dastlabki texnologiya darslaridan e'tiboran bolalarda gazlamalarning tuzilishi va tayyorlash usullari bo'yicha ma'lumotlarga asta-sekin ega bo'lib boorish ehtiyojlari sezila boshlanadi. Eng oddiy mahsulotlarda gazlamalar va iplardan foydalanishning elementar masalalarni amaliy hal etishdayoq

to`qimachilik tolalari va gazlamalar, ularning texnika, ishlab chiqarish va ayniqsa turmushda, kundalik hayotda qo`llanishi to`g`risida bo`lgan bilimlarni aniqlash va umumlashtirish zarurati paydo bo`ladi.

O`quv dasturi o`quvchilarning xotirasini ikkinchi darajali ma`lumotlar bilan to`ldirish emas, balki, ularga tolali materiallardan tayyorlangan gazlamalar to`g`risidagi bilimni to`ldirish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirib borish kerak. Bunda to`qimachilik materiallari (tolalar, iplar, gazlamalar va trikotaj), ulardan foydalanish to`g`risidagi ba`zi ma`lumotlarni, o`quvchilar uyda olishini hisobga olish va esda tutish kerak. Qiz bolalar boshlang`ich ta`limdan keyingi sinflarda ham to`qimachilik materiallari bilan nazariy va amaliy tanishuvni davom ettirishi, o`g`illar esa bu materiallar bilan ishlashni III sinfda tugatishni aytish o`rinlidir.

O`quvchilar to`qimachilik materiallari namunalarini ko`rib, ularning sifat xususiyatlari va ishlov berish hamda pardoqlashning o`ziga xosligini aniqlashi muhim. Shuning uchun ham oddiy kuzatishlar va tajribalarni tashkil etilish maqsadli bo`ladi. Qaysiki bunday kuzatishlar va tajribalar o`quvchilarni bu materiallarni qog`oz, karton, fanera, metallik folga, plastmassa plyonkalar bilan taqqoslashga yo`naltirish uchun foydali bo`ladi. O`quvchilar e`tiborini u yoki bu materiallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlarning qo`llanish sohasi va sharoitlariga qaratish lozim. Birinchi sinf o`quvchilariga kiyim tayyorlash uchun materiallarni tanlash misolida gazlamalarning alohida xususiyatlariga asosiy talablardagi farqlarni ko`rsatish mumkin. Bu kiyimlarning, mavsumiy (yozgi, qishki va mavsumaro), uy kiyimi, ustki va ichki, sport kiyimi va hokazo bo`lishi, har bir gazlamalarni issiqlik himoyalash xususiyatlari, qalinligi, mustahkamligi, rangi va, albatta, narxi bo`yicha tanlay olish kerakligi o`quvchilarga tushuntirilishi lozim. Yozgi ko`ylak uchun engil mato, qishki palto uchun qalin va mustahkam mato talab etilishi, ichki kiyim uchun esa yengil va arzon oq ip-gazlama mato, ko`cha, ish, to`y-tomoshalar, bayramlarga kiyiladigan kiyimlar uchun ancha qimmat va chiroyli, ipak yoki jun mato olishi kerakligi aytilishi lozim. Tikish bo`yicha amaliy ishlarni boshlashda o`qituvchi o`quvchilar bilan ip, gazlama, trikotaj, to`qilgan mahsulotlarning tayyorlanishida foydalaniladigan tolali materiallar to`g`risida qisqacha

suhbat o`tkazadi. Bolalarga tipik, yaxshi tanish bo`lgan narsalarni ko`rsatib, ularning bu mahsulotlar o`rtasidagi umumiy, ularni birlashtiruvchi narsani tushunishlariga harakat qiladi: ularning hammasi tolalardan tuzilgan, tolali tuzilishga ega materiallardan tayyorlangan, deb aytadi.

Materiallarning tolalardan tuzilganligini: kir osadigan arqonni ochib ko`rsatish, gazlama bo`lagidan tortib chiqarilgan ipni yoki eski qo`lqopdan tortib chiqarilgan ipni yoki g`altakda o`ralgan tikuvchilik ipini misol tariqasida bolalarga ko`rsatish mumkin. O`quvchilarga bu tolalar turli narsalardan olinishi mumkinligini ko`rsatish ham muhim.

II-sinf o`quvchilariga to`qimachilik tolalari haqida to`liq ma`lumot berish, ularning tabiiy, sun`iy, sintetik va mineral turlarga ajratilishini ko`rsatishning hojati yo`q. II-sinfda tikuvchilik bo`yicha o`z amaliy ishlarida o`simlikdan olinuvchi tolali gazlamalardan foydalanishlarini aytish kifoya.

O`simlikdan olinuvchi eng ko`p tarqalgan tolali materiallar – paxta (hech bo`lmaganda oddiy momiq), zig`irtola, paklyani o`quvchilarga ko`rsatish darkor. O`qituvchi paxta yoki paklya bo`lagidan yakka tolalarni qanday tortib olishni, bu tolalarni oddiy o`rganilishini – ko`rish, ushlab ko`rish, uzunligini, egiluvchanligini, mustahkamligini, rangini qanday aniqlashni ko`rsatib berishi maqsadga muvofiq.

**Tolali materiallar, iplar va gazlamalar to`plamini tuzish va o`rnatish.**

O`quvchilar to`qimachilik tolalari va materiallari to`g`risida dastlabki tasavvurlarga ega bo`lishlari uchun shu materiallardan foydalanib amaliy ishlarni bajarish kerak. O`quvchilarga darslarda va sinfdan tashqari mashg`ulotlar davomida texpasanoat korxonalarini tomonidan chiqariluvchi materiallar to`plami, ularga qo`lda ishlov berish usullarini ko`rsatuvchi asosiy jarayonlarni ko`rgazmali tarza ko`rsatilishi ahamiyatli bo`ladi. Shuningdek, materiallar va ularning muhim xususiyatlarini o`rganish uchun qo`lbola ko`rgazmalarni tayyorlash bo`yicha o`quvchilarning mustaqil amaliy ishi alohida ahami ham bo`ladi.

O`quvchilarning materiallar to`plash va to`plam tuzish ishini I sinfdan boshlab, keyin III va IV sinflarda materiallarning yangi turlarini o`rganib borib davom ettirishlarini hisobga olish zarur.



Birinchi sinf o`quvchilari o`simlikdan olinuvchi tolalar to`g`risida bilimlarni o`zlashtirib borishlari uchun tolalardan tayyorlangan iplar va gazlamalar bilan amaliy tanishib borishi kerak.

Boshlang`ich sinflarda o`quvchilar, odatda, to`plamlar uchun materiallarni tanlashda elementar, ya`ni to`plangan materiallar namunalarini ongli tasniflashga yo`naltirilgan izlanishlarni o`tkazish ishlariga bog`liq bo`ladi. Bunday izlanishlar o`quvchilarga mavjud to`plamni, yoki oldindan tanlangan va mantiqan asoslangan tasnifiy belgi bo`yicha to`ldirishga imkon beradi. Bu maqsadda o`quvchilar materiallar sifat xususiyatlarini aniqlashning oddiy izlanishlarini amalga oshiradilar, to`plam namunalari joylashuvi sxemasini tuzadilar, ular usti va ostidagi yozuvlar mazmuni va ifodalanishini belgilaydilar, bezatish masalasini hal etadilar.

O`quv maqsadlarida o`quvchilar to`plamlaridan foydalanish qulay bo`lishi uchun ular daftarlarida gazlama namunalarini shunday o`rnatadilarki, har bir namunani nafaqat o`ng, balki teskari tomonidan ham ko`rib, taqqoslab bo`lsin, ularni ushlab ko`rish, gazlama qalinligi, rangi, yuzasining silliqligini va hokazo aniqlab bo`lsin.

II-sinfda bolalar amaliy ishlari jarayonida o`zlari foydalanadigan eng ko`p tarqalgan ip-gazlama matolarni tanlaydilar, o`rganadilar, to`plamlariga o`rnatadilar. O`simlik tolalaridan tayyorlanuvchi iplar – tikuvchilik, yamoqchilik, kashtachilik iplarining kichik to`plamini o`quvchilar alohida joylashtiradilar. Shu to`plamning o`zida turli qalinlik, turli ranglar bilan farqlanuvchi iplar namunasini ham ko`rsatadilar.

Birinchi sinf o`quvchilarining iplar va gazlamalar namunalarini to`plash, to`plamlarni tuzish va joylashtirish ishlari bo`yicha oladigan bilimlari o`quv dasturida ko`zda tutilgan «Qanday gazlamalarni bilamiz», «Gazlamadan nimalar tayyorlanadi», «Qanday iplarni bilamiz» mavzularidagi suhbatlarni o`tkazish uchun asos, ko`rgazmali material bo`lib xizmat qilishi lozim.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari **iplarning vazifasi, qalinligi va rangiga ko`ra taqqoslashni bilishlari kerak.** O`qituvchi o`quvchilar bilan «Qanday iplarni bilamiz» mavzusida suhbat o`tkazishi orqali o`quvchilarning iplar to`g`risida nimalarni bilishini, ularni vazifasiga ko`ra farqlay olishi, ulardan o`z amaliy zaruratlarida foydalana olishini aniqlaydi.


O'qituvchining iplarning vazifasi, qalinligi va rangiga ko'ra taqqoslash ishlariga oid suhbat va u bilan bog'liq ko'rsatishlari birinchi sinf o'quvchilarining ko'p qo'llanuvchi iplarning vazifasi, qalinligi, rangiga ko'ra havlari to'g'risidagi tasavvurlarini umumlashtiradi. O'qituvchining oddiy tikuvchilik iplari o'ramini o'quvchilarga ko'rsatib berishi va qator savollar beriv o'quvchilar bilmini oshirishi natijasida: tikuvchilik iplari, ulardan kiyimlar, bosh kiyimlari, yostiq anjomlari, pardalar, xaltalar va ko'pgina boshqa narsalarni tikish uchun foydalanilish mumkinligini o'quvchilar tushunib olishga da'vat etadi. Shuningdek, o'qituvchi oq va qora ip o'ramini ko'rsatib, ulardan qayerda foydalanilishini so'rashi ham ahamiyatli. Oq ipdan oq matodan detallarni tikish, qora ipdan - qora matolardan detallarni tikishda foydalaniladi. Oq tugmalar oq ip bilan qadaladi. Rangli gazlamalardan narsa tikish kerak bo'lsa-chi? Ranggi gazlama rangiga mos tanlanuvchi rangli iplardan foydalaniladi va hokazo.

O'qituvchi o'quvchilarga bir xil rangli, biroq tasi farqlanuvchi bir necha ip o'ramlarini, masalan, to'q qizil, och qizil, qip-qizil iplarni ko'rsatadi. Keyin esa nima uchun turli qalinlikdagi iplar ishlab chiqarilib, sotuvga chiqarilishini o'quvchilarga tushuntirib beradi va yupqa gazlamalar yupqa iplar bilan, qalinlarini qalin va mustahkam iplar bilan tikilishiga aniqliklar kiritadi. Shu o'rinda o'qituvchi tajriba o'tkazib, bir xil rangdagi, lekin turli qalinlikdagi ip-gazlama iplarning bir necha o'ramini ko'rsatib, bu iplar qalinligini birgalikda aniqlashni taklif qiladi (iplarni ko'rinishi bo'yicha va ushlab ko'rib taqqoslash mumkin). Ip qalinligini aniq bilish uchun har bir o'ramda bo'luvchi etiketkaga qarash kerak: masalan, 10, 40, 50 raqami iplar qalinligini ko'rsatadi. G'altakli tikuvchilik iplarining yog'och g'altagi turli o'lchamda ekanligi, iplar qanchalik qalin bo'lsa, g'altak shunchalik kattaligiga qaratish kerakligini o'rgatadi.

Boshlang'ich sinf texnologiya fani dasturi talablariga muvofiq o'quvchilarga **arqoq va tanda iplarning polotno (tasma) o'ralishi, gazlama namunalarini o'rganish hazarda tutiladi.** Mazkur masalalar II sinf o'quvchilariga qanday usul va shakllarda o'rgatish mumkinligini bir qator misolidan bilish mumkin.

Ma'lumki, o'quvchilar arqoq va tanda iplarning polotno o'ralishiga oid matolar namunalari: doka, xaltalik, astarlik

gazlamalarni ko`rib chiqib, gazlamalar o`zaro o`ralgan iplardan iborat degan xulosaga keladilar. O`qituvchi iplarning bu usulda o`ralishi eng oddiy ekanligini aytadi. Bu o`ralish polotno o`ralish deb ataladi (1-rasm). Bu o`ralishli turlidam: polotno, doka, astarlik, chit, bo`z va boshqa matolar chiqariladi.



1-rasm. Oddiy karton to`quv romchalaridan foydalanib tanda va arqoq iplari polotno o`ralishi xususiyatlarini o`rganish

O`quvchilar oddiy karton to`quv romchalaridan foydalanib tanda va arqoq iplarining polotno o`ralishi xususiyatlarini o`rganishlari orqali matoda iplar ikki o`zaro perpendikulyar yo`nalishlarda, bir-biriga to`g`ri burchak ostida joylashishini aniqlaydilar. O`qituvchi katta mato bo`lagini ko`rsatadi va ikkinchi sinf o`quvchilari bu bo`lakda iplarning biri bo`ylama (tanda iplari), boshqalari esa – ko`ndalang, bir chetdan ikkinchisigacha (arqon iplari) bo`lishini ko`radilar. Keyin esa o`quvchilar o`zlaridagi polotno o`ralishli mato namunalarini turish tomondan (o`ng va teskari) qarab chiqib, bu tomonlar bir xil ko`rinishga ega degan xulosa chiqaradilar. O`qituvchi gazlamalar maxsus to`quv dastgohlarida tayyorlanishini aytadi. Polotno o`ralishli gazlamada har bir arqoq ipi navbatma navbat har bir tanda ipi bilan o`raladi, deb tushuntiradi .

Texnologiya darslari da o`quvchilarni to`qimachilik sanoati mahsulotlari bilan tanishuv ishlari ham amalga oshiriladi. O`qituvchi III sinf o`quvchilarning politexnik tasavvurlarini kengaytirishga alohida e`tibor qaratishi lozim. To`qimachilik hamda tikuvchilik sanoatlarida chiqariladigan mahsulot, to`quvchilik va tikuvchilik bilan shug`ullanidganlarning ish faoliyatlari, kasb-kori to`g`risida o`quvchilarda umumiy tasavvur hosil qilish uchun bu sanoat sohalari tipik mahsulotlarini ko`rsatib suhbat o`tkazish foydali. Bunday ko`rsatishlar uchun o`qituvchi mahsulot namunalari (masalan,

o`quvchilar kiyimi), rasmlar, suratlar, kitob va jurnal rasmlari, diafilmlar, slaydlardan foydalanishi mumkin. Shuningdek, gazlamalar, iplar, kiyim, uy-ro`zg`or buyumlari bilan bir qatorda o`quvchilarga lentalar, tasmalar, to`rlar, trikotaj mahsulotlari, kashta uchun kanvani ko`rsatish ham maqsadga muvofiq bo`ladi.

O`quvchilarni to`qimachilik sanoati mahsulotlari bilan tanishtirishda ekskusiyaning ahamiyati katta. Bunday ekskusiyalarni korxonalar, tikuvchilik atel`elari yoki gazlama va kiyimlar bilan savdo qiluvchi do`konlarga uyushtirish mumkin. Bolalarning to`qimachilik hamda tikuvchilik sanoatlari va ularning yetakchi kasblari to`g`risidagi umumiy tasavvurlari yanada yaqqolroq bo`ladi.

Gazlamani asosiy xususiyatlariga ko`ra qog`oz bilan taqqoslashni o`quvchilar bilishi kerak. O`quvchilarning to`qimachilik materiallarining asosiy xususiyatlarini amaliy jihatdan o`rganish ishlari III sinfda ham davom ettiriladi. Texnologiya darslari da ishlatiluvchi materiallarning muhim xususiyatlarini o`rganish uchun kuzatishlar va oddiy tajribalar katta politexnik ahamiyatga ega bo`lib, ular jarayonida bolalar qog`oz va gazlamaning tuzilishi, mustahkamligi, egiluvchanligini taqqoslaydilar.

Dastlab o`quvchilarga qog`oz va gazlamada nimalar umumiyligini aniqlashni o`rgatish zarur. Jumladan, o`quvshilar:

1) qog`oz va gazlama yupqa materialligi, ularning uzunligi va enini taqqoslashdagi qalinligi ahamiyatsizligini;

2) qog`oz va gazlama tolalardan iborat materiallar bo`lib, bu tolalar qog`ozda chirmashtirilib, yelimlangan, gazlamalarda esa tolalar dastlab ip hosil qilish uchun yigirilgan, keyin esa to`qilganligini;

3) qog`oz va gazlama tuzilishiga ko`ra turli yo`nalishlarda – bo`ylama va ko`ndalang – turlicha bo`lishini (gazlamalarda bu yo`nalishlarni ko`pincha tanda va arqoq yo`nalishlari deb atashadi). Shuning uchun qog`oz va gazlama xususiyatlari turli yo`nalishlarda turlichaligini (masalan, bu materiallar mustahkamligi va cho`zilishini solishtirish kifoya);

4) qo`lda ishlov berishda qog`oz va gazlama bir xil asbob - qaychi bilan kesilishni;

5) qog`oz va gazlamadan mahsulot detallari yelimlash yoki tikish orqali birlashtirilishini;

6) qog`oz va gazlama, kerak bo`lsa, bo`yalishi, ularda rasmlar, bezaklar, naqshlar, yozuvlar bosmalanishini qayd etilishini o`rganib olishi kerak.

O`qituvchi o`quvchilarga qog`oz va gazlamaning muhim xususiyatlardagi farqlarni o`rgatishi kerak. Buning uchun o`quvchilarga o`lchamlari bir xil bo`lgan qog`oz va gazlama berib ularni yo`llarni yirtishga harakat qildirish tajribasini o`tkazish mumkin. Bunda o`quvchilar gazlamalar qog`ozga qaraganda yirtilishga nisbatan ancha ko`proq mustahkamlikka ega ekanligini tushunib oladilar. O`quvchilar qog`oz va gazlamani bukish va egishga harakat qiladilar. Ular qog`oz oson bukilishi va tekislanishi, uni hamma taxlamalar yaxshi saqlanib qolishida ishonch hosil qiladilar. Gazlamada taxlamalar uzoq saqlanib qolishi uchun ularni issiq dazmol bilan bosishga to`g`ri keladi (masalan, shimlar, yubkalarda va hokazo taxlamalar).

Qog`oz va gazlama namunalarini suv bilan ho`llab yoki oldin o`tkazgan tajribalarni eslab, o`quvchilar qog`oz namlanib mustahkamligi kamayishi, qog`oz buyumlar buzilishini qayd etadilar. Gazlamalar esa sifati buzilmay, ko`p martalab yuvilishni ko`taradi.

**Turli vazifali iplar sifat xususiyatlarini taqqoslash malakalari** o`quvchilarda shakllantirilishi kerak. II sinf texnologiya darslarida o`quvchilar gazlama iplardan tashqari hayvondan olinuvchi tolalardan tayyorlangan iplarning, tabiiy ipak va junning sifat xususiyatlarini o`rganishlari lozim. Buning uchun oddiy ko`rinishga ega bo`lgan amaliy ishlardan foydalanish mumkin. O`quvchilarga bu iplar ip-gazlama iplar bilan nimasi bilan o`xshash va nimasi bilan farqlanishini aniqlashga oid topshiriq beriladi. Bu topshiriq natijasida bolalar o`zlariga ma`lum bo`lgan ip turlarini tola tuzilishi xususiyatlari, qatlar soni, mustahkamligi, yumshoqligi, qalinligini, etiketkalarini taqqoslaydilar, keyingilaridan iplarning aniq amaliy ishlarni bajarish uchun yaroqliligini aniqlashda foydalanishga o`rganadilar.

Turli vazifali iplar sifat xususiyatlarini taqqoslash malakalarining o`quvchilarda shakllanganlik darajasini bilish uchun tirish ularga quyidagi savollar bearish mumkin: Nima uchun paypoqlarni oddiy ip-gazlama tikuvchilik iplari bilan yamash mumkin emas? (Ular ko`proq eshilib, yelimlangan, shuning uchun ko`proq qattiqroq. Ular bilan yamoqlangan paypoq joyi oyoqni qavartiradi. Yamoqlash ipi

yumshoq, g`ovak, elastik. Ularning mos rangini tanlash osonroq. Ular bilan yamoqlangan joy yaxshiroq ko`rinishga ega). Nima uchun tugmalarni yamoq qo`yish iplari yoki muline iplar bilan emas, tikuvchilik iplari bilan qadashadi? (Tikuvchilik iplari mustahkamroq). Nima uchun qo`lqoplar jun iplardan to`qiladi? (Ulardan to`qilgan qo`lqop va paypoqlar issiqroq). Qalinligi bir xil, lekin turli narsalardan olingan yoki turli vazifalardagi ikki ipning uzilishga mustahkamligini, masalan ip-gazlama va jun yoki kashtachilik va tikuvchilik iplarini, qanday oddiygina taqqoslash mumkin? (Bu ip bo`laklarini bog`lab, turli tomonga tortish mumkin. Mustahkamligi past ip uziladi).

**Tabiiy ipak va tabiiy jundan tayyorlangan gazlama va iplar to`plamini tuzish va bezash** ishlari ham muhim bo`lib o`qituvchi o`quvchilarga turli (shu jumladan ipak va jun) iplar va gazlamalarni farqlash va to`g`ri ayta olishga o`rgatishi kerak. Buning uchun o`qituvchi o`quvchilarga to`plamlarini nomlash va har bir namuna ostiga uning nomini yozishni topshiradi. O`quvchilarga iplar namunasi yoniga mos etiketkalarini yopishtirishni taklif etish foydali, bu etiketkalarini bolalar ip g`altaklari, o`ramlaridan ehtiyotkorona olishadi. O`quvchilariga uyda kattalar yordamida tabiiy jun va tabiiy ipak tolalardan tayyorlangan mato bo`laklarini topish vazifasini berish lozim.


**Iplar tasnifi bilan tanishish.** II va III sinflarda texnologiya darslari da o`quvchilar to`qimachilik materiallari – tolalar, ularning muhim xususiyatlari to`g`risida asta-sekin bilimlar to`playdilar. Joriy amaliy ish uchun zarur bilimlar uchun o`quvchilarni qurollantirish maqsadida ko`rsatishlar, kuzatishlar va oddiy tajribalar qatori o`tkaziladi. IV sinfda o`quvchilarda iplar tasnifi, ularning ishlab chiqarilishi, muhim xususiyatlari, mehnatda qo`llanishi to`g`risidagi mavjud bilimlarni umumlashtirish, tizimga solish maqsadida suhbatlar, ko`rsatishlar, kuzatishlar va tajribalar o`tkazish foydali.

Sinf o`quvchilari iplar to`plami, o`quv to`plamlarini diqqat bilan qarab chiqib, hamda ish stollarida bo`lgan turli iplar namunalarini o`rganib, g`altaklar va o`ramlardagi etiketkalarini o`qib, hamma iplarni amaliyot uchun muhim belgilar va xususiyatlar qatoriga qarab tasniflash mumkinligini birgalikda aniqlashlari ular uchun ancha foydali bo`ladi. O`quvchilar:

1. Iplar tayyorlangan tolalarga qarab: ip-gazlama, zig`ir, jun, ipak (tabiiy va sun`iy toladan), sintetik va aralashdan (u yoki bu tolalarning turli kombinatsiyalaridan) iborat ekanligini; tolalarning o`simlik, hayvon, sun`iy, sintetik va mineraldan olinishini;

2. Vazifasiga ko`ra iplar tikuvchilik, kashtachilik, yamash, to`qish va boshqalarga bo`linishini;

3. Qalinligi bo`yicha iplar nomerlarga ko`ra bo`linishm, masalan, tikuvchilik iplarining metrik nomeri 1 g da necha metr ip borligini ko`rsatishi; Oddiy o`rganish orqali iplar qalinligi, eng avvalo ularning tayyorlanishi uchun foydalanilgan ip qalinligi va qavatlar soniga bog`liqligini; (2-rasm).




2-rasm. Tikuvchilik iplari, shpagat, tasmada iplar qatlami sonini aniqlash:

1 – 2,3,4 va 6 qatli ip; 2 – ipda qatlar sonin aniqlash uchun ochish

4. Rangiga ko`ra iplar oq, qora va rangli bo`linishi, ranglanmaydigan xom iplarni bilishi;

5. Sifati va eng avvalo, mustahkamligini hamda pardoziga ko`ra iplar navlarga bo`linishini va iplar mustahkamligi tola turi va sifati, uning ipda eshilishi, hamda qatlar soniga bog`liqligini o`rganishi kerak.

Kuzatishlar va oddiy o`rganishlar vaqtida o`qituvchi tolali materiallar va iplarning sinf to`plamni o`quvchilarga ko`rsatishi orqali ularning iplar to`g`risidagi bilimlarni umumlashga erishishi mumkin. O`quvchilar iste`molchilarga yetib kelgan har bir g`altak, o`ram, bobinalar, iplar solinadigan qutilarda bo`luvchi etiketkalar bo`yicha ish uchun zarur bo`lgan iplar to`g`risidagi ma`lumotlarni qanday aniqlash kerakligini eslaydilar (3-rasm).



3-rasm. Turli vazifali iplar to'plami:

- 1 – tikuvchilik g`altak ipi; 2 – tikuvchilik ipi bobinasi;
- 3 – yamash ipi; 4 – muline (kashta tikish uchun rangli iplar);
- 5 – yamash ipi o`rami

Tashqi ko`rinishiga qarab iplar rangi va pardoatlanishini, qatlar soniniga qarab ip bo`lagini ochib aniqlash mumkinligi haqida o`quvchilarga ma`lumotlar berish lozim. O`quvchilar etiketkalarda yozilgan ip to`g`risidagi ma`lumotlar– ip navi, uning raqami, qatlar soni, metr uzunligi (jun ip o`ramlarida ularning og`irligi ko`rsatiladi) haqidagi ma`lumotlarni o`qib-o`rganishiga alohida e`tibor qaratislishi ahamiyatli. O`quvchilar etiketka – bu ip g`altagi, o`ramining pasporti ekanligini albatta, bilishi shart. Etiketka haqida etarlicha ko`nikmalar bo`lgan o`quvchilar tikuvchilik ipi yorliq raqamini, ya`ni ularning qalinligini ancha-muncha aniq aniqlay oladilar. Ipning kichik bo`lagidan uchinchi sinf o`quvchilari uning rangi, qatlar, sonini aniqlaydilar.

**Turli tolalardan tayyorlangan iplar mustahkamligini taqqoslashni** bilish muhim hisoblanadi. IV sinfga kelib o`quvchilarda iplar, ular tayyorlanuvchi tolali materiallar, ularning assortimenti va qo`llanish sohasi to`g`risida bilimlar to`planadi. Bolalar to`plagan bilimlarni umumlashtirishga texnologiya darslari da tolali materiallar,



iplar mustahkamligini o`rganish bo`yicha qator kuzatishlar va tajribalar yordam beradi.


O`qituvchi tolali materiallar, ularning kelib chiqishi, muhim xususiyatlari, tasnifi, ulardan turmush va texnikada foydalanish to`g`risida qisqa suhbat qilishi o`quvchilar ushun foydali bo`ladi. Shundan keyin o`quvchilarga tarqatma material sifatida bir bo`lak paxta, yamash ipi va bir bo`lak ip-gazlama tikuv ipi №10 tarqatiladi. O`qituvchi taklifiga ko`ra o`quvchilar bu materiallarni diqqat bilan ko`rib chiqadilar va ularning hammasi tolalardan iboratligini qayd etadilar. Paxtada tolalar tartibsiz chirmashgani, yamash ipida bir-biri bilan eshilgani, tikuv ipida ham tolalar eshilgani, biroq eshinish yamash ipidan ko`ra zichroq ekanligini bolalar birgalikda aniqlaydilar. Bolalar tikuv iplari sirti sal yaltirashi va ularda alohida tolalarning uchlari ko`rinmasligi, bu tolalar yelimlangandek ekanligini qayd etadilar.

O`quvchilar paxta bo`lagi va ip uchlaridan bir necha tolalarni tortib oladilar va diqqat bilan o`rganadilar, ko`rib chiqadilar, uzunligini aniqlaydilar, uzilishga chidamliligini sinaydilar, rangi, yaltirashi va boshqa xususiyatlarini taqqoslaydilar. O`quvchilar bir bo`lak paxtani olib, uning qarama-qarshi tomonlaridan turli tomonga tortib ko`radilar va tolalar osongina bir-biridan ajralishi, ularda bog`lanish ahamiyatsiz ekanligiga ishonch hosil qiladilar. O`quvchilar xuddi shunday paxta bo`lagidan uni turli tomonga cho`zib, kichik qo`lbola ip eshadilar va uni uzilishga harakat qiladilar. Buni qilish qiyinroq ekanligi va bir-biriga eshinish bilan bosilgan tolalar sirpanmasligi hamda birgalikda uzilishga to`squinlik qilishini anglaydilar. O`quvchilar yamash va tikish ipi bilan ham xuddi shunday uzilishga sinashni bajaradilar. Bu materiallarning uzilishga qarshiligi yana ham ko`proq ekanligiga ishonch hosil qiladilar..

Keyingi texnologiya darslarining birida ip-gazlama iplarning sifat xususiyatlarini o`rganishni davom ettirish va keyingi amaliy ishlarda ahamiyatga ega bo`lgan jiddiyroq umumlashtirishlar va xulosalar chiqarish foydali. O`qituvchi bolalarga bir xil qalinlikdagi fabrikada ishlab chiqarilgan tikuv ipi yamash ipidan mustahkamroqligi, keyingisi esa, o`z navbatida, paxtadan eshilgan qo`lbola ipdan mustahkamroq ekanligini tushuntirish maqsadida tajriba ko`rsatadi: Buning uchun kichik karton qutichani avval paxtadan qilingan

qo'lbola ipga osamiz. Qutichaga asta-sekin qum yoki kichik toshchalar solinsa, ip ko'tarolmay, uziladi. Yuk og'irligini o'zgartirmay, shu qutichaning o'zini boshqa ip – yamash ipi uchun ipga osamiz. Bu ip qo'lbola ipdan mustahkamroq bo'lib, yukni ko'taradi. Yamash ipi uzilmaguncha qutiga qum yoki toshchalar solaveramiz. Xuddi shu ishni tikish ipi bilan takrorlaymiz. U yana ham mustahkamroq ekanligi aniqlanadi.

Iplar «kuchi yetmagan» yuklar og'irligini solishtirib korish uchun tajriba o'tkaziladi: o'quvchilar qo'lbola ip, yamash uchun ip, tikish ipining teng uzunlik va bir xil qalinlikdagi bo'laklarini ketma-ket bog'laydilar. Keyin hosil bo'lgan ipning uchlaridan turli tomonga tortishadi. Uzilish qo'lbola ip joyida ro'y beradi: uning mustahkamligi eng kam. O'quvchilar qolgan ipni xuddi shu tarzda tortadilar. endi yamash ipi uziladi. Xulosa bitta: yamash ipining mustahkamligi tikish ipidan kamroq ekanligiga ishonch hosil boladi. (Bu tajribalar 4-rasmda ko'rsatilgan.)



4-rasm. Bir xil qalinlikdagi ip-gazlama iplarning uzilishga mustahkamligini taqqoslash uchun tajribalar

Oxirgi tajriba xulosalarining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini tekshirish uchun o'qituvchi ularga shunday savol berishi mumkin: oxigi tajribadagidek uch-to'rt bo'lak turli qalinlikdagi iplarni (masalan, №10, 30 va 50) bog'lab, turli tomonlarga tortilsa, avval eng yupqa ip – elliginchi, keyin o'ttizinchi va hokazo uziladi. Bu ushbu iplar mustahkamligi turlicha ekanligini

anglatadimi? (yo`q, albatta. Uzilishga mustahkamlikni tekshirish uchun bir xil raqamli iplarni tanlash kerak).

### **Turli tolalardan tayyorlangan gazlamalarni ko`rib chiqish.**

Ma`lumki, uchinchi sinf o`quvchilari uchun gazlamalarning ko`pchilik muhim xususiyatlarini aniqlash qiyinchilik tug`dirmaydi. Har bir namunani ko`rib, ushlab ko`rib, ular gazlama qalinligi va rangini uning pardozi xususiyatlarini, cho`ziluvchanligi, zichligi, mayda nuqsonlar borligi va hokazo aniqlaydilar. Olingan ma`lumotlar va namunalarning sifat xususiyatlarini taqqoslash o`quvchilarga o`rganilayotgan gazlama qanday toladan tayyorlanganini, taxminan bo`lsa ham, aniqlashga yordam beradi. Keyinroq bajariluvchi qo`shimcha o`rganishlar natijasida uchinchi sinf o`quvchilari bu masalani aniqroq hal etadilar.

To`rtinchi sinf o`quvchilariga tola turiga ko`ra gazlamalarning bo`linishini eslatish maqsadida o`tkazilgan qisqa suhbatdan keyin o`qituvchi o`quvchilarga sun`iy va sintetik tolalardan qilingan bir necha gazlama namunalarini tanlashni taklif qiladi. Bunda o`quvchilar sun`iy tolalar (viskoza) sellyulozadan, asosan yog`och sellyulozasidan, sintetik tolalar esa (kapron, lavsan, nitron va boshqalar) sun`iy smolalar eritmalaridan olinishini bilib oladilar. Sinf devoriy to`plamining ko`rsatilishi bu materialni qiziqarli yetkazib berish, o`quvchilarga sintetik tolalarning ajoyib xususiyatlari va olimlarning bunday tolalar hamda ular asosida gazlamalar yaratishdagi roli to`g`risida gapirib berishga yordam beradi.


O`quvchilar sun`iy va sintetik tolalardan gazlama namunalarini to`plab, ular bilan o`z gazlama va iplar to`plamlarini to`ldiradilar. Ular turli tolalardan – o`simlik, hayvonlardan olingan, sun`iy va sintetik tolalardan tayyorlangan gazlamalarni ko`rib chiqib, gazlamalarning tashqi ko`rinishi, ularning qalinligi, yuza silliqdigi, namlanishdagi holatini qayd etadilar. Ayni vaqtda bu tolalardan qilingan iplarni ham ko`rib chiqish foydali. Aniqlovchi sifatida gazlama va iplar to`plamidan foydalanib gazlama namunalarini aniqlash usullarini birgalikda belgilaydilar.

**Texnologiya darslarida turli gazlamalarda iplar o`ralishi ham o`rganishi nazarda tutilgan.** II sinfdan o`quvchilar tanda va arqoq iplarining eng oddiy polotno o`ralishli gazlamalar bilan tanishib,

bunday o`ralishning o`ziga xos maketini ular rangli qog`oz yo`llardan gilamcha «to`qiganda» tayyorlashgan.

III sinfda esa gazlamalarda iplarning oddiy o`ralishni o`rganish davom etadi: polotno o`ralishga sarja, keyin esa satin (atlas) o`ralishlar qo`shiladi. O`quvchilar bu o`ralishlardagi tanda va arqoq iplari joylashuvi sxemasini yaxshiroq o`zlashtirib olishi uchun ko`rgazma material sifatida rangli qog`oz yo`llardan gilamchalardan foydalanish yaxshi.

Sarja va satin o`ralishlarni bajarish usullarini ko`rsatish uchun kichik to`quvchilik romchasi – tanda iplari parallel tortilgan yog`och ramchadan foydalanish mumkin. Moki rolini katta igna bajaradi. Tanda va arqoq iplari, qalin va kontrast rangda tanlanadi (5-rasm).



5-rasm. Gazlamalarda arqoq va tanda iplar o`ralishi:

1 – sarja; 2 – satin

Gazlama bo`laklarini tanda va arqoq iplari bo`ylab aniq kesish hamda tanda va arqoq chekka iplarini katta igna yoki bigiz bilan ajratish maqsadga muvofiq. Gazlamalarda iplar o`ralishini ko`rib chiqishda uchinchi sinf o`quvchilarini lupalar bilan ta`minlash foydali.

**O`quvchilar gazlamalarda tanda va arqoq iplari xususiyatlarini o`rganishda**, avvalo, gazlamalar nimadan va qanday tayyorlanishini bilish, biron-bir narsa tayyorlash kerak bo`lgan gazlamaning asosiy xususiyatlari va sifatini, gazlamada bo`ylama va ko`ndalang yo`nalishlarni aniqlay olish muhim. Buyumlar va alohida detallarni konstruksiyalashtirish va tayyorlashda gazlamalardan to`g`ri foydalanishlari uchun o`quvchilar eng muhim, ko`p tarqalgan va ishlov berish oson gazlamalar bilan tanishishlari kerak.

Gazlamalar tayyorlashda tanda va arqoq o`ralishlari to`g`risidagi oldingi bilimlarini o`quvchilar eslashlari uchun ularga to`quvchilik romchasi va unda eng oddiy o`ralishlar bilan qo`lbola gazlamaning tayyorlanishi jarayonini ko`rsatish foydali.

Texnologiya darslarida kartondan oddiygina to`quvchilik romchasini tayyorlab, ochiq kontrast rangli qalin iplardan foydalanib polotno o`ralishli gazlamaning kichik bo`lagini to`qish maqsadga muvofiqdir.

Gazlama bilan keyingi ishlash uchun uchinchi sinf o`quvchilariga o`zlari ishlatadigan gazlamalarda bo`ylama va ko`ndalang yo`nalishlarni aniqlashni o`rganib olish zarur.

O`qituvchi ikkala milklari bo`lgan katta gazlama bo`lagini ko`rsatadi. Bu bo`lakda bo`ylama va ko`ndalang iplar qanday joylashishini ko`rsatib beradi: birinchilari – bo`lak bo`ylab, ya`ni gazlama milklariga parallel, ikkinchilari – ko`ndalang, ya`ni milkdan milkkacha o`tgan. Bu yo`nalishlarni gazlamaning kichik bo`lagida ham, u bo`ylama yo`nalishni ko`rsatib beruvchi milk bilan birga kesib olingan bo`lsa, aniqlash oson.

Milk bo`lmagan kichik gazlama bo`lagi bilan ishlashga to`g`ri kelsachi? Bu holda tanda va arqoq iplari yo`nalishini qanday aniqlash kerak? O`qituvchi o`quvchilardan stollari ustida yotgan gazlama bo`laklarini diqqat bilan qarab chiqishni so`raydi. Bularning qaysi birida milkli gazlama bo`laklari bo`lsa, ularga oddiy o`rganish taklif etiladi – gazlamani avval milkka parallel yo`nalishda, keyin esa – ko`ndalang yo`nalishda tortish. O`quvchilar tanda iplari yo`nalishida gazlama arqoq iplari yo`nalishidagiga qaraganda kamroq cho`zilishini qayd etadilar. Xulosa chiqariladi: gazlamani ikki asosiy – bo`ylama va ko`ndalang yo`nalishda cho`zilishi bo`yicha unda tanda va arqoq iplari qanday joylashganini aniqlash mumkin. Bu xulosadan foydalanib o`quvchilar o`z gazlama bo`laklarida tanda iplari joylashuvini aniqlab, ularning yo`nalishini qabul qilingan shartli belgi – uchlarida strelkali to`g`ri chiziq kesmasi bilan belgilaydilar.

O`qituvchi taklifi bo`yicha o`quvchilar igna yordamida o`z bo`laklari chetlaridan bo`ylama va ko`ndalang iplarni tortib chiqaradilar, ularning tashqi ko`rinishi va cho`zilishga qarshiligini taqqoslaydilar. Birgalikda xulosa chiqariladi: bo`ylama iplar (tanda iplari) ko`ndalang iplarga qaraganda deyarli cho`zilmaydi va ancha


mustahkamroq. Ular ko`proq eshilgan bo`lib, yuzasi arqoq ipidek unchalik paxmoq emas, ancha silliq bo`ladi.

**Gazlamaning o`ng va teskari tomonlarini aniqlash.** II va III sinf o`quvchilari texnologiya darslari dagi tikish ishlarini bajarishda turli sifat xususiyatlariga ega bo`lgan gazlamalar bilan ishlaydilar. Bu xususiyatlarni farqlashni ular asta-sekin, kerakli bilimlarni to`plab borib o`rganadilar. Masalan, o`quvchilar o`zlari ishlatadigan gazlamalarning o`ng va teskari tomonlarini aniqlash uchun zarur ma`lumotlarni darrov o`zlashtira olmaydilar. O`qituvchi boshida gazlamaning qaysi tomoni o`ng yuza ekanligini ko`rsatib beradi. Ba`zi hollarda buni aniqlash oson, masalan, bosma rasmi yoki patli (chit, flanel) gazlamalar bilan ishlashda.

III sinfga kelib o`quvchilarda texnologiya darslari va sinfdan tashqari ishlarda keng ishlatiluvchi gazlamalarning o`ng va teskari yuzalarini mustaqil aniqlashni o`rganish va tizimlashtirish uchun yetarlicha bilim va amaliy tajriba to`planadi. Bu maqsadda o`quvchilar gazlamalarning o`ng va teskari yuzalarini aniqlashning ratsional tartib va usullarini o`zlashtirishlari uchun avval ba`zi gazlama namunalari ko`rsatish foydali. Keyin esa gazlamaning o`ng va teskarisini aniqlash maqsadida namunalarni o`rganish bo`yicha ish amalga oshiriladi.

O`quvchilar o`qituvchi topshirig`i bilan va uning rahbarligi ostida tolalar turi, vazifasi va pardozi bo`yicha farq qiluvchi gazlama parchalarini tanlaydilar. Gazlamalarni o`rganish va ularning o`ng va teskari tomonini aniqlash bo`yicha keyingi birgalikdagi ish qulayligi uchun o`quvchilar hamma namunalarni bir tartibda joylashtiradilar: ip-gazlama (chit, bumazeya), zig`ir tolali (polotno), jun (movut, yaxshisi patli), ipak (tabiiy ipak) va sintetik gazlama.

Bu ish bajarilib, birgalikda tekshirilgach, o`qituvchi yangi topshiriq beradi: tanlab olingan namunalarda gazlamaning o`ng va teskari tomonini aniqlash va uni asoslab berish. Namunalarning o`ng va teskari tomonlari tashqi ko`rinishini taqqoslashning natijalarini birgalikda muhokama qilishdan so`ng o`quvchilar xulosalar chiqarishadi:



6-rasm. Gazlamaning o`ng va teskari yuzalarini aniqlash:

1 – rasimli gazlama (bosma); 2 – silliq gazlama (bir xil rangdagi)

1) gazlama o`ng yuzasi odatda ancha sof va silliq yuzaga ega, unda teskari yuzaga nisbatan tukchalar va tugunchalar kamroq;

2) rasimli gazlamalarda, masalan, chitda, o`ng yuzadagi rasm ancha ochiq va aniq bo`ladi (6.1-rasm);

3) yaltiroq yuzali gazlamalarda (atlas, satin) o`ng tomoni yaltiroq, teskari tomoni – xira bo`ladi;

4) to`quv rasmi (tanda va arqoq iplari o`ralishi rasmi) gazlamaning o`ng yuzasida osonroq farqlanadi (6.2-rasm);

5) patli gazlamalarda (bumazeya, baxmal) o`ng yuza patlari uzunroq;

6) gazlama milki o`ng yuzada sofroq, tekisroq bo`ladi.

Kuzatishlarini xulosalab o`quvchilar gazlamalar o`ng va teskari yuzalarini farqlay olish zarur bo`lgan hollarni eslab misollar keltiradilar.

**Gazlamalarning turmush va texnikada qanday ahamiyat kasb etishini o`rganish ahamiyatlidir.** IV sinfga kelib odatda o`quvchilarda gazlamalar, ularning turli turlari va navlari to`g`risida ko`pgina alohida tasavvurlar to`planadi. Dasturda ko`zda tutilgan «Turmush va texnikada gazlamalar» suhbatining o`tkazilishi bu alohida tasavvurlarni umumlashtirish, o`quvchilar bilimlarini tizimga solishga yordam beradi.

Bu suhbatga tayyorlanish jarayonida o`quvchilar material to`plash, rasmlar tanlash, to`plamlar tuzish bo`yicha ta`limiy jihatdan qiziqarli mustaqil ishni amalga oshirishlari mumkin. Suhbat

o`tkazilishidan bir hafta oldin o`quvchilarga uning mavzusini e`lon qilish, uning maqsadlarini tushuntirib, o`quvchilarga unga tayyorlanishni topshirish foydalidir.

O`qituvchi tomonidan suhbat jarayonida qo`yiluvchi asosiy masalalarni aytish va o`quvchilarga o`z savollarini tayyorlashni topshirish maqsadga muvofiq bo`ladi. Maktab yoki shahar bolalar kutubxonasidan gazlamalar, ularning ishlab chiqarilishi, turmush va texnikada foydalanishi to`g`risida hikoya qilinuvchi kitoblarni olishni maslahat berish mumkin.

Masalan, uchinchi sinf o`quvchilariga suhbat uchun materiallarni to`plashning yana bir yo`lini tavsiya qilish mumkin – uyda kattalar bilan suhbatlashish, ular yordamida gazlamalardan foydalanishning qiziqarli hollarini yaqqol ko`rsatuvchi materiallar va gazlama namunalarni tayyorlash. O`quvchilardan birontasi sinfga fazogirlar suratini olib kelib, insonning fazoga uchishi uchun skafandrlar gazlamadan tayyorlanishini gapirib berishi mumkin. Boshqasi parashyutchi suratini ko`rsatib, parashyut ipak gazlamadan tikilishini aytadi.

Uchinchi o`quvchi esa o`rtoqlariga bir parcha sun`iy charm yoki mo`ynani ko`rsatib, bu matolar asosini gazlama tashkil etishini isbotlab beradi. Ota-onasi bayroqlar suratini ko`rsatib, ular ham gazlamadan tayyorlanishini gapirib berishni maslahat bergan bola ham topiladi.

Tekstolit (plastmassa) – asosi maxsus smola bilan shimdirilib, ko`p qatlamdan tuzilgan va yuqori haroratda presslangan gazlamadan iborat plastik massadan kichik detal – shesterenkaning ko`rsatilishi o`quvchilarda katta qiziqish uyg`otadi.

### **Gazlamalardan turmushda foydalanish:**

1. Kiyim (uy, ish, chiqish, yozgi, qishki, mavsumaro, o`quvchilar formasi va hokazo);
2. Ichki kiyim (ayollar, erkaklar, bolalar ichki kiyimi);
3. Yostiq anjomlari;
4. Sochiqlar;
5. Oshxona anjomlari (dasturxon, sochiqlar);
6. Bosh kiyimlar;
7. Poyabzal;



8. Yumshoq va yarimyumshoq mebellarni qoplash;
9. Uy anjomlari (pardalar);
10. O`yinchoqlar (yumshoq o`yinchoqlar, qo`g`irchoq kiyimlari);
11. Xo`jalik anjomlari (sumkalar, xaltalar, chang artish, pol yuvish uchun lattalar va hokazo).

### **Gazlamalardan texnika va ishlab chiqarishda foydalanish:**

1. Maxsus ishlab chiqarish kiyimi;
2. O`rash materiallari (doka, kolenkor, lederin);
3. Parashyutlar;
4. Fazogirlar skafandrlari;
5. Changyutgich filtrlari;
6. Metro, avtobus, samolyot o`tirg`ichlari qoplami (sun`iy charm asosi – gazlama);
7. Kinoteatr ekranlari;
8. Sayyohlar palatkasi va yotoq xaltalar;
9. Plastmassa – tekstolit.

**Gazlamadan detallarni yopishtirish.** Gazlamadan tayyorlangan buyum detallari odatda ip bilan tikiladi. Keyingi yillarda tikuvchilik ishlab chiqarishida detallarni yopishtirishdan ko`proq foydalanib, buning uchun maxsus yelim va moslamalardan foydalaniladi. Karton va muqovalar ishlab chiqarishida ham gazlamani qog`oz va karton bilan yyelimlanishini kuzatish mumkin. Bunda maxsus muqovalash gazlamalari – kolenkor, lederin, granitoldan keng foydalaniladi. Bu matolar oddiy ip-gazlama matolardan, tanda va arqoq iplari orasidagi hamma g`ovak va oraliqlarni to`ldiruvchi maxsus tarkiblar bilan shimdirilgani bilan farq qiladi. Shuning uchun bu gazlamalarning teskari tomoniga yelim tarkibi surtilganda, yelim o`ng yuzaga o`tmaydi va uning ko`rinishini buzmaydi. Yelim tarkiblar bilan ishlov berilgan gazlamalar deyarli cho`zilmaydi, namlanishda shakli buzilmaydi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari texnologiya fani darslarida gazlamalarni yelimlash hamda gazlamadan detallarni qog`oz va kartonga yopishtirish xususiyatlari to`g`risida dastlabki tushunchalarga ega bo`ladilar. Ba`zi o`quv buyumlarni tayyorlashda o`quvchilar gazlamadan detallarni qog`oz va kartonga yopishtiradilar, masalan, gazlama to`plamlarini tuzish va joylashtirish, gazlamadan

applikatsiyalarni o`rnatish, kitob muqovalarini tayyorlash, qo`g`irchoq teatri personajlarini tayyorlash va hokazolarda.

Bu amaliy masalalarni o`quvchilar ongli hal etishlari, ularga kerakli ahamiyat berishlari uchun ular gazlamadan detallarni boshqa materiallarga yelimlash jarayonida nima ro`y berishini aniq tasavvur etishlari kerak.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Gazlamaning xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
2. Gazlamaga ishlov berish metodikasi mohiyatini izohlang.
3. Gazlamani o`lchash va qirqish qoidalarini tushuntiring.
4. Gazlamaning sanoatda ishlab chiqarilishi haqida ma'lumot bering.
5. Ish fartugidan andoza olishni tushuntiring.

## ГЛОССАРИЙ

<b>№</b>	<b>О'ЗБЕКЧА</b>	<b>РУСЧА</b>	<b>ИНГЛИЗЧА</b>
<b>1.</b>	<b>Mehnat</b>	<b>Труд</b>	<b>Handicraft</b>
	Biror maqsad uchun qaratilgan aqliy yoki jismoniy faoliyat, ish	Целеобразная деятельность человека, направленная на видоизменение и приспособление предметов природы для удовлетворение своих потребностей.	Adjusted to some aim mental and physical activity ,work.
<b>2</b>	<b>Jarayon</b>	<b>Процесс</b>	<b>Process</b>
	Oqimning borishi, sodir bo'lishi, ish-harakat, voqea-hodisaning birin-ketin borishi, rivoji.	Последовательная смена явлений, состояний в развитии чего-нибудь.	Going the stream, happen starting the action and accident one by one.
<b>3</b>	<b>Ip</b>	<b>Нить</b>	<b>Thread</b>
	Paxta, xom ipak, zig'ir, jun va shakar, tolasidan ingichka qilib yigirilgan yoki yigirilmagan tikuv, to'quv materiali.	Гипкое и прочное тело с малыми поперечными размерами, значительной длины для изготовления текстильных изделий. Вырабатывается из хлопчато-бумажной, шерстяной льняной пряжи, шелка-сырца, химических волокон.	Thin spinning and unspinning sewing and weaving material made of cotton raw silk, flax, wool and sugar thread.
<b>4</b>	<b>Murakkab</b>	<b>Сложно</b>	<b>Difficult</b>
	Yechilishi, tushunilishi, bajarilishi qiyin, og'ir, mushkul ish.	Труднорешаемая, трудновыполнимая работа.	Unbind, nonunderstarding, heavily doing difficult

			work.
<b>5</b>	<b>Muqova</b>	<b>Переплет</b>	<b>Book cover</b>
	Kitob, jurnal, daftar shaklini yaxlit qilib biriktirib turuvchi, ichki varaqlarga nisbatan qalinroq materialdan yasaluvchi sirt qismi.	Крышка из картон, кожи, ткани, полимеров, в которую заключается книжный блок.	Combination the whole book, magazine note-book forms, surface which made from thick material than inside.
	<b>Ishchanlik</b>	<b>Работоспособность</b>	<b>Efficiency</b>
	Ishchan xususiyat, ishchan holat, mehnatsevarlik.	Энергичность, трудолюбивость, качество работоспособности.	Diligent peculiarity deligent condition industrious.
<b>7</b>	<b>Model</b>	<b>Модель</b>	<b>Model</b>
	Biror narsaning xuddi o'zidek yoki kichraytirib, kattalashtirib olingan, ko'plab ishlab chiqarish uchun andoza bo'ladigan nusxasi.	Аналог чего-либо, который имеет уменьшенную или укрупненную форму самого оригинала.	A model which can be measure of small and big something for developing.
<b>8</b>	<b>Iqtisodchi</b>	<b>Рачительный</b>	<b>Economist</b>
	Tejab-tergab sarf etuvchi, sarf-xarajatni tejab-tergab bajaruvchi, tejamkor.	Экономно использующий человек.	Economical person who economes everything savely.
<b>9</b>	<b>Malaka</b>	<b>Навык</b>	<b>Skill</b>
	Bu faoliyatning mashq qilishlar jarayonida yetilgan, mujassamlashgan tajribadir.	Автоматизированная деятельность, сформированная в процессе упражнений.	It is an exercisely activity which embodied from process of experience.
<b>10</b>	<b>Applikatsiya</b>	<b>Аппликация</b>	<b>Application</b>

	Tasvirlash texnikasining turli formalarini qirqish va ularni fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir.	Создание художественный изображений наклеиванием, нашиванием на ткани и бумагу разноцветных кусочков какого-либо материала, изображение, узор, созданные таким образом.	Cut different kinds of discribely technics and to receive them as science, strenghtening their base.
<b>11</b>	<b>Jismoniy mehnat</b>	<b>Физический труд</b>	<b>Physical labour</b>
	Insonning tana a'zolari orqali aqliy tafakkur bilan bajariladigan jismoniy harakatlar majmui.	Комплекс движений с помощью органов тела посредством умственного мышления.	Actions which fulfillid by persons body members and by thought.
<b>12</b>	<b>Bilim</b>	<b>Знания</b>	<b>Knowledge</b>
	O'quvchi va talabalarning tabiat, jamiyat, fan-texnika yutuqlari haqida xosil qilgan ma'lumotlari. O'quvchi yoki talabalarga taqdim etiladigan nazariy ma'lumotlar.	Владение учениками и студентами информации о природе, достижений общества, науки и техники. Теоретические знания передаваемые ученикам.	Possession of pupils and students about the nature and the achievements of the society, science and technology. Theoretical knowledge that's transferred to students.
<b>13</b>	<b>Boshlang'ich ta'lim</b>	<b>Начальное образование</b>	<b>Primary education</b>
	Umumiy o'rta ta'limning dastlabki	Первый этап общего среднего	The first stage of secondary

	bosqichi. O'zR da boshlang'ich ta'lim 1-4 sinflarda bolalarga ilk ta'lim berish, ularni ma'naviy kamol toptirishning boshlang'ich davri hisoblanadi.	образования. В Республике Узбекистан начальным образованием считается период начального обучения и приобретения духовной зрелости детей в 1-4 классах.	education. In the Republic of Uzbekistan in primary education is considered an initial period of learning and spiritual maturity of children in 1-4 classes.
<b>14</b>	<b>Dars</b>	<b>Урок</b>	<b>The lesson</b>
	O'z oldiga qo'ygan aniq maqsadi va tugal mazmunidan iborat jarayon.	Учебный час или иной промежуток времени, установленный для проведения учебного занятия.	A unit, or single period of instruction in a subject.
<b>15</b>	<b>Darslik</b>	<b>Учебник</b>	<b>Textbook</b>
	Har bir o'quv predmetining mazmunini darslikda ko'rsatilgan hajmda didaktik talablar asosida kitob yoziladi.	Книга, предназначенная для изучения какого-либо учебного предмета.	The book is intended for the study of any academic subject.
<b>16</b>	<b>Ijodiy yondashuv</b>	<b>Творческий подход</b>	<b>Creativity</b>
	Bu pedagogikada zamonaviy yo'nalish bo'lib, u ta'lim oluvchilarning muammolarini hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat bo'lib, mustaqil ravishda qaralayotgan	Современный подход в педагогике, деятельность направленная на развитие способностей для решения проблем обучающихся.	The modern approach to teaching, the activities aimed at developing skills for solving problems of students.

	faoliyatning yangi yo'nalishlarini topishga undash jarayonidir.		
<b>17.</b>	<b>Ko'nikma</b>	<b>Навык</b>	<b>Habit</b>
	Insonning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati.	Способность осуществления конкретной деятельности или действия, основанная на приобретённом опыте.	The ability to perform specific activities or actions based on lessons learned.
<b>18.</b>	<b>Metod</b>	<b>Метод</b>	<b>Method</b>
	(Yunoncha – metodos – bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) – voqeylikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.	От греч. methods-способ исследования, теория, учение – Приём или система приёмов, совокупность определённых операций над материалом, нацелённых на решение определённой, ясно очерченной задачи.	From the Greek, methods-way research, theory, doctrine – Accept or system of techniques, the collection of certain operations on the material, aimed at solving a specific, clearly defined objectives.
<b>19.</b>	<b>Savol</b>	<b>Вопрос</b>	<b>Question</b>
	Yechilishi lozim bo'lgan masala.	Задача, требующая практического решения	Task that requires practical solutions
<b>20.</b>	<b>Tasavvur</b>	<b>Представление</b>	<b>Representation</b>
	Bo'lgan va bo'lmagan voqea va hodisalarni inson ko'zi ochiq va yopiq holda ham o'z tasavvurida	Конкретный образ предмета или явления, который в данный момент непосредственно не воспринимается, а	The concrete image of an object or phenomenon, which is currently not directly perceived, but

	bo'ladigan jarayon hisoblanadi.	лишь воспроизводится в сознании.	only played in the mind.
<b>21.</b>	<b>Tafakkur</b>	<b>Мышление</b>	<b>Thinking</b>
	Insoniyatning necha ming yillik tarixiy rivojlanishi davrida ijodkorlik jarayoni bilan bog'liq holda hosil qilinib borilgan va erishilgan oliy va aqliy ne'matdir.	Способность человека мыслить, рассуждать, делать умозаключения; высшая ступень человеческого познания, процесса отражения объективной действительности.	A person's ability to think, reason, make inferences, the highest stage of human cognition, the process of reflection of objective reality.
<b>22.</b>	<b>Ta'lim</b>	<b>Обучение</b>	<b>Education</b>
	Shaxsning jismoniy va ma'naviy kamol topish jarayoni, uning ongli ravishda ayrim ibratli faoliyatlarga yo'nalishi va tarixan maydonga kelib, ijtimoiy namuna bo'lishga har tomonlama barkamolikka intilish jarayoni tushuniladi.	Процесс получения физической и духовной зрелости, стремление ко всесторонней гармоничности.	The process of obtaining the physical and spiritual maturity, commitment to a comprehensive harmoniously.
<b>23</b>	<b>Tushuncha</b>	<b>Понятие</b>	<b>Conception</b>
	Bu narsa va hodisalarning umumiy (xususiy) muhim belgi va xususiyatlarni ifodalovchi fikr (ba'zan fikrlar) – tafakkur shakli.	Совокупность взглядов на что-либо. Уровень понимания чего-либо.	The set of views on anything. The level of understanding of anything.
<b>24.</b>	<b>Faoliyat</b>	<b>Деятельность</b>	<b>Activity</b>



	Biror narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xohishi (jarayon).	Занятие какой-либо работой для определения чего-либо	The occupation of any work to determine anything.
<b>25.</b>	<b>Shakllantirish</b>	<b>Формировать</b>	<b>To form</b>
	Nasliy omillar, muhit, maqsadga qaratilgan ta'lim-tarbiya va shaxsiy faollik ta'sirida insondagi bilim, ko`nikma, malaka va fazilatlarni tarkib toptirish jarayoni.	Создавать, комплектовать знания, навыки, опыт и достоинство, придавать законченность, определённую.	Build, equip the knowledge, skills, experience and dignity, to give finality, certainty.

## FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR

1. Sanoqulov X.R, Xodiyeva D.P. Satbaeva “Mehnat va uni o’qitish metodikasi” Darslik .T.;TDPU.2015-yil.
2. Mavlonova R.A, Sanoqulov X.R, Xodiyeva D.P “Mehnat va uni o’qitish metodikasi” O’quv qo’llanma. 2007yil TDPU.
3. Sanaqulov X., Xaydarov M “Boshlang’ich sinflarda qog’ozdan amaliy ishlar” o’quv-metodik qo’llanma .T.;Navruz.2013-yil.
4. I.Mannopova, R.Mavlonova, N.Ibragimova TEXNOLOGIYA umumiy o’rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik .Toshkent-2017
5. I.Mannopova, R.Mavlonova, N.Ibragimova TEXNOLOGIYA umumiy o’rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik .Toshkent-2017
6. Matlab Tilavova ”Mehnat va uni o’qitish metodikasi”.Toshkent ”Turon Zamin Ziyos” 2017.
7. The Exquisite Book of Paper Flowers: A Guide to Making Unbelievably Realistic Paper USA, 2014 Blooms. USA, 2014.Paperback New York, Boston.
8. Matlab Tilavova “Texnologiya va uni o’qitish metodikasi”. Toshkent “Muharrir nashriyoti”. 2019
9. “Buyuk va muqaddassan, mustaqil Batan”. Ilmiy-ommabop risola. “O’qituvchi” nashriyot-matbaa uyi. Toshkent-2011 y/
10. Ta’lim to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasining qonuni (Barkamol avlod- O’zbekiston taraqqiyotining poydevori 1997-yil Toshkent “Sharq” nashriyoti)
11. Kadrlar tayyorlash bo’yicha milliy dastur (Barkamol avlod- O’zbekiston taraqqiyotining poydevori, 1997-yil Toshkent “Sharq” nashriyoti).
12. I.A. Karimov. .O’zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. O’zbekiston 1998-yil
13. I.A. Karimov. O’zbekiston XVI asrga intilmoqda Toshkent O’zbekiston 1999-yil.
14. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 21-mayda “2004-2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummiy dasturi to’g’risida”gi Farmoni Ma’rifat 2004-yil 22may.

15. Umumiy o'рта ta'limning davlat talim standarti va o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim (Ta'lim taraqqiyoti N7 maxsus son 1999-yil)

16. Boshlang'ich ta'lim fanlari bo'yicha standart tekshiruv ishlari to'plami "Marifat-madatkor" Toshkent-2002-yil). R. Safarova, U. Musayeva, P. Musayev, F. Yunusova.

17. O'zbekiston Respublikasida umum o'рта ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi moddalari ularni tadbiiq etish yo'llari. (Fan nashriyoti Toshkent-2005-yil)

18. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. "Mehnat ta'limi" 2-sinf darsligi. T., "Nafis bezak" 2012-yil.

19. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. "Mehnat ta'limi" 3-sinf darsligi. T., "Nafis bezak". 2012-yil.

20. Applikatsionniye raboti v nachalnix klassax Moskva "Prosveshiniy" 1990-yil

21. V.G. Nechayova "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni mehnatda tarbiyalash Toshkent "O'qituvchi" 1985-yil

22. E.K. Tulamov. Bolalarga ustachilikni o'rgating. Toshkent (O'qituvchi 1990-yil).

23. E.G'o'ziyev "Psixologiya" Toshkent. O'qituvchi 1994-yil.

24. I.A. Vorobey, "Pedagigichiskiye osnoviy trudovogo vaspitaniy shkolnikov. "O'qituvchi" Toshkent-1978. I.K. Sheplikina, V.I. Romanina.

25. I. Perevertin Samodelki iz bumagi. Moskva 1983.

26. Kaykovus "Qobusnoma" "O'qituvchi" nashriyoti Toshkent-2006-yil

27. Karim Maxmudov "Liqqmonnoma" Toshkent "Yosh gvardiya" nashriyoti 1989-yil.

28. K.K. Sultonova "Badiy mehnat" Toshkent "O'qituvchi" 1993-yil.

29. L.P Maltsevo "Tikuvchilik material shunosligi" Toshkent "O'qituvchi" 1986-yil.

30. Ma'rifat-Madadkor Boshlang'ich ta'lim bo'yicha standart tekshiruv ishlari to'plami. T., 2002

31. Ma'naviyat yulduzlari. A. Qodiriy nomli xalq me'rosi nashriyoti. T., 2001

32. Mehnat 2-sinf. R. Mavlonova Toshkent. "O'qituvchi" 1992-yil.

33. N.M. Shumulleyevich. “Qog’oz va kartondan figuralar yasash” Toshkent “O’qituvchi” 1989-yil.
34. N.M. Shumulleyevich “Qog’ozdan modellar yasash” Toshkent “O’qituvchi” 1989-yil.
35. N.B. Xolezova, N.A. Kurochkina. Bolalar bog’chasida loy va plastilindan o’yinchoqlar yasash “O’qituvchi” 1991-yil.
36. R.A. Mamurova, O.M. To’rayeva, K.M. Xoliq Berdiyev “Pedagogika” Toshkent “O’qituvchi” 1998-yil.
37. R.A. Mamurova, O. Goroxova, R. Ogluzdina “mehnat ta’limi metodikasi”.
38. Manaviyat yulduzlari. “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq metodikasi nashriyoti” Toshkent 2001-yil.
39. R. Hasanov. tasviriy sanat va badiiy mehnat 1-sinf Toshkent “O’qituvchi” 2003-yil.
40. R. Mavlonova G. Maxmudova “Mehnat” 3-sinf o’qituvchi Toshkent 1995-yil.
41. R. Mavlonova “Mehnat” 4-sinf Toshkent “O’qituvchi” 1993-yil.
42. S. Musayeva boshlang’ich sinf o’quvchilarni tejamkorlikka o’rgatish Toshkent “O’qituvchi” 1992-yil.
43. Tolipov O’K., M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari - T., 2006
44. Tilavova M.M. Boshlang’ich sinf mehnat darslarini tashkil etish texnologiyasi. T., 2008.
45. Tilavova M.M. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida gender tenglik va farqlar asosida umummehnat ko’nikmalarini shakllantirish yo’llari. T., 2007
46. Pedagogika. Minsk 2005.
47. H. Egamov “O’zingiz ko’ring va yasang” Toshkent o’qituvchi 1998-yil.

## MUNDARIJA

<b>Kirish .....</b>	<b>3</b>
<b>1-modul. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasining umumiy masalalari.....</b>	<b>5</b>
1-Mavzu. Texnologiya ta’limi va tarbiyasining maqsad va vazifalari. ....	5
2-Mavzu. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanining nazariy va amaliy asoslari .....	13
3-mavzu: Boshlang‘ich sinflarda texnologiya ta’limining mazmuni .....	22
4-mavzu. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslariga kompetensiyon yondashuv .....	37
5-mavzu. Texnologiya ta’limining shakl va metodlari .....	44
6-mavzu. Texnologiya fani darslariga integratsion yondashuv .....	52
7-mavzu. O‘quvchilarning mehnat tarbiyasida mehnat an’analarining o‘rni .....	57
8-mavzu. Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasi .....	65
9-Mavzu: Boshlang‘ich ta’limda mehnat tarbiyasi va kasb-hunar turlari.....	76
10-mavzu. Mehnat tarbiyasida xalq og‘zaki ijodining o‘rni.....	91
11-mavzu. Texnologiya darslarida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish texnologiyalari .....	98
12-mavzu. Texnologiya darslarida xorijiy ta’lim tizimidan foydalanish.....	110
13-mavzu. Texnologiya darslarida qo‘l mehnatidan foydalanish talablari .....	118
14-mavzu. Boshlang‘ich sinflarda texnologiya ta’limidan amaliy ishlar .....	125
15-mavzu. Texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish.....	138
16-mavzu. Texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....	149
17-mavzu. Interfaol usullardan texnologiya darslarida foydalanish usullari. ....	158
18-mavzu. Texnologiya fani va tarbiyasining uzviyligi .....	170

<b>2-modul. Texnologiya darslarini tashkil etish metodikasi.....</b>	<b>176</b>
19-mavzu. Applikatsiya va mozaika bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi .....	176
20-mavzu. Qog‘oz va karton bilan ishlash darslarining mazmunini tashkil etish metodikasi .....	187
21-mavzu. Turli xil materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.....	221
22-mavzu. Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.....	240
23-mavzu. Plastilin va loy bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.....	267
24-mavzu. Gazlama bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.....	275
<b>Глоссарий .....</b>	<b>299</b>
<b>Foydalanish uchun adabiyotlar .....</b>	<b>306</b>



# **MATLAB TILAVOVA**

## **TEXNOLOGIYA VA UNI O`QITISH METODIKASI**

*Muharrir:* A. Qalandarov  
*Texnik muharrir:* G. Samiyeva  
*Musahhah:* Sh. Qahhorov  
*Sahifalovchi:* M. Ortiqova

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 26.05.2021. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog`ozi. Bosma tobog`i 19,5. Adadi 100. Buyurtma №142.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ  
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.  
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45